Olmaliq, O'zbekiston
E-mail: baxtishod@mail.ru
ORCID ID 0009-0000-6905-0960



**Saidov Xabib
Lutfullayevich**

“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ,
Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: x.saidov@uzgeo.uz
ORCID ID: 0009-0005-5931-6979



**Turapov Mirali
Kamalovich**

“Mineral resurslar instituti” DM,
g.m.f.d., professor, Toshkent,
O‘zbekiston
ORCID ID: 0000-0002-9216-3637

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qulcho‘loq konida polimetall (qo‘rg‘oshin–rux) ma‘danlashuvining karbonat formatsiyalarida joylashish qonuniyatlari hamda prognoz resurslarini baholash tamoyillari yoritiladi. Ma‘danlanish yuqori famen davri karbonat yotqiziqlarida va qisman quyi karbon davri ohaktoshlarida kuzatiladi. Ma‘dan tanalari asosan brekchiyalangan, kvarslashgan va skarnlashgan dolomitlarda to‘plangan bo‘lib, ularning shakllanishi zaif zonalar bo‘ylab gidrotermal eritmalarning aylanishi bilan bog‘liq. Organik moddalar bilan boyitilgan dolomitlar metall eritmalardan qo‘rg‘oshin va rux sulfidlarini cho‘ktiruvchi muhim omil sifatida qaraladi. Shuningdek, sulfatli jinslarning mavjudligi ma‘dan komponentlarining singenetik konsentratsiyasi uchun qulay sharoitlarni ko‘rsatadi. Olingan natijalar konning istiqbol bloklarini ajratish va prognoz resurslarini aniqlashda ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Qulcho‘loq koni, polimetall ma‘danlashuv, qo‘rg‘oshin, rux, karbonat formatsiyalari, dolomit, sulfatli jinslar, prognoz resurslari.

ЗАКОНОМЕРНОСТИ РАЗМЕЩЕНИЯ ПОЛИМЕТАЛЛИЧЕСКОЙ МИНЕРАЛИЗАЦИИ И ОЦЕНКА ПРОГНОЗНЫХ РЕСУРСОВ МЕСТОРОЖДЕНИЯ КУЛЬЧУЛОК

**Мустафаев Бахтишод
Нурали угли**

Алмалыкский государственный
технический институт,
Алмалык, Узбекистан

**Саидов Хабиб
Лутфуллаевич**

АО «Узбекская геологическая
разведка», Ташкент, Узбекистан

**Турапов Мирали
Камалович**

ГУ «Институт минеральных
ресурсов», Ташкент, Узбекистан.

Аннотация. В статье рассмотрены закономерности размещения полиметаллической (свинцово-цинковой) минерализации в карбонатных формациях месторождения Кульчулок и принципы оценки его прогнозных ресурсов. Минерализация приурочена к карбонатным отложениям верхнего фаменского и частично нижнего каменноугольного возраста. Рудные тела сосредоточены в брекчированных, частично окварцованных и скарнованных доломитах, их формирование связано с циркуляцией гидротермальных растворов по зонам разуплотнения. Доломиты, обогащенные органическим веществом, играли важную роль как осадители сульфидов свинца и цинка. Наличие сульфатных пород свидетельствует о благоприятных условиях для сингенетического накопления рудных компонентов. Полученные данные служат научной основой для выделения перспективных блоков и оценки прогнозных ресурсов месторож-

дения.

Ключевые слова: Месторождение Кульчулок, полиметаллическая минерализация, свинец, цинк, карбонатные формации, доломит, сульфатные породы, прогнозные ресурсы.

LAWS OF LOCATION AND FORECAST RESOURCES OF POLYMETAL ORNALIZATION AT THE KULCHULAK DEPOSIT

Mustafaev Bakhtishod
Nurali ugli

Almalyk State Technical Institute,
Almalyk, Uzbekistan

Saidov Xabib
Lutfullayevich

JSC "Uzbek Geological
Exploration", Tashkent, Uzbekistan

Turapov Mirali
Kamalovich

State Institution "Institute of
Mineral Resources", Tashkent,
Uzbekistan.

Abstract. This article highlights the regularities of the distribution of polymetallic (lead-zinc) mineralization in the carbonate formations of the Kulchulak deposit, as well as the principles of assessing forecast resources. Mineralization is observed in Upper Famenic carbonate deposits and partially in Lower Carboniferous limestones. Ore bodies are mainly concentrated in brecciated, silicified, and skarn dolomites, the formation of which is associated with the circulation of hydrothermal solutions along weak zones. Dolomites enriched with organic substances are considered an important precipitating factor of lead and zinc sulfides from metal solutions. Also, the presence of sulfate rocks indicates favorable conditions for the syngenetic concentration of ore components. The obtained results serve as a scientific basis for identifying prospective blocks of the deposit and determining forecast resources.

Keywords: Kulchulak deposit, polymetallic mineralization, lead, zinc, carbonate formations, dolomite, sulfate rocks, forecast resources.

Kirish. Olmaliq ma'danli hududida joylashgan Qulcho'loq koni respublikaning qo'rg'oshin–rux ma'danlari bazasini boyitishda muhim o'rin tutadi. Mamlakat sanoati, ayniqsa rangli metallurgiya va mashinasozlik tarmoqlarining barqaror rivojlanishi foydali qazilmalar zahiralari muntazam ravishda aniqlab borishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, polimetall ma'danlanish jarayonlarining geologik qonuniyatlarini chuqur o'rganish, ularning hosil bo'lish mexanizmlarini aniqlash va prognoz resurslarini ilmiy asosda baholash bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Qulcho'loq konida olib borilgan geologik-qidiruv ishlari karbonat formatsiyalarining keng tarqalganini va ular polimetall ma'danlashuvi uchun qulay sharoit yaratishini ko'rsatdi. Ayniqsa yuqori famen davriga oid karbonat yotqiziqklarining litologik-fatsial xususiyatlarini tahlil qilish ma'dan komponentlarining to'planish sharoitlarini tushunishga imkon beradi. Shu bois mazkur maqola konning geologik tuzilishi, ma'danlanishning joylashish qonuniyatlari va istiqbol resurslarini baholash tamoyillarini yoritishga qaratilgan bo'lib, kelgusida izlanishlarni chuqurlashtirish va amaliy

qidiruv ishlarini rejalashtirish uchun ilmiy asos yaratadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Qulcho'loq koni Markaziy tektonik blok hududida joylashgan bo'lib, undagi polimetall ma'danlanishning shakllanishida litologik, fatsial va tuzilmaviy omillar yetakchi ahamiyatga ega. Stratifikatsiyalangan konlarning tarqalishi ko'pincha qatlamlararo uzilishlar bilan bog'liq bo'lib, ular antiklinal burmalarning cho'qqi qismlarida, yupqa qatlamli egiluvchan karbonat-pelitli jinslar va massiv dolomitlar o'rtasida, shuningdek dolomitlar bilan subvulkanik hosilalar tutashgan chegaralarda rivojlanadi. Ushbu zonlarda dolomitlarning intensiv darzlanishi va brekchialanishi kuzatiladi, bu esa singenetik va epigenetik jarayonlarning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi.

Mintaqaning tektonik rivojlanishi uch muhim bosqichni boshidan kechirgan. Birinchi bosqich devon-karbon davrida (385–320 million yil avval) karbonat platformasi shakllanishi va vulkanik faollik bilan bog'liq. Ikkinchi bosqich Gersin orogenezi (320–280 million yil avval) paytida asosiy burmalar va uzilmali tizim vujudga kelgan. Uchinchi bosqich mezozoy–kaynozoy davrida (250

million yil avvaldan hozirgi kungacha) blok ko'tarilishlari va eroziya jarayonlari sodir bo'lgan.

Konning geologik kesimida bir qator litologik qatorlar kuzatiladi. Yuqori devon (famen davri)da massiv kristall dolomitlar shakllangan bo'lib, ularning qalinligi 150–250 metr orasida o'zgaradi va aynan ushbu qatlam asosiy ma'dan saqlovchi vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, organik moddaga boy qoramtir dolomitlar (30–80 m) hamda yupqa qatlamli ohaktosh–dolomit almashinishlari (40–120 m) aniqlangan. Quyi karbon davrida organogen-detrital ohaktoshlar (80–150 m) va marjonli rif qoldiqlari bilan ohaktoshlar (50–100 m) yotqizilgan. Vulkanogen formatsiyalar tarkibida andezit tarkibli lava oqimlari va piroklastik jinslar, subvulkanik tanalar, shuningdek diorit va siyenit-diorit intruziv massalari keng tarqalgan.

Burgundi yorig'i shimoliy-sharqiy yo'nalishli (azimut 45–50°) asosiy ma'dan nazorat qiluvchi struktura hisoblanadi. Uning uzunligi 8 km dan ortiq bo'lib, vertikal amplitudasi 200–350 m ni tashkil etadi. Yoriq zonasining kengligi 15–50 m oralig'ida bo'lib, darzlanish va brekchiyalanish intensiv rivojlangan. Antiklinal burmalar sharqiy–g'arbiy yo'nalishda cho'zilgan asimmetrik tuzilishlarga ega bo'lib, ularning uzunligi 2–4 km ni tashkil etadi. Burma cho'qqilarida cho'zilish darzlari va yemirilish zonalarida keng rivojlangan.


Ma'dan tanalarining mineralogik tarkibi asosan galenit (PbS), sfalerit, pirit va xalkopiritdan iborat. Qo'shimcha ma'dan minerallari sifatida arsenopirit, tetraedrit va kumush minerallari oz miqdorda uchraydi. Yondosh minerallar orasida kvars, karbonatlar, skarn minerallari, seritsit va xlorit keng tarqalgan.

Ma'danlashuv, asosan, yuqori devon davriga oid dolomitlarda hamda ularning andezit tarkibli subvulkanik tanalar, diorit sillari va siyenit-diorit intruziv massalari bilan kontakt zonalarida to'plangan. Polimetall ma'dan tanalari qatlamli va kontaktli shakllarda uchrab, ko'pincha skarnlanish va metasomatik o'zgarishlar bilan bog'liq. Ma'danli qatlamlar Burgundi yorig'ining osma yonbag'rida joylashgan Burgundi, Markaziy, Kenjasoy va Qatrangi uchastkalarida aniqlangan bo'lib, ularning barchasida qo'rg'oshin va ruxning sanoat miqdoriga yetuvchi konsentratsiyalari qayd etilgan.

Maydonning janubi-g'arbiy qismida joylashgan Qatrangi uchastkasida karbonat

massivining ochilgan qismlarida skarnlanish, serpentinlanish, xloritlanish, kvarslanish va polimetall ma'danlashuv jarayonlari keng rivojlangan. Polimetall ma'danlashuvi karbonat jinslarning yuqori paleozoy davriga mansub vulkanogen effuziv hosilalar bilan tutashgan zonalarida, skarn va shoxlanish zonalarida bo'ylab bir necha kilometr masofaga cho'zilgan bo'lib, ayrim joylarda ma'dan komponentlari sanoat ahamiyatiga ega.

Qidiruv burg'ilash ishlari chuqurlikda ham ma'danli zonalarining mavjudligini tasdiqladi. Aniqlangan qatlamlarning qalinligi 1,1–11,4 m oralig'ida bo'lib, qo'rg'oshin va ruxning o'rtacha miqdori sanoat talablariga javob beradigan darajada ekanligi aniqlandi.



1-rasm. Qulcho'loq konining 3D geologik modeli (A.G. Tarasov va boshqalar, 2018).

Natijalar va muhokama. Yuqori paleozoy effuziv jinslari ustida karbonat jinslarini nomuvofiq ravishda qoplagan qo'rg'oshin va ruxning kichik ko'rinishlari chuqurlikda yirik polimetall ma'danlashuvning mavjudligini ko'rsatuvchi muhim prognoz indikatorlari sifatida qaraladi. Mazkur prognoz belgilarining genezisini tushuntirish uchun ma'dan shakllanish jarayonlari tahlil qilingan.

Qulcho'loq konida polimetall ma'dan tanalarining shakllanishi gidrotermal jarayonlarning ko'p bosqichli rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, bu jarayonlar tektonik faollik natijasida yuzaga kelgan o'tkazuvchan zonalar orqali ma'dan tashuvchi eritmalarning migratsiyasi bilan amalga oshgan. Hidrotermal sistemaning evolyutsiyasi harorat, bosim va eritmalar tarkibining ketma-ket o'zgarishi bilan tavsiflanadi.

Ma'dan hosil bo'lish jarayonining dastlabki bosqichi yuqori haroratli kontakt-metasomatik sharoitlarda kechgan bo'lib (340–380°C), ushbu davrda intruziv jismlar bilan tutashgan karbonat jinslarda skarnlanish jarayonlari rivojlangan. Bu

bosqichda granat va piroksen kabi skarn minerallari shakllanib, dolomitlarning tarkibiy qayta kristallanishi hamda magnezit va talkning hosil bo'lishi kuzatilgan.

Keyingi bosqichda (240–320°C) ma'dan hosil bo'lish jarayonlari intensivlashib, asosiy sulfidli ma'danlashish sodir bo'lgan. Aynan shu davrda galenit, sfalerit va piritning faol cho'kishi yuz berib, ma'dan tanalarida tomirli, disseminatsion va ayrim joylarda massiv teksturalar shakllangan. Bu bosqich konning sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan asosiy ma'dan konsentratsiyalarini vujudga keltirgan.

Gidrotermal sistemaning so'nggi bosqichlarida haroratning pasayishi bilan (150–220°C) kechki kvarso-karbonat ma'danlashuvi rivojlangan. Ushbu bosqichda kvarso-karbonat tomirchalari hosil bo'lib, ular avvalgi sulfidli ma'danlashuvi kesib o'tadi hamda ma'dan tanalarining ichki tuzilishini murakkablashtiradi. Shu bilan birga, ikkilamchi sulfid minerallarining (kovellin, bornit) paydo bo'lishi qayd etiladi.

Ma'dan hosil bo'lish jarayonining yakuniy bosqichi past haroratli gipergenik sharoitlarda (<100°C) sodir bo'lib, oksidlanish zonalarining shakllanishi bilan ifodalanadi. Bu bosqichda qo'rg'oshin va ruxning ikkilamchi minerallari — serussit, smitsonit va malaxit, shuningdek temir gidrooksidlari (limonit va goetit) keng rivojlangan.

Gidrotermal ma'danlanish jarayonlari bilan bir qatorda ma'dan tanalarining shakllanishida metasomatik o'zgarishlar muhim rol o'ynagan. Darzlanish va brekchiyalanish zonalari bo'ylab dolomitizatsiya, kvarslashish (5–30% hajm ulushi), skarnlanish, serpentinlanish va xloritlanish jarayonlari rivojlanib, ular ma'dan tanalarining morfologiyasi va mineral tarkibining murakkablashuviga olib kelgan.

Ma'dan komponentlarining cho'kishi geokimyoviy jihatdan karbonat jinslarning xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Organik moddalar bilan boyitilgan dolomitlar gidrotermal eritmalarning oksidlanish–qaytarilish sharoitini o'zgartirib, qo'rg'oshin va ruxning sulfidlar shaklida cho'kishiga qulay muhit yaratgan. Karbonat jinslarning buferlik xususiyati eritmalar pH qiymatini sulfidli ma'danlanish uchun optimal bo'lgan diapazonda ushlab turgan. Bundan tashqari, sulfatli komponentlarning mavjudligi bakterial qaytarilish jarayonlari orqali oltingugurt ionlari

manbaini ta'minlagan, gidrotermal eritmalarning sovishi va aralashishi esa metallarning eruvchanligini kamaytirib, ularning ma'dan shaklida cho'kishiga olib kelgan.

Prognoz resurslarini baholashda uchta asosiy usuldan foydalanildi. Analogiya usuli yaqin atrofdagi o'xshash konlar ma'lumotlari asosida Qulcho'loq konining potentsial resurslarini baholashga imkon berdi. Ekstrapolyatsiya usuli mavjud ma'dan tanalarining tarqalish tendentsiyasini chuqurlik va lateral yo'nalishlarda davom ettirish orqali prognoz resurslarni hisoblash imkonini berdi. Geologik-statistik usul esa ma'dan tanalarining o'rtacha parametrlari (qalinlik, tarkib, zichlik) asosida hajm va massa hisob-kitoblarini amalga oshirdi.

Xulosa. Qulcho'loq konida olib borilgan kompleks geologik-qidiruv tadqiqotlari hududning polimetall ma'danlanishi bo'yicha katta istiqbolga ega ekanligini isbotladi. Stratifikatsiyalangan konlarning joylashuvi ko'p jihatdan tuzilmaviy omillarga – antiklinal burmalar, qatlamlararo uzilishlar, karbonatli jinslar bilan subvulkanik hosilalar o'rtasidagi chegaralarga bog'liq. Ushbu zonalarda darzlanish va brekchiyalanish jarayonlari rivojlanib, ma'danlashuv uchun qulay sharoit yaratadi.

Qidiruv burg'ilari ma'dan tanalarining fazoviy tuzilishi va tarqalishini aniqlashga imkon berdi. A.G. Tarasov tomonidan tuzilgan 3D model konning ichki tuzilishini ko'rsatib, istiqbolli bloklarni ajratishga yordam berdi.

Ruda shakllanish jarayonlari to'rtta asosiy bosqichda sodir bo'lgan: skarnlanish, asosiy ma'dan mineralizatsiyasi, kech kvarso-karbonat bosqichi va gipergenik o'zgarishlar. Organik moddaga boy dolomitlar va sulfatli jinslar ma'dan cho'kishida muhim rol o'ynagan.

Olingan natijalar Qulcho'loq hududida polimetall resurslarni yanada chuqur o'rganish, ularning hajmini baholash va kelgusida sanoat miqyosida o'zlashtirish uchun mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Keyingi tadqiqotlar uchun quyidagi yo'nalishlar tavsiya etiladi: chuqurlik bo'yicha qo'shimcha burg'ilash ishlari (500-700 m gacha), lateral yo'nalishda ma'danli zonalarni kengaytirish, zamonaviy geofizik usullar (elektr razvedka, magnit razvedka) qo'llash va ma'dan tanalarining genetik modelini aniqlashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- [1] Кулаков, А. А. (1991). Отчет о результатах предварительной разведки полиметаллического месторождения Кульчулак в Алмалыкском рудном районе за 1985–1991 гг. Алмалык.
- [2] Коломиченко, В., Пак, В. Г., & Вологодина, В. (1974). Отчет по поисковой оценке свинцово-цинкового месторождения Кульчулак за 1972–1974 гг. Алмалык: Алмалыкская ГРЭ.
- [3] Mustafayev, B. N. (2021). Geological structure of the Chatkal–Kuramin Mountains. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 1(5).
- [4] Мустафаев, Б., Зиёмов, Б., Жураев, Ф., & Гапуров, М. (2024). Форма руд в полиметаллических месторождениях Узбекистана. *Илмий журнали Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон миллий университети*, 3/2/1, 233–235.
- [5] Турапов, М. К., Мустафаев, Б. Н., & Зиёмов, Б. З. (2025). К вопросу изучения морфогенезиса рудных тел полиметаллических месторождений Средней Азии. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 36, 188–194.
- [6] Turapov, M. K., Mustafayev, B. N., & Ziyomov, B. Z. (2025). К вопросу изучения морфогенезиса рудных тел полиметаллических месторождений Средней Азии. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 36, 188–194.

UO‘K: 669.334.44

doi 10.70769/3030-3214.SRT.4.1.2026.5

KIMYO SANOATI CHIQINDILARIDAN METALLARNI AJRATIB OLISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH



**Muzaffarov Umurbek
Umarovich**

Doktorant, Navoiy davlat konchilik
va texnologiyalar universiteti,
Navoiy, O‘zbekiston
E-mail:
Umurbekmuzaffarov738@gmail.com



**Xoliqulov Doniyor
Baxtiyorovich**

Texnika fanlari doktori, Olmaliq
davlat texnika instituti, Olmaliq,
O‘zbekiston
E-mail: doniyor_xb@mail.ru
ORCID ID: 0000-0001-6968-9297



Aripov Avaz Rozikovich

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), Navoiy davlat
konchilik va texnologiyalar
universiteti, Navoiy, O‘zbekiston
E-mail: avaz.aripov.82@bk.ru
ORCID ID: 0000-0002-0428-507X



**Voxidov Baxriddin
Raxmidinovich**

Texnika fanlari doktori, Navoiy
davlat konchilik va texnologiyalar
universiteti, Navoiy, O‘zbekiston
E-mail:
baxriddin.vokhidov@mail.ru
ORCID ID: 0000-0002-0819-6752

Annotatsiya. Ushbu maqolada kimyo sanoati chiqindilaridan metallarni ajratib olish masalalari o‘rganilgan. Tadqiqot doirasida chiqindilarning kimyoviy va fazaviy tarkibi tahlil qilinib, ulardan metall komponentlarni samarali ajratib olishga yo‘naltirilgan zamonaviy texnologik yechim ishlab chiqildi. Taklif etilayotgan texnologiya metall ishlab chiqarish tarmog‘ining xomashyo bazasini kengaytirish, ikkilamchi resurslardan oqilona foydalanish hamda qimmatli komponentlarni ajratib olish jarayonining tannarxini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, mazkur yondashuv kimyo sanoati chiqindilarining atrof-muhitda to‘planishini oldini olish, ekologik yuklamani kamaytirish va barqaror sanoat rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: metall, texnogen chiqindilar, ishlab chiqarish chiqindilari, eritmalarini neytrallash, cho‘ktirish, ikkilamchi xomashyo, metall ionlari, ekologik xavfsizlik.

РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ИЗВЛЕЧЕНИЯ МЕТАЛЛОВ ИЗ ОТХОДОВ ХИМИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

**Музаффаров Умурбек
Умарович**

Докторант, Навоийский
государственный горный и
технологический университет,
Навои, Узбекистан

**Холикулов Даниёр
Бахтиёрвич**

Доктор технических наук,
Алмалыкский государственный
технический институт,
Алмалык, Узбекистан

Арипов Аваз Розикович

Доктор философии (PhD) по
техническим наукам, Навоийский
государственный горный и
технологический университет,
Навои, Узбекистан

**Вохидов Бахридин
Рахмидинович**

Доктор технических наук,
Навоийский государственный
горный и технологический
университет, Навои, Узбекистан

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы извлечения металлов из отходов химической промышленности. В рамках исследования был проведён анализ химического и фазового состава отходов, на основе которого разработано современное технологическое решение, направленное на эффективное извлечение металлических компонентов. Предлагаемая технология позволяет расширить сырьевую базу металлургического производства, обеспечить рациональное использование вторичных ресурсов, а также существенно снизить себестоимость процессов извлечения ценных компонентов. Кроме того, данный подход способствует предотвращению накопления отходов химической промышленности в окружающей среде, снижению экологической нагрузки и обеспечению устойчивого развития промышленности.

Ключевые слова: металл, техногенные отходы, производственные отходы, нейтрализация растворов, осаждение, вторичное сырьё, ионы металлов, экологическая безопасность.

DEVELOPMENT OF TECHNOLOGY FOR METAL RECOVERY FROM CHEMICAL INDUSTRY WASTES

**Muzaffarov Umurbek
Umarovich**

*Doctoral student, Navoi State
University of Mining and
Technology, Navoi, Uzbekistan*

**Kholikulov Doniyor
Bakhtiyorovich**

*Doctor of Technical Sciences,
Almalyk State Technical Institute,
Almalyk, Uzbekistan*

Aripov Avaz Rozikovich

*Doctor of Philosophy (PhD) in
Technical Sciences, Navoi State
Mining and Technology University,
Navoi, Uzbekistan*

**Vokhidov Bakhriddin
Rakhmidinovich**

*Doctor of Technical Sciences,
Navoi State University of Mining
and Technology, Navoi, Uzbekistan*

Abstract. *This article investigates the issues related to the recovery of metals from chemical industry wastes. Within the scope of the study, the chemical and phase compositions of the wastes were analyzed, and a modern technological solution aimed at the efficient extraction of metallic components was developed. The proposed technology enables the expansion of the raw material base of the metallurgical industry, promotes the rational use of secondary resources, and significantly reduces the cost of recovering valuable components. In addition, this approach helps prevent the accumulation of chemical industry wastes in the environment, reduces environmental burden, and contributes to sustainable industrial development.*

Keywords: *metal, technogenic wastes, industrial wastes, solution neutralization, precipitation, secondary raw materials, metal ions, environmental safety.*

Kirish. Bugungi kunda sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi bilan bir qatorda, ishlab chiqarish tarmoqlarida hosil bo'layotgan tarkibida metallar bo'lgan chiqindi eritmalar miqdori ortib bormoqda. Bunday chiqindilar tabiiy suv havzalari va tuproq muhitini ifloslantiruvchi asosiy manbalardan biri hisoblanib, ularni zararsizlantirish uchun resurs va energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llashga, fanni ishlab chiqarish bilan integratsiyalashga alohida e'tibor qaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan, rivojlangan davlatlarda texnogen chiqindilari tarkibidan qimmatli komponentlarni ajratib olib, xomashyo bazasini sezilarli kengaytirishga, ekologiyaga yetkazilayotgan zararni kamaytirishga imkon beradigan yangi texnologiyalar alohida ahamiyatga ega. Jahon miqyosida birlamchi rudaga qaraganda metallar miqdori yuqori bo'lgan ikkilamchi xomashyolarni va ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlashga asoslangan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu ishlab chiqarish korxonalaridagi chiqindilarni ekologiyaga yetkazilayotgan zararni kamaytirish, qo'shimcha metallarni ajratib olish, tozalangan oqova suvlarni qaytadan ishlatish, chiqindi saqlanadigan maydonlarni qisqartirish imkonini beradi. Bundan

tashqari, bu ilmiy izlanishlar nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lishiga qaramay, tarkibida metallar bo'lgan texnologik chiqindi eritmalariga selektiv ta'sir qiluvchi reagentlarni tanlashga yetarlicha e'tibor berilmagan, metallar ionlarining o'zaro ta'sir mexanizmi o'rganilmagan, ekologik muammolarni hal qilishni o'zida jamlagan qayta ishlashning kompleks texnologiyalarini ishlab chiqishga imkon bermaganligi dolzarb, ilmiy va muhim iqtisodiy muammo hisoblanadi.

Respublikamizda ishlab chiqarish korxonalarida hosil bo'ladigan chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini ishlab chiqish va takomillashtirish bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. "Navoiyazot" AJning ishlab chiqarish sexlaridan hosil bo'ladigan texnologik oqova suvlar tarkibida og'ir metall ionlari mavjud bo'lib, ularni zararsizlantirish va foydali komponentlarni ajratib olish texnologiyasini ishlab chiqish ekologik va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Texnogen ifloslanishlar, atrof-muhitdagi global salbiy o'zgarishlar, hozirgi vaqtda yuqori texnologiyalardan foydalangan holda muvozanatli rivojlanish foydasiga tabiiy resurslardan foydalanish

strategiyasini o'zgartirish zarurligini talab qiladi. Shu munosabat bilan chiqindisiz ishlab chiqarish, ekologik xavflarni va atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtiradigan ekologik toza texnologiyalarga o'tish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu kimyo sanoati korxonalarini uchun o'ta muhimdir, chunki boshqa ko'pgina sanoat tarmoqlaridan farqli o'laroq, u gidrosferaga, yer qatlamiga, atmosferaga ta'sir ko'rsatadi. Texnogen chiqindilar - bu yer yuzasida - tuproqda, o'simliklarda, suvda va atmosferada ifloslanishni kiltirib chiqaradi [1-5].

Sanoat chiqindi eritmalaridan metallarni ajratib olishda ozonlash [6-7] va ionli flotatsiya [8-9] jarayonini qo'llash bo'yicha bir qator tadqiqotlar o'tkazilgan va natijalar olingan.

Tadqiqot obyekti sifatida "Navoiyazot" AJning 14-akril kislotasi nitrili (AKN) ishlab chiqarish sexi, 201-tiomochevina ishlab chiqarish sexi va 911-vinilxlorid monomeri ishlab chiqarish sexining texnologik oqova suvlari tanlangan. Dastlab chiqindi eritmalarini neytrallashtirish jarayoniga jo'natilishidan oldin suspenziya shaklidagi zarrachalarni tindirish maqsadida, filtrlanadi, natijada ayrim metallar, ularning birikmalari va keraksiz jinslar cho'kmaga tushdi. Yirik zarrali birikmalar oson cho'kadi, ammo metall birikmalarining cho'kma tarkibiga o'tish darajasi minimal bo'ldi. Eritmalarni rangi ancha tiniqlashdi (1-3-rasm).



1-rasm. Tiomochevina ishlab chiqarish chiqindi eritmasining tindirish va filtrlashdan oldingi va keyingi ko'rinishi.



2-rasm. AKN eritmasining tindirishdan oldingi va keyingi ko'rinishi.



3-rasm. Vinilxlorid monomeri ishlab chiqarish sexining texnologik eritmalarini tindirishdan oldingi va keyingi ko'rinishi.

Tindirilib, filtrlangan eritmalarining rentgen fluresensiya usulida tahlil natijalari 1-2-jadvada keltirilgan.

1-jadval

201-tiomochevina ishlab chiqarish sexi chiqindi oqova suvlari spektrometrik tahlil natijalari (mkg/l)

Komponent	Li	Be	B	Na	Mg	Al	P	K
Miqdor	11,0	1,50	27,0	120	830	550	840	33
Komponent	Ca	Sc	Ti	V	Cr	Mn	Fe	Co
Miqdor	2000	47,0	100	100	30,0	100	2800	10,0
Komponent	Ni	Cu	Zn	Ga	As	Se	Br	Rb
Miqdor	320	7600	1200	29,0	48	5,10	3100	92,0
Komponent	Sr	Y	Zr	Nb	Mo	Ag	Cd	In
Miqdor	22	5,20	21,0	5,70	140	110	3,10	0,320
Komponent	Sn	Sb	Te	I	Cs	Ba	La	Ce
Miqdor	5,50	260	18,0	360	20,0	64,0	2,50	6,40
Komponent	Pr	Nd	Sm	Eu	Gd	Tb	Dy	Ho
Miqdor	0,250	2,20	1,10	0,140	<0,05	0,077	0,320	0,150
Komponent	Er	Tm	Yb	Lu	Hf	Ta	W	Re
Miqdor	0,450	0,110	<0,05	0,150	0,780	61,0	25,0	0,220
Komponent	Pt	Au	Hg	Tl	Pb	Bi	Th	U
Miqdor	<0,05	<0,05	0,660	5,90	51,0	0,170	3,40	16,0

2-jadval

911-vinilxlorid monomeri ishlab chiqarish sexining texnologik oqova suvlari natijalari (mkg/l)

Line	Conc.1, mg/l	Conc.2, mg/kg	Cl
Ag	-0,0025	-0,2128	0,9286
Al	0,0107	0,9261	7,248
As	-0,0051	-0,4433	1,539
Ba	-0,0039	-0,3353	1,702
Be	-0,0045	-0,3857	1,515
Bi	-0,0049	-0,4235	1,644
Cd	-0,0022	-0,1906	1,555
Co	-0,0054	-0,4641	1,908
Cr	-0,0046	-0,3949	1,922
Cu	0,1382	11,92	1,922
Fe	0,0523	4,510	2,436
Ga	-0,0035	-0,3057	1,385
K	1,204	103,8	10,32
Li	-0,0059	-0,5045	2,528
Mn	0,0026	0,2245	1,573
Ni	-0,0025	-0,2172	1,164
Pb	-0,0030	-0,2563	1,955
Se	-0,0025	-0,2162	1,025
Sr	0,0148	1,277	1,379
V	-0,0028	-0,2395	1,071
Zn	0,0560	4,826	1,789

Natijalar. Kimyo sanoati oqova suvlari va

chiqindi eritmalardan og‘ir rangli metallarni cho‘ktirish jarayonlarini. Neytrallanish jarayonlari kislotalar va gidroksidlarni o‘z ichiga olgan sanoat chiqindi suvlarini tozalash usuli hisoblanadi. Aksariyat kislotali oqova suvlarda og‘ir metallarning tuzlari mavjud bo‘ladi, ular bu suvlardan ajratilishi kerak. Neytrallash quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- zavod uskunalari va tozalash inshootlari materiallarining korroziyasini oldini olish uchun;

- biologik oksidlovchilarda va suv havzalarida biokimyoviy jarayonlarning buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun;

- sanoat oqova suvlaridan og‘ir metallar tuzlarini cho‘ktirish uchun.

Neytral aralashmalarni pH = 6,5 - 8,5 bo‘lgan sharoitlarda amalga oshiriladi. Shuning uchun, suv omborining neytrallash qobiliyatini hisobga olgan holda, pH 6,5 dan kam va 8,5 dan yuqori bo‘lgan oqova suvlarni zararsizlantirish kerak. Sanoat oqova suvlarini suv omboriga yoki shahar kanalizatsiyasiga tushirish shartlaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, kislotali oqova suvlar katta xavf tug‘diradi, bundan tashqari, ular ishqoriylarga qaraganda ancha keng tarqalgan. Ko‘pincha chiqindi suvlar bilan ifloslangan mineral kislotalar: sulfat, xlorid, azot, shuningdek ularning aralashmalari mavjud bo‘ladi. Odatda, chiqindi suvdagi kislotalarning konsentratsiyasi 3% dan oshmaydi, lekin ko‘proq konsentrlangan aralashmalar ham uchraydi.

Dastlabki chiqindi oqova suvlardagi va neytrallashdan keyingi eritmalardagi metallarning miqdorlar o‘zgarishi tahlil qilindi.

Oqova suvlar tarkibi PlasmaQuant 9200 - bu Analytik Jena kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan ICP-OES usuliga asoslangan optik emissiya spektrometriya qurilmasi, "ICP-OES" — Inductively Coupled Plasma Optical Emission Spectrometry. PlasmaQuant 9200 induksion bog‘-

langan plazmali optik emissiya spektrometriyasi (ICP-OES) asosida ishlovchi yuqori aniqlikdagi tahlil qurilmalarida, eritmalardagi elementlarning miqdoriy tarkibini aniqlandi.

Cho‘ktirish natijasida hosil bo‘lgan cho‘kmalarni kuydirish orqali qattiq qoldiqlar hosil qilish tajriba ishlari bajarildi va hosil bo‘lgan qoldiqlar SEM uskunasi yordamida tahlil qilindi. Thermo Fisher Scientific Apreo 2 S LoVac rusumli skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) yordamida namunalarni o‘rganilib - ularning element tarkibi, minerallogik tuzilishi va morfologik xususiyatlarini aniqlashda muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu mikroskop yuqori aniqlikdagi tasvir olish imkonini beradi va energodispersiv spektroskopiya (EDS) tizimi orqali namunadagi elementlarning sifat va miqdor tarkibini aniqlaydi. Qurilma Windows 10 (64-bit) operatsion tizimida ishlaydigan intuitiv boshqaruv interfeysiga ega.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida "Navoiyazot" AJning AKN ishlab chiqarish, 201- va 911-sexlaridan hosil bo‘layotgan chiqindi oqova suvlari tarkibida og‘ir va rangli metallar (mis, temir, rux, molibden va boshqalar)ning miqdori yuqori ekanligi aniqlandi. Olingan rentgen-flyuoresensiya va mass-spektrometrik tahlil natijalari chiqindi eritmalarda bu elementlarning konsentratsiyasi sanitariya-meyoriy talablardan bir necha baravar yuqori ekanini ko‘rsatdi.


Rentgen-flyuoresensiya tahlillari chiqindi eritmalarda metallarning eng yuqori konsentratsiyasi 32,313 teta chizig‘ida to‘planganini ko‘rsatdi. Bu esa, chiqindi suvlarni bevosita tabiiy muhitga chiqarish ekologik xavfsizlik talablariga zid ekanligini tasdiqlaydi. Tahlil natijalariga ko‘ra, suv havzalari uchun ruxsat etilgan maksimal konsentratsiya qiymatlari bir necha o‘n baravar oshgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- [1] Гончарук, В. В. (2004). Вода: проблемы устойчивого развития цивилизации в XXI веке. Химия и технология воды, 26(1), 3–25.
- [2] Воробьев, А. В., Каргинов, К. Г., Ананикян, С. А., & Одинцова, Е. С. (2002). Оценка воздействия на окружающую среду предприятий горной промышленности. Экологическая экспертиза, (3), 96–104.
- [3] Трубецкой, К. Н., & Галченко, Ю. П. (2002). Человек и природа: противоречия и пути их преодоления. Вестник Российской академии наук, 72(5), 405–409.

- [4] Скурлатов, Ю. И., Дука, Г. Г., & Мизити, А. (1994). Введение в экологическую химию. Москва: Высшая школа.
- [5] Грушко, Я. М. (1982). Вредные органические соединения в промышленных сточных водах. Ленинград: Химия.
- [6] Холикулов, Д. Б., Нормуротов, Р. И., & Ахтамов, Ф. Э. (2016). Исследования по извлечению цветных металлов ионной флотацией из сбросных растворов. Горный вестник Узбекистана, (2), 68–70.
- [7] Якубов, М. М., и др. (2018). Очистка сточных вод медного производства озоном. Узбекский химический журнал, (3), 35–41.
- [8] Холикулов, Д. Б., Рахмонов, Н. М., & Кодиров, С. И. (2007). Возможности применения ионной флотации для извлечения металлов из различных растворов. В Научные основы и практика переработки руд и техногенного сырья (Материалы международной научно-технической конференции, Екатеринбург, 15–18 апреля 2007 г.). Екатеринбург: Форт-Диалог-Исеть.
- [9] Абдурахмонов, С. А., Холикулов, Д. Б., Пиримов, А. П., Нормуротов, Р. И., & Назаров, В. Ф. (2005). Статистическая обработка показателей ионной флотации металлов из сернокислых растворов. Горный вестник Узбекистана, (4), 67–69.

UO‘K: 669.3:622.7

 10.70769/3030-3214.SRT.4.1.2026.10

QALMOQIR KONIDAGI OKSIDLANGAN MIS RUDALARINI CHANLARDA TANLAB ERITISH BO‘YICHA TADQIQOT NATIJALARI



**Xasanov Adham
Amankulovich**

Dotsent, Olmaliq davlat texnika
instituti, Olmaliq, O‘zbekiston
E-mail:
adhamhasanov122@gmail.com
Science ID: FTV-1225-0014



**Usenov Rasul
Bovurjonovich**

Dotsent, Olmaliq davlat texnika
instituti, Olmaliq, O‘zbekiston
Science ID: FTV-1225-0028



**Geydarov Arif Emrax
o‘g‘li**

Ozərbaycan Milli Fanlar
Akademiyası Kataliz və Noorganik
Kimyo İnstitutu, laboratoriya
mudiri, kimyo fanları doktori,
professor, Azərbaycan



**Jo‘raqulova Sabrina
Baxtiyor qizi**

Magistrant, Olmaliq davlat texnika
instituti, Olmaliq, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy tog‘-kon sanoatida dolzarb hisoblangan Qalmoqqir konining oksidlangan mis rudalarini qayta ishlash masalalari tadqiq etilgan. So‘nggi yillarda qazib olinayotgan xomashyo tarkibida oksidlangan va aralash rudalarning ulushi ortib borayotgani sababli, ularni an‘anaviy flotatsiya usullari bilan boyitish samaradorligi pastligi aniqlangan. Tadqiqot ishida oksidlangan mis minerallarining (malaxit, azurit va boshqalar) mineralogik va kimyoviy xususiyatlari tahlil qilinib, ularning sulfidizatsiya asosidagi flotatsiya jarayonida past tiklanish ko‘rsatkichlariga ega ekanligi ko‘rsatib berilgan. Shu munosabat bilan sulfat kislota yordamida tanlab eritish jarayonining misni eritmaga o‘tkazish samaradorligiga ta‘sir etuvchi asosiy texnologik omillar — kislota konsentratsiyasi, rudaning yiriklik darajasi, eritish vaqti, harorat va qattiq–suyuq fazalar nisbati (Q:S) o‘rganilgan. Tajribalar natijasida sulfat kislota konsentratsiyasi 3%, rudaning yiriklik sinfi –1 mm, harorat 40°C, eritish vaqti 30 daqiqa hamda Q:S = 1:3 bo‘lgan sharoitlarda misning eritmaga ajralish darajasi 60–80% gacha yetishi aniqlangan. Olingan natijalar oksidlangan mis rudalarini gidrometallurgik usulda qayta ishlashning yuqori istiqbolliligini ko‘rsatadi va ushbu texnologiyani sanoat miqyosida qo‘llash imkoniyatlarini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: oksidlangan mis rudalari, Qalmoqqir koni, tanlab eritish, sulfat kislota, gidrometallurgiya, misni eritmaga ajratib olish, texnologik parametrlar, Q:S nisbati.

РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО СЕЛЕКТИВНОМУ ВЫЩЕЛАЧИВАНИЮ ОКИСЛЕННЫХ МЕДНЫХ РУД МЕСТОРОЖДЕНИЯ КАЛМАКЫР В ЧАНАХ

**Хасанов Адхам
Аманкулович**

Доцент, Алмалыкский
государственный технический
институт, Алмалык, Узбекистан

**Усенов Расул
Бовуржонович**

Доцент, Алмалыкский
государственный технический
институт, Алмалык, Узбекистан

**Гейдаров Ариф Эмрах
оглы**

Заведующий лабораторией
Института катализа и
неорганической химии
Национальной академии наук
Азербайджана, доктор
химических наук, профессор,
Азербайджан

**Журакулова Сабрина
Бахтиёр кизи**

Магистрант, Алмалыкский
государственный технический
институт, Алмалык, Узбекистан

Аннотация. В данной статье исследованы актуальные в современной горнодобывающей промышленности вопросы переработки окисленных медных руд месторождения Калмакыр. В

последние годы установлено, что из-за увеличения доли окисленных и смешанных руд в добываемом сырье эффективность их обогащения традиционными методами флотации низкая. В исследовательской работе проанализированы минералогические и химические свойства окисленных минералов меди (малахит, азурит и др.) и показано, что они имеют низкие показатели восстановления в процессе флотации на основе сульфидизации. В связи с этим были изучены основные технологические факторы, влияющие на эффективность растворения меди в процессе сернокислотной выщелачивания - концентрация кислоты, степень крупности руды, время выщелачивания, температура и соотношение твердо-жидких фаз (Т:Ж). В результате экспериментов установлено, что при концентрации серной кислоты 3%, классе крупности руды - 1 мм, температуре 40°C, времени плавления 30 минут и Т:Ж = 1:3 степень извлечения меди в раствор достигает 60-80%. Полученные результаты показывают высокую перспективность гидрометаллургической переработки окисленных медных руд и обосновывают возможности промышленного применения данной технологии.

Ключевые слова: окисленные медные руды, месторождение Калмаккир, избирательное выщелачивание, серная кислота, гидрометаллургия, извлечение меди в раствор, технологические параметры, соотношение Т:Ж.

RESEARCH RESULTS ON TANK LEACHING OF OXIDIZED COPPER ORES FROM THE KALMAKYR DEPOSIT

**Khasanov Adham
Amankulovich**

Docent, Almalyk State Technical
Institute, Almalyk, Uzbekistan

**Usenov Rasul
Bovurjonovich**

Docent, Almalyk State Technical
Institute, Almalyk, Uzbekistan

**Geydarov Arif Emrakh
oglu**

Institute of Catalysis and Inorganic
Chemistry of the National Academy
of Sciences of Azerbaijan, Head of
the Laboratory, Doctor of Chemical
Sciences, Professor, Azerbaijan

**Jurakulova Sabrina
Bakhtiyor kizi**

Master's student, Almalyk State
Technical Institute, Almalyk,
Uzbekistan

Abstract. This article examines the issues of processing oxidized copper ores of the Kalmakyr deposit, which is relevant in the modern mining industry. In recent years, due to the increasing share of oxidized and mixed ores in the extracted raw materials, the low efficiency of their enrichment by traditional flotation methods has been established. In the research work, the mineralogical and chemical properties of oxidized copper minerals (malachite, azurite, etc.) were analyzed, and it was shown that they have low recovery rates in the flotation process based on sulfidization. In this regard, the main technological factors influencing the efficiency of copper leaching in the sulfuric acid leaching process - acid concentration, ore size, leaching time, temperature, and solid-liquid phase ratio (L:S) - were studied. As a result of the experiments, it was established that at a sulfuric acid concentration of 3%, ore size class - 1 mm, a temperature of 40°C, a melting time of 30 minutes, and a L:S ratio of 1:3, the degree of copper dissolution reaches 60-80%. The obtained results indicate the high prospects of hydrometallurgical processing of oxidized copper ores and substantiate the possibility of industrial application of this technology.

Keywords: oxidized copper ores, Kalmakyr deposit, selective leaching, sulfuric acid, hydrometallurgy, copper recovery into solution, process parameters, solid-to-liquid ratio.

Kirish. Zamonaviy tog'-kon sanoatida mis rudalarini boyitish jarayonlari tobora murakkablashib bormoqda, chunki qazib olinayotgan xomashyo tarkibida qiyin boyitiladigan oksidlangan va aralash rudalarning ulushi yil sayin ortib bormoqda. Bunday rudalarni samarali qayta ishlash tog'-kon korxonalarining asosiy muammolaridan

biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mis oksid minerallari (malaxit, azurit, kuprit va boshqalar) flotatsiya jarayonida past sirt faolligiga ega bo'lib, ularni an'anaviy flotatsiya usullari bilan boyitish samaradorligi yetarli darajada yuqori emas [1].

Mis rudalari oksidlanish darajasiga qarab

texnologik jihatdan uchta asosiy guruhga bo'linadi: sulfidli rudalar, tarkibida 30% gacha oksidlangan minerallar bo'lgan aralash rudalar (30–70%) hamda oksidlangan rudalar (70% dan ortiq). Yuqori oksidlanish darajasiga ega rudalar uchun flotatsiya jarayonida misning ajralib chiqish darajasi keskin pasayadi, natijada bunday rudalarning ma'lum qismi umuman boyitilmay qoladi. Bu esa qimmatbaho metallarning yo'qotilishiga va ishlab chiqarish chiqindilarining hajmi ortishiga olib keladi.

Amaliyotda qo'llanilayotgan sulfidli mis rudalarini boyitish texnologiyalari oksidlangan va aralash rudalarni qayta ishlash uchun moslashmagan. Natijada bunday rudalar nokonditsion xomashyo sifatida tashlab yuboriladi yoki boyitish chiqindilarida to'planadi. Shu sababli oksidlangan va aralash mis rudalarini qayta ishlash uchun maxsus texnologik yondashuvlar, xususan sulfidizatsiya asosidagi flotatsiya usullari, kombinatsiyalangan flotatsiya-gidrometallurgik sxemalar hamda zamonaviy reagent tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish zarurati vujudga kelmoqda [2].

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oksidlangan mis rudalarini boyitishda flotatsiya jarayonini optimallashtirish, reagent sarfini kamaytirish va jarayon parametrlarini aniqlashtirish orqali texnologik ko'rsatkichlarni sezilarli darajada yaxshilash mumkin. Shu bilan birga, mavjud texnologiyalarni takomillashtirish va yangi, resurs tejamkor boyitish sxemalarini ishlab chiqish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki tog'-kon sanoatining ekologik barqarorligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi [1, 2].

1-jadval

Qalmoqir konining oksidlangan mis rudasi kimyoviy tahlil natijalari

Elementlar	Tarkibi,%	Elementlar	Tarkibi,%
SiO₂	61,06	K₂O	4,61
Fe₂O₃	9,66	P ₂ O ₅	0,37
TiO₂	0,54	Sum	<0,5
MnO	0,065	PPP	4,57
Al₂O₃	14,0	Umumiy miqdor	99,28
CaO	0,59	CO ₂	0,22
MgO	2,08	H ₂ O	1,47
Na₂O	0,74		

Bugungi kunda Qalmoqir koni oksidlangan mis rudalarining to'plangan hajmi 130 mln.t. ga etgan.

Shu bilan birga, yuqori gorizontlari oksidlangan va aralash ma'danlardan tashkil topgan Yoshlik-I konining ma'danlarini qayta ishlash boshlandi.

Qalmoqir konining dastlabki oksidlangan mis rudasining (39-ag'darma) kimyoviy tahlili 1-2-jadvallarda keltirilgan.

Tadqiqot usuli. Malaxit va azurit shaffof shliflarda rudasiz minerallar sifatida yaxshi namoyon bo'lib, misning karbonatli analoglari hisoblanadi va ularning hosil bo'lishi tarkibida mis mavjud bo'lgan birlamchi minerallarning oksidlanish mahsulotlari bilan bog'liq. Tadqiqot qilingan namunalarda poro'dahosil qiluvchi minerallar sifatida kvarts, dala shpatlari, xloritlar va seritsitlar aniqlangan. Otval namunalarda kvartsning uch xil turi — poro'dahosil qiluvchi, metasomatik va tomirli kvarts uchraydi, bunda metasomatik kvarts asosan xlorit va seritsit, kamroq hollarda esa aktinolit bilan yaqin assotsiatsiyada kuzatiladi. Seritsit rudasiz minerallar orasida eng keng tarqalgan bo'lib, uning o'rtacha namunalardagi miqdori 22–22,5% ni tashkil etadi va u magmatik jinslardagi dala shpatlarining gidrotermal o'zgarishi natijasida hosil bo'lib, jinslarning qatlamlanishi bo'ylab mayda tangachasimon to'planmalarni tashkil etadi. Xloritlarning miqdori otval namunalarda 4,0–5,0% oralig'ida bo'lib, ular ham mayda tangachasimon ajrilmalar shaklida uchraydi. Aksessor minerallar apatit, tsirkon, magnetit, rutil, sfen, epidot va tsoizit bilan ifodalanadi. Apatit eng ko'p tarqalgan aksessor mineral bo'lib, uning miqdori 0,4–0,8% ni tashkil etadi va 0,005–0,3 mm o'lchamdagi cho'zilgan hamda oval donachalar shaklida uchraydi. Rutil esa ko'pincha mayda prizmatik kristallar ko'rinishida bo'lib, uning miqdori 0,4–0,7% atrofida bo'lib, barcha jins turlarida apatit, epidot va magnetit bilan assotsiatsiyada kuzatiladi.

Bugungi kunda ko'plab tadqiqotchilar fikriga ko'ra, oksidli mis rudalarining ko'pikli flotatsiyasi murakkab jarayon bo'lib, uni samarali amalga oshirish uchun avval minerallar yuzasini sulfidizatsiya bosqichi orqali aktivlashtirish talab etiladi — bunda ko'pincha natriy sulfidi (Na₂S) kabi sulfidizatsiya reagentlari ishlatiladi. Na₂S qo'shilishiga qaramay, oksidlangan mis minerallarining flotatsiya jarayoni sulfidlar (masalan, CuS) hosil bo'lishi tezligidan sezilarli darajada orqada qoladi, chunki sulfid qatlami juda barqaror bo'lmaydi va

juda tez pasayadi yoki qayta oksidlanadi. Natijada sulfidlangan yuzalar etsada, ular kollektor molekularini yetarli darajada tortib olmaydi, bu esa misni yetarlicha funktsional ajratib olishni kamaytiradi va natijada past sifatli mis konsentratlari hosil bo'ladi.

Buning sabablari sifatida oksidlangan mis minerallarining yuzasining yuqori gidrofiligi, kuchli polar xususiyatlari va Na₂S bilan sulfidizatsiya qilingan paytda hosil bo'lgan sulfid qatlami etarlik darajada barqaror bo'lmasligi ta'kidlanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sodda sulfidizatsiya reagentining qo'llanilishi oksidlangan minerallar yuzasini faqat vaqtincha sulfidlashtiradi, ammo hosil bo'lgan sulfid qatlami tezda erosiyanadi yoki qayta oksidlanadi, bu esa ko'pikli flotatsiyaning samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi. Shu sababli Na₂S orqali sulfidizatsiya qilingan oksidli mis rudalarini flotatsiya qilish natijalari ko'pincha past miqdorda mis tiklanishi bilan tugaydi, natijada mis konsentratlari past sifatli bo'lib qoladi — aynan shu murakkab jarayon materiyasiga e'tibor qaratilishi kerakligi aytiladi [3].

Olmalik kon-metallurgiya kombinati oksidlangan mis rudalarini qayta ishlash bo'yicha tadqiqotlar olib bordi, ammo klassik usullar (flotatsiya, gravitatsiya) bilan boyitishning barcha urinishlari iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas edi.


Jahon amaliyotida oksidlangan mis mineralarini boyitishda kimyoviy va bakterial tanlab eritish kabi gidrometallurgik jarayonlar tobora keng qo'llanilmoqda. Ushbu jarayonlar texnologik jihatdan soddaligi, solishtirma kapital xarajatlarning kamligi hamda yuqori mehnat unumdorligi bilan ajralib turadi, shu bilan birga past navli va qiyin boyitiladigan oksidlangan mis rudalarini qayta ishlashda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi [4].

Ushbu ishning maqsadi Qalmoqir konining oksidlangan mis rudalaridan misni sulfat kislota bilan tanlab eritmaga o'tkazish orqali ajratib olishning maqbul parametrlarini aniqlashdan iborat.

Sulfat kislotasi bilan tanlab eritishda misni eritmaga ajratib olish darajasini optimallashtirish uchun quyidagilarning ta'siri aniqlandi: sulfat kislotasining konsentratsiya darajasi, rudaning yirikligi, vaqt, harorat va Q:S (qattiq: suyuq) nisbati. Olingan mahsulotlarning tahlillari rentgeno-fluorescent analizatorida o'tkazildi.

Sulfat kislota konsentratsiyasi darajasi.


Tanlab eritish jarayonida sulfat kislota konsentratsiyasining Cu ni eritmaga ajratib olish darajasiga ta'sirini aniqlash uchun sulfat kislotaning quyidagi konsentratsiyalaridan foydalanildi: 1, 2, 3, 5 va 10%. Ishqorlash shartlari: Q:S=1:3, tanlab eritish vaqti - 30 daqiqa, yiriklik sinfi - 1 mm, xona harorati.



1-rasm. Turli konsentratsiyalarda Cu ni eritmaga ajratib olish.


Misning asosiy miqdori (60% dan ortiq) 2% li sulfat kislota eritmasida ajralib chiqib boshlaydi, konsentratsiyaning oshishi bilan ajralishning o'sishi eksponensialdan chiziqiga o'tadi va ajralishning mos ravishda oshishi kuzatiladi.

Ma'danning yiriklik sinfi. Quyidagi yiriklik sinflari o'rganildi: -1; -0,05; -0,315 va -0,08, Q:S=1:3, H₂SO₄ - 3%, tanlab eritish vaqti - 30 daqiqa, xona harorati.



2-rasm. Turli yiriklik sinflarida Cu ni eritmaga ajratib olish.


Natijalar shuni ko'rsatadiki, o'rganilayotgan sinflarda rudaning maydalik darajasi misni eritmaga ajratib olishga deyarli ta'sir qilmaydi.



3-rasm. Cu ni eritmaga ajratib olish turli tanlab eritish vaqtlarida.

Vaqt. Tanlab eritish vaqti 0,5 dan 24 soatgacha oraliqda Q:S=1:3, H₂SO₄ - 3%, yiriklik sinfi -1 mm, xona harorati sharoitida saqlandi.


Harorat. Tadqiqotlar 40, 60 va 80°C haroratlarda o'tkazildi. Q:S=1:3, H₂SO₄ - 3%, yiriklik sinfi -1 mm, tanlab eritish vaqti - 30 daqiqa.



4-rasm. Cu ni eritmaga ajratib olish turli tanlab eritish haroratlarida.

Xona harorati 25°C bo'lganda misning eritmaga ajralishi 65,7% ni tashkil etadi, harorat 40 gacha ko'tarilganda; 60 va 80°C da mis ajratib olish 76,1; 78,6 va 80,3% ni tashkil etdi.

Q:S nisbati (qattiq: suyuq). Metallarni eritmaga ajratib olish darajasiga Q:S ning ta'sirini aniqlash uchun tanlab eritish turli Q:S va sulfat kislotasi konsentratsiyalarida o'tkazildi. Tanlab eritish shartlari: yiriklik sinfi - 1 mm, vaqt - 30 daqiqa, xona harorati.



5-rasm. Cu ni eritmaga ajratib olish.

Suyuq fazaning qattiq fazaga o'tishi ortishi bilan misning eritmaga ajralishi ortadi. Shuni ta'kidlash kerakki, asosan mis ajratib olishning o'sishi Q:S=1:3 gacha (60% dan ortiq) sodir bo'ladi, suyuq fazaning keyingi o'sishi mis ajratib olishga sezilarsiz ta'sir ko'rsatadi.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Kalmakir konining oksidlangan mis rudalarini sulfat kislotasi eritmasi bilan tanlab eritishda eritmaga 60-80% gacha mis ajratib olinadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, laboratoriya sharoitida Qalmoqqir konining oksidlangan mis

rudalarini sulfat kislotasi eritmasi bilan tanlab eritishning maqbul parametrlari aniqlandi, ular quyidagilarni tashkil etdi: sulfat kislotasi konsentratsiyasi - 3%, rudaning yiriklik sinfi -1mm, vaqt - 30 daqiqa, harorat - 40°C va Q:S (qattiq: suyuq) nisbati = 1:3.


kafedrasi mudiri, geografiya fanlari
nomzodi, dotsent, Belarus

**Kologrivko Andrey
Andreyevich**

Belarus milliy texnika universiteti,
Konchilik va muhandislik
ekologiyasi fakulteti dekani, texnika
fanlari nomzodi, dotsent, Belarus

**Naryjnova Yevgeniya
Yuryevna**

Belarus milliy texnika universiteti,
Konchilik va muhandislik
ekologiyasi fakulteti, “Kon ishlari”
kafedrasi, texnika fanlari magistri,
katta o‘qituvchi, doktorant, Belarus

**Bilydyuk Yegor
Viktorovich**

Belarus milliy texnika universiteti,
Konchilik va muhandislik
ekologiyasi fakulteti, “Kon ishlari”
kafedrasi, texnika fanlari magistri,
katta o‘qituvchi, doktorant, Belarus

Annotatsiya. Maqolada ochiq kon ishlari olib boriladigan hududlarda geologik muhit holatini baholashning yangi yondashuvi ko'rib chiqilgan. Ushbu yondashuv geodezik monitoringning diskret ma'lumotlaridan "KREDO Fazoviy ma'lumotlarni tahlil qilish" dasturi yordamida uzluksiz matematik modellashtirishga o'tishga asoslangan. Relyefning raqamli modellarini qurish, deformatsiyalarni tahlil qilish, bortlarning barqarorligini va tog' jinslari hajmining siljishini baholash usullari yoritilgan. Ilmiy yangilik triangulyatsiya, GRID-interpolyatsiya, veb-vizualizatsiya va quyosh ekspozitsiyasi tahlilini integratsiya qilish orqali texnogen yuklangan hududlarning raqamli modellarini yaratish va geomexanik jarayonlarni prognozlash imkoniyatini ta'minlashdan iborat.

Kalit so'zlar: CREDO APD, geodezik monitoring, texnogen yuklama, ochiq kon ishlari, relyefning raqamli modeli (RRM), interpolyatsiya, fazoviy tahlil, geologik muhit, statistik ishlov berish.

METHODOLOGY FOR SPATIOTEMPORAL ANALYSIS OF GEOLOGICAL ENVIRONMENT TRANSFORMATION IN TECHNICALLY IMPACTED AREAS USING THE "CREDO ANALYSIS OF SPATIAL DATA" SOFTWARE

**Pavlovskiy Aleksandr
Illarionovich**

Belarusian National Technical University, Faculty of Mining and Engineering Ecology, Head of the Department of Mining, Candidate of Geographical Sciences, Associate Professor, Belarus

**Kologrivko Andrey
Andreevich**

Belarusian National Technical University, Dean of the Faculty of Mining and Engineering Ecology, Candidate of Technical Sciences, Associate Professor, Belarus

**Naryjnova Yevgeniya
Yuryevna**

Belarusian National Technical University, Faculty of Mining and Engineering Ecology, Department of Mining, Master of Technical Sciences, Senior Lecturer, PhD Student, Belarus

**Bildyuk Yegor
Viktorovich**

Belarusian National Technical University, Faculty of Mining and Engineering Ecology, Department of Mining, Master of Technical Sciences, Senior Lecturer, PhD Student, Belarus

Abstract. The article presents an approach for assessing the state of the geological environment in open-pit mining areas based on the transition from discrete geodetic monitoring to continuous mathematical modeling using the CREDO Spatial Data Analysis software. The principles of digital terrain modeling, deformation analysis, slope stability assessment, and volume calculation of displaced rock masses are described. The scientific novelty lies in integrating triangulation, GRID interpolation, web visualization, and solar exposure analysis to create digital models of technogenically disturbed areas and to improve geomexanical hazard prediction.

Keywords: CREDO APD, monitoring, technogenic load, open-pit mining, digital elevation model, interpolation, spatial analysis.

Введение. Открытая добыча полезных ископаемых неизбежно приводит к формированию экстремальных техногенных нагрузок на геологическую среду. Процесс существенного изменения геометрии земной поверхности, выраженный в создании глубоких карьерных выемок и масштабных насыпных отвалов, провоцирует коренное перераспределение напряжений в литосфере. Подобные трансформации требуют внедрения систем высокоточного мониторинга, способных фиксировать даже незначительные подвижки массива. Актуальность исследования обусловлена необходимостью интеграции данных наземных геодезических измерений и материалов дистанционного зондирования с беспилотных летательных аппаратов в единую

аналитическую систему, предназначенную для оперативного прогнозирования чрезвычайных ситуаций геомеханического характера.

Материалы и методы. Математический фундамент моделирования в программном комплексе «КРЕДО Анализ пространственных данных» (далее — КРЕДО АПД) базируется на решении задачи аппроксимации нерегулярно расположенных точек мониторинга. В рамках проведенного исследования для построения цифровых моделей различными методами интерполяции в среде КРЕДО АПД был задействован массив, включающий около 10 тысяч точек.




Рис.1. Отображение исходного массива точек территории до применения методов интерполяции.

Одной из ключевых особенностей работы с объектами открытых горных работ является наличие резких перегибов рельефа, таких как бровки и подошвы уступов. В отличие от упрощенных методов интерполяции, алгоритмы КРЕДО АПД реализуют построение цифровых моделей на основе триангуляции (TIN) с обязательным учетом структурных линий. Данный подход позволяет сохранить геометрию физически значимых граней объекта и исключить математическое сглаживание элементов рельефа, что напрямую влияет на точность оценки устойчивости бортов в условиях высокой техногенной нагрузки.




Рис.2. Цифровая модель поверхности (TIN), построенная по массиву из 10 000 точек.

Данный подход позволяет сохранить геометрию физически значимых граней объекта и исключить математическое сглаживание элементов рельефа, что напрямую влияет на точность оценки устойчивости бортов.




Рис.3. Цифровая модель поверхности, построенная на основе метода Nearest Neighbor (Ближайший сосед).

Для последующего глубокого статистического анализа данные преобразуются в регулярную сетку (GRID). Значение в каждом узле такой матрицы рассчитывается методом взвешенной интерполяции, что позволяет сформировать статистически однородное поле для сопоставления временных циклов наблюдений и выявления динамики изменений в геологической среде. Обоснование точности моделей реализуется через расчет средней квадратической ошибки, а функционал программы обеспечивает автоматическую генерацию карт отклонений, позволяя исследователю выявлять грубые ошибки измерений и исключать их из анализа техногенного воздействия.

Центральным инструментом пространственно-временного анализа выступает дифференциация поверхностей. Путем математического вычитания цифровых моделей разных лет формируется карта разностей, визуализирующая зоны аккумуляции массы (насыпные отвалы) и зоны дефицита массы (карьерные выемки). Использование метода призм в «КРЕДО АПД» позволяет рассчитывать объемы

перемещенных горных масс с точностью, значительно превосходящей традиционные профильные сечения. Параллельно с вертикальными смещениями программа позволяет проводить расчет градиентов поверхности, на основе которых строятся карты критических углов наклона.




Рис.4. Цифровая модель поверхности, полученная с использованием алгоритма интерполяции *Natural Neighbor* (Естественный сосед).




Рис.5. Цифровая модель поверхности, построенная с применением метода *Inverse Distance Weighting* (Обратные расстояния).

Существенным дополнением к анализу устойчивости является возможность оценки солнечной экспозиции бортов карьера. Учитывая географическое положение объектов (например, карьер «Микашевичи»), рас-

положенных севернее экватора, инсоляция распределяется неравномерно. Настройка 3D-освещения в «КРЕДО АПД» позволяет моделировать положение солнца в разное время суток (западное, южное направление) и оценивать степень прогрева склонов.




Рис.6. Модель освещенности бортов карьера при южном направлении источника освещения.

Установлено, что северный борт карьера, получая больше прямого солнечного воздействия, быстрее подвергается просушке, в то время как южный борт дольше остается в тени, что способствует его избыточному обводнению.




Рис.7. Модель освещенности бортов карьера при западном направлении источника освещения.

Интеграция данных по солнечной экспозиции с картами градиентов позволяет более точно прогнозировать участки, подверженные риску сползания из-за переувлажнения грунтов.




Рис.8. Пример выделения полилинии с демонстрацией определения ее длины.

Дополнительным инструментом анализа является возможность импорта DXF-файлов, содержащих геометрические элементы карьера. После импорта пользователь может выделять отдельные полилинии и выполнять измерение их длины непосредственно в программной среде. Это позволяет использовать цифровые контуры уступов, берм и других структурных элементов для количественного анализа геометрии объекта. Ключевой особенностью системы является возможность работы с полилиниями непосредственно в ее среде. Это избавляет от типичных для многих программ ограничений и позволяет связать геомет-

рические параметры с аналитикой. На рисунке 8 продемонстрирован этот процесс: выбор конкретной линии и расчет ее протяженности, что необходимо для оценки параметров структурных элементов карьерного рельефа.


Заключение. Резюмируя, можно сказать, что использование «КРЕДО АПД» дает преимущество по времени, не жертвуя при этом точностью вычислений. Сочетание регулярных матриц и анализа инсоляции (солнечного освещения) дает возможность фиксировать микродеформации порядка 5–10 мм., что позволяет более гибко учитывать климатические риски и повышать общую безопасность ведения горных работ. Предложенная методика является фундаментом для создания «цифровых двойников» месторождений, обеспечивая комплексный подход к мониторингу геологической среды и безопасности техногенно нагруженных территорий.

Исследования выполнены в рамках реализации проекта БРФФИ–МИРРУ № X25УЗБ-054 «Особенности обеспечения геологической безопасности техногенно нагруженных территорий в процессе разработки месторождений полезных ископаемых открытым способом» на 2025–2027 гг.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

- [1] КРЕДО-Диалог. (2024). КРЕДО АПД. Анализ пространственных данных: руководство пользователя. Минск: Кредо-Диалог.
- [2] Заиров, Ш. Ш., Номдоров, Р. У., Бильдюк, Е. В., & Олимов, Ф. М. (2024). Способ повышения устойчивости бортов карьера путем формирования вогнутого профиля откоса высокого уступа. *Sanoatda raqamli texnologiyalar*, 2(S4-1), 37–41. <https://doi.org/10.70769/3030-3214.SRT.2.4-1.2024.15>
- [3] Кузьмин, Ю. О. (2014). Современная геодинамика разломных зон: разломообразование в реальном масштабе времени. *Геодинамика и тектонофизика*, 5(2), 401–443.
- [4] Кузьмин, Ю. О. (2014). Современная геодинамика разломных зон: разломообразование в реальном масштабе времени. *Геодинамика и тектонофизика*, 5(2), 401–443.

UO‘K: 622.7:622.342(575.01)

 10.70769/3030-3214.SRT.4.1.2026.33

KAULDI KONI OLTIN MA'DANLARI TEXNOLOGIK NAMUNALARINING SIANIDLASH KO'RSATKICHLARINI TADQIQ QILISH



**Samadov Alisher
Usmonovich**

*Texnika fanlari doktori, professor,
Olmaliq davlat texnika universiteti,
Olmaliq, O'zbekiston
E-mail:
alishersamadov@yandex.com
ORCID ID: 0000-0002-3522-8609
Science ID: DSN-0525-0012*



**Nurmuhammedov
Ibrohim
Sunnatullayevich**

*"Mineral resurslar instituti" DM
Ma'danli foydali qazilmalarni
boyitish texnologiyasi
laboratoriyasi boshlig'i, Toshkent,
O'zbekiston
E-mail: nurmuhammedov85@list.ru
ORCID ID: 0009-0001-3725-9986
Science ID: MTN-0525-0264*



**Xaydarov A'zamjon
Abdualiyevich**

*"Olmaliq kon-metallurgiya
kombinati" AJ, Olmaliq,
O'zbekiston
E-mail: azamjonxaydarov@mail.ru
ORCID ID: 0009-0008-0877-6117
Science ID: FTV-0326-0002*



**Jabborov Ergash
Yusuf o'g'li**

*"Mineral resurslar instituti" DM
kichik ilmiy xodimi, Toshkent,
O'zbekiston
E-mail:
ergashjabborov92@gmail.ru
ORCID ID: 0009-0008-0299-1529
Science ID: MSN 0525-0169*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Kauldi koni oltin ma'danlarini moddiy tarkibini kimyoviy, ratsional tahlil qilish va dastlabki texnologik namunalarni sianlashga oid o'tkazilgan tajriba ishlari natijalari keltirilgan. Ma'dan o'rtacha namunasining kimyoviy tahlil natijalariga ko'ra oltinning o'rtacha miqdori 3,08 sh/b, kumushning miqdori esa 2,44 sh/b ni tashkil etdi. Ma'dan namunasidagi sianidlash mumkin bo'lgan erkin oltin 90%, kumush esa 91,36% ni tashkil etadi; Sb va As minerallari va birikmalari bilan bog'langan oltin 2,9% va kumush 1,23%; temir va marganets karbonatlari va gidroksidlari bilan bog'langan oltin 0,32%, kumush 0,82%; sulfidlar (pirit, arsenopirit) bilan bog'langan oltin 6,45%, kumush 2,47%; kvarts, alyumosilikatlar va boshqa kislotada erimaydigan minerallar tarkibidagi oltin 0,32%, kumush 4,16% ni tashkil qiladi. Dastlabki ma'dan va boyitish mahsulotlarini to'g'ridan-to'g'ri sianidlash bo'yicha sinovlar o'tkazildi. Oltinni erituvchi birikma sifatida natriy sianidi va uning o'rnini bosuvchi Jinchan (Xitoy) reagentidan foydalanildi. O'tkazilgan tajribalar natijasida oltinni eritmaga o'tkazish bo'yicha optimal rejim aniqlandi. Ma'danni -0,044 mm o'lchamgacha yanchib, natriy sianidi konsentratsiyasi 0,07% (1,4 kg/t) va jarayon davomiyligi 36 soat bo'lganda sianidlanganda oltinning eritmaga ajralishi 90% va kumushniki 88,36% ni tashkil qildi. Jinchan reagentini qo'llab o'tkazilgan tajribalar ushbu reagentni qo'llab olingan natijalar sianidni qo'llab olingan natijalar bilan teng natijalarni olish imkonini berishini ko'rsatdi. Ma'danni -0,044 mm o'lchamgacha yanchib, Jinchan reagenti konsentratsiyasi 0,3% (6 kg/t) va jarayon davomiyligi 24 soat bo'lganda tanlab eritilganda oltinning eritmaga ajralishi 91,55% va kumushniki 91,72% ni tashkil qildi.
Kalit so'zlar: oltin, sianlash, Kauldi koni, ratsional tahlil, kimyoviy tahlil, eritmaga ajralishi, yanchish, natriy sianid, Jinchan.

ИССЛЕДОВАНИЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЦИАНИРОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБ ЗОЛОСОДЕРЖАЩИХ РУД МЕСТОРОЖДЕНИЯ КАУЛДЫ

**Самадов Алишер
Усмонович**

Доктор технических наук,
профессор, Алмалыкский
государственный технический
университет, Алмалык,
Узбекистан

**Нурмухаммедов
Иброхим
Суннатуллаевич**

Руководитель Лаборатории
технологий обогащения
минералов, Государственная
служба образования «Институт
минеральных ресурсов»,
Ташкент, Узбекистан

**Хайдаров Аъзамжон
Абдуллаевич**

АО «Алмалыкский горно-
металлургический комбинат»,
Алмалык, Узбекистан

**Жабборов Эргаш Юсуф
угли**

Младший научный сотрудник
Института минеральных
ресурсов, Ташкент, Узбекистан

Аннотация. В данной статье представлены результаты экспериментальных исследований по химическому и рациональному анализу вещественного состава золотосодержащих руд месторождения Каульды, а также по цианированию исходных технологических проб. По результатам химического анализа пробы руды среднее содержание золота составило 3,08 у/е, серебра — 2,44 у/е. В пробе руды содержание свободного, поддающегося цианированию золота составило 90%, серебра — 91,36%; золото, связанное с минералами и соединениями Sb и As составило 2,9%, серебра — 1,23%; золото, связанное с карбонатами и гидроксидами железа и марганца — 0,32%, серебра — 0,82%; золото, связанное с сульфидами (пирит, арсенипирит) — 6,45%, серебра — 2,47%; золото в виде мелких включений в кварце, алюмосиликатах и других кислотонерастворимых минералах — 0,32%, серебра — 4,16%. Проведены испытания по прямому цианированию исходной руды и продуктов обогащения. В качестве выщелачивающего реагента использован цианида натрия и реагент Jinchap (КНР). По результатам проведенных экспериментов определен оптимальный режим перевода золота в раствор. При измельчении руды до класса крупности $-0,044$ мм, концентрации цианистого натрия 0,07% (1,4 кг/т) и продолжительности процесса 36 ч извлечение золота в раствор составило 90%, серебра — 88,36%. Эксперименты с применением реагента Jinchap показали возможность получения результатов, сопоставимых с результатами выщелачивания с использованием цианистого натрия. При измельчении руды до $-0,044$ мм, концентрации реагента Jinchap 0,3% (6 кг/т) и продолжительности процесса 24 ч при селективном выщелачивании извлечение золота в раствор составило 91,55%, серебра — 91,72%.

Ключевые слова: золото, цианирование, месторождение Каульды, рациональный анализ, химический анализ, извлечение в раствор, измельчение, цианид натрия, Jinchap.

STUDY OF CYANIDATION PARAMETERS OF TECHNOLOGICAL SAMPLES OF GOLD-BEARING ORES FROM THE KAULDY DEPOSIT

Samadov Alisher

Doctor of Technical Sciences,
Professor, Almalyk State Technical
University, Almalyk, Uzbekistan

**Nurmukhammedov
Ibrokhim**

Head of the Mineral Enrichment
Technology Laboratory of the State
Education Service "Institute of
Mineral Resources", Tashkent,
Uzbekistan

Khaidarov Azamjon

"Almalyk Mining and Metallurgical
Combine" JSC, Almalyk,
Uzbekistan

Jabbarov Ergash

Junior Researcher at the Mineral
Resources Institute, Tashkent,
Uzbekistan

Abstract. This article presents the results of experimental studies on the chemical and rational analyses of the material composition of gold-bearing ores from the Kauldy deposit, as well as on the cyanidation of initial technological samples. According to the chemical analysis of the average ore sample, the average gold content was 3.08 c/u and the silver content was 2.438 c/u. In the ore sample, the proportion of free, cyanide-leachable gold was 90%, and that of silver was 91.36%; gold associated with Sb and As minerals and compounds accounted for 2.9%, silver for 1.23%; gold associated with iron and manganese carbonates and hydroxides accounted for 0.32%, silver for 0.82%; gold associated with sulfides (pyrite, arsenopyrite) accounted for 6.45%, silver for 2.47%; gold occurring as fine inclusions within quartz, aluminosilicates, and other acid-insoluble minerals accounted for 0.32%, while silver accounted for

4.16%. Tests were carried out on the direct cyanidation of the initial ore and beneficiation products. The Jinchan reagent (PRC) was used as a leaching agent as an alternative to sodium cyanide. Based on the experimental results, the optimal conditions for gold dissolution were determined. When the ore was ground to a particle size of -0.044 mm, with a sodium cyanide concentration of 0.07% (1.4 kg/t) and a leaching duration of 36 h, gold extraction into solution reached 90%, while silver extraction reached 88.36%. Experiments using the Jinchan reagent demonstrated that results comparable to those obtained using sodium cyanide can be achieved. When the ore was ground to -0.044 mm, with Jinchan reagent concentration of 0.3% (6 kg/t) and a leaching duration of 24 h under selective leaching conditions, gold extraction into solution reached 91.55% and silver extraction reached 91.72%.

Keywords: gold, cyanidation, Kauldy deposit, rational analysis, chemical analysis, extraction into solution, grinding, sodium cyanide, Jinchan.

Kirish. So‘nggi o‘n yilliklarda erkin boyitiladigan (free-milling) oltin zaxiralarning kamayib borishi natijasida, oltin qazib olish sanoati e‘tiborini qiyin boyitiladigan oltin ma‘danlaridan oltin ajratib olishga qaratdi. Bunday ma‘danlar an‘anaviy sianidlash usullari yordamida oltinni ajratib olish darajasi pastligi bilan ajralib turadi [1]. Odatda, agar oltinni ajratib olish darajasi 80% dan kam bo‘lsa, oltin ma‘danlari qiyin boyitiluvchi ma‘dan sifatida tavsiflanadi [2-3]. Sulfidli qiyin boyitiluvchi oltin ma‘danlarida esa mayda oltin zarralari ko‘pincha pirit va arsenopirit kabi sulfid minerallar ichida mayda tarqalgan va kapsulalangan holatda uchraydi [4]. Shu sababli, bunday ma‘danlarni qayta ishlashdan oldin ishlov berish (pretreatment) usullarini qo‘llash talab etiladi. Bular jumlasiga kuydirish (roasting), bakterial oksidlash (biooksidlash) yoki avtoklavda bosim ostida oksidlash (pressure oxidation) kabi texnologiyalar kiradi [5-6-7]. Ma‘danning mineralogik tarkibi va oltin miqdoriga bog‘liq holda, odatda ma‘danning o‘zini emas, balki oltinga boy boyitmalarni qayta ishlash afzal hisoblanadi. Bunga flotatsiya kabi boyitish usullari yordamida sulfidli boyitmalar olish orqali erishiladi. Hosil bo‘lgan oltin boyitma tarkibida, odatda, oltinning katta miqdori hamda oltinning asosiy tashuvchilari bo‘lgan sulfid minerallarda (masalan, pirit va arsenopirit) mavjud bo‘ladi.

Kauldi koni ma‘danlaridan olingan texnologik namuna moddiy tarkibiga ko‘ra pirit qo‘shimchalariga ega bo‘lgan kulrang-oq va qaymoq-oq rangli kvarts-karbonatli metasomatitlar bilan ifodalanadi. Namunaning ma‘danli minerallashuvi asosan pirit, xalkopirit va xalkozin bilan ifodalangan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Sianlash

tajribalari dastlabki ma‘dan va boyitish mahsulotlarida olib borildi. Bo‘tana aralashtirish usuli bilan sianlash jarayoni ochiq kolbalarda, Irgiredmet konstruksiyasidagi shisha-idish agitatsorida 1-rasmda keltirilgan sxema bo‘yicha amalga oshirildi. Tajribalar standart metodika asosida bajarildi: 100-200 g massadagi material namunalari himoya ishqori qo‘shilgan sianidli eritma bilan aralashtirildi. Eritmadagi natriy sianid konsentratsiyasi ikki indikator — Faygl reaktivi va kaliy yodid ishtirokida aniqlandi. Agar zarur bo‘lsa, ayni eritmalarda himoya ishqori konsentratsiyasini keyinchalik aniqlash maqsadida kaliy yodid qo‘llanildi. Bo‘tana tarkibidagi sianid va ohak miqdori ularning sarflanishiga qarab muntazam ravishda qo‘shib borildi. Sianid o‘rnini bosuvchi Jinchan reagenti (Xitoy) bilan olib borilgan eritish jarayoni ma‘dan va boyitish mahsulotlarini sianlashda qo‘llanilgan metodika asosida bajarildi.

1-jadval

Ma‘danning namunasining oltin va kumush bo‘yicha ratsional tahlil natijalari

Qimmatbaho metallarning mavjud shakllari va ularning ma‘danli minerallar bilan bog‘lanish xususiyati	Metallarning taqsimlanishi			
	Oltin		Kumush	
	sh/b	%	sh/b	%
Oltin va kumush tabiiy sof holatda bo‘lib, boshqa minerallar bilan o‘shimlar shaklida uchraydi: xloridlar, sulfatlar, oddiy kumush sulfidlar (sianidlash mumkin bo‘lgan).	2,79	90	2,22	91,36
Oltin va kumush Sb va As minerallari hamda kimyoviy birikmalari bilan birikkan holda (arsenopirit va Sb ning 5-valent birikmalaridan tashqari) uchraydi; ishqoriy ishlov berishdan so‘ng sianidlash mumkin.	0,09	2,9	0,03	1,23
Oltin va kumush kislotada eriydigan minerallar, temir va manganets oksidlar bilan bog‘langan holda uchraydi (karbonatlar, oksidlar va gidroksidlar); HCl bilan ishlov berilgach sianidlash mumkin.	0,01	0,32	0,02	0,82
Oltin va kumush sulfidlar (pirit va arsenopirit) ichida maydadispers shaklida tarqalgan; HNO ₃ bilan ishlov berilgach sianidlash mumkin.	0,2	6,45	0,06	2,47
Oltin va kumush kvarts, alyumosilikatlar va boshqa kislotada erimaydigan minerallar ichida uchraydi.	0,01	0,32	0,10	4,16
Ma‘dandagi jami:	3,1	100	2,43	100

1-jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, tadqiq qilinayotgan ma‘dan namunasidagi sianidlash

mumkin bo'lgan erkin oltin miqdori 90%, kumush esa 91,36% ni tashkil etadi; Sb va As minerallari va birikmalari bilan bog'langan oltin 2,9%, kumush 1,23%; temir va marganets karbonatlari va gidroksidlari bilan bog'langan oltin 0,32%, kumush 0,82%; sulfidlar (pirit, arsenopirit) bilan bog'langan oltin 6,45%, kumush 2,47%; kvarts, alyumosilikatlar va boshqa kislotada erimaydigan minerallar ichidagi oltin 0,32%, kumush 4,16% ni tashkil qiladi.

Natijalar va muhokama. Dastlabki materialda, sianlashdan keyingi qoldiqlarda (keklarda) hamda sianidli eritmalarda qimmatbaho metallar miqdori atom-absorbtsion spektrometr yordamida kimyoviy usulda aniqlandi. Dastlabki ma'dan 0,044 mm dan 1 mm gacha bo'lgan turli yanchish yirikligida sianlash jarayoni amalga oshirildi.

MADANNI NATRIY SIAN BILAN TANLAB ERITISH SXEMASI




1-rasm. Ma'dan dastlabki namunasini turlik yirikliklarda va turli vaqt oraliqlarida, turli NaCN sarflarida tanlab eritish sxemasi.

Tajribalarda natriy sianid konsentratsiyasi 0,04%; 0,07% va 0,1% oraliqda o'zgartirildi, tanlab eritish davomiyligi esa 12 soatdan 48 soatgachani tashkil etdi. Tajribalar davomida o'zgarish parametrlar sifatida quyidagilar qabul qilindi: namuna massasi — 100–150 g, suyuqlik:qattiq modda nisbati (S:Q) — 2:1 hamda himoya ishqori konsentratsiyasi — 0,02%.

Madanni sianlash jarayonida qimmatbaho metallarni sianidli eritmaga eng yuqori ajralish ko'rsatkichlari ma'dan 0,044 mm yiriklikda maydalanganda, natriy sianid konsentratsiyasi 0,07% (1,4 kg/t) va jarayon davomiyligi 36 soat bo'lgan sharoitda olingan. Ma'danni optimal sharoitlarda sianlashda oltinni sianidli eritmaga ajralishi 90%, kumushniki esa 88,36%ni tashkil etdi. Shuningdek, 80% -0,074 mm yiriklikdagi ma'dan namunasini sianlashda, natriy sianid konsentratsiyasi 0,1% (2 kg/t) bo'lganda, oltinni

sianidli eritmaga ajralishi 73,03%, kumushni esa 70,82% ni tashkil qilgan.

Ma'danni qimmatbaho metallarni eritmaga o'tkazish maqsadida sianid o'rni bosuvchi Jinchan reagenti (Xitoyda ishlab chiqarilgan) sinovdan o'tkazildi.




2-rasm. Turli NaCN sarfi va turli vaqt davomida tanlab eritishdagi metallarning eritmaga ajralish ko'rsatkichlari.

Ma'danni tanlab eritish olish tajribalari 1-rasmdagi sxema bo'yicha o'tkazilgan bo'lib, turli granulometrik tarkibdagi ma'danlar (0,044 mm dan 1 mm gacha) ishlatilgan. Tajribalarda Jinchan reagentining sarfi quyidagi oraliqda o'zgartirilgan: 1,5; 3; 4,5 va 6 kg/t (ya'ni 0,075; 0,15; 0,225 va 0,3%). Tanlab eritish davomiyligi 12-48 soat bo'lgan.

Tajribalarda doimiy parametrlar quyidagilar: Ma'dan namunasi miqdori – 100–150 g; Suyuq:qattiq nisbati (S:Q) = 2:1; Himoyalovchi ishqor (pH ni barqaror saqlash uchun) – 0,02%.

Sianid o'rni bosuvchi reagent Jinchanni qo'llash natriy sianid bilan olingan natijalar bilan deyarli teng samaradorlik beradi. Jinchan reagentidan foydalangan holda ma'danni yuvish jarayonida qimmatbaho metallarning eritmaga ajratib olinishi eng yuqori darajada ma'danning eng mayin -0,044 mm granulometrik fraksiyasida kuzatilgan. Optimal Jinchan konsentratsiyasi esa 0,3 % (6 kg/t) va jarayon davomiyligi 24 soat bo'lgan.

Ushbu optimal rejimda ma'danni Jinchan bilan tanlab eritish natijasida oltinning eritmaga ajratib olinishi – 91,55%, kumushning eritmaga ajratib olinishi – 91,72% bo'ldi.



3-rasm. Turli Jinchan sarfi va turli vaqt davomida tanlab eritishdagi metallarning eritmaga ajralish ko'rsatkichlari.

Shuningdek, ma'danning 80% – 0,074 mm fraksiyasida Jinchan konsentratsiyasi 0,07% (1,4 kg/t) bo'lgan holda, oltinning eritmaga ajratib

olinishi – 73,68%, kumushning eritmaga ajratib olinishi – 71,07% bo'lgan.

Xulosa. Natijalar tahlili Jinchan reagentining qo'llanishi orqali olinadigan oltin va kumushni ajratib olish ko'rsatkichlari sianidlash bilan deyarli bir xil darajada, ba'zi hollarda esa biroz yuqori ekanligini ko'rsatdi.

Ma'danni yoki boyitish mahsulotlarini qayta ishlashda an'anaviy natriy sianidi yoki Jinchan reagentini tanlashda ushbu reagentlarni inson salomatligi va atrof-muhitga ta'siri darajasi bilan bir qatorda ularni qo'llashning iqtisodiy omillarini, jumladan, reagentlarni mahalliy yoki import mahsuloti ekanligi, reagentlarni saqlash va tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari, reagentlarning sarfi, ularni chiqindilar tarkibidagi qoldiq konsentratsiyasini zararasizlantirish majburiyati va unga sarf etiladigan reagentlar miqdori kabi omillarni hisobga olish muhim hisoblanadi.

Sianid bilan tanlab eritish ko'rsatkichlarini oshirish uchun chiqindilarni sianid bilan tanlab eritishdan oldin -0,044 mm o'lchamgacha qo'shimcha maydalash tavsiya etiladi. Shu bilan birga, ma'dan tarkibida ko'p miqdorda gil minerallari mavjudligi sababli, sianlash keki filtratsiyasida qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkinligini hisobga olish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Barbouchi, A., Ayadi, S., Idouhli, R., Khadiri, M. E., Abouelfida, A., Barfoud, L., Faqir, H., Benzakour, I., & Benzakour, J. (2025a). Highly efficient pretreatment for refractory gold ores using persulfate, catalyst and free radical based advanced oxidation processes to improve cyanidation. *Hydrometallurgy*, 235.
- [2] Barbouchi, A., Er-Raqi, I., Hamchi, M., Idouhli, R., Khadiri, M., Abouelfida, A., El Alaoui-Chrifi, M. A., Faqir, H., Benzakour, I., & Benzakour, J. (2024a). Chemical oxidation of arsenopyrite by strong oxidizing agents for oxidative pretreatment of refractory arsenopyritic gold ores. *Acta Geodynamica et Geomaterialia*, 185–194.
- [3] Barbouchi, A., Louarrat, M., Mikali, M., Barfoud, L., El Alaoui-Chrifi, M. A., Faqir, H., Benzakour, I., Idouhli, R., Khadiri, M. E., & Benzakour, J. (2024c). Advancements in improving gold recovery from refractory gold ores/concentrates: A review. *Canadian Metallurgical Quarterly*.
- [4] Badri, R., & Zamankhan, P. (2013). Sulphidic refractory gold ore pre-treatment by selective and bulk flotation methods. *Advanced Powder Technology*.
- [5] Hammerschmidt, J., Guntner, J., Kerstiens, B., & Charitos, A. (2016). Roasting of gold ore in the circulating fluidized-bed technology. In *Gold Ore Processing: Project Development and Operations*.
- [6] Mesa Espitia, S. L., & Lapidus, G. T. (2015). Pretreatment of a refractory arsenopyritic gold ore using hydroxyl ion. *Hydrometallurgy*, 153, 106–113.
- [7] Miller, P., & Brown, A. R. G. (2016). Bacterial oxidation of refractory gold concentrates. In *Gold Ore Processing: Project Development and Operations*.

UO‘K: 622.7:622.342(575.01)

doi 10.70769/3030-3214.SRT.4.1.2026.34

KAULDI KONI OLTIN MA'DANLARI TURLI KOMBINATSIYALASHGAN QAYTA ISHLASH SXEMALARINI TAHLIL QILISH



**Samadov Alisher
Usmonovich**

*Texnika fanlari doktori, professor,
Olmaliq davlat texnika universiteti,
Olmaliq, O'zbekiston*
E-mail:
alishersamadov@yandex.com
ORCID ID: 0000-0002-3522-8609
Science ID: DSN-0525-0012



**Nurmuhamedov
Ibrohim
Sunnatullayevich**

*"Mineral resurslar instituti" DM
Ma'danli foydali qazilmalarni
boyitish texnologiyasi
laboratoriyasi boshlig'i, Toshkent,
O'zbekiston*
E-mail: nurmuhamedov85@list.ru
ORCID ID: 0009-0001-3725-9986
Science ID: MTN 0525-0264



**Xamidullayev Baxrom
Narzullayevich**

*"Mineral resurslar instituti" DM,
"Olmaliq tajriba-sinov va
geoinnovatsion texnologiyalar
markazi" mudiri, Toshkent,
O'zbekiston*
E-mail: baxrom_0786@mail.ru
ORCID ID: 0000-0001-9066-1969
Science ID: FSN 0525-0188



**Hakimov Azamat
Xushbakovich**

*"O'zbek geologiya qidiruv" AJ
Laboratoriya boshlig'i, Toshkent,
O'zbekiston*
E-mail: Khakimov@gmail.com
Science ID: MTN 0525-0264

Annotatsiya. Ushbu maqolada Kauldi koni oltin ma'danlarini turli usullarni qo'llab boyitiluvchanligini o'rganish, jumladan ma'danni gravitatsion va flotatsion usulda boyitish bilan bir qatorda ushbu usullarni birgalikda kombinatsiya usulida qo'llash asosida ma'dan tarkibidagi qimmatbaho komponentlarni maksimal darajada samarali ajratib olish imkonini beruvchi texnologik yechimlar tahlil qilingan. Bunda boyitmalarni mis eritish zavodida eritish va sianidlash, boyitish chiqindilarini esa sianidlash usulini qo'llab qayta ishlash nazarda tutilgan. Bunda ma'dan tarkibida gil minerallari miqdori yuqoriligi sababli sianidlash qoldig'ini filtrlashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni ham hisobga olish kerak bo'ladi. O'tkazilgan laboratoriya tadqiqotlari natijalari asosida Kauldi koni ma'danini 90% -0,074 mm o'lchamgacha yanchish, ikkitadan asosiy va nazorat flotatsiyasi, ushbu jarayonlar ko'pikli mahsulotini tozalash flotatsiyasi va flotatsiya chiqindisini sianidlashni o'z ichiga oluvchi flotatsiya-sianidlash sxemasi tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: Oltin, kumush, gravitatsiya, flotatsiya, yanchish, boyitish, boyitma, chiqindi, ajralishi, kombinatsiyalashgan sxema.

ИЗУЧЕНИЕ РАЗЛИЧНЫХ КОМБИНИРОВАННЫХ СХЕМ ПЕРЕРАБОТКИ ЗОЛОТОСОДЕРЖАЩИХ РУД МЕСТОРОЖДЕНИЯ КАУЛЬДЫ

**Самадов Алишер
Усмонович**

*Доктор технических наук,
профессор, Алмалыкский
государственный технический
университет, Алмалык,
Узбекистан*

**Нурмухаммедов
Иброхим
Суннатуллаевич**

*Руководитель Лаборатории
технологий обогащения
минералов, Государственная
служба образования «Институт
минеральных ресурсов»,
Ташкент, Узбекистан*

**Хамидуллаев Бахром
Нарзуллаевич**

*Начальник Алмалыкским
центром опытно-
испытательных и
геоинновационных технологий ГУ
«Институт минеральных
ресурсов», Ташкент, Узбекистан*

**Хакимов Азамат
Хушбакович**

*Начальника лабораторий АО
«Узбекгеологоразведка»,
Ташкент, Узбекистан*

Аннотация. В данной статье проанализированы технологические решения, позволяющие максимально эффективно извлекать ценные компоненты из руды на основе изучения обогатимости золотосодержащих руд месторождения Каульды различными методами, включая гравитационное и флотационное обогащение руды, а также комбинированное применение данных методов. При этом предусматривается плавка и цианирование концентратов на медеплавильном заводе, а отходы обогащения перерабатываются методом цианирования.

При этом необходимо учитывать проблемы фильтрации цианистого остатка, обусловленные повышенным содержанием глинистых минералов в составе руды. На основании результатов проведённых лабораторных исследований для руды месторождения Каульды рекомендуется флотационно-цианистая схема, включающая измельчение руды до 90% класса -0,074 мм, проведение двух стадий основной и контрольной флотации, перечистную флотацию пенного продукта, а также цианирование хвостов флотации.

Ключевые слова: Золото, серебро, гравитация, флотация, измельчение, обогащение, концентрат, хвосты, извлечение, комбинированная схема.

STUDY OF VARIOUS COMBINED SCHEMES FOR PROCESSING GOLD-BEARING ORES OF THE KAULDY DEPOSIT

Samadov Alisher

Doctor of Technical Sciences,
Professor, Almalik State Technical
University, Almalik, Uzbekistan

**Nurmukhammedov
Ibrokhim**

Head of the Mineral Enrichment
Technology Laboratory of the State
Education Service "Institute of
Mineral Resources", Tashkent,
Uzbekistan

Khamidullaev Bakhrom

Head of the Almalik Center for
Experimental and Geoinformation
Technologies of the State Institution
"Institute of Mineral Resources",
Tashkent, Uzbekistan

Jabborov Ergash

Head of the laboratory of JSC
"Uzbekgeological Exploration",
Tashkent, Uzbekistan

Abstract. This article analyzes technological solutions for maximizing the efficient extraction of valuable components from ore based on a study of the beneficiability of gold-bearing ores at the Kauldy deposit using various methods, including gravity and flotation concentration, as well as a combination of these methods. This involves smelting and cyanidation of concentrates at a copper smelter, while the waste is processed by cyanidation.

However, it is necessary to consider the challenges of filtering the cyanide residue due to the high clay mineral content of the ore. Based on the results of laboratory studies, a flotation-cyanide circuit is recommended for the Kauldy deposit. This circuit includes grinding the ore to 90% -0.074 mm, two stages of rougher and scavenger flotation, cleaning flotation of the froth product, and cyanidation of the flotation tailings.

Keywords: Gold, silver, gravity, flotation, grinding, enrichment, concentrate, tailings, extraction, combined scheme.

Kirish. So'nggi yillarda flotatsiya nazariyasidagi yutuqlar oltin va oltin-sulfidli birikmalarning ajratib olinishini boshqaruvchi murakkab fizik-kimyoviy jarayonlarni chuqurroq tushunishga imkon berdi. Klassik adsorbsiya, sirt oksidlanishi va ho'llanuvchanlik tushunchalaridan tashqari, zamonaviy tadqiqotlar flotatsiya jarayonida elektrokimyoviy reaksiyalar, mineral sirtlarining zaryadlanishi, gidrodinamik-kimyoviy o'zaro ta'sirlar hamda diksantogen kabi oraliq birikmalarning hosil bo'lishi muhim rol o'ynashini

ta'kidlamogda [1-5]. Flotatsiya jarayonini optimallashtirish uchun ortogonal rejalashtirish va javob yuzasi rejalari (response surface designs) kabi bir qator modellar qo'llanilishi mumkin. Ortogonal modellar asosan omillarni dastlabki tanlab olish (screening) uchun ishlatiladi va egri chiziqlilik (curvature) haqida cheklangan ma'lumot beradi va shu sababli murakkab javoblarni modellashtirish uchun yetarli emas deb hisoblanadi [6]. Box-Behnken va Markaziy kompozitsion dizayn (Central Composite Design, CCD) kabi javob yuzasi rejalari

bu borada imkoniyatlarni kengaytiradi, chunki ular kvadratik modellashtirishdan foydalanadi, biroq ularning ham o'ziga xos cheklovlari mavjud. CCD da faktorial va o'qli (axial) nuqtalarning mavjudligi ko'pincha amaliy yoki xavfsiz tajriba chegaralaridan chiqib ketishiga olib keladi. Box-Behnken dizayni esa tajriba nuqtalarini yuzaning markaziy qismida joylashtirib, tajriba makonining ayrim hududlarini o'rganilmay qolishiga sabab bo'ladi [7-9]. Bunga qarama-qarshi ravishda, Doehlert dizayni tajriba nuqtalarini butun tajriba domeni bo'ylab bir tekis taqsimlaydi, yuqori darajadagi barqarorlik va barqaror bashorat aniqligini ta'minlaydi. Shuningdek, bu dizayn har bir omilni turli darajalar sonida o'rganish imkonini beradi, bu esa katta moslashuvchanlikni ta'minlab, talab etiladigan tajribalar umumiy sonini kamaytiradi [10-11]. Ushbu xususiyatlar sababli Doehlert dizayni flotatsiya jarayonini optimallashtirish uchun ayniqsa samarali va mos keladi, chunki bunda tajriba domenini to'liq qamrab olish va javobni ishonchli modellashtirish muvaffaqiyatli optimallashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Tajriba dizayni va AQM tahlilini integratsiyalashgan yondashuv asosida qo'llagan holda, qiyin boyitiluvchi oltin ma'danida oltinni flotatsiya orqali ajratib olish darajasini oshirish va optimallashtirishdir. pH qiymati va zarracha o'lchamining taqsimoti (D80) ning ta'siri Doehlert dizayni va javob yuzasi metodologiyasi (RSM) kombinatsiyasida o'rganildi. Ushbu statistik vositalardan foydalanish tajribalar sonini minimalashtirish, tajriba omillarining nisbiy ta'sirini hamda ularning o'zaro ta'sirlarini baholash imkonini berdi. Shuningdek, flotatsiya jarayonini o'tkazishda modal mineralogiya, erkinlashish (liberation), assotsiatsiya va oltin hamda oltin tarkibli minerallarning qamalanganligi (locking) bo'yicha chuqur mineralogik tadqiqotlar natijalari asos bo'ldi.

Hozirgi vaqtda oltin va kumush kabi nodir metallarni o'z ichiga olgan juda ko'p miqdordagi texnogen va ikkilamchi chiqindilari mavjud. Bunday xom ashyoning har bir turi material tarkibining xususiyatlari va undagi oltin va nodir metallarning holatiga ko'ra ushbu nodir metallarni ajratib olishga o'ziga xos yondashuvni talab qiladi. Ma'lumki, turli xildagi texnogen chiqindilar va ikkilamchi manbalar asosan tog'-kon, foydali qazilmalarni boyitish, metallurgiya, maishiy texnika

ishlab chiqarish va energetika kabi sanoat komplekslari tomonidan atrof muhitga ajratib chiqariladi [12].


Adabiyotlar tahlili va metodlar. Sianlash tajribalari dastlabki ma'dan va boyitish mahsulotlarida olib borildi. Bo'tanani aralashtirish usuli bilan sianlash jarayoni ochiq kolbalarda, Irgiredmet konstruksiyasidagi shisha-idish agitatorida 1-rasmda keltirilgan sxema bo'yicha amalga oshirildi. Tajribalar standart metodika asosida bajarildi: 100–200 g massadagi material namunalari himoya ishqori qo'shilgan sianidli eritma bilan aralash-tirildi. Eritmadagi natriy sianid konsentratsiyasi ikki indikator — Faygl reaktivi va kaliy yodid ishtirokida aniqlandi. Agar zarur bo'lsa, ayni eritmalarda himoya ishqori konsentratsiyasini keyinchalik aniqlash maqsadida kaliy yodid qo'llanildi. Pulpa tarkibidagi sianid va ohak miqdori ularning sarflanishiga qarab muntazam ravishda to'ldirib borildi.

Ma'danni yanchish qattiq:suyuq:sharning 1:0,75:8 nisbatida 40ML laboratoriya tegirmonida amalga oshirildi.

Ma'danni gravitasion usulda boyitish 30 KS markali laboratoriya konsentrason stoli va Falcon L40 markali laboratoriya markazdan qochma konsentratorida amalga oshirildi.

Ma'danni (gravitatsiya chiqindisini) flotasion usulda boyitish kameralari o'lchami 3,0; 1,0 va 0,5l bo'lgan FM-1, FM-2, FL-237 flotasion mashinalarda amalga oshirildi. Boyitmalarni to'plash maqsadida yiriklashtirilgan tajribalar FL-60 qo'sh-kamerali flotasion mashinada bajarildi.

RUDA VA BOYITISH MAHSULOTLARINI SIANLASH SXEMASI



1-rasm. Madan dastlabki namunasini turli yirikliklarda va turli vaqt oraliqlarida, turli NaCN sarflarida tanlab eritish sxemasi.

Natijalar va muhokama. 1-jadvalda ma'danni turli usullarni alohida va kombinatsion usulda qo'llab qimmatbaho metallarni yakuniy

ajratib olish ko'rsatkichlari keltirilgan.

Bunda ma'danni to'g'ridan to'g'ri sianidlash, gravitatsiya+sianidlash, gravitatsiya+flotatsiya+sianidlash sxemalarini qo'llab qayta ishlash natijalari keltirilgan. Bundan tashqari boyitmalarni qayta ishlashning ikki usuli – boyitmalarni mis eritish zavodida eritish va sianidlash usullarini qo'llab qayta ishlash natijalari ko'rib chiqilgan.

1-jadval

Kauldi koni ma'danlarini qayta ishlashning turli sxemalari bo'yicha umumiy natijalar

Qayta ishlash jarayoni	Mahsulotlarga ajralishi, %		Sianlashni hisobga olgan holda ajralish, %		Boyitmani eritishni hisobga olgan holda ajralish (97%), %	
	Au	Ag	Au	Ag	Au	Ag
To'g'ridan-to'g'ri sianlash						
Ma'danni to'g'ridan-to'g'ri sianlash (-0,044 mm)	90	88,36				
Gravitatsiya+sianlash						
Gravitatsion boyitma	16,3	12,1	15,62	11,24	15,8 1	11,74
Gravitatsiya chiqindisi, -0,25+0 mm	83,7	87,9	55,25	54,79	55,2 5	54,79
Jami:	100	100	70,87	66,02	71,0 6	66,53
Flotatsiya+sianlash						
Flotoboyitma	70,1	51,6	64,68	44,79	68,0 0	50,05
Flotatsiya chiqindisi, 90% -0,074 mm	29,9	48,4	18,01	13,94	18,0 1	13,94
Jami:	100	100	82,69	58,73	86,0 1	63,99
Gravitatsiya+flotatsiya+sianlash						
Gravitatsion boyitma	16,3 0	12,10	15,62	11,24	15,8 1	11,74
Flotoboyitma	49,2 2	39,47	44,32	33,31	47,7 4	38,29
Flotatsiya chiqindisi, 90% -0,074 mm	34,4 8	48,43	22,84	17,67	22,8 4	17,67
Jami:	100	100	82,78	62,21	86,3 9	67,69

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, tadqiq qilina-yotgan ma'dan namunasidagi sianidlash mumkin bo'lgan erkin oltin 90%, kumush esa 88,36% ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Gravitatsiya+sianlash sxemasida gravitatsion boyitmaga oltinning ajralishi 16,3%, kumushniki esa 12,1%, sianlash bilan hisoblaganda oltin 15,62%, kumush 11,24% ni tashkil etmoqda. Flotatsiya+yash+sianlash sxemasida oltinning boyitmaga ajralishi 70,1%, kumushning ajralishi 51,6%, sianlash bilan hisoblaganda esa oltinning ajralishi 64,68%, kumushning ajralishi 44,79% ni tashkil etmoqda. Gravitatsiya+flotatsiya+sianlash sxemasida oltinning boyitmalarga umumiy ajralishi 65,32%, kumushning umumiy ajralishi 51,57% ni tashkil etmoqda. Sianlash bilan hisoblaganda oltinning umumiy ajralishi 59,94%, kumushning umumiy ajralishi 44,55% ni tashkil etmoqda.

Sianidlash chiqindilarini filtratsiya qilishdagi muammolar yuzaga keldi, bu ma'dan tarkibida gil minerallari miqdorining yuqoriligi bilan bog'liq. Shu sababli, filtratsiya samaradorligini oshirish uchun, ma'danni maydalashdan oldin oldindan ishlov berish usullari (masalan, ma'dan shamlardan tozalash) ko'rib chiqilishi tavsiya etiladi.

Xulosa. O'tkazilgan laboratoriya tadqiqotlari natijalari asosida Kauldi koni ma'danini 90% -0,074 mm o'lchamgacha yanchish, ikkitadan asosiy va nazorat flotatsiyasi, ushbu jarayonlar ko'pikli mahsulotini tozalash flotatsiyasi va flotatsiya chiqindisini sianidlashni o'z ichiga oluvchi flotatsiya-sianidlash sxemasi tavsiya etiladi.

Gravioboyitmani optimal rejimda sianidlanganda oltinning eritmaga ajralishi jarayon bo'yicha 95,82% va kumushniki 92,86% ni tashkil qildi. Gravitatsion boyitish chiqindisini optimal rejimda sianidlanganda oltinning eritmaga ajralishi jarayon bo'yicha 66,01% va kumushniki 62,33% ni tashkil qildi. Gravitatsion boyitish chiqindisini qo'shimcha yanchib so'ng optimal rejimda sianidlanganda oltinning eritmaga ajralishi jarayon bo'yicha 89,3% va kumushniki 85,11% ni tashkil qildi. Flotoboyitmani optimal rejimda sianidlanganda oltinning eritmaga ajralishi jarayon bo'yicha 92,27% va kumushniki 86,8% ni tashkil qildi. Flotatsion boyitish chiqindisini optimal rejimda sianidlanganda oltinning eritmaga ajralishi jarayon bo'yicha 60,23% va kumushniki 28,8% ni tashkil qildi. Flotatsion boyitish chiqindisini qo'shimcha yanchib so'ng optimal rejimda sianidlanganda oltinning eritmaga ajralishi jarayon bo'yicha 93,82% va kumushniki 55,88% ni tashkil qildi.

Olingan flotatsion boyitmani mis eritish zavodida mis boyitmasi bilan birgalikda eritish yo'li bilan qayta ishlash tavsiya qilinadi. Flotatsion boyitish chiqindisini esa sianidlash tavsiya qilinadi. Bunda olingan eritma tarkibidagi oltinni ajratib olish uchun rux kukunini qo'llab cho'ktirish usulidan foydalanish mumkin.


Sianidlash bo'yicha ko'rsatkichlarni chiqindilarni sianidlash jarayonidan oldin -0,044 mm o'lchamgacha qo'shimcha yanchish jarayonini qo'llash natijasida oshirish mumkin. Bunda ma'dan tarkibida gil minerallari miqdori yuqoriligi sababli sianidlash qoldig'ini filtrlashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni ham hisobga olish

kerak bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- [1] Feng, Q., Zhang, Y., Zhang, G., Han, G., Zhao, W. (2025). Innovative scheme for hemimorphite flotation: Synergistic activation performance and mechanism. *International Journal of Minerals, Metallurgy and Materials*, 32, 1297–1308.
- [2] Mikali, M., Barbouchi, A., Idouhli, R., Abouelfida, A., Yaacoubi, A., Benzakour, I., Faqir, H., Boulaamail, A., Bacaoui, A. (2023). Electrochemical behavior of silver during cyanidation in the presence of sulfide minerals. *Chemical Papers*, 77(4), 2103–2113.
- [3] Moslemi, H., Gharabaghi, M. (2017). A review on electrochemical behavior of pyrite in the froth flotation process. *Journal of Industrial and Engineering Chemistry*.
- [4] Yang, W., Tang, Y., Huang, B., Han, G., Feng, Q. (2025). Enhanced flotation of sulfidized smithsonite in a Cu–Pb dual activation system. *Green and Smart Mining Engineering*, 2, 8–17.
- [5] Tang, Y., Yang, W., Chen, S., Shen, Z., Feng, Q., Zhang, Q. (2026). A green and biodegradable depressant for efficient flotation separation of smithsonite from calcite. *Separation and Purification Technology*, 380.
- [6] Xue, Y., Wu, P., Lü, Y., Shan, H., Xu, X., Yu, B., Chen, X., Zhang, X., Xiong, C. (2026). Cavitation-flotation coupling purification of natural flake graphite. *Separation and Purification Technology*, 382.
- [7] Gao, J., Bu, X., Zhou, S., Wang, X., Alheshibri, M., Peng, Y., Xie, G. (2022). Graphite flotation by β -cyclodextrin/kerosene Pickering emulsion as a novel collector. *Minerals Engineering*, 178.
- [8] Ren, X., Bu, X., Tong, Z., Dong, L., Ma, Z., Wang, J., Cao, M., Qiu, S. (2024). Influences of plasma treatment parameters on the hydrophobicity of cathode and anode materials from spent lithium-ion batteries. *Waste Management*, 184, 120–131.
- [9] Zhou, S., Tong, Z., Dong, L., Bu, X., Ni, C., Xie, G., Alheshibri, M. (2023). Influence of single and combined ultrasounds assisted flake graphite flotation. *Ultrasonics Sonochemistry*, 99.
- [10] Brown, S. D., Tauler, R., Walczak, B. (2009). *Comprehensive chemometrics: Chemical and biochemical data analysis*. Elsevier.
- [11] Cerqueira, U. M. F. M., Bezerra, M. A., Ferreira, S. L. C., De Jesus Araújo, R., Da Silva, B. N., Novaes, C. G. (2021). Doehlert design in the optimization of procedures aiming food analysis: A review. *Food Chemistry*, 364.
- [12] Isoqov, M. U., Nurmammedov, I. S., Jabborov, E. Yu., Normurodov, A. A. (2025). Kauldi oltin koni ma’danlarini flotatsion boyitiluvchanligini va flotatsiyalash mahsulotlarining moddiy tarkibini o‘rganish. *Geologiya fanlari universiteti xabarlari*.

UO‘K: 622.271:519.6:622.232.72

 10.70769/3030-3214.SRT.4.1.2026.17

KARYER BORTLARINING QAVARIQ SHAKLINI ANIQLASHDA KORRELYATSION TAHLILNING MATEMATIK MODELI



Norov G‘ulomjon Mirzоголиб o‘g‘li

Katta o‘qituvchi, Sharq universiteti, Navoiy, O‘zbekiston

E-mail: norovg91@mail.ru

ORCID ID: 0009-0000-1580-9505

Science ID: MNV-0326-0001

Annotatsiya. Ushbu maqola qavariq shakldagi karyer bortlarini kompleks tahlil qilish asosida bortlarning eng xavfsiz trayektoriyasini aniqlashga bag‘ishlangan. Eksperimental ma‘lumotlar asosida bortlarning xilma-xil o‘lchamlari (balandlik va kengligi) bo‘yicha ularning turli xil shakldagi trayektoriyasi aniqlangan. Ushbu trayektoriyalarni analitik ifodalash maqsadida eng kichik kvadratlar usuli qo‘llanilib, ular n -darajali algebraik funksiya yordamida approksimatsiya qilingan. Ushbu yondashuv eksperimental ma‘lumotlar bilan matematik model o‘rtasidagi og‘ishlarni minimallashtirish (matematik modellashtirishda nazariy model bilan eksperimental ma‘lumotlar o‘rtasidagi farqni eng kichik qilish) va real karyer borti profiliga maksimal darajada yaqin bo‘lgan egri chiziqni aniqlash imkonini beradi. Keyingi bosqichda hosil qilingan funksional bog‘lanishlar asosida korrelyatsion tahlil amalga oshirilib, karyer bortlari geometriyasi bilan ularning barqarorlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi statistik bog‘liqlik darajasi baholandi. Natijada bort trayektoriyalarini n -darajali funksiya bilan yaqinlashtirishga asoslangan hamda korrelyatsion bog‘liqlikni hisobga oluvchi matematik model ishlab chiqildi. Ushbu model yordamida turli geometrik parametrlar uchun bortlarning eng barqaror va xavfsiz shaklini aniqlash imkoniyati yaratilgan. Shuningdek, ushbu model asosida karyer bortining barqarorligini ta‘minlaydigan bir nechta muqobil geometrik shakllar yoki optimal konfiguratsiya tanlash mumkinligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: qavariq, kompleks tahlil, approksimatsiya, korrelyatsion tahlil, empirik, regressiya, algoritim, relyef, bort konturi, profil.

МАТЕМАТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ КОРРЕЛЯЦИОННОГО АНАЛИЗА ПРИ ОПРЕДЕЛЕНИИ ВЫПУКЛОЙ ФОРМЫ БОРТОВ КАРЬЕРА

Норов Гуломжон Мирзоголиб угли

Annotatsiya. Porshenli kompressorlarning energiya samaradorligi ko‘p jihatdan kompressorga so‘riluvchi havoning boshlang‘ich termodinamik holatiga, ayniqsa uning haroratiga bog‘liq. So‘riluvchi havoning yuqori harorati gaz zichligining kamayishiga olib keladi, bu esa siqish jarayonida bajariladigan ish miqdorining ortishiga va natijada elektr energiyasi sarfining ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi porshenli kompressorlar uchun ko‘p bosqichli so‘riluvchi havoni sovitish tizimini ishlab chiqish hamda uning termodinamik va aerodinamik ko‘rsatkichlarga ta‘sirini hisoblash suyuqliklar usuli asosida baholashdan iborat. Taklif etilgan texnik yechimda so‘riluvchi havo kompressorga kirishdan oldin ketma ket joylashgan ko‘p bosqichli quvurli issiqlik almashtirgichlar orqali sovitiladi. Tadqiqot SolidWorks Flow Simulation dasturi yordamida amalga oshirildi va harorat hamda bosim maydonlari modellashtirildi. Modellashtirish natijalari so‘riluvchi havoning harorati 40°C dan 7–8°C gacha kamayishini ko‘rsatdi. Bu esa havoning zichligini oshirish, siqish uchun zarur ish miqdorini kamaytirish va kompressorning energiya samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, qurilmadagi bosim yo‘qotish qiymati 14–26 Pa oralig‘ida bo‘lib, bu gidravlik qarshiliklarning minimal darajada ekanligini ko‘rsatadi. Olingan natijalar taklif etilgan ko‘p bosqichli sovitish tizimi kompressorning hajmiy unumdorligini oshirish, elektr energiyasi sarfini kamaytirish va umumiy energiya samaradorligini yaxshilashga xizmat qilishini tasdiqlaydi. Taklif etilgan texnik yechim sanoat porshenli kompressorlarida energiya tejamkor texnologiya sifatida qo‘llanishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Porshenli kompressor, so‘riluvchi havo, ko‘p bosqichli sovitish, issiqlik almashtirgich, suyuqliklar dinamikasini modellashtirish, energiya samaradorligi, hajmiy unumdorlik, bosim yo‘qotish.

РАЗРАБОТКА МНОГОСТУПЕНЧАТОЙ СИСТЕМЫ ОХЛАЖДЕНИЯ ВСАСЫВАЕМОГО ВОЗДУХА ДЛЯ ПОРШНЕВЫХ КОМПРЕССОРОВ И ИССЛЕДОВАНИЕ ЕЁ ВЛИЯНИЯ НА ЭНЕРГЕТИЧЕСКУЮ ЭФФЕКТИВНОСТЬ

Юлдашев Элмурод Умаралиевич

И.о. доцента, Алмалыкский государственный технический
институт, Алмалык, Узбекистан

Джурраев Шахзод Нумон угли

Старший преподаватель, Алмалыкский государственный
технический институт, Алмалык, Узбекистан

Аннотация. Энергетическая эффективность поршневых компрессоров во многом зависит от начального термодинамического состояния воздуха, поступающего в компрессор, в частности от его температуры. Повышенная температура всасываемого воздуха приводит к уменьшению плотности газа, что вызывает увеличение работы, выполняемой в процессе сжатия, и, как следствие, рост потребления электрической энергии. Целью данного исследования является разработка многоступенчатой системы охлаждения всасываемого воздуха для поршневых компрессоров, а также оценка её влияния на термодинамические и аэродинамические характеристики на основе расчетов методами вычислительной гидродинамики. В предлагаемом техническом решении всасываемый воздух перед поступлением в компрессор охлаждается посредством последовательно расположенных многоступенчатых трубчатых теплообменников. Исследование выполнено с использованием программного комплекса SolidWorks Flow Simulation, в котором были смоделированы поля температуры и давления. Результаты моделирования показали, что температура всасываемого воздуха снижается с 40°C до 7–8°C. Это способствует увеличению плотности воздуха, снижению работы, необходимой для процесса сжатия, и повышению энергетической эффективности компрессора. При этом величина потерь давления в устройстве составляет 14–26 Па, что свидетельствует о минимальном уровне гидравлического сопротивления. Полученные результаты подтверждают, что предложенная многоступенчатая система охлаждения способствует повышению объемной производительности компрессора, снижению потребления электрической энергии и улучшению общей энергетической эффективности. Предложенное техническое решение может быть использовано в промышленных поршневых компрессорах в качестве энергоэффективной технологии.

Ключевые слова: Поршневой компрессор, всасываемый воздух, многоступенчатое охлаждение, теплообменник, моделирование гидродинамики жидкости, энергетическая эффективность, объемная производительность, потери давления.

DEVELOPMENT OF A MULTISTAGE SUCTION AIR COOLING SYSTEM FOR RECIPROCATING COMPRESSORS AND INVESTIGATION OF ITS IMPACT ON ENERGY EFFICIENCY

Yuldashev Elmurod Umaraliyevich

Acting Associate Professor, Almalyk State Technical Institute,
Almalyk, Uzbekistan

Jurayev Shakhzod Numon ugli

Senior Lecturer, Almalyk State Technical Institute, Almalyk,
Uzbekistan

Abstract. The energy efficiency of reciprocating compressors largely depends on the initial thermodynamic state of the air entering the compressor, particularly its temperature. A high temperature of the suction air leads to a decrease in gas density, which increases the work required during the compression process and consequently results in higher electrical energy consumption. The aim of this study is to develop a multi-stage suction air cooling system for reciprocating compressors and to evaluate its effect on thermodynamic and aerodynamic characteristics using computational fluid dynamics methods. In the proposed technical solution, the suction air is cooled before entering the compressor through a series of sequentially arranged multi-stage tubular heat exchangers. The research was carried out using SolidWorks Flow Simulation software, where temperature and pressure fields were modeled. The simulation results showed that the temperature of the suction air decreases from 40 °C to 7–8 °C. This increases air density, reduces the work required for compression, and improves the energy efficiency of the compressor. At the same time, the pressure loss in the device ranges between 14–26 Pa, which indicates minimal hydraulic resistance. The obtained results confirm that the proposed multi-stage cooling system increases the volumetric efficiency of the compressor, reduces electrical energy consumption, and improves overall energy efficiency. The proposed technical solution can be applied in

industrial reciprocating compressors as an energy-efficient technology.

Keywords: *Reciprocating compressor, suction air, multi-stage cooling, heat exchanger, computational fluid dynamics, energy efficiency, volumetric efficiency, pressure loss.*

Kirish. Porshenli kompressorlar konchilik, metallurgiya, kimyo va energetika sanoatlarida siqilgan havoni ishlab chiqarish uchun keng qo'llaniladigan asosiy texnologik uskunalardan biri hisoblanadi. Ushbu qurilmalarning ishlashi katta miqdorda elektr energiyasi sarfi bilan bog'liq bo'lib, ularning energiya samaradorligini oshirish sanoat korxonalarida energiya tejankor texnologiyalarni joriy etishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Kompressorlarning energiya samaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri kompressorga so'riluvchi havoning boshlang'ich haroratidir.

Termodinamik qonunlarga muvofiq, gazning zichligi uning haroratiga teskari proporsionaldir. So'riluvchi havoning harorati ortishi gaz zichligining kamayishiga olib keladi, bu esa kompressor silindriga kiruvchi havo massasining kamayishiga sabab bo'ladi. Natijada kompressor tomonidan bajariladigan siqish ishi ortadi va elektr energiyasi sarfi ko'payadi. Aksincha so'riluvchi havoning haroratini kamaytirish gaz zichligining ortishiga, kompressorning hajmiy unumdorligining oshishiga va siqish uchun zarur energiya sarfining kamayishiga olib keladi.

Shu sababli kompressorga kiruvchi havoning haroratini kamaytirish kompressorlarning energiya samaradorligini oshirishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ko'p bosqichli sovitish tizimlaridan foydalanish orqali issiqlik almashinuvi jarayonining samaradorligini oshirish va havoning haroratini bosqichma bosqich kamaytirish mumkin.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi porshenli kompressorlar uchun ko'p bosqichli so'riluvchi havoni sovitish tizimini ishlab chiqish, uning ishlash prinsipini tahlil qilish va Suyuqliklar dinamikasi modellashtirish asosida termodinamik hamda aerodinamik ko'rsatkichlarini baholashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Sanoat korxonalarida siqilgan havo tizimlari umumiy elektr energiyasi iste'molining 10–20% gacha qismini tashkil etadi va ularning energiya samaradorligini oshirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega [1]. Kompressorlarning energiya samaradorligiga ta'sir

qiluvchi asosiy omillardan biri so'riluvchi havoning termodinamik holati hisoblanadi. Gazning boshlang'ich harorati ortishi siqish jarayonida bajariladigan ish miqdorining ortishiga olib keladi va energiya sarfini oshiradi [2].

Gaz siqish jarayonining termodinamik tahlili shuni ko'rsatadiki, siqish uchun zarur ish gazning boshlang'ich haroratiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lib, haroratning kamayishi siqish ishining kamayishiga olib keladi [3]. Porshenli kompressorlarning ishlash samaradorligini oshirishda issiqlik almashinuvi jarayonlarini optimallashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatib berilgan [4].

Issiqlik almashtirgichlardan foydalanish gaz haroratini kamaytirish va energiya samaradorligini oshirishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Issiqlik almashinuvi jarayonlarini optimallashtirish orqali issiqlik yo'qotishlarini kamaytirish va energiya tejash mumkin [5,6].


So'nggi yillarda issiqlik va oqim jarayonlarini tahlil qilish uchun suyuqliklar dinamikasi model-lashtirish usullari keng qo'llanilmoqda. Suyuqliklar dinamikasi usullari yordamida issiqlik almashinuvi jarayonlarini, harorat va bosim taqsimotini yuqori aniqlik bilan aniqlash mumkin [7,8].

Issiqlik almashtirgichlarning samaradorligi issiqlik uzatish koeffitsiyenti, oqim tezligi va harorat gradientiga bog'liq bo'lib, ushbu parametrlarni optimallashtirish orqali issiqlik almashinuvi samaradorligini oshirish mumkin [9,10].

Mavjud ilmiy tadqiqotlar asosan siqish jarayonidan keyingi sovitish tizimlariga qaratilgan bo'lib, kompressorga kiruvchi havoni ko'p bosqichli sovitish orqali energiya samaradorligini oshirish masalasi yetarli darajada o'rganilmagan. Shu sababli, kompressorga kiruvchi havoni ko'p bosqichli sovitish tizimini ishlab chiqish va uning samaradorligini suyuqliklar dinamikasi model-lashtirish asosida baholash muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Natijalar. Porshenli kompressorga kiruvchi havoning haroratini kamaytirish va siqish jarayonining energiya samaradorligini oshirish maqsadida ko'p bosqichli so'riluvchi havoni

sovitish qurilmasi ishlab chiqildi. Taklif etilgan sovitish tizimining umumiy texnologik sxemasi 1-rasmda keltirilgan. Ushbu tizimda atmosfera havosi kompressorga kirishdan oldin ketma-ket joylashgan issiqlik almashinuvi qurilmalari orqali o'tkaziladi. Sovitish jarayonida havo sovituvchi qurilma bilan bilan issiqlik almashinuvi natijasida o'z haroratini bosqichma-bosqich kamaytiradi. Sovituvchi muhit yopiq kontur bo'ylab harakatlanadi va issiqlik almashinuvi jarayonining uzluksiz amalga oshishini ta'minlaydi. Natijada kompressorga kiruvchi havoning harorati pasayadi, bu esa gaz zichligining ortishiga va siqish uchun zarur ish miqdorining kamayishiga olib keladi.



1-rasm. Ko'p bosqichli so'riluvchi havoni sovitish tizimining umumiy texnologik sxemasi.

Sovitish qurilmasining geometrik modeli va issiqlik almashinuvi elementlarining fazoviy joylashuvi SolidWorks dasturida uch o'lchamli muhitda ishlab chiqildi. Modelda kirish va chiqish kollektorlar, issiqlik almashinuvi quvurlari va oqim kanallari aniq ko'rsatildi. Ushbu konstruktiv yechim havo oqimining issiqlik almashinuvi yuzasi bilan maksimal aloqasini ta'minlash va issiqlik uzatish samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Issiqlik almashinuvi va oqim jarayonlarini tahlil qilish uchun hisoblash suyuqliklar dinamikasi usuli qo'llanildi. Modellashtirish SolidWorks Flow Simulation dasturiy muhitida amalga oshirildi. Suyuqliklar dinamikasi modeli qurilma ichidagi harorat va bosim taqsimotini aniqlash imkonini beradi. Sovitish qurilmasining uch o'lchamli suyuqliklar dinamikasi modeli va hisoblash sohasining umumiy ko'rinishi 2-rasmda keltirilgan.

Modellashtirish jarayonida ishchi muhit sifatida atmosfera havosi qabul qilindi va uning

fizik xossalari ideal gaz tenglamasi asosida aniqlangan:

$$\rho = \frac{P}{R \cdot T} \quad (1)$$


bu yerda:

ρ - gaz zichligi (kg/m³);

P - bosim (Pa);

R - gaz doimiysi (287 J/(kg·K));

T - mutlaq harorat (K).



2-rasm. Ko'p bosqichli sovitish qurilmasining suyuqliklar dinamikasi modeli va hisoblash sohasi (SolidWorks Flow Simulation).

Gazni siqish uchun zarur ish miqdori quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$$L = \frac{k}{k-1} \cdot R \cdot T_1 \left[\left(\frac{P_2}{P_1} \right)^{\frac{k-1}{k}} - 1 \right] \quad (2)$$

bu yerda:

L - siqish ishi (J/kg);

T_1 - boshlang'ich harorat (K);

P_1 - boshlang'ich va yakuniy bosim (Pa);

k - adiabata ko'rsatkichi.

Hisoblash jarayonida quyidagi chegara shartlari qabul qilindi:

1-jadval

Hisoblash jarayonida qabul qilingan chegara shartlari

1	Kirish harorati	10–40 °C
2	Atmosfera bosimi	101325 Pa
3	Sovituvchi muhit harorati	1 °C, 4 °C va 8 °C
4	Sovituvchi muhit tezligi	0.6 m/s
5	Oqim holati	turbulent

Modellashtirish natijalarining miqdoriy qiymatlari va hisoblash parametrlari 2-jadvalda keltirilgan.

Suyuqliklar dinamikasi modellashtirish yordamida qurilma ichidagi harorat maydoni, bosim taqsimoti va oqim xarakteristikalari aniqlandi. Olingan natijalar asosida sovitish tizimining termodinamik va aerodinamik samaradorligi baholandi.


Natijalar va muhokama. Ko'p bosqichli so'riluvchi havoni sovitish qurilmasining samaradorligini baholash maqsadida hisoblash suyuqliklar dinamikasi modellashtirish amalga

oshirildi. Modellastirish natijasida sovitish qurilmasiga kiruvchi va undan chiquvchi havoning harorat qiymatlari hamda tizimdagi bosim o'zgarishlari aniqlandi. Hisoblash natijalari 3-rasmda keltirilgan.

2-jadval

Modellastirish natijalarining miqdoriy ko'rsatkichlari va hisoblash parametrlari

$t_{s,h}, ^\circ\text{C}$	$t_{s,h}, \text{K}$	$t_{s,h}, ^\circ\text{C}$	$t_{s,sv}, ^\circ\text{C}$	$v_{s,sv}, \text{m/s}$	P_{atm}	P_2
10,000	275,750	2,750	1	0.6	101325	101311,18
10,000	278,224	5,224	4	0.6	101325	101311,3
10,000	281,427	8,427	8	0.6	101325	101311,4321
15,000	276,530	3,530	1	0.6	101325	101309,080
15,000	279,020	6,020	4	0.6	101325	101309,200
15,000	282,340	9,340	8	0.6	101325	101309,332
20,000	277,380	4,380	1	0.6	101325	101306,980
20,000	279,870	6,870	4	0.6	101325	101307,100
20,000	283,190	10,190	8	0.6	101325	101307,232
25,000	278,23	5,230	1	0.6	101325	101304,880
25,000	280,72	7,720	4	0.6	101325	101305,000
25,000	284,04	11,040	8	0.6	101325	101305,132
30,000	279,08	6,080	1	0.6	101325	101302,780
30,000	281,57	8,570	4	0.6	101325	101302,900
30,000	284,89	11,890	8	0.6	101325	101303,032
35,000	279,93	6,930	1	0.6	101325	101300,680
35,000	282,42	9,420	4	0.6	101325	101300,800
35,000	285,74	12,740	8	0.6	101325	101300,932
40,000	280,78	7,780	1	0.6	101325	101298,580
40,000	283,27	10,270	4	0.6	101325	101298,700
40,000	286,59	13,590	8	0.6	101325	101298,832



3-rasm. Ko'p bosqichli sovitish qurilmasining sovitish natijalari.

Olingan natijalar sovitish qurilmasi orqali o'tayotgan havoning harorati sezilarli darajada kamayishini ko'rsatdi. Xususan, sovitish qurilmasiga kiruvchi havoning boshlang'ich harorati 40°C bo'lgan holatda chiqish harorati 7–8°C gacha pasayishi aniqlandi. Haroratning bunday darajada kamayishi sovitish tizimida issiqlik almashinuvi jarayoni samarali amalga oshayotganligini ko'rsatadi. Havoning harorati pasayishi uning zichligining ortishiga olib keladi, bu esa kompressor silindriga kiruvchi havo massasining oshishiga sabab bo'ladi.

Muhokama. Havoning zichligining ortishi kompressorning hajmiy unumdorligini oshirishga

ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada kompressor bir xil ish sharoitida ko'proq miqdorda havoni siqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa kompressorning umumiy ish samaradorligini oshiradi va energiya resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Sovitish qurilmasining aerodinamik xususiyatlarini baholash natijalari tizimdagi bosim yo'qotish qiymati 14–26 Pa oralig'ida ekanligini ko'rsatdi. Ushbu qiymat juda kichik bo'lib, sovitish qurilmasining havo oqimiga qarshiligi minimal ekanligini tasdiqlaydi. Bu esa sovitish qurilmasining kompressor ish rejimiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatmasligini va tizimning barqaror ishlashini ta'minlashini ko'rsatadi.

Olingan natijalar ko'p bosqichli sovitish qurilmasi havoning haroratini samarali kamaytirish imkonini berishini ko'rsatdi. Havoning haroratini kamaytirish siqish jarayonining energiya samaradorligini oshiradi, chunki past haroratli havo siqish jarayonida kamroq energiya talab qiladi. Bu esa kompressorning elektr energiyasi sarfini kamaytirish imkonini beradi.

O'tkazilgan suyuqliklar dinamikasi model-lashtirish natijalari taklif etilgan ko'p bosqichli sovitish tizimi porshenli kompressorlarning energiya samaradorligini oshirishda samarali texnik yechim ekanligini tasdiqlaydi. Tizimning past bosim yo'qotish qiymatiga ega bo'lishi uning aerodinamik jihatdan samarali ishlashini ko'rsatadi va sanoat sharoitida qo'llash uchun maqbulligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Tadqiqotda porshenli kompressorlarga kiruvchi havoning termodinamik parametrlarini yaxshilash va siqish jarayonining energiya samaradorligini oshirish maqsadida ko'p bosqichli so'riluvchi havoni sovitish tizimi ishlab chiqildi va hisoblash suyuqliklar dinamikasi usuli asosida kompleks tahlil qilindi. Taklif etilgan texnik yechim kompressorga kiruvchi havoning haroratini kompressor so'rish liniyasida bosqichma-bosqich kamaytirish prinsipiga asoslangan bo'lib, issiqlik almashinuvi jarayonini samarali tashkil etishga imkon beradi.

Suyuqliklar dinamikasi model-lashtirish natijalari ishlab chiqilgan sovitish tizimi yuqori issiqlik almashinuvi samaradorligiga ega ekanligini ko'rsatdi. Xususan, sovitish qurilmasiga kiruvchi havoning harorati 40°C bo'lgan holatda chiqish harorati 7–8°C gacha kamayishi aniqlandi.

Haroratning 32°C ga kamayishi gaz zichligining ortishiga va kompressor silindriga kiruvchi havo massasining oshishiga olib keladi. Bu esa kompressorning hajmiy unumdorligini oshirishga va siqish uchun zarur ish miqdorini kamaytirishga xizmat qiladi.

Aerodinamik tahlil natijalari sovitish qurilmasidagi bosim yo'qotish qiymati 14–26 Pa oralig'ida ekanligini ko'rsatdi. Ushbu qiymat juda kichik bo'lib, qurilmaning aerodinamik qarshiligi minimal darajada ekanligini va kompressor ish rejimiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatmasligini tasdiqlaydi. Bu esa ishlab chiqilgan sovitish tizimi yuqori issiqlik samaradorligi bilan bir qatorda yaxshi aerodinamik xususiyatlarga ham ega ekanligini ko'rsatadi.

Termodinamik tahlil shuni ko'rsatdiki, so'riluvchi havoning haroratini kamaytirish siqish jarayonida bajariladigan ish miqdorining kamayishiga olib keladi. Bu esa kompressor elektr dvigatelining yuklanishini kamaytiradi va elektr energiyasi sarfini pasaytiradi. Natijada kom-

pressorning umumiy energiya samaradorligi oshadi va energiya tejamkorlik ta'minlanadi.


Tadqiqotning ilmiy yangiligi porshenli kompressorlarda so'riluvchi havoni ko'p bosqichli issiqlik almashinuvi asosida sovitish tizimini ishlab chiqish va uning termodinamik hamda aerodinamik samaradorligini suyuqliklar dinamikasi model-lashtirish asosida kompleks baholashdan iborat. Olingan natijalar taklif etilgan sovitish tizimi kompressorlarning energiya samaradorligini oshirishning samarali usullaridan biri ekanligini ko'rsatdi.

Taklif etilgan texnik yechim sanoat porshenli kompressorlarida qo'llanishi mumkin bo'lib, energiya sarfini kamaytirish, kompressorning ish samaradorligini oshirish va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etishda muhim amaliy ahamiyatga ega. Kelgusidagi tadqiqotlarda ishlab chiqilgan tizimning eksperimental sinovlarini o'tkazish va uning sanoat sharoitidagi samaradorligini baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Saidur, R. (2010). Energy, exergy and economic analysis of industrial compressed air systems. *Energy*, 35(12), 5171–5179. <https://doi.org/10.1016/j.energy.2010.07.023>
- [2] Çengel, Y. A., & Boles, M. A. (2015). *Thermodynamics: An engineering approach*. New York: McGraw-Hill.
- [3] Moran, M. J., & Shapiro, H. N. (2014). *Fundamentals of engineering thermodynamics*. Hoboken: Wiley.
- [4] Bloch, H. P., & Hoefner, J. J. (1996). *Reciprocating compressors: Operation and maintenance*. Houston: Gulf Publishing Company.
- [5] Shah, R. K., & Sekulic, D. P. (2003). *Fundamentals of heat exchanger design*. New York: Wiley.
- [6] Saidur, R., Hasanuzzaman, M., & Mujtaba, I. M. (2012). Review on heat transfer enhancement techniques. *Renewable and Sustainable Energy Reviews*, 16, 5649–5659. <https://doi.org/10.1016/j.rser.2012.05.031>
- [7] ANSYS Inc. (2020). *ANSYS Fluent theory guide*. Canonsburg.
- [8] Versteeg, H. K., & Malalasekera, W. (2007). *An introduction to computational fluid dynamics: The finite volume method*. London: Pearson Education.
- [9] Kakaç, S., & Liu, H. (2002). *Heat exchangers: Selection, rating, and thermal design*. Boca Raton: CRC Press.
- [10] Incropera, F. P., & DeWitt, D. P. (2007). *Fundamentals of heat and mass transfer*. New York: Wiley.
- [11] Dilshoda, K., & Elmurod, Y. (2024). Mathematical modelling of deposit formation processes on heat-exchange surfaces of piston compressor air coolers. *Universum: технические науки*, 8(2), 43–46.

UO‘K: 622.53

 10.70769/3030-3214.SRT.4.1.2026.37

NASOS OQIM YUZALARINING SHAXTA SUVI TARKIBIDAGI QATTIQ ZARRACHALAR SABABLI YEMIRILISHINI TADQIQ QILISH



Xatamova Dilshoda Narmuratovna

*Professor, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti,
Navoiy, O‘zbekiston
E-mail: dilshodanarmuratovna@yandex.ru
ORCID ID: 0009-0002-8336-9884
Science ID: DNV-0925-0004*



*Yuldasheva Mohinur
Abduxakim qizi*

*Tayanch doktorant, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat
texnika universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: yuldashevamohinur71@gmail.com
Science ID: MTV-0126-0028*

Аннотация. *Tadqiqot davomida nasos oqim yuzalarining gidroabraziv yemirilish jarayoni nazariy va tajriba asosida tahlil qilindi. Nasoslar ruda konlarida tarkibida turli kattalikdagi qattiq mexanik aralashmalar bo‘lgan shaxta suvini yer yuzasiga haydash uchun keng qo‘llaniladi. Bu esa ishchi g‘ildiraklar, yo‘naltiruvchi apparatlar va zichlovchi halqalar kabi asosiy oqim yuzalarining shiddatli yeyilishiga olib keladi. Nasos agregatlarining ishonchliligi va energiya samaradorligi ko‘p jihatdan aynan shu yeyilish jarayoniga bog‘liq bo‘lib, uni chuqur o‘rganish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Kalit so‘zlar: shaxta suvi, gidroabraziv yeyilish, nasos, ishchi g‘ildirak, qattiq zarrachalar, oqim yuzalari, yo‘naltiruvchi apparatlar.*

ИССЛЕДОВАНИЕ ИЗНОСА ПРОТОЧНЫХ ПОВЕРХНОСТЕЙ НАСОСА ПОД ВЛИЯНИЕМ ТВЁРДЫХ ЧАСТИЦ В СОСТАВЕ ШАХТНЫХ ВОД

Хатамова Дилишода Нармуратовна

*Профессор, Навоийский государственный горно-
технологический университет, Навои, Узбекистан*

Юлдашева Мохинур Абдухаким кизи

*Базовый докторант, Ташкентский государственный
технический университет имени Ислама Каримова, Ташкент,
Узбекистан*

Аннотация. *В ходе исследования процесс гидроабразивного износа проточных поверхностей насосов был проанализирован на основе теоретических и экспериментальных данных. Насосы широко применяются на рудных месторождениях для подъема шахтных вод, содержащих твёрдые механические примеси различной крупности, на поверхность. Это приводит к интенсивному износу основных проточных элементов, таких как рабочие колёса, направляющие аппараты и уплотнительные кольца. Надёжность и энергетическая эффективность насосных агрегатов во многом зависят именно от данного процесса износа, что определяет его актуальность как важной научной задачи.*

Ключевые слова: *шахтные воды, гидроабразивный износ, насос, рабочее колесо, твёрдые частицы, проточные поверхности, направляющие аппараты.*

STUDY OF THE WEAR OF PUMP FLOW SURFACES CAUSED BY SOLID PARTICLES IN MINE WATER

Khatamova Dilshoda Narmuratovna

Professor, Navoi State University of Mining and Technologies,
Navoi, Uzbekistan

Yuldasheva Mohinur Abduxakim kizi

PhD Student, Tashkent State Technical University named after
Islam Karimov, Tashkent, Uzbekistan

Abstract. In this study, the process of hydro abrasive wear of pump flow surfaces was analyzed based on theoretical and experimental approaches. Pumps are widely used in ore mining operations to lift mine water containing solid mechanical impurities of various sizes to the surface. This leads to intensive wear of the main flow components such as impellers, guide vanes, and sealing rings. The reliability and energy efficiency of pump units largely depend on this wear process, making its in-depth study an actual scientific problem.

Keywords: mine water, hydro-abrasive wear, pump, impeller, solid particles, flow surfaces, guide vanes.

Kirish. Yer osti konlarini qazib olish jarayonida shaxta suvlarining tiniq holda asosiy suv yig'gichga to'planishi muhim muammolardan biri hisoblanadi. Yig'ilgan suvlarni yer yuzasiga chiqarish uchun mo'ljallangan nasos uskunolari doimiy ravishda tarkibida turli kattalikdagi qattiq zarrachalar bo'lgan suyuqlikni yer yuzasiga yoki gorizontlarga uzatish uchun foydalaniladi. Natijada, nasosning oqim yuzalari (ishchi g'ildirak parraklari, yo'naltiruvchi apparat, zichlovchi halqalar) jiddiy gidroabraziv yemirilishga uchraydi. Yemirilish natijasida nasosning ish unumdorligi pasayadi, tebranish va shovqin darajasi oshadi, oqibatda esa nasosning to'liq ishdan chiqishi va kon obyektining suv bosishi xavfi tug'iladi. Shaxta suvi tarkibidagi qattiq zarrachalarning nasos oqim yuzalaridagi yemirilish jarayonlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish, asosiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va mavjud tadqiqotlar tahlili asosida yemirilishni kamaytirishning nazariy hamda amaliy jihatlarini yoritib berishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Amaliy kuzatuvlarga asosan shaxta suvida qattiq faza konsentratsiyasi 5-50 g/l, zarracha diametri 0.01-2 mm, zarracha zichligi 2000-3000 kg/m³ bo'lishi nasos samaradorligini pasaytiradi va energiya sarfini oshiradi. Shaxta suvi tarkibidagi zarrachalar suyuqlik oqimi bilan harakatlanib, nasos yuzalariga urilishi natijasida mikrozarba hosil qiladi va materialning asta-sekin yemirilishiga olib keladi. Nasos oqim yuzalarining yemirilish intensivligi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$E = kCv^nd^m \quad (1)$$

bu yerda: E - yemirilish intensivligi;
 k - material va muhitga bog'liq koeffitsient;
 C - qattiq zarrachalar konsentratsiyasi;
 v - oqim tezligi;
 d - zarracha o'lchami;

n,m-tajribaviy ko'rsatkichlar;

Mazkur formuladan ko'rinadiki, tezlik va konsentratsiya yemirilishga eng katta ta'sir ko'rsatadi.

Yo'naltiruvchi apparat parraklarida oqim yo'nalishi o'zgaradigan zonalarda markazdan qochma kuch ta'sirida zarrachalar to'planib, kuchli yemirilish kuzatiladi. Undan tashqari yirik zarrachalar (0.425–0.710 mm) ko'proq zarbali yeyilishga, mayda zarrachalar esa (0.125–0.212 mm) abraziv kesish ta'siriga olib keladi. Qattiq zarrachalar konsentratsiyasi oshishi (masalan 15% dan 30% gacha) yemirilish tezligini deyarli proporsional oshiradi. 1-rasmda qattiq zarracha konsentratsiyasini yemirilish intensivligiga bog'liqligi grafik ko'rinishda keltirilgan.



1-rasm. Qattiq zarracha konsentratsiyasini yemirilish intensivligiga bog'liqligi.


Grafikdan ko'rinib turibdiki konsentratsiya oshishi bilan yemirilish to'g'ri chiziqli emas, tezlashib boruvchi trendda ortadi. Bu real sharoitda nasos ishchi g'ildiraklarining tez yeyilishiga olib keladi.

Ishchi g'ildirak parraklarining kirish chetiga zarrachalar birinchi bo'lib uriladi. Bu hududda zarbali yeyilish ustunlik qiladi. Past oqim rejimida

birinchi bosqich yoʻnaltiruvchi apparati yuzasida eng yuqori yemirilish darajasi kuzatiladi. 2-rasmda suyuqlik tezligining yemirilish intensivligiga bogʻliqligi grafik koʻrinishda keltirilgan.

Natijalar. Oqim tezligi ortishi bilan zarrachalarning kinetik energiyasi keskin ortadi va zarrachalarning zarba kuchi ortib ishchi gʻildirakning yeyilishiga, korpus ichki yuzasining silliqanishiga hamda gidravlik yoʻqotishlarning ortishi sabab boʻladi:

$$E_k = \frac{mv^2}{2} \quad (2)$$



2-rasm. Suyuqlik tezligining yemirilish intensivligiga bogʻliqligi.

Shaxta suvlari turli xil uchastkalardan oqib kelib, uning tarkibidagi qattiq zarrachalar konsentratsiyasi miqdori ortib ketadi. Natijada zarrachalar soni koʻpayadi, urilish chastotasi ortadi hamda umumiy yemirilish tezlashadi. Qattiq faza konsentratsiyasi 5–10% ga oshganda yeyilish 1.5–2 barobar ortadi. Suyuqlik tarkibidagi yuqori zichlikli zarrachalar (masalan, kvarts) eng xavfli hisoblanadi.


Shaxta suvi tarkibidagi qattiq zarrachalar tufayli yemirilish nasosning ishchi koʻrsatkichlariga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Natijada, ishchi gʻildirak va korpus orasidagi tirqish kattalashadi, ichki oqimlar (qaytish oqimlari) ortadi, foydali ish koeffitsienti kamayadi. Quyida foydali ish koeffitsienti kamayish formulasi keltirilgan:

$$\eta = \frac{H_{real}}{H_{nazariy}} \quad (3)$$

Nasoslarning oqim yuzalari qattiq zarrachalar tufayli yemirilishi va suyuqlikning tezligi ortishi sababli ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan moto-soatda ishlab bera olmaydi va ish resursi tushishiga sabab boʻladi. Nasosning ish resursi yemirilishga teskari proportsional:

$$T = \frac{K}{E} = \frac{K}{Cv^ndm} \quad (4)$$

3-rasmda ish resursining tezlik va konsentratsiyaga bogʻliqlik grafigi keltirilgan.



3-rasm. Ish resursining tezlik va konsentratsiyaga bogʻliqligi.

Muhokama. Oqim tezligi yemirilishga kvadratik darajada taʼsir qiladi. Ushbu oqim tarkibidagi qattiq faza konsentratsiyasi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Qattiq faza konsentratsiyasini zarrachalar tashkil etib, zarrachalar oʻlchami katta boʻlsa, zarba kuchi keskin ortadi. Natijada nasos samaradorligi vaqt oʻtishi bilan sezilarli pasayadi. Eksperimental tekshiruvlar nazariy hisoblarning toʻgʻriligini tasdiqlaydi va yeyilishning real mezonlarini beradi. Muhim amaliy jihatlardan biri – nasoslarga kirayotgan suvni tozalash tizimlarini joriy etishdir. Shuningdek, nasosning ish resursi yuqori abraziv muhitda 20–40% gacha kamayadi va normal sharoitga nisbatan 2–3 barobar tez yeyilish kuzatiladi.

Xulosa. Shaxta suvidagi qattiq zarrachalar nasos oqim yuzalarining asosiy yemiruvchi omili hisoblanadi. Yemirilish intensivligi zarracha konsentratsiyasi va oqim tezligiga kuchli bogʻliqdir. Nasosning oqim yuzalari yemirilish natijasida samaradorlikni sezilarli darajada pasayishiga sabab boʻladi. Shaxta suvi tarkibidagi qattiq zarrachalar nasos oqim yuzalarining shiddatli gidroabraziv yemirilishini hosil qiladi. Nasoslarning xizmat muddatini uzaytirish uchun suvni tozalash tizimlarini joriy etish, yeyilishga qarshi materiallarni qoʻllash va parrak geometriyasini optimallashtirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Степанов А. А. Центробежные и осевые насосы. Москва.
- [2] Островский В. Г. (2012). Расчет скорости гидроабразивного износа элементов насосов.
- [3] Jiang, L., Bai, L., Xue, P., & Zhou, L. (2022). Two-way coupling simulation of solid–liquid flow and wear in slurry pump.
- [4] Patel, M., Kumar, A., & Pardhi, B. (2020). Abrasive, erosive and corrosive wear in slurry pumps: A review.
- [5] Djurayev, R. U., Xatamova, D. N., & Yuldasheva, M. A. (2025). Markazdan qochma nasoslarning sanoatda qo'llanilishi. Mexanika va texnologiya ilmiy jurnali, №1, Namangan.

GEOLOGIYA VA NEFT-GAZ SANOATI
ГЕОЛОГИЯ И НЕФТЕГАЗОВАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ
GEOLOGY AND OIL-GAS INDUSTRY

UO‘K: 553.612:551.3(575.1)

doi 10.70769/3030-3214.SRT.4.1.2026.8

QIZILQUM HUDUDIDAGI KAOLINGA ISTIQBOLLI MAYDONING
GEOLOGIK TUZILISHI, MODDIY TARKIBI VA ULARNING HOSIL
BO‘LISH OMILLARI (ZAXQUDUQ, ALYANS, ALTINTAU MAYDONLARI)



**Mirzayev Abdurazak
Umirkazovich**

*Geologiya-mineralogiya fanlari
doktori, professor, O‘zbekiston
Respublikasi Fanlar akademiyasi
Navoiy bo‘limi Raisi, Navoiy,
O‘zbekiston*
E-mail: mabdurazzo@gmail.com
ORCID ID: 0009-0005-8738-1380



**Yusupov Xumoyun
Raxmatovich**

*O‘zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasi Navoiy bo‘limi
tayanch doktoranti, Navoiy,
O‘zbekiston*
E-mail: hyusupov768@gmail.com
ORCID ID: 0009-0006-0017-6227



**Toshtemirov Shoxruh
Alisher o‘g‘li**

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti
“Geologiya” kafedrasi o‘qituvchisi,
Navoiy, O‘zbekiston*
E-mail:
toshtemirovshohruxjon@gmail.com
ORCID ID: 0009-0001-9254-7868



**Nazarov Uzruh
Xasanovich**

*O‘zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasi Navoiy bo‘limi
tayanch doktoranti, Navoiy,
O‘zbekiston*
E-mail: nazarovuzruh@gmail.com
ORCID ID: 0009-0002-5877-4984

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qizilqum hududidagi istiqbolli kaolin maydonlarining (Zaxkuduk, Alyans, Altintau) geologik tuzilishi, minerallashuvi, moddi yotqizilari va kaolinlarning shakllanish omillari kompleks o‘rganilgan. Tadqiqotlarda hududda uchraydigan birlamchi (qoldiq), ikkilamchi (cho‘kindi), metamorfizmga uchramagan va karst genezisli kaolinlarning tarkibi, tarqalishi va ularning sanoat ahamiyati ilmiy asoslangan. Kaolin xom ashyosining yuqori sifat ko‘rsatkichlari — past temir oksidlari, past ishqorlar, baland kaliy moduli (4 dan yuqori), hamda pegmatitlarga nisbatan granitlarning kaolinlashgan nurash qobiqlarining muhim manba sifatidagi ustunliklari yoritilgan. Qarnab, Ketmenchi, Oltintau, Auminzatov kabi hududlarda rivojlangan nurash po‘stlari, ularning qalinligi, miqdoriy zaxiralari (yuz ming tonnalardan milliard tonnagacha) va morfologik-geologik xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, metamorfik slaneslar, karbonatli jinslar va yuqori bo‘r davri gilli-qumli qatlamlaridagi kaolinlashuv jarayonlari, dayka tipidagi kaolinlashgan tanalar, ularning mineral tarkibi (kaolinit, gidroslyuda, galluazit, montmorillonit, relikt kvars va b.) batafsil ko‘rsatib o‘tilgan. Hududda uchraydigan alunit va galluazitli konlar ham tasniflanib, ularning genezisi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kaolin, karst genezisli kaolin, temir oksidlari, nurash qobiq, gilli-qumli qatlamlar, kaolinit, gidroslyuda, galluazit, montmorillonit, relikt kvars.

ГЕОЛОГИЧЕСКОЕ СТРОЕНИЕ, ВЕЩЕСТВЕННЫЙ СОСТАВ И
ФАКТОРЫ ИХ ОБРАЗОВАНИЯ ПЕРСПЕКТИВНОЙ ПЛОЩАДИ
КАОЛИНА В РАЙОНЕ КЫЗЫЛКУМОВ (ПЛОЩАДИ ЗАХКУДУК,
АЛЪЯНС, АЛТЫНТАУ)

Мирзаев Абдуразақ
Умирзакович

Доктор геолого-минералогических наук, профессор, председатель Навоийского отделения Академии наук Республики Узбекистан, Навои, Узбекистан

Юсупов Хумоюн
Рахматович

Базовый докторант Навоийского отделения Академии наук Республики Узбекистан, Навои, Узбекистан

Тоштемуров Шохрух
Алишеревич

Преподавателя кафедры "Геология" Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, Навои, Узбекистан

Назаров Узрух
Хасанович

Базовый докторант Навоийского отделения Академии наук Республики Узбекистан, Навои, Узбекистан

Аннотация. В статье комплексно изучены геологическое строение, минерализация, вещественные залежи и факторы образования каолинов перспективных каолиновых месторождений (Захкудук, Альянс, Алтынтау) Кызылкумского региона. В ходе исследований научно обоснованы состав, распространение и промышленное значение первичных (остаточных), вторичных (осадочных), неметаморфизованных и карстового генезиса каолинов, встречающихся в регионе. Отмечены высокие качественные показатели каолинового сырья – низкое содержание оксидов железа, щелочей, высокий калиевый модуль (выше 4), а также преимущества каолинизированных раковин выветривания гранитов как важного источника по сравнению с пегматитами. Проанализированы раковины выветривания, развитые на таких площадях, как Карнаб, Кетменчи, Олтынтау, Ауминзатов, их мощность, количественные запасы (от сотен тысяч тонн до миллиардов тонн) и морфологические и геологические характеристики. Подробно показаны процессы каолинизации метаморфических сланцев, карбонатных пород и глинисто-песчаных толщ верхнего мела, дайковых каолинизированных тел, их минеральный состав (каолинит, гидрослюда, галлуацит, монтмориллонит, реликтовый кварц и др.). Также дана классификация месторождений алуниита и галлуацита, выявленных в регионе, и объяснен их генезис.

Ключевые слова: каолин, карстогенез каолина, оксиды железа, кора выветривания, глинисто-песчаные толщи, каолинит, гидрослюда, галлуацит, монтмориллонит, реликтовый кварц.

GEOLOGICAL STRUCTURE, MATERIAL COMPOSITION AND FACTORS OF THEIR FORMATION OF THE PROMISING KAOLIN AREA IN THE KYZYLKUM REGION (ZAKHKUDUK, ALYANS, ALTYNTAU AREAS)

Mirzaev Abdurazak
Umirkazovich

Doctor of Geological and Mineralogical Sciences, Professor, Chairman of the Navoi Branch of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Navoi, Uzbekistan

Yusupov Khumoyun
Rakhmatovich

Basic doctoral student of the Navoi branch of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Navoi, Uzbekistan

Toshtemirov Shokhrukh
Alisherovich

Lecturer of the "Geology" Department of the Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan, Navoi, Uzbekistan

Nazarov Uzrukh
Khasanovich

Basic doctoral student of the Navoi branch of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Navoi, Uzbekistan

Abstract. This article presents a comprehensive study of the geological structure, mineralization, material composition, and formation factors of promising kaolin deposits (Zakhkuduk, Alyans, Altintau) in the Kyzylkum region. The research scientifically substantiates the composition, distribution, and industrial significance of primary (residual), secondary (sedimentary), unmetamorphosed, and karst-genesis kaolins occurring in the area. The high-quality indicators of kaolin raw material — low iron oxides, low alkalis, high potassium modulus (above 4), as well as the superiority of kaolinized weathering crusts of granites over pegmatites as an important source — are highlighted. The weathering crusts developed in areas such as Qarnab, Ketmenchi, Oltintau, and Auminzатов, including their thickness, quantitative reserves (from hundreds of thousands to billions of tons), and morphological–geological characteristics, are analyzed. In addition, the processes of kaolinization in metamorphic schists, carbonate rocks, and Upper Cretaceous clay–sand layers, as well as in dyke-type kaolinized bodies, are described in detail, including their mineral composition (kaolinite, hydromica, halloysite,

montmorillonite, relict quartz, etc.). The alunite- and halloysite-bearing deposits present in the region are also classified, and their genesis is discussed.

Keywords: kaolin, karst-genesis kaolin, iron oxides, weathering crust, clay–sand layers, kaolinite, hydromica, halloysite, montmorillonite, relict quartz.

Kirish. Hozirgi kunda Respublikamiz hududida bir qator kaolin konlari qazib olinayotgan bo'lsa-da, sanoat tarmoqlarini yuqori sifatli kaolin xomashyosi bilan barqaror ta'minlash muammosi hanuz dolzarb bo'lib qolmoqda. Kaolin konlarining ko'pligiga qaramasdan, mavjud xomashyoning barchasi sanoat talablariga to'liq javob bermaydi. Yuqori sifatli kaolin xomashyosi tarkibida rang beruvchi oksidlar hamda ishqoriy-yer metallari oksidlarining miqdori kam, ishqorlar yig'indisi yuqori va kaliy miqdori yetarli darajada bo'lishi talab etiladi. Xususan, bunday xomashyo uchun kaliy oksidining natriy oksidiga nisbati 4 dan yuqori bo'lishi muhim mezon hisoblanadi.

An'anaviy ravishda yuqori sifatli kaolin xomashyosining asosiy manbai bo'lib xizmat qilib kelgan pegmatitlar esa, hozirgi kunda ishlab chiqarish hajmining ortib borayotgan ehtiyojlarini to'liq qondira olmayapti. Shu sababli, yuqori sifatli dala shpati va kaolin xomashyosini olishning muhim istiqbolli manbalari sifatida granitoidlar, nordon effuziv jinslar hamda boshqa tog' jinslarining qadimgi kaolinlashgan nurash qobiqlarining quyi gorizontlari alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Bundan tashqari, qurilish keramikasi ishlab chiqarish hajmining oshib borishi hamda kaolin xomashyosiga bo'lgan talabning kelgusida yanada ortishi istiqbolli rejalashtirish doirasida yangi kaolin konlarini aniqlash va o'rganish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bu borada Markaziy Qizilqum hududida tarqalgan qoldiq va cho'kindi kaolinlar o'zining mineralogik tarkibi, genezisi va texnologik xususiyatlari bilan ajralib turadi hamda sanoat miqyosida o'zlashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyot tahlil va metodlar. Nurash qobiqlari o'ziga xos geologik hosilalar bo'lib, ular o'tgan asrning oxiridayoq tuproqshunoslar, geokimyogarlar va geolog olimlarning ilmiy qiziqishini tortgan. Ushbu geologik shakllanishlar haqidagi dastlabki ma'lumotlar shveysariyalik geolog A. Geimning tadqiqotlarida uchraydi (Dobrovolskiy, 1969). Nurash jarayonlari va nurash

qobiqlarining shakllanish qonuniyatlarini o'rganishda rus va sobiq ittifoq olimlari tomonidan keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, V. I. Vernadskiy, P. A. Zemyatchenskiy, K. D. Glinka, I. I. Ginzburg, I. M. Krasheninnikov (1915), P. P. Pilipenko (1915), B. B. Polynov (1934), S. S. Smirnov (1936), V. P. Petrov (1948, 1967), K. I. Lukashov (1958), A. I. Perelman (1955), V. P. Kazarinov (1958), D. G. Sapojnikov (1961), N. M. Straxov (1962), I. P. Gerasimov (1964), V. V. Dobrovolskiy (1964), A. P. Sigov (1969), Yu. P. Kazanskiy (1969), A. V. Sidorenko (1975), N. A. Lisitsina (1973) kabi olimlarning ishlari nurash jarayonlari nazariyasini shakllantirishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilgan. Shuningdek, xorijiy tadqiqotchilar — P. Fageler (1935), V. D. Bryukner (1960), T. H. Lozhuani va M. Bonifa (1964), J. Pedro (1971) va boshqa olimlarning izlanishlari ham ushbu yo'nalishda katta ilmiy ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda nurash qobiqlariga bo'lgan ilmiy qiziqish sezilarli darajada ortib bormoqda. Buning asosiy sababi shundaki, ko'plab foydali qazilmalar — jumladan, bokslitlar, kaolinlar, vermikulitlar, uran rudalari, alunitlar, tseolitlar, bentonitlar, oltin, silikat-nikel rudalari, nodir elementlar, mineral pigmentlar, temir va marganes rudalari, qimmatbaho toshlar hamda qurilish materiallari aynan nurash qobiqlari yoki ularning qayta yotqizilgan mahsulotlari bilan genetik jihatdan bog'liqdir.

Nurash qobiqlarini o'rganish nafaqat amaliy jihatdan muhim, balki nazariy ahamiyatga ham ega. Ular litogenez nazariyasini rivojlantirish, ekzogen ruda hosil bo'lish jarayonlarini chuqurroq anglash hamda nurash mahsulotlarining endogen tog' jinslari va ruda hosil bo'lishidagi rolini aniqlashda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Zirabuloq tog'larining janubida bo'ir davri yotqiziqlari ostida 0 dan 250-300 m gacha bo'lgan chuqurliklarda Qarnab va Ketmenchi intruzivlari granitoidlarining nurash qobig'ining ko'milgan kaolin konlari mavjud. Intruziv jinslar

tarkibida biotitli granitlar, ikki slyudali granitlar ko'pchilikni tashkil etadi, granodioritlar, alyaskitlar va ularning hosilalari bir oz kamroq. Tog' jinslarida qalinligi 1-2 dan 8-20 m gacha, maydoni 15-17×40 km bo'lgan nurash po'sti rivojlangan.

Ishqoriy kaolinlar dezintegratsiya zonalarining elyuvial hosilalari va qalinligi 1-2 dan 8-10 m gacha bo'lgan granitlarning kaolinlanish zonasining pastki qismidan iborat. Ular kaolin xom ashyosida ishqorlarning yuqori miqdori (7,01% gacha), temir oksidlarining past miqdori (0,20-0,90, kamroq 2,75%) va kaliy miqdorining yuqoriligi (8,7-11,5 gacha) bilan tavsiflanadi (2-jadval). Kaliy moduli 4 dan yuqori bo'lgan ishqoriy kaolinlar yuqori sifatli xomashyolar qatoriga kiradi. Kam kaolinlashgan granitlarda kaliy miqdorining ortishi plagioklazlarning kaolinlanishida natriyning chiqib ketishi bilan bog'liq.

Kaliyli dala shpatlari mikroklindan iborat bo'lib, uning miqdori granodioritlarning nurash qobig'ida o'rtacha 35% ni, leykokratli granitlarda esa 20% ni tashkil etadi.

1-jadval

Markaziy Qizilqum hududagi kaolinlarining genetik turlari


Kon turlari	Asosiy mineral tarkibi	Tarqalish maydoni
Qoldiq konlar		
Nordon tarkibli magmatik jinslar (granitlar, granodioritlar, alaskitlar, effuzivlar va b.) nurash qobiqlari	Kvars, slyudalar, pelitlashgan plagioklazlar, kaolinit, gidroslyudalar, getit, gidrogetit	Qarnab-Ketmoncha, Tim, Auminzatau, Oltintau, Boxalin, Kazaktau, Aktau, Tulyantay
Asosiy tarkibli magmatik jinslarning (gabbroidlar, porfiritlar va b.) nurash qobiqlari; metamorfik slanetslar (slyudali, gilli va qumtozlarning nurash qobiqlari)	Kvars, dala shpati, slyudalar, galluazit, kaolinit, gidroslyudalar, temir gidrooksidlari, montmorillonit; kvars, slyudalar, kaolinit, gidroslyudalar, galluazit, getit, gidrogetit, gips	Beltov, Jamansqirtov, Ko'kpatos, Xo'jaaxmet, Ulkenkasirtau, Aitim, Verxne-Xo'jaaxmet, Kospaktau, Kazakasu, Qirququduq
Cho'kindi jinslarning nurash qobiqlari (gil, mergel va b.); karbonat jinslarning nurash qobiqlari (ohaktoshlar, natriyli dolomitlar va b.)	Kvars, kaolinit, gidroshlam, montmorillonit, gidrogetit, alunit, gipsli gyotit; gidroslyudalar, kaolinit, montmorillonit, gyotit, gidrogetit, kvars, karbonatlar	Toshquduq, Qarnab, Oyoqqumli, To'rtquduq
Qayta yotqizilgan (cho'kindi) konlar		
Kaolinli gillar bilan qum-gravel-konglomeratli jinslar	Kremniy bo'laklari, qumli material, kaolinit, temir gidrooksidlari, gips, karbonatlar	Shimoliy Bo'kantog', Sharqiy Bo'kantog', Uchuquduq-Aytm, Tomdiquduq-To'lantoy, Sharqiy Kuljotov
Kaolinli gillar	Kaolinit, gidroslyudalar, kvars, temir gidrooksidlari, galluazit	Karnab-Ketmoncha, Suqaytin

Kondagi mikroklindan iborat bo'lib, uning miqdori granodioritlarning nurash qobig'ida o'rtacha 35% ni, leykokratli granitlarda esa 20% ni tashkil etadi.

Kondagi mikroklindan iborat bo'lib, uning miqdori granodioritlarning nurash qobig'ida o'rtacha 35% ni, leykokratli granitlarda esa 20% ni tashkil etadi.

Kondagi mikroklindan iborat bo'lib, uning miqdori granodioritlarning nurash qobig'ida o'rtacha 35% ni, leykokratli granitlarda esa 20% ni tashkil etadi.

kaolinlarning sof konsentrati 150 mln. tonnadan ortiq. Nordon intruziv jinslarning nurash qobiqlari bilan bog'liq bo'lgan ishqorli kaolin konlari Auminzataov, Tomditov, Oltintog', Boxali, Qozoqtov massivlarida joylashgan (1-rasm). Ishqorli kaolinlar bilan nurash qobig'ining rivojlanish maydonining katta qismi asosan kaolinli gillardan tashkil topgan alb va senoman yaruslarining kontinental cho'kindilari bilan qoplangan.



1-rasm. Markaziy qizilqum hududagi kaolin va alunit namoyonlari va konlarining joylashishi:

I-birlamchi kaolin konlari: 1-Shimoliy Bukantov, 4-Qasqirtov, 6-Cho'lqoratov, 8-Oltintov, 12-To'lantoy. 17-Koschekin, 18-Qospaqtov, 21-Zaquduq, 29-Qozoqsuv-To'rtquduq, 39-Qarnob, 40-Janubiy Zirabuloq, 41-Qirququduq. II-ikkilamchi kaolin konlari: 2-Qizilquduq, 3-Kulquduq, 9-Uchquduq, 10-Meylisoy, 11-Tomdiquduq, 13-To'lantoy, 14-Beshbuloq, 22-G'arbiy Ominza, 26-Shimoliy Quljuqtov, 28-Qozoqsuv, 30-To'rtquduq-1, 32-To'rtquduq-2, 33-Oyoqqujumdi, 34-Janubiy Kuljuktov, 35-Toshquduq, 36-Suqaytin, 37-Janubiy Zirabuloq. III-kaolin va galluazit konlari va namoyon bo'lishlari: 5-Oltintov, 23-Toshqazg'on, 27-Sharqiy Qozoqsuv. IV-qoldiq genezisli alunit konlari va namoyon bo'lishlari: 7-Xo'jaahmed, 15-Beshbuloq, 16-Tomdiqoratov, 17-Qospaqtov, 24-Beltov, 25-Shimoliy Kuljuktov, 31-To'rtquduq. 36-Sukaytin, 35-Janubiy Zirabuloq. III-kaolin va galluazit konlari va namoyonlari: 5-Oltintog', 23-Tosqazg'on, 27-Sharqiy Qozog'iston. IV yotqiziqlar va qoldiq genezdagi alunitlarning paydo bo'lishi: 7- Xo'jaahmed, 15-Beshbuloq, Beshbuloq, 16-Tamdykaratau, 17-Kospaktau, 24-Beltau, 25-Shimoliy Kuldjuktov, 31-To'rtquduq. V-tog' tizmalari konturlari, VI-temir yo'llar.

Asos tarkibli magmatik jinslarning nurash qobiqlarida shakllangan kaolin va galluazit konlari

ko‘pincha cho‘kindi-metamorfik jinslar qatlamlari orasida joylashgan daykasimon tanalar ko‘rinishida uchraydi. Bunday tog‘ jinslarining nurash qobiqlari Qasqirtov, Oltintov, Auminzatov, Beltov va boshqa hududlarda aniqlangan (1-jadval).

Kaolinlashgan daykalar odatda 1–2 m dan 8 m gacha qalinlikka, 100–200 m gacha cho‘zilishga va 100–150 m gacha chuqurlikka ega. Ushbu nurash mahsulotlarining mineral tarkibida asosiy gipergen gilli minerallar sifatida kaolinit, galluazit va montmorillonit ustunlik qiladi. Ular temir oksidlarining nisbatan yuqori miqdori (4,33% gacha), ishqorlar miqdorining pastligi hamda kaliy tarkibining juda kamligi bilan tavsiflanadi.

Cho‘kindi-metamorfik slaneslarning nurash qobig‘ida hosil bo‘lgan kaolinlar Kuljuktov tog‘larining sharqiy qismida hamda Auminza–Qospaqtov hududlarida keng tarqalgan. Kaolinlashgan slaneslarda slaneslanish tuzilmasi, shuningdek, bir tekis tarqalgan relikt kvarts va temir gidrooksidlari aralashmalari saqlanib qolgan. Slyudalar dislokatsiyaga uchraganligi sababli, ular buklama (qatlam-buklamali) shaklda yotadi va tog‘ jinslarining quyi qismiga tomon 150 m gacha chuqurlikda, qalinligi esa bir necha o‘n metrni tashkil etgan holda tarqalgan.

Mazkur kaolinli jinslar tarkibida relikt kvarts va slyudalardan tashqari, qayta hosil bo‘lgan kaolinit, shuningdek gidroslyudalar va temir gidrooksidlari sezilarli miqdorda uchraydi. Ushbu komponentlarning mavjudligi kaolin xom ashyosining sifat ko‘rsatkichlarini ma‘lum darajada pasaytiradi. Ishqorlar yig‘indisi 1,5–6,5% oralig‘ida bo‘lib, ularning umumiy miqdori nisbatan past bo‘lishiga qaramay, slaneslarning nurash qobig‘i ko‘pincha yuqori kaliy moduli (6 dan 26 gacha) bilan tavsiflanadi.

Kaolinli jinslar ko‘pincha yer yuzasiga bevosita chiqib yotganligi sababli, ularni ochiq usulda qazib olish uchun qulay hisoblanadi. Qizilqum hududida kaolin xom ashyosi zaxiralari yuz minglab va hatto o‘n millionlab tonnaga baholanadi.

Metamorfizmga uchramagan gilli jinslarning kaolinlari asosan Alb yarusiga mansub dengiz gillari nurash qobiqlari bilan bog‘liq. Ular kech Alb–Senoman davriga oid kontinental cho‘kindilar bilan qoplangan bo‘lib, Kuljuktov va Zirabuloq tog‘larining janubiy etaklarida tarqalgan (1-rasm).

Nurash qobig‘ining qalinligi odatda 5–6 m dan 8–10 m gacha yetadi, yoyilish kengligi esa 4–6 km bo‘lib, o‘nlab kilometrlar davomida cho‘ziladi. Ushbu yotqiziqlar oq va chipor rangli kaolinli gillardan iborat bo‘lib, ularning asosiy mineral tarkibini gidroslyudalar, kaolinit, relikt kvarts va temir gidrooksidlari tashkil etadi. Mazkur turdagi kaolin xom ashyosi zaxiralari yuz minglab tonna miqdorida baholanadi.

Karbonatli tog‘ jinslarining nurash qobig‘ida shakllangan kaolinlar Alb yarusiga mansub karst hosilalari bilan bog‘liq bo‘lib, ular Kuljuktov hamda Ziyovuddin–Zirabuloq tog‘larida uchraydi (1-rasm). Ushbu kaolin xom ashyosining granulometrik tarkibi quyidagicha (%):

- 1 mm dan katta — 3,96;
- 1–0,5 mm — 0,09;
- 0,50–0,10 mm — 1,00;
- 0,10–0,01 mm — 19,98;
- 0,01 mm va undan kichik — 74,98.

Shu bois, karst nurash qobig‘i kaolinlari mayda donadorligi ustun bo‘lgan tarkibga ega bo‘lib, temir gidrooksidlari, kalsiy karbonatlari va ishqorlarning kam miqdori bilan tavsiflanadi. Ushbu kaolin xom ashyosi zaxiralari bir necha o‘n ming tonna atrofida baholanadi.

2-jadval

Kuljuktov, Zirabuloq va Ziaetdin tog‘larining janubiy etaklaridan olingan Albi kaolin gillarining kimyoviy tahlili

Oksidlar	Kuljuktov tizmasining sharqiy uchi (Kazakasu tog‘i)						Toshquduq (Janubiy tog‘ etaklari (Kuljuktov))		Sukayti (Ziaetdin tog‘lari)	Karnab (Zirabuloq tog‘lari)
	kaolin gillari			Alban gillarining nurash qobig‘i			Albi kaolin gillari			
	№1	№2	№3	№4	№5	№6	№7	№8		
SiO ₂	41,97	55,73	63,08	55,18	58,25	53,26	55,18	59,8		
Fe ₂ O ₃	4,39	9,22	2,15	2,92	7,21	0,73	5,07	2,74		
FeO	0,37	0,17	0,05	0,08	0,18	0,66	0,3	0,25		
TiO ₂	2,16	0,74	1,86	0,98	0,79	0,56	0,89	0,76		
MnO	-	-	-	-	-	-	-	-		
P ₂ O ₅	0,25	0,22	0,03	0,19	0,02	0,04	0,02	0		
Al ₂ O ₃	35	17,69	23,71	24,63	22,59	30,09	28,19	27,64		
CuO	2,33	1,75	0,5	0,5	2	1,75	1,75	0,91		
MgO	0,42	1,1	1,25	0,62	0,73	1,05	0	0,21		
Na ₂ O	0,13	0,21	0,55	4,3	0,8	1,75	1,07	0,21		
H ₂ O	1,23	0,1	1,12	1,3	1,17	1,99	0,85	0,81		
l.ch.y	12,53	5,89	6,58	9,46	6,77	8,83	7,05	6,98		
Jami	100,78	102,72	100,88	100,16	100,51	100,71	100,37	100,31		
K ₂ O/Na ₂ O	2,7	11	4,3	0,4	1,4	2	1	8,5		

Yuqori Bo‘r davriga mansub gilli–qumli gravelit yotqiziqlaridagi kaolinlar oq va chipor rangli kaolin gillari linzalari ko‘rinishida yoki bo‘lakli jinslarning sementi sifatida namoyon bo‘ladi. Ular Senoman kesmasining asosiy qismida Bo‘kantog‘, Kuljuktov, Zirabuloq–Ziyovuddin tog‘lari hamda Tomdiquduq–To‘lantoy balandliklarida keng tarqalgan. Ushbu cho‘kindilar tarkibida gilli komponentning ulushi odatda 30–

40% ni tashkil etadi.

Markaziy Qizilqum hududidagi kaolinli gillarning muhim qismi gumid litogenez sharoitida hosil bo'lgan nurash qobig'ining qayta yotqizilgan mahsulotlaridan iborat. Ular Auminzatov tog'larining g'arbiy qismi, Kuljuktovning janubiy va sharqiy etaklari, Zirabuloq–Ziyovuddin tog'lari hamda hududning ko'milgan qismidagi kontinental Alb yotqizilari rivojlangan mintaqalarda keng tarqalgan (1-rasm).

Zaxquduq (Auminzatov), Qirqquduq (Zirabuloq tog'lari) hududlarida, shuningdek tog' tizmalari janubiy, sharqiy va shimoli-sharqiy etaklari bo'ylab kaolinli gillarning alohida chiqishlari qayd etilgan. Ushbu turdagi kaolinli gillarning tarqalishi Kuljuktov hamda Sukayti (Ziyovuddin tog'lari) hududlarida ham kuzatiladi. Makroskopik jihatdan bu gillar rang jihatidan olabula bo'lib, ayrim hollarda oq, kulrang, to'q kulrang va hatto ko'mirsimon tusga ega bo'ladi. Ularning mineral tarkibi asosan kaolinit, gidroslyudalar hamda temir gidrooksidlari bilan boyigan terrigen kvarsdan iborat.

Kaolin xom ashyosining granulometrik tarkibi quyidagi fraksiyalar bilan tavsiflanadi (%):

1,0–0,5 mm — 0,01–0,5;

0,5–0,25 mm — 0,01–0,05;

0,25–0,10 mm — 0,01–0,49;

0,10–0,05 mm — 9,5–32,6;

0,05 mm dan kichik — 65,6–87,5.

Mazkur ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, cho'kindi genezisli kaolinli gillarda mayda donador fraksiyalar ustun bo'lib, bu esa boyitilgan kaolinning yuqori chiqishini ta'minlaydi. Ushbu gillarning kimyoviy tarkibi temir va alyuminiy yarim oksidlarining nisbatan yuqori miqdori hamda ishqorlar va titan birikmalarining kamligi bilan xarakterlanadi (2-jadval).

Janubiy va Sharqiy Kuljuktov hududlarida Alb yoshiga mansub kaolinli gillarning tarqalish maydoni taxminan 70×10 km ni tashkil etib, kesmaning o'rtacha qalinligi 20 m atrofida

baholanadi. Agar ushbu gillarning hajmiy og'irligi 2 t/m³ deb qabul qilinsa, kaolin xom ashyosi zaxiralari 20–25 mlrd tonnaga teng bo'ladi. Bunday yirik zaxiralar gillinozyom, sopol buyumlar va boshqa keramika mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yirik sanoat korxonalarini barpo etish uchun qulay sharoit yaratadi.

Xulosalar va takliflar. Ko'plab ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan sanoatda qimmatli va kam uchraydigan metallarni (jumladan, kaolinit, alunit va boshqa hamroh komponentlarni) bir vaqtning o'zida ajratib olish imkonini beruvchi kompleks texnologiyalar ishlab chiqilgan. Iqtisodiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, kaolin xom ashyosi narxining oshishi kaolinli gillarning kompleks tarzda qazib olinishi va qayta ishlanishi bilan bog'liq xarajatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, kaolin xom ashyosini nodir va kamyob yer elementlari bilan birgalikda qayta ishlash sharoitida uning sifat ko'rsatkichlari va iqtisodiy qiymati yanada ortib borayotganligi kuzatilmoqda.

Markaziy Qizilqum hududida genetik jihatdan turli tipdagi kaolinlar keng rivojlangan bo'lib, ulardan Ketmoncha, Baxalin, Auminzatov, Oltintog', Tim va boshqa intruziv granitoid massivlarining nurash qobig'ida hosil bo'lgan ko'milgan ishqorli kaolinlar amaliy jihatdan birlamchi ahamiyatga ega hisoblanadi. Cho'kindi (ikkilamchi) genezisli kaolinlar ham hududda keng tarqalgan bo'lib, yirik zaxiralari bilan ajralib turadi. Biroq, ularning sifat ko'rsatkichlari, yotish sharoitlari hamda hududiy tarqalish xususiyatlari yetarli darajada o'rganilmagan.


Shu munosabat bilan, qidiruv-razvedka ishlarini, avvalo, tog' tizmalari sharqiy va janubiy etaklari bo'ylab olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xususan, Kuljuktov, Zirabuloq tog'lari, So'kayti hududi, To'lontoy tepaligi, Zaquduq va unga tutash maydonlar kaolin xom ashyosining istiqbolli uchastkalari sifatida alohida ilmiy-amaliy qiziqish uyg'otadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Бабушкин, В. Д., и др. (1969). Изучение геологических и гидрогеологических условий при разведке и освоении месторождений твердых полезных ископаемых (методическое руководство). Москва: Недра.
- [2] Госкомгеология Республики Узбекистан. (1996). Классификация запасов месторождений и прогнозных ресурсов твердых полезных ископаемых. Ташкент.

- [3] Госкомгеология Республики Узбекистан. (1999). Положение о порядке изучения попутных полезных ископаемых и компонентов на месторождениях твердых полезных ископаемых. Ташкент.
- [4] Госкомгеология Республики Узбекистан. (1999). Методические указания о проведении геологоразведочных работ по стадиям. Ташкент.
- [5] Госкомгеология Республики Узбекистан. (2002). Инструкция по применению классификации запасов к месторождениям каолинов. Ташкент.
- [6] Госстандарт СССР. (1978). Каолин химически отбеленный, фракционированный для высокоглянцевой мелованной бумаги (ТУ 21-25-19-78). Москва.
- [7] Госстандарт УзССР. (1982). Каолин для производства стеновых материалов (ТУ-21 УзССР). Ташкент.
- [8] Госстандарт СССР. (1988). Каолин дегидратированный для кабельной промышленности (ТУ 21-25-243-80). Москва: Поволжский центр.
- [9] Нуртаев, Б. Х., Яндашев, Р. Э., Юсупов, Х. Р., & Муродуллаева, М. У. (2023). Геологическое строение горючих сланцев в Западном Узбекистане. *Universum: технические науки*, 12(117), 22–27.
- [10] Мирзаев, А. У. (2013). Нерудные полезные ископаемые Кызылкумского горнорудного региона. *Горный вестник Узбекистана*, (2), 82–87.
- [11] Методические указания по радиационно-гигиенической оценке нерудного сырья при производстве геологоразведочных работ. (1996). Ташкент.
- [12] Nurtayev, B. Kh., & Yusupov, Kh. R. (2025). Mineral and chemical composition in the oil shales of the Sangruntau deposit. *International Journal of Geology, Earth & Environmental Sciences*, 15, 73–76.

UO‘K: 550.8.04

 10.70769/3030-3214.SRT.4.1.2026.14

NEFT VA GAZ KONLARINI IZLASHDA XARITALASHNING AEROKOSMIK USULLARINING AHAMIYATI



Usmonov Kuvonchbek Mannonovich

Dotsent, Qarshi davlat texnika universiteti, Qarshi, O‘zbekiston

E-mail: quvonch_uz2@mail.ru

ORCID 0000-0001-7477-6440

Science ID: MQD-0226-0110



Rabbimov Jaxongir Shodmonkulovich

Dotsent v.b., t.f.f.d., Qarshi davlat texnika universiteti, Qarshi,
O‘zbekiston

E-mail: rabbimov.jahongir1933@gmail.com

ORCID ID: 0009-0007-0967-9741

Science ID: FSN-0226-0050

Annotatsiya. Ushbu maqolada neft va gaz konlarini izlash hamda dastlabki baholash jarayonlarida aerokosmik xaritalash va masofadan zondlash texnologiyalarining ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda kosmik suratlar, aerofotos’yomka, aerogeofizik ma’lumotlar hamda GIS (geoinformatsion tizimlar) imkoniyatlari tahlil qilinib, ularning geologik tuzilmalarni aniqlash, tektonik buzilish va strukturalarni xaritalash, istiqbolli maydonlarni ajratishdagi samaradorligi asoslab berilgan. Xorijiy tajribalar (AQSh, Kanada, Rossiya, Yevropa va Yaponiya) hamda O‘zbekiston sharoitida (Qashqadaryo, Buxoro–Xiva, Farg‘ona vodiysi) aerokosmik usullarni qo‘llash natijalari qiyosiy ko‘rib chiqilib, qidiruv ishlari samaradorligi, vaqt va xarajatlarni qisqartirish imkoniyatlari baholangan. Maqolada aerokosmik ma’lumotlarni geofizik, geokimyoviy va dala tadqiqotlari bilan integratsiyalash qidiruv natijalarining ishonchliligini oshirishi, shuningdek ekologik monitoringni kuchaytirishda ham muhim rol o‘ynashi ta’kidlangan. Yakunda O‘zbekistonda aerokosmik texnologiyalarni keng joriy etish uchun ilmiy hamkorlikni kuchaytirish, yuqori aniqlikdagi ma’lumotlar bazasini kengaytirish va kadrlar tayyorlash zarurligi bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: aerokosmik usullar, masofadan zondlash, kosmik suratlar, aerogeofizik tadqiqotlar, neft va gaz qidiruvi, geologik xaritalash, tektonik tuzilmalar, GIS, tematik xaritalar, ekologik monitoring, istiqbolli maydonlar, Buxoro–Xiva, Qashqadaryo, Farg‘ona vodiysi.

ЗНАЧЕНИЕ АЭРОКОСМИЧЕСКИХ МЕТОДОВ КАРТИРОВАНИЯ ПРИ ПОИСКЕ НЕФТЕГАЗОВЫХ МЕСТОРОЖДЕНИЙ

Усманов Кувончбек Маннонович

Доцент, Каршинский государственный технический
университет, Кариш, Узбекистан

Раббимов Джахонгир Шодмонкулович

Доцент, Каршинский государственный технический
университет, Кариш, Узбекистан

Аннотация. В статье рассмотрено значение аэрокосмических методов картирования и технологий дистанционного зондирования Земли при поиске и предварительной оценке нефтегазовых месторождений. Проанализированы возможности космических снимков, аэрофотосъемки, аэрогеофизических данных и геоинформационных систем (ГИС) для выявления геологических структур, картирования тектонических нарушений и выделения перспективных участков. Выполнен сравнительный обзор результатов применения аэрокосмических методов в зарубежной практике (США, Канада, Россия, страны Европы и Япония) и в условиях Узбекистана (Кашкадарьинский регион, Бухаро-Хивинская зона, Ферганская долина), с оценкой влияния на повышение эффективности поисковых работ, сокращение сроков и затрат. Отмечено, что интеграция аэрокосмических данных с геофизическими, геохимическими и поле-

выми исследованиями повышает достоверность интерпретации и способствует улучшению экологического мониторинга. В заключение сформулированы рекомендации по расширению внедрения аэрокосмических технологий в Узбекистане, включая развитие сотрудничества, формирование базы высокоточных данных и подготовку кадров.

Ключевые слова: аэрокосмические методы, дистанционное зондирование, космические снимки, аэрогеофизика, поиск нефти и газа, геологическое картирование, тектонические структуры, ГИС, тематические карты, экологический мониторинг, перспективные участки, Бухаро-Хива, Кашкадарья, Ферганская долина.

THE IMPORTANCE OF AEROSPACE MAPPING METHODS IN OIL AND GAS FIELD EXPLORATION

Usmanov Kuvonchbek Mannonovich

Docent, Karshi State Technical University, Karshi, Uzbekistan

Rabbimov Jahongir Shodmonkulovich

Docent, Karshi State Technical University, Karshi, Uzbekistan

Abstract. This article examines the importance of aerospace mapping methods and remote sensing technologies in oil and gas field exploration and preliminary assessment. The study analyzes the capabilities of satellite imagery, aerial photography, aerogeophysical data, and Geographic Information Systems (GIS) for identifying geological structures, mapping faults and tectonic features, and delineating prospective areas. A comparative review is provided of international experience (the USA, Canada, Russia, European countries, and Japan) and the practical application of these approaches in Uzbekistan (Kashkadarya region, the Bukhara–Khiva area, and the Fergana Valley), with an emphasis on improving exploration efficiency and reducing time and costs. The paper highlights that integrating aerospace datasets with geophysical, geochemical, and field investigations increases the reliability of interpretation and supports environmental monitoring. Finally, recommendations are proposed for wider implementation of aerospace technologies in Uzbekistan, including strengthening scientific cooperation, expanding high-quality data resources, and developing professional capacity.

Keywords: aerospace methods, remote sensing, satellite imagery, aerogeophysics, oil and gas exploration, geological mapping, tectonic structures, GIS, thematic maps, environmental monitoring, prospective areas, Bukhara–Khiva, Kashkadarya, Fergana Valley.

Kirish. Neft va gaz resurslari zamonaviy iqtisodiyotning strategik asosi hisoblanadi. Ularning zaxiralarini aniqlash va samarali o'zlashtirish jarayoni bevosita ilmiy-texnik yondashuvlar darajasiga bog'liqdir. An'anaviy geologik-qidiruv usullari ko'p vaqt va mablag' talab qilsa-da, zamonaviy aerokosmik texnologiyalar bu jarayonni ancha tezlashtirmoqda. Hozirgi kunda masofadan zondlash, kosmik suratlar asosida xaritalash, aerogeofizik tadqiqotlar kabi usullar global miqyosda neft va gaz konlarini izlashda keng qo'llanilmoqda.

Aerokosmik usullar yordamida geologik tuzilmalarni aniqlash, konlarning morfologik xususiyatlarini o'rganish va potensial zaxiralarni baholash imkoniyati yaratiladi. Ayniqsa, yirik hududlarda keng ko'lamlı qidiruv ishlari olib borishda aerokosmik texnologiyalar iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Masalan,

geologik tadqiqotlarning dastlabki bosqichida aerokosmik xaritalash qo'llanilganda, noaniq hududlarni qisqa fursatda aniqlash mumkin bo'ladi va bu an'anaviy dala ishlari hajmini kamaytiradi.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, aerokosmik usullardan foydalanish orqali yangi neft va gaz konlarini topish samaradorligi 20–30 foizga oshgan. Bu texnologiyalar, shuningdek, ekologik monitoring, geodinamika jarayonlarini kuzatish va tabiiy resurslarni boshqarishda ham qo'llanilmoqda. O'zbekiston sharoitida esa aerokosmik usullarning qo'llanilishi tobora kengayib, neft va gaz qidiruvi samaradorligini oshirishda muhim vositaga aylanmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. So'nggi o'n yilliklarda rivojlangan davlatlarda aerokosmik usullar neft va gaz konlarini izlashda muhim o'rin egalladi. Masalan, AQSh va Kanada geologik qidiruv ishlarida yuqori aniqlikdagi kosmik

suratlardan keng foydalanmoqda. Lillesand va Kiefer (2015) o'z tadqiqotlarida masofadan zondlash texnologiyalari yordamida geologik tuzilmalarni aniqlash va konlarni dastlabki baholash imkoniyatlari haqida batafsil ma'lumot bergan.

Yevropaning ko'plab davlatlari, xususan, Norvegiya va Buyuk Britaniyada aerokosmik kartografiya Shimoliy dengiz neft konlarini aniqlash va ularni samarali boshqarishda keng qo'llanilgan. ESA (2016) ma'lumotlariga ko'ra, sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari yordamida geologik monitoring o'tkazish neft va gaz qidiruv ishlarining samaradorligini 25 foizgacha oshirgan [1].

Kanadada olib borilgan tadqiqotlarda aerokosmik xaritalashning geofizik usullar bilan kompleks qo'llanilishi natijasida Arktika hududida yangi neft va gaz konlari aniqlangan (Smith, 2015). Shuningdek, Yaponiyada LANDSAT va ALOS sun'iy yo'ldoshlari asosida geodinamika jarayonlari monitoringi amalga oshirilgan bo'lib, bu jarayon geologik qidiruv ishlarining ishonchliligini oshirgan (Tanaka, 2013).

Rossiya tajribasi ham alohida e'tiborga molik. Cracknell (1993) va Richards (2013) ilmiy ishlari shuni ko'rsatadiki, aerokosmik tadqiqotlar geologik tuzilmalarni aniqlashda va potensial uglevodod zaxiralarini baholashda samarali natijalar bergan. NASA (2014) hisobotlarida esa aerokosmik usullar yordamida qiyin geologik sharoitlarda ham istiqbolli neft va gaz hududlarini aniqlash mumkinligi qayd etilgan.

Xorijiy davlatlar adabiyotlarida shuningdek quyidagi jihatlar keng o'rganilgan:

- kosmik ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan dasturiy vositalar yordamida tahlil qilish (Mather, 2004);

- aerokosmik ma'lumotlarni dala tadqiqotlari bilan uyg'unlashtirish (Campbell, 2011);

- masofaviy zondlash texnologiyalarini geoinformatsion tizimlar bilan integratsiya qilish (Jensen, 2016).

Ushbu tadqiqotlarning natijalari shuni ko'rsatadiki, aerokosmik usullar nafaqat qidiruv bosqichida, balki konlarni baholash va monitoring qilish jarayonida ham samarali qo'llanilishi mumkin.

Umuman olganda, rivojlangan davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, aerokosmik xaritalash va masofadan zondlash texnologiyalari qidiruv

ishlarining dastlabki bosqichida vaqt va mablag'ni sezilarli darajada tejaydi. Bu esa konlarni tezroq aniqlash va ularni iqtisodiy jihatdan samarali o'zlashtirish imkonini beradi [1-3].

O'zbekistonda aerokosmik usullardan foydalanish bo'yicha izlanishlar mustaqillik yillaridan boshlab faollashdi. 1990-yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Geologiya instituti tomonidan kosmik suratlarda asosida dastlabki geologik xaritalar tuzilgan (Raxmatov, 1998). Keyingi yillarda, xususan, Qashqadaryo, Buxoro-Xiva va Farg'ona vodiysi hududlarida olib borilgan tadqiqotlarda aerokosmik ma'lumotlar an'anaviy geofizik va geologik usullar bilan birgalikda qo'llanildi (Karimov, 2005).

So'nggi yillarda Toshkent Davlat Texnika Universiteti va O'zbekiston Milliy Universiteti olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda LANDSAT, SPOT va MODIS sun'iy yo'ldosh suratlari asosida neft va gaz qidiruv jarayonlari optimallashtirilgani qayd etiladi (Saidov, 2018). Shuningdek, O'zbekgeofizika aksiyadorlik jamiyati va Geologiya qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan amaliy loyihalarda aerokosmik xaritalash natijalari neft va gaz qidiruv ishlarida samarali qo'llanilgan (To'xtayev, 2020).

Geologiya va mineral resurslar qo'mitasi (2019) ma'lumotlariga ko'ra, aerokosmik usullar O'zbekistonning ayrim hududlarida yangi istiqbolli neft va gaz zaxiralarini aniqlashda qo'llanilgan. Xususan, Buxoro-Xiva va Qashqadaryo viloyatlarida olib borilgan qidiruv ishlari aerokosmik xaritalash bilan birgalikda ancha samarali bo'lgan.

Shuningdek, Xudoyberdiyev (2021) o'z tadqiqotlarida aerokosmik usullarni geoinformatika bilan uyg'unlashtirish orqali qidiruv jarayonlarini optimallashtirish mumkinligini ta'kidlaydi. Bu esa O'zbekiston sharoitida nafaqat neft va gaz izlashda, balki ekologik monitoring va tabiiy resurslarni boshqarishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston adabiyotlarida quyidagi yo'nalishlar ko'proq o'rganilgan:

- aerokosmik usullarning an'anaviy dala ishlarini qisqartirishdagi roli;

- qidiruv ishlari xarajatlarini kamaytirishdagi ahamiyati;

- ekologik monitoring va tabiiy resurslarni boshqarishda qo'llanishi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston

olimlarining ilmiy ishlanmalarida xorijiy tajriba o'rganilgan bo'lsa-da, milliy sharoitga moslashtirishga qaratilgan amaliy tadqiqotlar hali ham ko'proq rivojlantirilishi lozim.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda aerokosmik usullar neft va gaz qidiruv sohasida keng va tizimli tarzda qo'llanilmoqda. O'zbekistonda esa bu jarayon bosqichmabosqich rivojlanib bormoqda, ammo mavjud natijalar ushbu texnologiyalarni kengroq joriy etish katta imkoniyatlar ochishini ko'rsatmoqda.

Natijalar. Aerokosmik usullarni qo'llash rivojlangan davlatlarda neft va gaz qidiruv samaradorligini sezilarli darajada oshirgan. Jumladan, AQShda aerokosmik tasvirlar yordamida geologik tuzilmalarni aniqlash orqali yangi neft va gaz konlari topish samaradorligi 25–30% ga ortgani qayd etilgan (Anderson, 2002). Yevropada olib borilgan tadqiqotlarda esa kosmik suratlar asosida aniqlangan potensial tuzilmalar geofizik usullar bilan tasdiqlanganda 70% dan ortiq aniqlik kuzatilgan (Richards, 2009) [4].

So'nggi yillarda xorijiy davlatlar neft va gaz qidiruv jarayonida aerokosmik usullardan keng foydalanib, bir qator amaliy natijalarga erishdilar. Masalan, AQShda sun'iy yo'ldosh tasvirlari asosida geologik tuzilmalarni aniqlash orqali yangi neft konlari topilgan. Jensen (2007) ma'lumotlariga ko'ra, masofadan zondlash asosida tuzilgan tematik xaritalar qidiruv ishlari samaradorligini sezilarli darajada oshirgan.

Rossiyada esa aerokosmik usullar Sibir va Ural hududlarida qo'llanilib, ilgari aniqlanmagan geologik strukturalar qayd etilgan. Sun'iy yo'ldosh tasvirlari va aerogeofizik ma'lumotlar asosida amalga oshirilgan integratsiyalashgan yondashuv natijasida yangi istiqbolli maydonlar aniqlangan (Kuznetsov, 2010).

Kanadada esa aerokosmik kartografiya yordamida Arktika hududlarida istiqbolli gaz konlari aniqlangan. Campbell va Wynne (2011) tadqiqotlarida qayd etilishicha, aerokosmik usullar yordamida qalin muzliklar ostida ham geologik strukturalarni aniqlash imkoniyati mavjud. Bu esa an'anaviy usullar bilan qiyin bo'lgan hududlarda katta yutuqlarga olib kelgan.

Shuningdek, rivojlangan davlatlarda natijalar nafaqat yangi konlarni aniqlash, balki mavjud konlarning monitoringi va ekologik holatini

baholashda ham samarali bo'lgan. Masalan, Yaponiyada aerokosmik kuzatuvlar asosida qazib olish jarayonida yuzaga keladigan geodinamika o'zgarishlari muntazam nazorat qilinmoqda (Tanaka, 2013).

Rossiya tajribasida ham aerokosmik usullar keng qo'llanilib, qiyin iqlim sharoitida yangi konlarni topishda katta ahamiyat kasb etdi. Richards (2013) o'z izlanishlarida aerokosmik ma'lumotlarni geofizik kuzatuvlar bilan birlashtirish orqali Yevrosiyo hududida bir qator yangi konlarning aniqlanganini ta'kidlaydi. NASA (2014) hisobotlari esa aerokosmik monitoring yordamida Yerning turli hududlarida istiqbolli neft va gaz zaxiralarini tezkor aniqlash imkoniyati yaratilganini ko'rsatadi.

Kanadada Arktika hududida olib borilgan tadqiqotlar natijasida aerokosmik xaritalash va geofizik kuzatuvlarning uyg'unligi natijasida bir nechta yangi neft va gaz konlari kashf etilgan (Smith, 2015). Bu tajriba shuni ko'rsatadiki, aerokosmik texnologiyalar murakkab iqlim sharoitiga ega hududlarda ham samarali qo'llanilishi mumkin.

Yevropaning neft-gaz sanoatida, ayniqsa, Norvegiya va Buyuk Britaniya tajribasi e'tiborga molikdir. Shimoliy dengiz hududida olib borilgan izlanishlarda aerokosmik ma'lumotlardan foydalanish orqali qidiruv ishlari xarajatlari kamaygan va natijalar tezlashtirilgan. ESA (2016) hisobotlariga ko'ra, kosmik monitoring orqali neft va gaz resurslarini izlash jarayonida aniqlik darajasi 25–30 foizga oshgan.

Umuman olganda, rivojlangan davlatlar natijalari shuni tasdiqlaydiki, aerokosmik usullar qidiruv ishlari samaradorligini oshirish, vaqt va mablag'ni tejash, murakkab geologik sharoitlarda ham natijaga erishish imkonini bermoqda.

O'zbekistonda aerokosmik usullar yordamida amalga oshirilgan tadqiqotlar keyingi yillarda ijobiy natijalar bermoqda. Jumladan, Qashqadaryo viloyatidagi bir qator hududlarda sun'iy yo'ldosh tasvirlari asosida geologik tuzilmalar aniqlanib, keyinchalik dala tadqiqotlari bilan tasdiqlangan (Karimov, 2005). Bu esa aerokosmik usullar yordamida qidiruv ishlari samaradorligini oshirish imkonligini ko'rsatmoqda.

Qodirov (2005) tadqiqotida aerokosmik suratlar asosida geologik tuzilmalarni aniqlash natijasida an'anaviy dala ishlariga ehtiyoj sezilarli darajada

kamaygani qayd etilgan. Shuningdek, Karimov (2012) o'z ishida O'zbekiston hududida aerokosmik usullar yordamida yangi istiqbolli konlarning aniqlanganini va bu qidiruv ishlari samaradorligini 15–20 foizga oshirganini ta'kidlaydi.

Buxoro-Xiva hududida olib borilgan izlanishlarda LANDSAT va SPOT tasvirlari asosida aniqlangan tektonik tuzilmalar keyinchalik geofizik kuzatuvlar orqali tasdiqlangan (Saidov, 2018). Ushbu natijalar neft va gaz konlarini aniqlash jarayonida aerokosmik xaritalashning yuqori aniqlikka ega ekanini ko'rsatdi.

Farg'ona vodiysida amalga oshirilgan tadqiqotlarda esa aerokosmik usullar yordamida murakkab tektonik tuzilmalar o'rganilgan. Natijada, ilgari aniqlanmagan kichik konlar aniqlanib, ular keyinchalik sanoat miqyosida o'zlashtirilgan (To'xtayev, 2020).

Shuningdek, Madumarov (2020) olib borgan tadqiqotlarida aerokosmik usullar yordamida O'zbekistonning ayrim cho'l hududlarida ham istiqbolli neft va gaz zaxiralari aniqlangan. Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, aerokosmik texnologiyalar nafaqat tog'li hududlarda, balki tekislik va cho'l zonalarida ham samarali qo'llanishi mumkin.

So'nggi yillarda Xudoyberdiyev (2021) aerokosmik usullarni geoinformatika va GIS texnologiyalari bilan uyg'unlashtirib qo'llash orqali qidiruv ishlari tezligini yanada oshirish mumkinligini ko'rsatib berdi. Uning ma'lumotlariga ko'ra, aerokosmik xaritalash yordamida O'zbekiston janubidagi tog'li hududlarda yangi istiqbolli gaz konlari aniqlandi.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki [5-6]:

- aerokosmik usullar yordamida dala ishlarining hajmini 30–40% ga qisqartirish mumkin;
- qidiruv ishlari uchun sarflanadigan xarajatlar kamayadi;
- yangi istiqbolli maydonlarni tezroq aniqlash imkoniyati yaratiladi;
- ekologik monitoring samaradorligi ortadi.

Natijaviy tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda aerokosmik usullarni joriy etish qidiruv ishlarining umumiy samaradorligini oshiribgina qolmay, iqtisodiy jihatdan ham foydali bo'lmoqda. Chunki bu texnologiyalar yordamida an'anaviy dala ishlariga ketadigan xarajatlar kamaymoqda, vaqt tejalamoqda va natijalar yanada ishonchli bo'lib chiqmoqda.

1-jadval

Rivojlangan davlatlar va O'zbekiston natijalari taqqoslanishi

Davlat	Aerokosmik usullar samaradorligi (%)	Izoh
AQSh	25–30%	Geologik tuzilmalarni tezkor aniqlash
Kanada	28%	Arktika hududida qo'llanilgan
Rossiya	27%	Sibir va Ural hududlarida qo'llanilgan
O'zbekiston	20–22%	Qashqadaryo va Buxoro-Xiva natijalari

AQSh, Kanada va Rossiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, aerokosmik usullar yordamida yangi neft va gaz konlarini aniqlash samaradorligi 25–30% ga oshgan. Bunda geologik tuzilmalarni tezkor aniqlash, katta hududlarni qisqa vaqt ichida o'rganish va ekologik monitoringni amalga oshirish imkoniyati yaratilgan.


O'zbekistonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida aerokosmik usullar yordamida dala ishlarining hajmi 15–20% ga qisqartirilgani kuzatilgan. Bundan tashqari, sun'iy yo'ldosh tasvirlari asosida tuzilgan tematik xaritalar yordamida potensial neft va gaz konlari prognoz qilingan.

2-jadval

Aerokosmik usullar samaradorligi (shartli ma'lumotlar asosida)

Davlat	Samaradorlik (%)	Izohlar
AQSh	95	NASA sun'iy yo'ldoshlari asosida keng qo'llaniladi
Kanada	92	GIS va aerofotosuratlardan faol foydalanadi
Rossiya	90	Aerokosmik monitoring keng yo'lga qo'yilgan
O'zbekiston	80	So'nggi yillarda jadallashmoqda, salohiyat katta

Quyida aerokosmik usullar yordamida aniqlangan potensial neft va gaz konlari hududlarini solishtirish jadvali hamda masofadan zondlash natijalarini tasvirlovchi grafik keltirilgan.



1-rasm. Hududlar bo'yicha aerokosmik usullarning samaradorligi tahlili.

Grafikda turli hududlarda aerokosmik usullar yordamida aniqlangan natijalar foizlarda ko'rsatilgan. Qashqadaryo (90%) va Buxoro (85%) eng yuqori samaradorlikka ega. Surxondaryo (70%)da natijalar yaxshi bo'lsa-da, qo'shimcha tadqiqot zarur. Farg'ona (40%)da samaradorlik past, bu hududda boshqa usullarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin.

3-jadval

Aerokosmik tahlil natijalari va ularning geologik izlanishlar bilan tasdiqlanishi (hududlar kesimida)

Hudud	Aerokosmik tahlil natijasi	Geologik izlanish tasdig'i
Qashqadaryo	Neft koni aniqlangan	Tasdiqlangan
Buxoro	Gaz koni aniqlangan	Tasdiqlangan
Surxondaryo	Potensial hudud	Izlanish davomida
Farg'ona	Kichik struktura	Tasdiqlanmagan

Jadvalda aerokosmik usullar yordamida aniqlangan potensial hududlar va ularning keyingi geologik izlanishlar natijasidagi tasdig'i keltirilgan. Qashqadaryo va Buxoro hududlarida aerokosmik tahlil neft va gaz konlarini ko'rsatdi va geologik izlanishlar buni tasdiqladi. Surxondaryoda potensial kon aniqlangan bo'lsa-da, hozircha izlanishlar davom etmoqda. Farg'ona vodiysida kichik struktura qayd etilgan, ammo geologik izlanishlar buni tasdiqlamagan.

O'tkazilgan tahlillar asosida quyidagi umumiy natijalar olingan:

1. Xorijiy davlatlarda aerokosmik usullar yordamida yangi neft va gaz konlarini aniqlash samaradorligi 25–30% ga oshgan.

2. Aerokosmik ma'lumotlarni geofizik va geokimyoviy tadqiqotlar bilan integratsiyalash natijadorlikni sezilarli darajada oshiradi.

3. O'zbekistonda aerokosmik usullar yordamida aniqlangan geologik tuzilmalar keyinchalik dala tadqiqotlari bilan tasdiqlangan va bu texnologiyaning yuqori samaradorligini ko'rsatgan.

4. Aerokosmik xaritalash qidiruv ishlari hajmini kamaytirish, xarajatlarni qisqartirish va ekologik monitoringni yaxshilash imkoniyatini yaratadi.

Xorijiy davlatlar va O'zbekiston natijalarini solishtirganda, asosiy farq texnologik infratuzilma va ilmiy hamkorlik darajasida ekani aniqlandi.


Muhokama. Xorijiy davlatlarda aerokosmik usullarning keng qo'llanilishi bir necha omillar bilan bog'liq. Avvalo, bu davlatlarda aerokosmik texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish uchun

zarur bo'lgan texnik va moliyaviy resurslar mavjud. Masalan, AQSh va Yevropada kosmik agentliklar (NASA, ESA) tomonidan muntazam ravishda yuqori aniqlikdagi sun'iy yo'ldosh tasvirlari olinib, geologik izlanishlarga integratsiya qilinmoqda. Shu sababli qidiruv ishlari samaradorligi ortmoqda, an'anaviy usullarga nisbatan vaqt va mablag' tejalmogda.

Xorijiy mamlakatlar tajribasida yana bir muhim jihat – multidisiplinar yondashuvdir. Aerokosmik ma'lumotlar geofizik, geokimyoviy va dala tadqiqotlari bilan uyg'unlashtirilib qo'llanilmoqda. Bu esa natijaviy ishonchlilikni oshiradi va konlarni aniqlash jarayonini tezlashtiradi. Masalan, Kanadada Arktika hududida olib borilgan izlanishlarda aerokosmik ma'lumotlar geofizik kuzatuvlar bilan birgalikda qo'llangan va yuqori aniqlikdagi natijalar olingan.

Bundan tashqari, rivojlangan davlatlarda ilmiy tadqiqot markazlari va sanoat korxonalarini o'rtasidagi yaqin hamkorlik aerokosmik texnologiyalarni joriy etishda muhim rol o'ynamoqda. Natijada yangi metodologiyalar tezkorlik bilan ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda aerokosmik usullar jadal rivojlanib borayotgan bo'lsa-da, hali to'liq salohiyatga erishilganicha yo'q. Asosiy sabablar qatoriga texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, xorijiy tajribani to'liq o'zlashtirishdagi muammolar va moliyaviy resurslarning chegaralanganligi kiradi [3-6].



2-rasm. O'zbekistonning sun'iy yo'ldoshdan olingan syomkasi.

Shunga qaramay, mavjud natijalar O'zbekistonda ham aerokosmik texnologiyalarni

qo'llash samarali ekanini ko'rsatmoqda. Qashqadaryo, Buxoro-Xiva va Farg'ona vodiysi hududlarida olingan natijalar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Geologiya qo'mitasi va ilmiy muassasalarning hamkorligi natijasida aerokosmik xaritalash asosida yangi istiqbolli neft va gaz konlari aniqlangan.

Biroq ayrim cheklovlar mavjud:

- sun'iy yo'ldosh tasvirlari sifati va ularni yangilash chastotasi cheklangan;
- mahalliy mutaxassislarining kosmik geologiya bo'yicha tayyorgarlik darajasi hali ham rivojlangan davlatlaridan pastroq;
- aerokosmik tadqiqotlar uchun zamonaviy dasturiy mahsulotlar va yuqori aniqlikdagi ma'lumotlar xarid qilishda moliyaviy qiyinchiliklar mavjud.

Shu bois, O'zbekistonda aerokosmik usullarni kengroq tatbiq etish uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim. Jumladan, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, xorijiy tajribani o'zlashtirish, kadrlar tayyorlash va milliy sun'iy yo'ldosh monitoring tizimini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Xorijiy davlatlar va O'zbekiston tajribasini solishtirish shuni ko'rsatadiki:

- xorijiy davlatlar aerokosmik usullardan kompleks va tizimli tarzda foydalanmoqda, O'zbekistonda esa bu jarayon hali boshlang'ich bosqichda;
- xorijiy davlatlarda ilmiy tadqiqotlar va amaliyot o'rtasida mustahkam integratsiya mavjud, O'zbekistonda esa ko'proq ilmiy ishlanmalar asosida alohida loyihalar amalga oshirilmogda;
- Texnologik imkoniyatlar rivojlangan davlatlarda kengroq va ilg'or, ammo O'zbekistonda cheklangan.

Shunga qaramay, O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, mavjud sharoitda ham aerokosmik usullar samarali natijalar bera olmoqda. Bu esa kelgusida davlat miqyosida qo'shimcha resurslar ajratilsa, katta yutuqlarga erishish mumkinligini anglatadi.

Muhokamadan kelib chiqadiki, aerokosmik texnologiyalar neft va gaz qidiruv sohasida strategik ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi ushbu texnologiyalarni keng qamrovli tarzda qo'llash natijasida iqtisodiy samaradorlik sezilarli darajada oshganini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston uchun esa asosiy vazifa – mavjud tajribani rivojlantirish, ilmiy salohiyatni oshirish va texnologik infratuzilmani mustahkamlashdan iborat.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda neft va gaz konlarini izlash jarayonida aerokosmik usullarning ilmiy va amaliy ahamiyati tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, aerokosmik texnologiyalar geologik-qidiruv ishlari samaradorligini oshirishda, vaqt va mablag'ni tejashda, shuningdek ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, aerokosmik usullarni geofizik va geokimyoviy tadqiqotlar bilan kompleks qo'llash yuqori aniqlikdagi natijalar beradi. AQSh, Kanada, Rossiya va Yaponiyada bu texnologiyalarni keng qo'llash natijasida qidiruv ishlari samaradorligi 25–30% ga oshgan, yangi konlarni aniqlash tezligi esa keskin ortgan.

O'zbekiston tajribasi esa shuni ko'rsatadiki, aerokosmik usullar milliy sharoitda ham samarali natijalar bermoqda. Qashqadaryo, Buxoro-Xiva va Farg'ona vodiysi hududlarida olib borilgan tadqiqotlar sun'iy yo'ldosh tasvirlari yordamida aniqlangan geologik tuzilmalar keyinchalik dala ishlari orqali tasdiqlanganini ko'rsatmoqda. Bu esa aerokosmik texnologiyalarni kengroq joriy etish zarurligini tasdiqlaydi [7-10].

Shu bilan birga, O'zbekistonda aerokosmik usullarning keng qo'llanishiga to'sqinlik qilayotgan bir qator muammolar mavjud. Bular qatoriga texnologik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, yuqori sifatli sun'iy yo'ldosh ma'lumotlariga kirish imkoniyatining cheklanganligi va malakali kadrlar yetishmasligi kiradi.

Shunday qilib, neft va gaz qidiruv sohasida aerokosmik texnologiyalarni yanada rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega:

- xalqaro ilmiy hamkorlikni kuchaytirish;
- yuqori sifatli aerokosmik ma'lumotlar bazasini shakllantirish;
- kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- milliy geoinformatsion tizimlarni rivojlantirish.


Mazkur choralarni amalga oshirilsa, O'zbekistonda aerokosmik usullarni keng joriy etish

orqali nafaqat yangi neft va gaz konlarini samarali izlash, balki ularni boshqarish va monitoring qilish jarayonida ham sezilarli natijalarga erishish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Anderson, J. (2002). Remote sensing for petroleum exploration. New York: Springer.
- [2] Richards, J. A. (2009). Remote sensing digital image analysis. Berlin: Springer-Verlag.
- [3] Mather, P. (2004). Computer processing of remotely-sensed images: An introduction. John Wiley & Sons.
- [4] Campbell, J. (2011). Introduction to remote sensing. New York: Guilford Press.
- [5] Jensen, J. (2016). Remote sensing of the environment: An Earth resource perspective. Pearson Education.
- [6] Smith, R. (2015). Integrated use of remote sensing and geophysics in Arctic oil exploration. Canadian Journal of Earth Sciences, 52(3), 245–259.
- [7] Tanaka, K. (2013). Applications of satellite data in geological monitoring in Japan. Journal of Asian Earth Sciences, 62, 15–28.
- [8] Kuznetsov, V. (2010). Geoinformation technologies in oil and gas exploration. Moscow: Nauka.
- [9] Raxmatov, A. (1998). Kosmik suratlar asosida O'zbekiston geologik tuzilmalarini tahlil qilish. O'zbekiston Geologiya Jurnal, (3), 22–30.
- [10] Karimov, B. (2005). Geologik qidiruv ishlarida aerokosmik usullar. Toshkent: Fan nashriyoti.
- [11] Saidov, U. (2018). Landsat va SPOT tasvirlari asosida O'zbekiston hududlarida geologik-qidiruv ishlari samaradorligi. Geoinformatika va geologiya jurnali, (2), 41–49.
- [12] To'xtayev, D. (2020). Farg'ona vodiysi neft va gaz konlarini izlashda aerokosmik xaritalashning qo'llanilishi. O'zbekiston Geologiya Jurnal, (4), 55–63.

UO‘K: 661.185

 10.70769/3030-3214.SRT.4.1.2026.7

YOG‘-MOY SANOATI CHIQINDILARINING FIZIK-KIMYOVIY XUSUSIYATLARI VA ULAR ASOSIDA SIRT FAOL MODDALAR ISHLAB CHIQISH



**Qobilov Nodirbek
Sobirovich**

Katta ilmiy xodim, O‘zbekiston
kimyo farmatsevtika ilmiy tadqiqot
instituti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: king08@mail.ru



**Tog‘ayev Abror Ikrom
o‘g‘li**

Qarshi davlat texnika universiteti,
dotsent, Qarshi, O‘zbekiston
E-mail:
abrortogayev93@gmail.com
ORCID ID: 0009-0002-6634-5821



**Olimov Jasurbek To‘lqin
o‘g‘li**

O‘zbekiston kimyo farmatsevtika
ilmiy tadqiqot instituti, tayanch
daktarant, Toshkent, O‘zbekiston



**Ergashev Shuxrat
Jamabayevich**

O‘zbekiston kimyo farmatsevtika
ilmiy tadqiqot instituti, tayanch
daktarant, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya. Maqolada yog ‘-moy sanoatida hosil bo ‘ladigan chiqindilar va ikkilamchi mahsulotlarning fizik-kimyoviy xususiyatlari o ‘rganilgan. Ularning tarkibi, qayta ishlash imkoniyatlari hamda ular asosida sirt faol moddalar (SFM) olish usullari tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida gossipol smolasi va soapstok asosida olingan sirt faol moddalarning konsentratsiyasi va turiga bog ‘liq xususiyatlari aniqlangan. Sirt faol moddalarning samaradorligi ularning konsentratsiyasi va boshqa moddalar bilan o ‘zaro ta ‘siriga bog ‘liqligi ko ‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko ‘ra, konsentratsiya ortishi bilan sirt faollikning pasayishi kuzatilgan bo ‘lib, bu holat moddaning yuzadagi taqsimlanishi va kimyoviy xususiyatlari bilan izohlanadi. Sirt faol moddalar turli polimer va kimyoviy tizimlarda materiallarni modifikatsiyalash hamda texnologik jarayonlarni samarali optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chiqindilarni ratsional qayta ishlash ekologik muammolarni kamaytirish bilan bir qatorda, import o ‘rnini bosuvchi mahalliy sirt faol moddalar ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi.

Kalit so ‘zlar: yog ‘-moy sanoati, sanoat chiqindilari, ikkilamchi mahsulotlar, fizik-kimyoviy xususiyatlar, sirt faol moddalar, gossipol smolasi, soapstok.

ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ОТХОДОВ МАСЛОЖИРОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ И ПОЛУЧЕНИЕ НА ИХ ОСНОВЕ ПОВЕРХНОСТНО-АКТИВНЫХ ВЕЩЕСТВ

**Кобиллов Нодирбек
Собирович**

Старший научный сотрудник
Узбекского химико-
фармацевтического научно-
исследовательского института,
Ташкент, Узбекистан.

**Тогаев Абдор Икром
угли**

Каршинский государственный
технический университет,
доцент, Карши, Узбекистан

**Олимов Джасурбек
Толкин угли**

Узбекский химико-
фармацевтический научно-
исследовательский институт,
базовый дктарант, Ташкент,
Узбекистан

**Эргашев Шухрат
Джамабаевич**

Узбекский химико-
фармацевтический научно-
исследовательский институт,
базовый дктарант, Ташкент,
Узбекистан

Аннотация. В статье исследованы физико-химические свойства отходов и вторичных продуктов, образующихся в масложировой промышленности. Проанализированы их состав, возможности переработки и методы получения поверхностно-активных веществ (ПАВ) на их основе. В рамках исследования изучены свойства поверхностно-активных веществ, полученных на основе госсиполовой смолы и soapstoka, в зависимости от их концентрации и типа. Установ-

лено, что эффективность ПАВ определяется их концентрацией и характером взаимодействия с другими веществами. Результаты исследований показали, что с увеличением концентрации наблюдается снижение поверхностной активности, что связано с распределением вещества на поверхности и его химическими свойствами. Поверхностно-активные вещества играют важную роль в модификации материалов и оптимизации технологических процессов в различных полимерных и химических системах. Рациональная переработка отходов не только способствует снижению экологической нагрузки, но и создает возможности для производства отечественных ПАВ, заменяющих импортную продукцию.

Ключевые слова: масложировая промышленность, промышленные отходы, вторичные продукты, физико-химические свойства, поверхностно-активные вещества, госсиполовая смола, сапосток.

PHYSICOCHEMICAL PROPERTIES OF OIL AND FAT INDUSTRY WASTES AND PRODUCTION OF SURFACE-ACTIVE AGENTS BASED ON THEM

**Kobilov Nodirbek
Sobirovich**

Senior Researcher, Uzbek Chemical
and Pharmaceutical Research
Institute, Tashkent, Uzbekistan

Togaev Abror Ikrom ugli

Karshi State Technical University,
Associate Professor, Karshi,
Uzbekistan

**Olimov Jasurbek Tulkin
ugli**

Uzbek Chemical-Pharmaceutical
Research Institute, Base Daktarant,
Tashkent, Uzbekistan

**Ergashev Shukhrat
Jamabaevich**

Uzbek Chemical-Pharmaceutical
Research Institute, Base Daktarant,
Tashkent, Uzbekistan

Abstract. The article investigates the physicochemical properties of wastes and secondary products generated in the oil and fat industry. Their composition, processing potential, and methods for producing surface-active agents (surfactants) based on these materials are analyzed. The study examines the properties of surfactants obtained from gossypol resin and soapstock depending on their concentration and type. It was established that the efficiency of surfactants is determined by their concentration and interaction with other substances. The results indicate that an increase in concentration leads to a decrease in surface activity, which is associated with surface distribution characteristics and chemical properties of the substances. Surfactants play a significant role in material modification and effective optimization of technological processes in various polymer and chemical systems. Rational processing of industrial waste not only reduces environmental impact but also creates opportunities for producing domestic surfactants as import-substituting products.

Keywords: oil and fat industry, industrial waste, secondary products, physicochemical properties, surfactants, gossypol resin, soapstock.

Kirish. O‘zbekistonda yog‘-moy sanoati mamlakat oziq-ovqat va qayta ishlash tarmoqlarining yetakchi sohalaridan biri hisoblanadi. Respublika hududida “Toshkent yog‘-moy kombinati”, “Farg‘ona yog‘-moy zavodi”, “Qashqadaryo yog‘-moy”, “Buxoro yog‘-moy”, “Qo‘qon yog‘-moy” hamda “Urganch yog‘-moy kombinati” kabi yirik sanoat korxonalari faoliyat yuritmoqda [1,2].

Yog‘-moy sanoati chiqindilari yog‘larni tozalash, rafinatsiya, gidratatsiya, neytrallash, dezodoratsiya va boshqa texnologik jarayonlar natijasida hosil bo‘ladigan yordamchi mahsulotlardan iborat. Ushbu chiqindilar asosan biologik va organik tabiatga ega bo‘lib, ularni

yetarli darajada qayta ishlamaslik atrof-muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi [3–5].


Paxta urug‘ini qayta ishlash jarayonida asosiy mahsulot sifatida paxta yog‘i olinadi, biroq shu bilan birga katta miqdorda soapstok, gossipol smolasi va boshqa yonma-yon mahsulotlar hosil bo‘ladi. Ushbu chiqindilarni maqsadli va samarali qayta ishlash orqali yuqori iqtisodiy hamda ekologik samaradorlikka erishish mumkin. Respublikada har yili minglab tonna paxta yog‘i, kunjut, soya, pista va boshqa turdagi o‘simlik moylari qayta ishlanadi. Mazkur jarayonlarda soapstok, gossipol smolasi, yog‘ kislotalari aralashmalari hamda glitserinli suv kabi chiqindilar hosil bo‘ladi. Ushbu chiqindilarning katta qismi

qimmatli organik moddalardan iborat bo‘lib, ularni ratsional qayta ishlash muhim iqtisodiy va ekologik ahamiyat kasb etadi.

Materiallar va uslublar. Tadqiqotda asosiy xomashyo sifatida gossipol smolasi va soapstokdan, shuningdek, OP-10 tipidagi sirt faol modda hamda ishqoriy reagentlardan foydalanildi. Sirt faol moddalarning fizik-kimyoviy xususiyatlari GOST va API talablari asosida aniqlangan. Bundan tashqari, sirt faol moddalarning konsentratsiyasi va turi sirt faollikka ko‘rsatadigan ta‘siri o‘rganildi.

Ekstraksiyadan keyingi yog‘ qoldiqlarini qayta ishlash jarayonida gossipol smolasi hosil bo‘ladi [6,7]. Gossipol smolasi paxta yog‘i ishlab chiqarish jarayonida olinadigan fenolli tabiatga ega polimer modda bo‘lib, u metall ionlari va yog‘ kislotalari bilan reaksiyaga kirishish xususiyatiga ega. Ma‘lumotlarga ko‘ra, 1 tonna paxta urug‘idan o‘rtacha 10–15 kg miqdorida gossipol smolasini ajratib olish mumkin.

Gossipol smolasi paxta yog‘i ishlab chiqarishda, xususan, gossipol saqlovchi paxta urug‘idan yog‘ olish jarayonida hosil bo‘ladigan yog‘simon chiqindi hisoblanadi. Ushbu modda kimyoviy tarkibiga ko‘ra gossipol (C₃₀H₃₀O₈) deb ataluvchi polifenolik birikmaning smolasimon shaklidir. Gossipol smolasi qora-qo‘ng‘ir yoki to‘q jigarrang rangli, yopishqoq va qattiq yog‘simon modda bo‘lib, qizdirilganda o‘tkir hidli, yopishqoq massa holatiga o‘tadi.



1-rasm. Gossipol smolasining kimyoviy tuzilishi.

Soapstok — yog‘-moy sanoatida suyuq moylarni qayta ishlash, xususan, neytrallash jarayonida hosil bo‘ladigan ikkilamchi mahsulot bo‘lib, asosan erkin yog‘ kislotalari, glitserinli suv hamda turli organik aralashmalardan tashkil topadi. U odatda qo‘ng‘ir yoki sariq rangli, yog‘simon, quyuvq massa holatida bo‘ladi. Soapstokning tarkibi, odatda, erkin yog‘ kislotalari (45–65%), glitserin

(5–10%), fosfatidlar (2–4%), neytrallanmagan moy qoldiqlari hamda mexanik aralashmalardan iborat bo‘ladi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, 1 tonna paxta urug‘ini qayta ishlash jarayonida o‘rtacha 8–12 kg soapstok hosil bo‘ladi. Uning tarkibidagi erkin yog‘ kislotalari sirt faol moddalar ishlab chiqarish uchun muhim xomashyo hisoblanadi [8–10].

Soapstok moyni qayta ishlash jarayonining quyidagi bosqichlarida hosil bo‘ladi: moyni natriy gidroksid (NaOH) bilan neytrallash orqali erkin yog‘ kislotalarini ajratish; sovunli qatlamning hosil bo‘lishi; hosil bo‘lgan sovunni moydan ajratish jarayonida qo‘shimcha suyuq qatlam sifatida ajralib chiqishi. Ushbu jarayonda moy tarkibidagi erkin yog‘ kislotalari natriy gidroksid bilan reaksiyaga kirishib, sovun hosil qiladi:



Hosil bo‘lgan sovunli qatlam suv bilan birga moydan ajratilib, soapstok deb ataladi.

Soapstokning tarkibi va fizik-kimyoviy xususiyatlari qayta ishlanayotgan moy turiga hamda texnologik ishlov berish sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi. Soapstokning o‘rtacha tarkibi va asosiy fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.


Soapstokning tarkibi

Komponentlar	Miqdori, % (mass.)
Erkin yog‘ kislotalari (olein, linol, stearin va boshqalar)	40–65
Sovunlar (natriy yoki kaliy tuzlari)	5–15
Gliserin	5–10
Fosfatidlar va oqsil moddalar	2–4
Suv	15–25
Mexanik aralashmalar	1–3

Soapstokning kimyoviy xususiyatlari, avvalo, uning sirt faolligi bilan tavsiflanadi. Sovunlar va erkin yog‘ kislotalari mavjudligi tufayli soapstok suv–moy tizimlarida barqaror emulsiyalar hosil qilish qobiliyatiga ega. Uning reaksiyon faolligi tarkibidagi karboksil (–COOH) va glitserin molekulasidagi gidroksil (–OH) guruhlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular ishtirokida efilash va boshqa kimyoviy reaksiyalarni amalga oshirish mumkin. Bundan tashqari, soapstok natriy (Na⁺), kaliy (K⁺) hamda kalsiy (Ca²⁺) ionlari bilan o‘zaro ta‘sirlashib, kompleks birikmalar hosil qilish xususiyatiga ega.


Yog‘-moy sanoati korxonalarida soapstok hosil bo‘lishi va keyingi qayta ishlash jarayonlarida

yuqori harorat sharoitida (300–400°C) yakuniy mahsulotning gidrolizi sodir bo‘lib, natijada yog‘ kislotalari va glitserin ajralib chiqadi.



2-rasm. Soapstok tarkibidagi triglitsridlarning ishqoriy gidrolizi natijasida sovun va glitserin hosil bo‘lish reaksiyasi.

Soapstokni 180–200°C haroratga sovutganda, reaksiya natijasida trimer hosil bo‘ladi.



3-rasm. Glitserinning termik degidratatsiyasi natijasida poliglitserol hosil bo‘lish reaksiyasi.


Polimer (trimer) hosil bo‘lgandan so‘ng, glitserin stearin kislotasi bilan efilash reaksiyasiga kirishib, molekulasida ikki dona gidroksil guruhi saqlagan glitserin distearatini hosil qiladi. Ushbu birikma sirt faol moddalar sintezida muhim oraliq mahsulot hisoblanadi.

Mazkur usul asosida sirt faol moddalar tayyorlanganda, tarkibidagi polimer komponentlar va yog‘ kislotalarining natriy tuzlari kalsiy hamda magniy ionlari ta‘siriga nisbatan yuqori chidamlilikni ta‘minlaydi. Natijada strukturani barqarorlashtiruvchi va shakllantiruvchi xususiyatlar yuzaga keladi.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi

Yog‘-moy sanoati korxonalarida hosil bo‘ladigan chiqindilarni qayta ishlash natijasida quyidagi ijobiy samaralarga erishildi:

- chiqindilar miqdori 20–25 % ga qisqaradi;
- qo‘shimcha iqtisodiy qiymatga ega mahsulotlar olinadi;
- atrof-muhitga chiqariladigan chiqindilar hajmi kamayadi;
- sirt faol moddalar importiga bo‘lgan ehtiyoj sezilarli darajada qisqaradi.



4-rasm. Gossipol smolasining IQ-spektrda ko‘rinishi.

Gossipol smolasining asosiy tarkibiy qismlari erkin yog‘ kislotalari (olein, linol, palmitin), sterinlar va mum (vosk) moddalar, fosfolipidlar, oqsil qoldiqlari hamda smolasimon organik birikmalar — polifenollardan iborat. Gossipol smolasidagi funksional guruhlarni aniqlash maqsadida infraqizil (IQ) 132iologic tahlil qo‘llanildi. Olingan natijalarga ko‘ra, 3200–3600 sm^{-1} diapazonda kuzatilgan 132iologic132 yutilish cho‘qqilari gidroksil (–OH) guruhlarning mavjudligini ko‘rsatadi. 1700–1750 sm^{-1} oralig‘ida aniqlangan aniq signal keton yoki aldegid guruhlarga xos bo‘lib, karbonil birikmalar mavjudligini tasdiqlaydi. 2800–3000 sm^{-1} diapazondagi signallar metil (–CH₃) va metilen (–CH₂–) guruhlarga tegishlidir. Aromatik halqalarga xos bo‘lgan C=C bog‘lanishlarining yutilish signallari 1500–1600 sm^{-1} oralig‘ida kuzatilib, bu fenol va 132iologic tuzilmalarning mavjudligini ko‘rsatadi. Fenol guruhlarga xos yutilishlar esa 1000–1300 sm^{-1} diapazonda aniqlangan.

Gossipol smolasi qisman kislotali muhitga ega bo‘lib, uning pH qiymati taxminan 5,5–6,0 oralig‘ida bo‘ladi. U ishqorlar bilan reaksiyaga kirishib, gossipolat tuzlarini hosil qiladi hamda



yuqori oksidlanish faolligi bilan tavsiflanadi. Havoda saqlanganda rangining qorayishi uning oksidlanishga moyilligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, polifenolli tuzilishga ega bo'lgani sababli 133iologic smolasi antioksidant xususiyatlarga ham ega. Uni qayta ishlash natijasida polimer materiallar, laklar, yopishqoq moddalar hamda 133iologic faol birikmalar olish mumkin.

Gossipol smolasi tarkibida tabiiy polifenolli birikmalar, yog' kislotalari, shuningdek, polyar (-OH, -COOH) va nopolyar (uglevodorod zanjirlari) guruhlarning mavjudligi uni sirt faol moddalar olish uchun istiqbolli xomashyo sifatida tavsiflaydi [11,12].

Gossipol smolasidan sirt faol moddalar olish jarayoni asosan eterifikatsiya reaksiyalarini orqali amalga oshiriladi. Bunda 5–10 % konsentratsiyali natriy gidroksid (NaOH) yoki kaliy gidroksid (KOH) eritmalarini tayyorlanib, reaksiya 80–90 °C haroratda 1–2 soat davomida aralashtirish sharoitida olib boriladi. Ushbu jarayonda yog' kislotalari va fenol birikmalar mos ravishda natriy yoki kaliy tuzlariga aylanadi:



Shuningdek, sulfonatlash va gidroliz jarayonlari quyidagi reaksiyalar orqali amalga oshiriladi:



3-jadval

Gossipol smolasidan sirt faol moddasi olish jarayonlari

Bosqichlar	Xom-ashyo	Miqdori	Temperatura	Vaqt	Izohlar
Saponifikatsiya (tozalash)	Gossipol smolasi	100 g	80–90°C	1–2 soat	Smola moylar va efilardan tozalanadi, fenollar reaksiyon holatiga o'tadi
	NaOH (5% eritma)	10 g NaOH + 200 ml suv			Yog' kislotalari natriy tuzlariga aylanadi
Sulfonatizatsiya (anionogen SFM)	Tozlangan gossipol	100 g	0–5°C (qo'shish) → 20–25°C (reaksiya)	1–2 soat	-SO ₃ ⁻ Na ⁺ guruhlari hosil bo'ladi
	ClSO ₃ H (xlorosulfon kislotasi)	10.8 g	0–5°C		Sulfonatlash
Neytrallashtirish	NaOH (5%)	5.6 g + 150 ml suv	20–25°C	30–60 daqiqa	-SO ₂ Cl gidrolizlanib -SO ₃ ⁻ Na ⁺ shakliga o'tadi

Yog'-moy sanoati korxonalarida hosil bo'ladigan chiqindilarni qayta ishlash natijasida chiqindilar miqdori 20–25% ga qisqaradi, qo'shimcha iqtisodiy qiymatga ega mahsulotlar olinadi, atrof-muhitga chiqariladigan chiqindilar hajmi kamayadi hamda sirt faol moddalar importiga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada kamayadi.

Gossipol smolasidan sirt faol moddalar olish

jarayonining bosqichma-bosqich texnologik ketma-ketligi 3-jadvalda keltirilgan.


Gossipol smolasi emulgator sifatida neft sanoatida yog'-suv emulsiyalarini barqarorlashtirishda, detergent va yuvuvchi vosita sifatida sanoat uskunalarini yuvish hamda tozalash jarayonlarida qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, u polimer va bo'yoq sanoatida tarkibiy komponent sifatida, shuningdek, foydali qazilmalardan metallarni ajratib olish jarayonlarida flotoreagent sifatida foydalanish imkoniyatiga ega.

Gossipol smolasi va soapstok asosida olingan sirt faol moddalar hamda sanoatda keng qo'llaniladigan OP-10 sirt faol moddasining sirt tarangligi xossalari o'rganildi. Olingan tajriba natijalari 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval.

Gossipol smolasi va soapstok asosida olingan sirt faol moddalar hamda OP-10 ning sirt tarangligi

Konsentratsiya	Sirt tarangligi, N/m		
	Gossipol smolasi asosidagi SFM	Soapstok asosidagi SFM	OP-10
0,01	60,7	61,2	50,9
0,05	42,1	42,6	41,6
0,10	38,0	38,6	41,0
0,25	36,2	36,9	36,1
0,5	35,9	36,2	35,6
1,0	34,8	35,1	35,5



5-rasm. Gossipol smolasi, soapstok asosida olingan sirt faol moddalar va OP-10 ning sirt tarangligi.

5-rasmdan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqilgan sirt faol moddalarning konsentratsiyasi ortishi bilan sirt tarangligi pasayadi. Bu holat moddalarning fazalar chegarasidagi taqsimlanishi va ularning molekulyar tuzilishiga xos xususiyatlari bilan izohlanadi. Sirt faol moddalar turli materiallar

yuzasi bilan fizik va kimyoviy o'zaro ta'sirga kirishib, ularning texnologik hamda funksional xususiyatlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Gossipol smolasi va soapstok kabi xomashyolardan olingan sirt faol moddalarning konsentratsiyasi va turi ularning ishlash samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa. Gossipol smolasi va soapstokdan sirt faol moddalar olish nafaqat sanoat chiqindilarini qayta ishlash, balki qimmatli kimyoviy mahsulotlar sintez qilishning samarali usuli hisoblanadi. Ushbu jarayonda saponifikatsiya, sulfonatlash hamda noionogen etoksillash usullaridan foydalaniladi. Olingan sirt faol moddalar sanoatda emulgator,

detergent va flotoreagent sifatida keng qo'llanilish imkoniyatiga ega.

Shu bilan birga, gossipol smolasi va soapstok asosida olingan sirt faol moddalar iqtisodiy jihatdan foydali bo'lishi bilan bir qatorda, ekologik ahamiyatga ham ega bo'lib, sanoat chiqindilarini qimmatli resursga aylantirish imkonini beradi. Infraqizil (IQ) spektral tahlil natijalariga ko'ra, gossipol smolasi tarkibida gidroksil, karbonil, aromatik va fenol funksional guruhlar mavjudligi aniqlangan. Ushbu ma'lumotlar uning kimyoviy faolligi hamda sirt faol modda sifatidagi yuqori potensialini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Ахмедов, М. А. (2021). Ёғ-мой саноатида чиқиндиларни қайта ишлаш технологияси. Тошкент.
- [2] Хамраев, А., ва бошқалар. (2020). Пахта уруғидан олинадиган маҳсулотлар кимёвий таҳлили. Самарқанд.
- [3] Ахмадов, Ш. М. (2018). Госсипол ва унинг қўлланилиши. Тошкент.
- [4] Каримов, Ф. А. (2020). Полимерли модификаторлар ва сирт фаол моддалар. Самарқанд.
- [5] Zokirov, D. (2021). Soapstock and cottonseed resin in industrial applications. Tashkent: Science Press.
- [6] Шарипов, У. (2023). Соапсток ва госсипол асосида биосирт фаол моддалар олиш усуллари. ЎзКимЁж, (3).
- [7] Food and Agriculture Organization of the United Nations. (2022). Cottonseed processing data. FAO Bulletin.
- [8] Uzbekneftegaz. (2024). Natural surfactants from vegetable oil by-products (Scientific reports).
- [9] Petrov, A., & Ivanov, B. (2019). Surface active agents from cottonseed residues. Journal of Applied Chemistry, 92(4), 512–520.
- [10] Smith, J., & Brown, L. (2017). Infrared spectroscopy of natural resins. Analytical Methods, 9, 101–110.
- [11] Khalikov, R., & Yusupov, T. (2022). Chemical and physical properties of cottonseed gossipol. Uzbek Chemical Journal, 45(2), 34–42.
- [12] Omanov, B., & Allanazarova, O. (2024). Etilendan vinilasetatning katalitik sintezi va texnologiyasi. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 3(15), 160–161.
- [13] Togayev, A. (2025). Production of high-activity catalysts for obtaining liquid hydrocarbons from natural gas. Austrian Journal of Technical & Natural Sciences.
- [14] ASTM International. (2017). ASTM D5712-17: Standard test method for surface active materials in oils. ASTM.

UO‘K: 622.022.612.2

doi 10.70769/3030-3214.SRT.4.1.2026.6

MOYLOVCHI MATERIALLAR UCHUN SIRT FAOL MAODDALAR TARKIBI VA TEXNOLOGIYASI



**Qobilov Nodirbek
Sobirovich**

Katta ilmiy xodim, O‘zbekiston kimyo farmatsevtika ilmiy tadqiqot instituti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: king08@mail.ru



**Tog‘ayev Abror Ikrom
o‘g‘li**

Qarshi davlat texnika universiteti, dotsent, Qarshi, O‘zbekiston
E-mail: abrortogayev93@gmail.com
ORCID ID: 0009-0002-6634-5821



**Olimov Jasurbek To‘lqin
o‘g‘li**

O‘zbekiston kimyo farmatsevtika ilmiy tadqiqot instituti, tayanch daktarant, Toshkent, O‘zbekiston



**Ergashev Shuxrat
Jamabayevich**

O‘zbekiston kimyo farmatsevtika ilmiy tadqiqot instituti, tayanch daktarant, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada neft va gaz quduqlarini burg‘ulashda ishlatiladigan moylovchi materiallar uchun yog‘-moy sanoati chiqindilari — pista yog‘i soapstogi asosida olingan sirt faol moddalarning (SFM) fizik-kimyoviy va texnologik xususiyatlari o‘rganildi. Moylovchi materiallar uchun chiqindilarni qayta ishlash orqali arzon, samarali va ekologik xavfsiz SFM turlarini olish hamda ularning asosiy xususiyatlarini aniqlandi. Tadqiqot jarayonida olingan SFM namunalarining sirt tarangligi, fazaviy barqarorligi, reologik xususiyatlari, kimyoviy barqarorligi va emulsiya hosil qilish qobiliyati tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, yog‘-moy sanoati chiqindilari asosida sintez qilingan SFMlar sirt tarangligini sezilarli darajada pasaytiradi, suv va yog‘ muhitida barqaror emulsiya hosil qiladi hamda yuqori harorat va pH o‘zgarishiga nisbatan barqarorlik ko‘rsatadi. Soapstok asosida olingan SFMlar nafaqat yuqori samarali, balki ekologik toza va iqtisodiy jihatdan maqbul moddalar ekanligi aniqlandi. Ulardan turli sohalarda — tozalovchi vositalar, emulgatorlar, to‘qimachilik va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash jarayonlarida foydalanish imkoniyatlari mavjud. Ushbu ish resurs tejankor texnologiyalar yaratish, sanoat chiqindilarini qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar olish sohasida muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: moylovchi materiallar, sirt faol moddalar, eterifikasiya, saponifikasiya, yog‘ kislotalari, ekologik texnologiya.

СОСТАВ И ТЕХНОЛОГИЯ ПОВЕРХНОСТНО-АКТИВНЫХ ВЕЩЕСТВ ДЛЯ СМАЗОЧНЫХ МАТЕРИАЛОВ

**Кобилев Нодирбек
Собирович**

Старший научный сотрудник
Узбекского химико-фармацевтического научно-исследовательского института,
Ташкент, Узбекистан.

**Тогаев Аброр Икром
угли**

Каришинский государственный
технический университет,
доцент, Кариши, Узбекистан

**Олимов Джасурбек
Толкин угли**

Узбекский химико-фармацевтический научно-исследовательский институт,
базовый дактарант, Ташкент,
Узбекистан

**Эргашев Шухрат
Джамабаевич**

Узбекский химико-фармацевтический научно-исследовательский институт,
базовый дактарант, Ташкент,
Узбекистан

Аннотация. В данной статье изучены физико-химические и технологические свойства поверхностно-активных веществ (ПАВ), полученных из отходов масложировой промышленности — подсолнухи — для смазочных материалов, используемых при бурении нефтяных и газовых скважин. Определена возможность получения недорогих, эффективных и экологически чистых типов ПАВ путем переработки отходов в смазочные материалы и опреде-

лены их основные свойства. Проанализированы поверхностное натяжение, фазовая стабильность, реологические свойства, химическая стабильность и эмульгирующая способность образцов ПАВ, полученных в ходе исследования. Полученные результаты показали, что ПАВ, синтезированные из отходов нефтегазовой промышленности, значительно снижают поверхностное натяжение, образуют стабильные эмульсии в водной и масляной средах, а также устойчивы к высоким температурам и изменениям pH. Установлено, что ПАВ, полученные из мыльного осадка, являются не только высокоэффективными, но и экологически чистыми и экономически приемлемыми веществами. Они имеют потенциальные области применения в различных областях – моющие средства, эмульгаторы, текстильная и сельскохозяйственная промышленность. Данная работа имеет важное научное и практическое значение в области создания ресурсосберегающих технологий, переработки промышленных отходов и получения продукции с высокой добавленной стоимостью.

Ключевые слова: смазочные материалы, поверхностно-активные вещества, этерификация, омыление, жирные кислоты, экологические технологии.

COMPOSITION AND TECHNOLOGY OF SURFACTANTS FOR LUBRICANTS

Kobilov Nodirbek
Sobirovich

Senior Researcher, Uzbek Chemical
and Pharmaceutical Research
Institute, Tashkent, Uzbekistan

Togaev Abror Ikrom ugli

Karshi State Technical University,
Associate Professor, Karshi,
Uzbekistan

Olimov Jasurbek Tulkin
ugli

Uzbek Chemical-Pharmaceutical
Research Institute, Base Daktarant,
Tashkent, Uzbekistan

Ergashev Shukhrat
Jamabaevich

Uzbek Chemical-Pharmaceutical
Research Institute, Base Daktarant,
Tashkent, Uzbekistan

Abstract. This article studies the physicochemical and technological properties of surfactants (SFM) obtained from the waste of the oil and gas industry - pistachio oil soapstock - for lubricating materials used in drilling oil and gas wells. The possibility of obtaining inexpensive, effective and environmentally friendly types of SFM by recycling waste for lubricating materials and their main properties were determined. The surface tension, phase stability, rheological properties, chemical stability and emulsion-forming ability of the SFM samples obtained during the research were analyzed. The results obtained showed that SFMs synthesized from the waste of the oil and gas industry significantly reduce surface tension, form stable emulsions in water and oil environments, and are stable to high temperatures and pH changes. SFMs obtained from soapstock were found to be not only highly effective, but also environmentally friendly and economically acceptable substances. They have potential applications in various fields - detergents, emulsifiers, textile and agricultural product processing. This work is of significant scientific and practical importance in the field of creating resource-saving technologies, processing industrial waste, and obtaining high-value-added products.

Keywords: lubricants, surfactants, etherification, saponification, fatty acids, environmental technology.

Kirish. Neft va gaz quduqlarini burg'ulash uchun moylovchi materiallarning o'rni beqiyosdir. Moylovchi materiallar burg'ulash jarayonida ishqalanishni va burg'ulash jixozlariga tushadigan yuklamani kamaytiradi hamda burg'ulash jixozlarining ishlash muddatini uzaytiradi. Moylovchi materiallar ishlab chiqish uchun yog'moy sanoati chiqindilaridan ham foydalaniladi. Yog'moy sanoati mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, u nafaqat oziq-ovqat mahsulotlarini, balki turli texnik va kimyoviy

moddalarni ham ishlab chiqarish imkonini beradi. Biroq bu sohada katta miqdorda chiqindilar hosil bo'ladi.

O'zbekistonda yillik yog'moy ishlab chiqarish hajmi 350–400 ming tonna atrofida bo'lib, undan taxminan 8–12% soapstok, 3–5% gossipol smolasi va 25–30% shrot chiqindisi ajralib chiqadi. Bu chiqindilarni qayta ishlash asosida qimmatbaho mahsulotlar — xususan, sirt faol moddalar (SFM) olish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega [1,2].

Adabiyot tahlili va metodlar. Moylovchi

materiallar ishlab chiqarishda sirt faol moddalar ham muhim rol o'ynaydi. Sirt faol moddalar moylovchi materiallarni burg'ulash eritmasida kolloid darajadagi emulsiyalar hosil qilishini ta'minlaydi. Sirt faol moddalar (SFM) – bu organik tabiatli moddalar bo'lib, ular suyuqliklar orasidagi yoki suyuqlik bilan gaz fazasi o'rtasidagi sirt faollik ko'rsatadi. Ular suv va yog', yoki gaz va suyuqlik orasida tuzilma hosil qilib, bu muhitlardagi fizik-kimyoviy jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi. SFM molekulasida ikki qismdan: gidrofil (suvni yaxshi qabul qiluvchi) va gidrofob (suvni rad etuvchi, yog'ni jalb qiluvchi) qismlardan iborat bo'ladi. Ana shu ikki qismning mavjudligi sababli ular emulgirash, namlanish, dispergasiya va adsorbsiya jarayonlarini samarali boshqara oladi [3].

Sirt faol moddalar qishloq xo'jaligi, kimyo, yog'-moy, to'qimachilik, oziq-ovqat, farmasevtika va ekologik tozalash sohalarida keng qo'llaniladi. Masalan, yog'-moy sanoatida ular soapstok, gossipol smolasi va boshqa chiqindilar asosida olinadi va qayta ishlash jarayonlarida emulgator yoki tozalovchi agent sifatida xizmat qiladi.

SFMning faolligi, samaradorligi va ishlash mexanizmi uning fizik-kimyoviy xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq. Ularga sirt tarangligi, reologik ko'rsatkichlar (qovushqoqlik, elastiklik), qurish vaqti, fazaviy va kimyoviy barqarorlik kiradi. Bu ko'rsatkichlar SFMning sanoat sharoitida qanchalik samarali ishlashini, fazalarni barqaror saqlay olishini va tashqi omillarga chidamliligini belgilaydi [2,3].

Sirt faol moddalarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini o'rganish nafaqat ularning texnologik qiymatini aniqlaydi, balki yangi, resurs tejamkor va ekologik xavfsiz moddalarni yaratish uchun asos bo'ladi. Hozirgi kunda yog'-moy sanoati chiqindilaridan, jumladan gossipol smolasi va soapstok asosida olingan SFM turlari tadqiqotchilarning e'tibor markazida bo'lib, ular nafaqat arzon xom ashyo, balki ekologiya uchun ham foydali manba hisoblanadi.

Shuning uchun SFMning fizik-kimyoviy xususiyatlarini aniqlash, ularni solishtirish va tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan juda muhim vazifadir. Bu tadqiqot natijalari sanoat ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, mahsulot sifatini oshirish va tabiiy xom ashyodan samarali foydalanish imkonini beradi.

Tadqiqot ob'ekti sifatida paxta yog'i, pista yog'i sanoati chiqindilari — soapstok, natriy gidroksid, natriy karbonat va boshqa ingredientlar tanlab olindi. Paxta yog'i, pista yog'i sanoati chiqindilari tarkibida yuqori molekulyar yog' kislotalari, gliserin, hamda polifenolli birikmalar mavjud bo'lib, SFM sintezi uchun asosiy xomashyo hisoblanadi.

Olingan natijalar va ularning taxlili. Pista yog'i soapstogi — bu pista yog'ini ishlab chiqarish jarayonidagi yog'li chiqindi bo'lib, asosan sovunlanmagan moddalar, erimaydigan qismlar va eriydigan yog' kislotalari tuzlaridan iborat. Uning tarkibi soya, kungaboqar yoki paxta soapstoklariga o'xshash, ammo pista yog'iga xos moddalar ham mavjud.

Pista yog'i soapstogi yog' kislotalari va sovunlar miqdori yuqori bo'lgani uchun uni qayta ishlash orqali sirt faol moddalar (SFM), emulgatorlar, yoki bioyonuvchi yog' kislotalari efilrlari olinadi [4].

Quyida pista yog'i soapstogining taxminiy kimyoviy tarkibi keltirilgan:

1-jadval

Pista yog'i soapstogining kimyoviy tarkibi

Komponentlar nomi	O'rtacha miqdori, %	Izohlar
Erkin yog' kislotalari (olein, linol, palmitin va boshqalar)	40–60	Asosiy qism, sovunlanish jarayonida hosil bo'ladi.
Sovunlar (natriy yoki kaliy tuzlari)	15–25	Yog' kislotalarining ishqor bilan reaksiyasi natijasida hosil bo'ladi.
Neytral yog'lar (trigliseridlar)	5–10	To'liq sovunlanmagan qismi.
Fosfolipidlar	2–5	Tabiiy emulgator vazifasini bajaradi.
Sterinlar (kampesterol, sitosterol, xolesterin)	1–3	Biologik faol moddalar

Quyida pista yog'i soapstogining fizik-kimyoviy xususiyatlari 2-jadvalda berilgan.

Pista yog'i soapstogi — yog' kislotalari va sabunlar miqdori yuqori bo'lgan, biologik qimmatli chiqindi hisoblanadi. Uni qayta ishlash orqali bioemulgatorlar, sirt faol moddalar (SFM) va

ekologik toza texno-reagentlar tayyorlash mumkin.

2-jadval

Pista yog‘i soapstogining fizik-kimyoviy xususiyatlari

№	Ko‘rsatkichlar nomi	Qiymati	Izohlar
1	Zichlik (20 °C da) g/sm ³	0,91 – 0,93	Yog‘li moddalarga xos
2	Qovushqoqlik (40 °C da) mm ² /s	60 – 90	Yog‘ kislotalari hisobiga yuqori
3	Kislotalik soni mg KOH/g	60 – 120	Erkin yog‘ kislotalari miqdori yuqori
4	Sovunlanish soni mg KOH/g	170 – 195	Trigliseridlar miqdoriga bog‘liq
5	Yod soni g I ₂ /100 g	80 – 95	Qo‘sh bog‘li kislotalar ko‘p
6	Namlik miqdori, %	5 – 10	Tozalash darajasiga bog‘liq
7	Peroksid soni mmol O ₂ /kg	5 – 15	Oksidlanish darajasi ko‘rsatkichi
8	Rang (Gardner shkalasi bo‘yicha)	10 – 15	Qo‘ng‘ir yoki qora tusda
9	pH (10% suvli suspenziya)	8 – 10	Sabunlar hisobiga ishqoriy Pista yog‘iga xos tarkib muhit
10	Yog‘ kislotalari asosiy tarkibi	Olein (≈50%), Linol (≈25%), Palmitin (≈10%), Stearin (≈5%)	

SFMning asosiy fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi [5, 6, 7, 8]:

1. Sirt tarangligi – SFMning sathidagi molekulalar orasidagi o‘zaro ta’sir quvvati bilan bog‘liq bo‘lgan fizik hodisa. Ya’ni, suyuqlikning sathi uning ichidagi molekulalardan farqlanadi va ba’zi molekulalari havo yoki boshqa muhit bilan aloqada bo‘ladi. Sirt tarangligini pasaytirish SFMning samaradorligini ko‘rsatadi.

2. Reologik xususiyatlar – moddaning qovushqoqligi va qavatlanish qobiliyati aloxida ahamiyatga ega. SFMning suyuqlikdagi oqishi uning konsentratsiyasi, harorati va molekulyar tarkibiga bog‘liq. Yuqori qovushqoqli SFM emulsiyalarni barqaror saqlaydi, past qovushqoqliklari esa tez tarqalib ketadi.

3. Qurish vaqti va barqarorlik – SFMning havo va harorat ta’siridagi uzoq muddatli xususiyatlari bo‘lib, uning asosidagi emulsiya,

suspenziya yoki qoplama moddaning suyuqlikdan qat’iy holatga o‘tish vaqtidir. Qurish vaqti va barqarorlik SFMning tarkibi, konsentratsiyasi, harorat va muhitning namligiga bog‘liq bo‘ladi. Barqarorlik – SFMning vaqt o‘tishida fizik va ximiyoviy xususiyatlarini saqlab qolish qobiliyatidir.

4. Fazaviy emulsiya qo‘llab-quvvatlash qobiliyati – uning asosidagi moddaning yog‘ va suv fazalarini uzoq vaqt davomida ajralmasdan saqlay olish qobiliyatidir. Suyuqlikdagi yog‘ tomchilari suvda, yoki suv tomchilari yog‘da dispergasiyalangan holatda bo‘ladi. SFMning vazifasi – bu dispersiyani barqarorlashtirish va fazalarning ajralib ketishini oldini olishdan iborat bo‘ladi. Bu qavat yog‘ va suv molekulalari orasidagi tortiluvchi kuchlarni yumshatadi, natijada emulsiya barqaror bo‘ladi. Molekulalarning gidrofil va gidrofob qismlarida joylashadi.

5. Kimyoviy barqarorlik – rN, harorat va ion konsentratsiyasi o‘zgarishiga qaramay saqlab turish qobiliyatidir. SFMning funksional molekulalari (gidrofob va gidrofil guruhlar) kimyoviy ta’sirlarga sezgir bo‘ladi. Barqaror SFM turli shart-sharoitlarda o‘z ta’sirchanligini yo‘qotmaydi. Kislotaga yoki asos muhitida SFMning zarrachasi va molekulalari quvvatini o‘zgartirishi mumkin. Barqaror SFM turli rN sharoitda emulsiyani saqlay oladi. Natriy, kaliy, kalsiy kabi ionlar SFMning zarrachalarini agregatsiyaga olib kelishi va faolligini pasaytirishi mumkin. Barqaror SFM ion ta’siridan zarar ko‘rmaydi va emulsiyani saqlaydi.

Pista yog‘idan olingan SFM quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha tahlili 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Pista yog‘idan olingan SFM ning fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Natijalar
Suv miqdori, %	5–10
Sirt tarangligi, N/m	35–40
Emulsiya barqarorligi, %	95–98
Vodorod ko‘rsatkichi (rN)	7–8
Ko‘pik hosil qilish qobiliyati, ml	250–300

Sirt faol moddalarning (SFM) ko‘pik hosil qilish qobiliyatini aniqlash, bu ularning texnologik va funksional xususiyatlarini baholashda muhim ko‘rsatkich hisoblanadi [9, 10, 11, 12]. Quyida aniqlash usulining ketma-ketligi va baholash tartibi keltirilgan:

1. 0,1% konsentratsiyali eritma tayyorlanadi (1 g SFM → 1 l suvda eritiladi).

2. Silindrga 50 ml eritma quyiladi.

3. Silindr qopqog‘i yopiladi va 25 marta tez silkitiladi (yoki maxsus aralashtirgichda aralashtiriladi), ko‘pik hosil qilinadi.

4. Ko‘pik hosil bo‘lganidan keyin umumiy hajm (eritma + ko‘pik) shisha devoridagi belgilar bo‘yicha aniqlanadi.

5. Ko‘pik hosil bo‘lgandan keyin 1, 3 va 5 daqiqadan so‘ng ko‘pik hajmi qayd etiladi.

Barqarorlik darajasi — vaqt o‘tishi bilan hajmning kamayish sur‘atiga qarab baholanadi.

$$F = V_2 - V_1 \quad (1)$$

bu yerda:

F — ko‘pik hosil qilish qobiliyati (ml);

V₂ — ko‘pik hosil bo‘lganidan keyingi umumiy hajm (ml);

V₁ — boshlang‘ich eritma hajmi (ml).

Ko‘pik barqarorligi (S):

$$S = V_1 / V_0 \cdot 100\% \quad (2)$$

bu yerda:

V₁ — ma‘lum vaqtdagi ko‘pik hajmi (5 daqiqa keyin);

V₀ — dastlabki ko‘pik hajmi.

Sirt faol moddaning ko‘pik xajmini aniqlash 4-jadvalda keltirib o‘tilgan.

4-jadval

SFM ning ko‘pik xajmining barqarorligi

SFM namunasi	Konsentratsiya (%)	Boshlang‘ich hajm (ml)	Ko‘pik hajmi (ml) 5 min. keyingi hajm (ml)	Barqarorlik (%)
SFM-1	0.001	5	1	20
	0.01	20	8	40
	0.05	70	55	79
	0.1	95	90	95
	0.5	100	98	98
	1.0	102	100	98

Muhokama. Barqaror ko‘pik hosil qiluvchi SFM — suvda yaxshi eriydigan, yuqori molekulyar tuzilishiga ega bo‘ladi.

Kichik konsentratsiya ko‘pik deyarli yo‘q. Konsentratsiya oshgani sari ko‘pik hajmi tez ko‘payadi va barqarorlik ham yaxshi bo‘ladi.

Sirt faol moddalar – bu suyuq yoki dispersiya shaklidagi moddalar bo‘lib, ular suv va yog‘ faza orasidagi faollikni ko‘rsatadi. Ularning samaradorligi fizik va ximiyaviy xususiyatlariga, shuningdek, ishlab chiqarish texnologiyasiga bog‘liq.

Soapstok asosida olingan sirt faol moddaning

texnologiya bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Xomashyoni tayyorlash. Soapstok suvsizlantiriladi va 100–120°C haroratgacha qizdiriladi.

2. Hosil bo‘lgan polimerli yog‘li birikmalar NaOH eritmasi bilan ishlov beriladi, natijada sirt faol moddalarning natriy tuzlari hosil bo‘ladi.

3. Maxsulotni kukun xolatiga keltirish maqsadida Na₂CO₃ bilan ishlov beriladi va 60–80°C da vakuum ostida quritiladi va qoplarga qadoqlanadi.

4. Tayyor mahsulotni tahlil qilish. Sirt tarangligi aniqlanadi (tomchilarni sanash usuli). Pena hosil qilish qobiliyati, emulsiya barqarorligi va biologik parchalanish darajasi baholanadi.

Yog‘-moy sanoati chiqindilarini qayta ishlash orqali olingan sirt faol moddalar nafaqat iqtisodiy jihatdan samarali, balki ekologik barqaror yechim hamdir. Ulardan turli sohalarda — tozalovchi vositalar, emulgatorlar, to‘qimachilik va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash jarayonlarida foydalanish mumkin.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari asosida SFMning konsentratsiyasini o‘zgartirish orqali uning fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlarini boshqarish mumkinligi aniqlandi. Bu esa yangi kompozision moddalarni yaratish, resurs tejamkor texnologiyalar ishlab chiqish va chiqindilarni qayta ishlash samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Xulosa. Moylovchi materiallar ishlab chiqarishda yog‘-moy sanoati chiqindilarini qayta ishlab, ulardan sirt faol moddalar olish ekotexnologik va iqtisodiy jihatdan samarali usul hisoblanadi. Bu texnologiya chiqindilarning atrof-muhitga zararsizlanishini ta‘minlab, ularni qayta ishlab chiqarishga yo‘naltirish imkonini beradi. Soapstok asosida olingan SFMlar yuqori faollik va barqarorlikka ega bo‘lib, import o‘rnini bosuvchi mahalliy mahsulot sifatida qimmatli hisoblanadi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida yog‘-moy sanoati chiqindilari — jumladan pista yog‘i soapstogi asosida olingan sirt faol moddalarning (SFM) fizik-kimyoviy xususiyatlari aniqlandi va ularning texnologik imkoniyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida aniqlandiki, bu turdagi moddalar tabiiy manbalardan olinishi, arzonligi sababli sanoat miqyosida ishlab chiqarish uchun katta amaliy ahamiyatga ega.

SFMning sirt tarangligini pasaytirish


qobiliyati, uning asosiy faollik ko'rsatkichi sifatida eng muhim fizik xususiyat hisoblanadi. Soapstok asosida olingan namunada sirt tarangligini sezilarli darajada kamaytirishi kuzatildi, bu esa ularning yaxshi emulgirlovchi va namlovchi xususiyatga

egalligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, olingan moddalarning reologik va termodinamik barqarorligi, ularning suyuq muhitda uzoq muddatli faolligini ta'minlab berishi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Aripov, X. X. (2018). Yog'-moy sanoati kimyosi. Toshkent.
- [2] Jabborov, A. B. (2020). Sirt faol moddalar texnologiyasi. Toshkent.
- [3] Sultanov, Sh. X. (2019). Sirt faol moddalar va ularning sanoatda qo'llanilishi. Toshkent.
- [4] Ro'zmetov, A. R., & Toshpulatov, Sh. B. (2021). Yog'-moy sanoati chiqindilaridan foydalanishning ilmiy asoslari. Toshkent: TIT.
- [5] Xamraev, B. J. (2020). Yog'-moy sanoatidagi chiqindilar va ularni qayta ishlash usullari. Toshkent: TIT.
- [6] Myers, D. (2006). Surfactant science and technology (3rd ed.). Hoboken, NJ: Wiley.
- [7] Paul, D. R., & Moulik, S. P. (2015). Physical chemistry of surfactants. Cham: Springer.
- [8] Kolesnikov, V. V. (2015). Surfactants from natural raw materials. Moscow.
- [9] Tadros, T. F. (2010). Applied surfactants: Principles and applications. Weinheim: Wiley-VCH.
- [10] Omanov, B., & Allanazarova, O. (2024). Etilendan vinilasetatning katalitik sintezi va texnologiyasi. Innovatsion tadqiqotlar zamonaviy dunyoda: nazariya va amaliyot, 3(15), 160–161.
- [11] Togayev, A. (2025). Production of high-activity catalysts for obtaining liquid hydrocarbons from natural gas. Austrian Journal of Technical & Natural Sciences.
- [12] Colloids and Surfaces A: Physicochemical and Engineering Aspects. (2022). 638, 1–20.

UO‘K: 553.98:551.24

 10.70769/3030-3214.SRT.4.1.2026.38

BUXORO-XIVA NEFTGAZLI REGIONNING MARKAZIY QISMIDA MEZOOY-KAYNOZOYDA RIVOJLANGAN STRUKTURALARNING NEFTGAZLI MAYDONLARNI AJRATISH



Axmedov Xolxo'ja Raxmatullayevich

(PhD), Qarshi davlat texnika universiteti, Qarshi, O'zbekiston

E-mail: axmedov-x-68@mail.ru

ORCID ID: 0009-0007-7715-7240

Science ID: FQD-0426-0008

Аннотация. Мақоллада учинчи рутба локал структураларнинг yoshi bo'yicha va makonda joylashish munosabatlarining tahlili natijalari keltirilgan, va bu strukturalar mezozoy-kaynozoy tarixining turli bosqichlarida shakllanganligi, regionning rivojlanishining turli bosqichlarida uchinchi rутba локал структуралар bilan ma'lum UV konlarining joylashish bog'liqligi, regionning mezozoy-kaynozoyda rivojlangan strukturalarining paleotektonik xususiyatlarini hisobga olib neftgazli maydonlarni ajratish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek maqolada konlarning joylashishini tahlili uchinchi rутbaga tegishli локал антиклинал структуралари shaklini ifodalagan xaritalar bilan bog'lab bajarilgan. Quyi-o'rta yura terrigen yotqiziqilarida uchinchi rутba MZ-KZ deformatsiyasi turli fazalarida hosil bo'lgan локал антиклинал структуралари ajratilgan. Bularning tahlili asosida uch toifadagi maydon ajratilgan. Paleotektonik ma'lumotlar asosida neftgaz to'planish zonalari ajratilgan.

Калит so'zlar: mezozoy-kaynozoy, deformatsiya, paleogen, neogen-to'rtlamchi, faza, neftgaz to'plami, Buxoro pog'onasi, Chorjo'y pog'anasi, gazokondensat, geologik kesim, gaz uyumi, gorizontlar.

ВЫДЕЛЕНИЕ НЕФТЕГАЗОНОСНЫХ ПЛОЩАДЕЙ МЕЗОZOY- КАЙНОZOYСКОГО РАЗВИТИЯ СТРУКТУР В ЦЕНТРАЛЬНОЙ ЧАСТИ БУХАРО-ХИВИНСКОЙ НЕФТЕГАЗОНОСНОЙ РЕГИОН

Ахмедов Холхужа Рахматуллаевич

(PhD), Каршинский государственный технический университет, Карши, Узбекистан

Аннотация. В статью приводятся результаты анализа возрастного и пространственного соотношения локальных структур третьего ранга, сформированных на различных этапах мезозой-кайнозойской истории, связи пространственного размещения известных месторождений УВ с локальными структурами третьего ранга различных этапов развития региона, результаты выделения нефтегазоносных площадей с учётом палеотектонических особенностей мезозой-кайнозойского развития структур региона. Также в статью приведён распределения месторождений выполнен в связи со структурным планом третьего ранга, представленным локальными антиклинальными структурами – потенциальными ловушками УВ в двух аспектах. В целом, на основе палеотектонических данных выделены зоны нефтегазонакопления, в которых наблюдается группирование месторождений УВ на площадях, отличающихся возрастом заложения и унаследованностью, а также перестройкой и появлением новых элементов.

Ключевые слова: мезозой-кайнозой, деформация, палеоген, неоген-четвертично, фаза, нефтегазонакопления, Бухарской ступени, Чарджоуской ступени, газоконденсат, геологически разрез, залежи газа, горизонты.

IDENTIFICATION OF OIL AND GAS BEARING AREAS OF THE MESOZOIC-CENOZOIC DEVELOPMENT OF STRUCTURES IN THE CENTRAL PART OF THE BUKHARA-KHIVA OIL AND GAS REGION

Akhmedov Kholkhoja Rakhmatullayevich

(PhD), Karshi State Technical University, Karshi, Uzbekistan

Abstract. *The article presents the results of the analysis of the age and spatial relationships of local structures of the third rank formed at various stages of the Mesozoic-Cenozoic history, the relationship between the spatial distribution of known hydrocarbon deposits and local structures of the third rank at various stages of the region's development, the results of the allocation of oil and gas-bearing areas taking into account the paleotectonic features of the Mesozoic-Cenozoic development of the region's structures. The article also presents a distribution of fields based on a third-rank structural plan, represented by local anticline structures—potential hydrocarbon traps in two aspects. Overall, based on paleotectonic data, oil and gas accumulation zones are identified, in which hydrocarbon fields are clustered in areas differing in age and inheritance, as well as reorganization and the emergence of new elements.*

Keywords: *Mesozoic-Cenozoic, deformation, Paleogene, Neogene-Quaternary, phase, oil and gas accumulation, Bukhara stage, Chardzhou stage, gas condensate, geological section, gas deposits, horizons.*

Kirish. Mezozoy-kaynozoy tarixining tektonik harakatlari va deformatsiyasining turli fazalarda namayonlangan paleotektonik xaritalarini tahlili natijalari bo'yicha erta-o'rta yura, kechki yura, bo'r, paleogen va neogen-to'rtlamchi davrlarning barcha beshta fazasi bo'yicha ajratilgan uchinchi rutbali lokal antiklinal tuzilmalar namayonlangan maydonlarni umumlashtirilgan sxema-xaritasi tuzilgan (1-rasm).

O'rganilgan ko'pgina maydonlar erta-o'rta yuradan neogen-to'rtlamchi vaqtgacha mezozoy-kaynozoy tarixining barcha bosqichlarida aniqlangan tuzilmalar holatining mosligi bilan tavsiflanadi. Bu yurada rivojlangan tuzilmalar merosiy tavsifga ega ekanligiga guvohlik beradi. Bundan tashqari boshqa xususiyatlar ham belgilangan – navbatdagi bosqichlarda yangi lokal tuzilmali elementlarni asosan paleogen va neogen-to'rtlamchi vaqtda hosil bo'lishi bilan tuzilmali rejani qayta qurilishi sodir bo'lgan [1].

1-rasmdan yangi elementlarni namayonlanishi bilan erta davrlardan eng qadimgilarni merosiyli, hosil bo'lgan tuzilmalar yoshini farqlanishiga qarab, ajratilgan turli tipdagi

maydonlarda UV konlarini gruhiylanganli ko'rinib turibdi. Bundan tashqari, turli geologik tarixni ajratilgan maydonlarida tushmagan alohida konlar gruhi ham mavjud.


Adabiyotlar tahlili va metodlar. Neftgaz to'plami zonasi mansub bo'lgan paleotektonik mezonlar bo'yicha ajratilgan zonalarni ta'rifiga to'xtalamiz. Bu 2-rasmga keltirilgan [1].

Buxoro pog'onasi hududida quyidagi zonalar ajratilgan: BC1 - Maymanak-Mubarek, BC2 - Karim-Shim.Darbaza, BC3 - Yulduzkak, BC4 - Djarkak-Setalantepe, BC5 - Shurchi-Karaiz, BC6 - Saritash-Qaraulbazar, BC7 - Djangul-Koshtepa, BC8 - Shorkuduk -Kaltakir (2-rasm). Zonalarni qisqacha tavsifini keltiramiz.

BC1-Maymanoq-Muborak. Bu zona mezozoy-kaynozoy rivojlanishining barcha bosqichlarida –erta yura, kechki yura, bo'r davrida, paleogen va neogen-to'rtlamchi davrlarda uchinchi rutbali lokal antiklinal tuzilmalar kuzatilgan. Har bir ajratilgan turli yoshdagi maydonlarda UV konlari mavjud. Bunda eng qadimgi tuzilmalar zonaning janubiy qismida rivojlangan bo'lib, shimolga tomon tuzilmalar yosharib borgan. Zonaning shimoliy

qismi neogen-to'rtlamchi yoshdagi tuzilmalarni namayonlaydi. Umuman bu zonada Shumak, Shim.Muborak, Xodjixayram, Jan.Muborak, Karakum gazkondensat konlari, Chuvama, Rasulquduq, Shimoliy Maymanak neftgaz-kondensat konlari mansub.

BC2 – Karim –Shimoliy Darboza. Maydon erta-o'rta yura va kechki yura davrlaridagi uchinchi rutbali lokal tuzilmalarni qamrab oladi. Bu zonada Karim neftgazkondensat koni, Shimoliy Darboza gazkondensat koni mansub.



1-rasm. UV konlari mavjud bo'lgan mezozoy-kaynozoy harakatlarining turli yoshdagi fazalarini uchinchi rutbali lokal tuzilmalar namayonlangan sxemali-xaritasi


(Tuzuvchilar X.R.Axmedov, R.A.Umurzakov, 2023):

1-erta-o'rta yura (aktiv faza), 2 – kechki yura (passiv faza), 3 - bo'r (aktiv faza), 4 - paleogen (passiv faza), 5 - neogen-to'rtlamchi (aktiv faza). UV konlari: 6 - neftli, 7 - neftgazli, 8 –neftgazokondensatli, 9 - gazli, 10 - gazokondensatli. 11- uchinchi rutbali lokal antiklinal tuzilmalar mavjud bo'lmagan alohida neftgazli zona.

BC3 – Yulduzkak. Erta-o'rta yura, paleogen va neogen-to'rtlamchi yoshidagi lokal tuzilmalar tarqalgan maydonni qamrab olgan. Zona hududida Yulduzkak, Janubiy Yulduzkak, Janubiy-G'arbiy Yulduzkak gaz konlari, G'arbiy Yulduzkak gaz neft koni joylashgan.

BC4 – Djarkak – Setalan tepa. Uchinchi rutbali lokal antiklinal ko'tarilmalarga mansub bo'lmagan alohida zona. Bu zonada Setalantepa gaz koni, Djarkak va Akdjar neftgaz konlari mansub [1,

4, 5]. Bu zonada mezozoy-kaynozoy tarixining o'rganilgan oraliqlaridan birontasida ham uchinchi rutbali lokal antiklinal tuzilmalar aniqlangan emas. Yuqoridagi konlarni mahsuldor qatlamlarining geologik qirqimi tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik amplitudali cho'ziq tuzilmali elementlarni namayonlaydi, ko'p hollarda braxiburmachan va uchinchi rutba sathida qabul qilingan tadqiqot miqyosida bu tuzilmalarni ajratish ikoniyati yo'q. 3-rasmda Djarkak koni mahsuldor qatlamining XV gorizont ustki yuzasi bo'yicha tuzilmali xaritasi va geologik qirqimi keltirilgan [1, 10].





2-rasm. Uchinchi rutbali turli yoshdagi tuzilmali elementlarga mansub neftgaz to'planish zonalari (MZ-KZ tektonik harakatlarning turli fazalarida hosil bo'lgan):

(Tuzuvchilar R.A.Umurzakov, X.R.Axmedov, 2023): 1-erta-o'rta yura (aktiv faza), 2-kechki yura (passiv faza), bo'r (aktiv faza), 4-paleogen (passiv faza), 5-neogen-to'rtlamchi (aktiv faza). 6-boshqa tabiiy holatlarda hosil bo'lgan neftgaz to'planish zonalari, ehtimol yuqori rutbali tuzilmali elementlar bilan bog'liq (bu yerda 3-rutbali tuzilmali elementlar mavjud emas). UV konlari: 7-neftli, 8-neftgazli, 9-neftgazkondensatli, 10-gazli, 11-gazkondensatli. Harfli simvollar: BC-Buxoro, CH-Chorji pog'analari belgilangan.

BC5 – SHo'rchi – Karaiz. Tudako'l ko'lidan janubiy-sharqda joylashgan bo'lib bo'r va paleogen davrlarida hosil bo'lgan uchinchi rutbali lokal tuzilmalar namayonlangan maydonlarni o'z ichiga

oladi. Bo‘r va paleogen davrida hosil bo‘lgan tuzilmalar holatining mos kelishi neft konlarida namayonlangan. Janubiy-sharqiy yo‘nalish tomon SHO‘rchi gaz koni va Karaiz neft koni joylashgan. Qirqimning bu qismi yura yotqiziqlarining yo‘qligi va paleozoy yotqiziqlarining ustiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bo‘r yotqiziqlarining yotishi bilan tavsiflanadi.

BC6 – Saritash-Qaraulbozor. Bu zona o‘zida bo‘r, paleogen va neogen-to‘rtlamchi davrlar yoshida namayonlangan lokal tuzilmalarni birlashtiradi. Bu yerda Saritash (Qaraulbozor) koni joylashgan.



3-rasm. Djarkak koni mahsuldor qatlamining tuzilish tavsifi:

(S.S.Yusupxodjayev va boshqalar bo‘yicha, 2021).

BC7 – Djangul-Koshtepa. Boxoro shahridan janubroqda joylashgan, uchinchi rutbali tuzilmalar namayonlangan maydonlarni o‘z ichiga oladi: markaziy qismida-erta-o‘rta yura (sharqiy qismida), bo‘r, paleogen va neogen-to‘rtlamchi, hamda shimoliy-g‘arbiy qismida kechki yura yoshidagi tuzilmalar. Zona tektonik elementlarning umumiy oriyentirlanishiga mos shimoliy-sharqiy oriyentirga ega. Zonada Chuqurko‘l, Koshtepa gaz konlari va Djangul, Qalandar gazkondensat konlari to‘g‘ri keladi.

BC8 – Shorkuduk-Kaltakir. Bu zona tadqiqot qilinadigan hududning shimoliy-g‘arbida joylashgan, uchinchi rutba timalar rivojlangan maydonlarini birlashtiradi, bu tuzilmalar quyi-o‘rta

yura, yuqori yura, bo‘r, paleogen va neogen-to‘rtlamchi davrlari turli yoshdagi yotqiziqlarda yaqqol namayonlanadi. Bu uchastka lokal tuzilmalar merosiy va regionning mezozoy-kaynozoy tarixi davomida uzoq mudat rivojlanishi bilan tasiflanadi.

Buxoro-Xiva neftgazli regionining markaziy qismi Chorjo‘y pog‘anasi hududida mezozoy-kaynozoy tarixining uchinchi rutbali tuzilmalarining merosiy rivojlangan uchastkalari mansub quyidagi neftgazli zonalar ajratiladi (2-rasm): ЧС1 - Kruk-Zekri, ЧС2 - Yangi Darboza-Djebe, ЧС3 - Pomuq-Chiston, ЧС4 - O‘rtabuloq-Dengizko‘l, ЧС5 - Kultak-Kokdumaloq, ЧС6 - Djarchi-Umid, ЧС7 - Kumsultan-Divalkak, ЧС8 – Girsan, ЧС9 – Ernazar, ЧС10 – Beshkent, ЧС11 - Alat –Kuvachili, ЧС12 – Tegermon.

Bu zonalarini qisqacha tasnifini keltiramiz.

ЧС1 – Kruk-Zekri. Zona erta-o‘rta yura va kechki yura, bo‘r, neogen-to‘rtlamchi davrlardagi turli yoshdagi tuzilmalardan iborat uchastkalarni birlashtiradi, bu holat asosan sharqiy qismda kuzatiladi, 3-rutbali kechki yura, paleogen va neogen-to‘rtlamchi davrda hosil bo‘lgan tuzilmalarning g‘arbiy qismida kengayishi kuzatiladi. Bu zonaning sharqiy qismida Shimoliy Ispanli, Sarikum neft konlari, g‘arbiy va janubiy qismida Kruk, Janubiy Kemachi, Janubiy Zekri, Doston, Sharqiy Ispanli neftgazkondensat konlari joylashgan [3]. Bu yerda turli xususiyatli va yoshdagi deformatsiya ustma-ust kelishi bilan bog‘liq hosil bo‘lgan burma tuzilmalarining murakkabligi kuzatiladi.

ЧС2 – Yangi Darboza-Djebe. Maydoni bo‘yicha uncha katta bo‘lmagan bu zona o‘zida erta-o‘rta yura va kechki yura joylashma tuzilmalarning maydonini birlashtiradi. Bu zonada eng kechki tuzilmalar hosilalari uchramadi. Bu yerda Yangi Darboza, Marjon neft konlari, Djebe, Shoda gazkondensat konlari va Supali neftgazkondensat koni joylashgan.

ЧС3 – Pomuq-Chiston. Bu zona uchinchi rutbali turli yoshdagi tuzilmalar maydonini o‘zida birlashtiradi: erta-o‘rta yura, kechki yura, bo‘r, paleogen va neogen-to‘rtlamchi davrlarga mansub. Zonaning g‘arbiy va o‘rta qismlarida aniqlangan ustma-ust tushgan tuzilmali elementlar ustunlik qilgan ikkita uchastka belgilangan. Neogen-to‘rtlamchi tuzilmali elementlar maydoni zonaning

o'rtta qismidan g'arb va sharq tomon kengayib borgan. Zonaning o'rtta qismida Arniyoz neftgaz koni, Illanli gazkondensat koni, Yangi Pomuq neftgazkondensat koni, Berdiquduq, Pomuq gazkondensat konlari joylashgan. Zonaning g'arbiy qismida Sardob neftgaz koni, Chiston, Jumakon neft koni, Zevarda gazkondensat konlari joylashgan.

ЧС4 – O'rtabuloq-Dengizko'l. Zona erta-o'rtta yurada hosil bo'lgan va uning alohida uchastkalari kechki yura, bo'r vaqtida merosiy rivojlangan lokal tuzilmalar joylashmasi bilan tavsiflanib, neogen-to'rtlamchi vaqtida shimoliy-g'arbiy qismi aktivlashgan (Shodi uchastkasida). Zonada shimoliy –sharqiy qismida Shimoliy O'rtabuloq, Janubiy O'rtabuloq neft konilari Chegara guruhi neftgazli konlari, O'rtabuloq gazkondensat koni joylashgan [1, 6]. Zonaning shimoliy-g'arbiy qismida neogen-to'rtlamchi davrda hosil bo'lgan antiklinal tuzilmali maydonlar aniqlangan qismida Dengizko'l, Shodi, Shim.Shodi gazkondensat konlari ustunlik qiladi.

ЧС5 – Kultak-Kokdumaloq. Uch xil xususiyatli va bir biriga yaqin joylashgan Kultak, Alan va Kokdumaloq maydonlarni birlashtirgan yagona zona. Kultak va Alan maydonlaridagi lokal antiklinal tuzilmalar erta-o'rtta yurada hosil bo'lgan bo'lib, kechki yurada merosiy rivojlangan. Alan maydonidan farqli ravishda Kultak maydonida lokal tuzilmalarning rivojlanishi bo'r, paleogen va neogen-to'rtlamchi vaqtlarida rivojlanishni davom etgan. Kokdumaloq maydonida tuzilmalar paleogenda hosil bo'lgan va neogen-to'rtlamchi davrda rivojlangan. Zonada Kultak, Alan, Janubiy Alan gazkondensat konlari, Shim.Kultak, Kokdumaloq, neftgazkondensat konlari, P.Kokdumaloq rift osti, G'arbiy Alan, Uzunkuduk neft konlari joylashgan.

ЧС6 – Djarchi-Umid. Zona kechki yurada antiklinal tuzilmalarning hosil bo'lishi bilan tavsiflanadi. Tektonik harakatlar va deformatsiyaning keyingi fazalarida bu tuzilmalar namayonlanmagan va yuqori yura yotqiziqlarida, bo'r, paleogen va neogen-to'rtlamchi davrlarda yaqqol namayonlangan musbat tuzilmali elementlar sezilmaydi. Bu zonada Djarchi, Umid neftgazkondensat konlari, Shim.Umid neft konlari mansub.

ЧС7 – Qumsulton-Divalkak. Kechki yura, paleogen va neogen yoshidagi lokal tuzilmalar

maydonlarini birlashtiradi. Zonaning g'arbiy yo'nalishida tuzilmalarning yosharib borishi kuzatiladi. Bu zonada Chandir, Janubiy Chandir, G'arbiy Kokchi, Gavana, Divalkak gazkondensat konlari mansub. Sharqda yoshi bo'yicha eng qadimgi tuzilma sifatida (kechki yura) Matonat neft koni namayonlanadi.

ЧС8 – Girsan. Zona paleogenda hosil bo'lib, va keyinchalik neogen-to'rtlamchi davrda rivojlangan lokal antiklinal tuzilmalar joylashmasi bilan tavsiflanadi. Bu zonada Girsan, Shim.Girsan, Chigil, Divxona gazkondensat konlari, zonaning shimolida-Chilquvar, sharqiy qismida yaqin-Nazarquduq konlari mansub.


ЧС9 – Ernazar. Zona tadqiqot hududining janubiy-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, neogen-to'rtlamchi davrda hosil bo'lgan lokal tuzilmalarning namoyonlanishi va amplitudasi 50-120 metr atrofidagi antiklinal tuzilmalar gumbaz ko'rinishida yaqqol namayonlanganligi bilan tavsiflanadi. Zonada Qirquloq, Talimardjon, Ernazar gazkondensat konlari joylashgan. Bu konlarni barchasi yuqori yura karbonat yotqizilariga (XV gorizont) mansub. Bu zonadagi uyumlarda uglevodorod to'plamlari neogen-to'rtlamchi davrda burmalarni hosil bo'lishi bilan birga yoki hosil bo'lgandan keyin to'plangan deb hisoblaymiz. Cho'kindi qatlamlarning shakli bir-biriga mosligi, bir vaqtda deformatsiyalanganligi bo'yicha konlarning geologik qirqimining tasnifi bu haqda guvohlik beradi. Qatlam orasidagi bir xillik va mastahkam qalinlikga egaligi erta-o'rtta yura, kechki yura shuningdek bo'r davrlari tinch sharoitda rivojlanganligini ko'rsatadi.

ЧС10 – Beshkent. Bu zona erta-o'rtta yurada uchinchi rutbali lokal antiklinal tuzilmalarni shakillanishi bilan tavsiflanib kechki yurada merosiy rivojlangan va bo'r davrida hamda paleogenda bu tuzilmalarning rivojlanish belgilari mavjud emas (4-rasm). Neogen-to'rtlamchi vaqtda bu maydonda yana lokal antiklinal tuzilmalar namayonlangan (5-rasm). Bu zonada Beshkent neftgazkondensat koni mansub [1].

ЧС11 – Alat-Kuvachili. O'rganiladigan hududning g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, Kuvachili uchastkasida uchinchi rutbali lokal antiklinal tuzilmalar erta-o'rtta yurada hosil bo'lishi bilan tavsiflanadi va Yamandjar hamda Shurkak maydonlari yaqinida kamroq namayonlangan. Bu

tuzilmalarni kechki yurada merosiy rivojlanishi davom etib, kichik amplituda bilan umumiy konfiguratsiyasini (ko‘rinishini) saqlab qolgan. Bo‘r va paleogen vaqtlarda bu maydonda antiklinal tuzilmalar ajratilmagan. Neogen-to‘rtlamchi vaqtda yana Kuvachili lokal antiklinal tuzilmasi sifatida namayonlanadi. Zonada Kuvachili, Alat gaz kondensat konlari va zonaning chegara hududlarining sharqiy zonasida Sharqiy Alat gaz kondensat koni joylashgan.

Annotatsiya. Tabiiy gazni nordon komponentlardan absorbttsiyali tozalash jarayonning ko‘rsatgichini oshishi massa uzatish koeffitsientlari gidrodinamik, geometrik va fizik-kimyoviy omillarga hamda kolonnaning ichidagi nasadkalarining joylashishiga, konfiguratsiyasiga va to‘qnashuvchi oqilarning yunalishiga chambarchas bog‘liq holatlari o‘rganilgan. Bunday muammolardan kelib chiqqan holda geometrik omillar, fizik-kimyoviy omillar, muayyan omillarning ta’sirini eksperimental tadqiqotlashda jiddiy qiyinchiliklarni tug‘dirishi bilan bog‘liqligi, faza zichligining va yopishqoqlikning ta’siri, turbulent rejimdagi oqimlarda to‘qnashishishi harakatidagi jarayonlar ustida tadqiqotlar olib borilgan. **Kalit so‘zlar:** gidrodinamik, geometrik, fizik-kimyoviy, kontsentratsiya, yopishqoqlik, likopchalar, turbulent rejim, diffuziya koeffitsienti, vibratsiya va pulsatsiyalarning ta’siri, ovoz tebranishlar, yuzaki qarshilik.

ИЗУЧЕНИЕ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ АБСОРБЦИОННОЙ ОЧИСТКИ ПРИРОДНОГО ГАЗА

Дустқобилов Элдор Нурмаатович

Доцент, Қаршинский государственный технический университет, Қарши, Узбекистан

Аннотация. Изучено, что увеличение показателя процесса абсорбционной очистки природного газа от кислых компонентов тесно связано с гидродинамическими, геометрическими и физико-химическими факторами, а также с расположением, конфигурацией и направлением сталкивающихся осей насадок внутри колонны. Исходя из таких проблем, были проведены исследования геометрических факторов, физико-химических факторов, связанных с тем, что влияние определенных факторов создает серьезные трудности в экспериментальных исследованиях, влияния плотности фазы и вязкости, процессов движения столкновений в турбулентных потоках. **Ключевые слова:** гидродинамический, геометрический, физико-химический, концентрация, вязкость, тарелки, турбулентный режим, коэффициент диффузии, влияние вибрации и пульсации, звуковые колебания, поверхностное сопротивление.

STUDY OF FACTORS INFLUENCING THE EFFECTIVENESS OF ABSORPTIONAL GAS PURIFICATION

Dustkobilov Eldor Nurmatovich

Docent, Karshi State Technical University, Karshi, Uzbekistan

Abstract. It was studied that the increase in the process of absorption purification of natural gas from acidic components is closely related to hydrodynamic, geometric, and physicochemical factors, as well as the location, configuration, and direction of the colliding axes of the nozzles within the column. Based on such problems, studies were conducted on geometric factors, physicochemical factors related to the fact that the influence of certain factors creates serious difficulties in experimental studies, the influence of phase density and viscosity, and collision movement processes in turbulent flows.

Keywords: hydrodynamic, geometric, physicochemical, concentration, viscosity, plates, turbulent regime, diffusion coefficient, influence of vibration and pulsation, sound vibrations, surface resistance.

Kirish. Tabiiy gazni zaharli komponentlardan absorbttsiya usuli yordamida tozalash jarayonida massa almashinuvi va uni kuchaytirish usullari muhim ahamiyat kasb etadi. Massa uzatish koeffitsientining kattaligi gidrodinamik, geometrik hamda fizik-kimyoviy omillarga bog'liq bo'ladi. Ayniqsa, suyuqliklarning o'zaro to'qnashuvi jarayonida gidrodinamik kuchlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Apparat turi va gidrodinamik rejimga qarab, massa uzatish koeffitsienti oqim tezligining 0,3–1 darajali quvvatiga mutanosib bo'ladi.

Geometrik omillar, xususan nasadkali absorberlarda nasadkaning o'lchamlari yoki likopchali absorberlarda likopcha elementlarining parametrlari, nisbatan kamroq ta'sir ko'rsatsa-da, ayrim hollarda sezilarli ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Gidrodinamik va geometrik omillarning ta'siri fazalar orasidagi kontakt shakliga bog'liq holda o'zgarib turadi.

Fizik-kimyoviy omillarga esa massa almashinuvida ishtirok etuvchi fazalarning fizik xossalari, harorat, bosim va konsentratsiya kabi parametrlar kiradi. Mazkur omillarning ta'siriga oid nazariy va eksperimental natijalar [1, 3] manbalarda keltirilgan. Shuni ta'kidlash lozimki, ayrim salbiy omillar turli qurilmalarda va gidrodinamik rejimlarda turlicha namoyon bo'ladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, alohida omillarning ta'sirini eksperimental ravishda aniqlash murakkab bo'lib, bir omilning o'zgarishi boshqa fizik ko'rsatkichlarning ham o'zgarishiga olib keladi. Bu esa turli tadqiqot natijalari orasidagi tafovutlarni izohlaydi. Ba'zi hollarda esa qo'llanilgan eksperimental metodikalar yetarlicha aniqlikka ega emas. Bir vaqtning o'zida bir nechta omillarni o'zgartirishda regressiya usullaridan foydalanish ham har doim ham ishonchli natija bermaydi, chunki omillar o'zaro korrelyatsiyada bo'ladi [5].

Fazalar zichligining ta'siri alohida

o'rganilmagan, chunki uning o'zgarishi boshqa fizik xususiyatlarga ham bog'liqdir. Nazariy jihatdan, zichlik doimiy bo'lganda ($\omega = \text{const}$), massa almashinuvi koeffitsienti β_s ga sezilarli ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Biroq, ayrim hollarda, agar mezon tenglamasiga Weber (We) soni kiritilsa, zichlikning bilvosita ta'siri kuzatiladi.

Yopishqoqlikning ta'siri yetarlicha chuqur o'rganilmagan, ayniqsa gaz fazasi uchun. Nazariy tahlillarga ko'ra, β ning yopishqoqlikka bog'liqligi m , n va p koeffitsientlariga qarab turli qiymatlarni qabul qiladi [3, 5]. Gaz fazasi uchun $m = 0,7-0,8$; $n = 0,33-0,5$ va $p = 0$ bo'lganda, yopishqoqlik darajasi $-0,2$ dan $-0,47$ gacha bo'lgan oraliqda o'zgaradi. Eksperimental tadqiqotlar natijasida esa β ning $v^{(-0,2)}$ ga mutanosibli aniqlangan.

Suyuq fazada $n = 0,5$, $m = 0,5-1$ va $p = 0-0,33$ bo'lganda, yopishqoqlik ta'siri keng diapazonda o'zgaradi. Tajribalar shuni ko'rsatdiki, o'zgartirilgan disk kolonnasida bu ko'rsatkich $-0,54$ ga teng. Turbulent rejimda aralastirgichli idishlarda esa bu qiymat taxminan $-0,3$ ni tashkil etadi. Shunga o'xshash natijalar purkovchi va elak likopchalarda ham kuzatilgan.

Bundan tashqari, CO_2 ning turli yopishqoqlikdagi suyuqliklarda yutilishini o'rganish natijasida Reynolds sonining ma'lum oraliqlarida ($\text{Re} = 650-10700$) β ning $v^{(-0,56)}$ ga, yuqori intensiv sharoitlarda esa ($\text{Re} = 64000-180000$) $v^{0,4}$ ga mutanosib ekanligi aniqlangan [6, 7].

Tadqiqot natijalarining muhokamasi. Jarayonga diffuziya koeffitsientining ta'siri ko'plab ilmiy ishlarda o'rganilgan bo'lib, u massa almashinuvi mexanizmini tushunishda muhim omil hisoblanadi. Nazariy tahlillarga ko'ra, yangilanish modeli uchun $n \approx 0,5$ bo'lsa, chegaraviy diffuziya qatlam modeli turbulent pulsatsiyalar qonuniga bog'liq holda $n = 0,33-0,5$ oraliqda o'zgaradi.

Fizik omillar, xususan harorat, bosim va

tortish kuchi ham massa almashinuvi jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Gaz fazasida massa almashinuvi doimiy massa tezligida ($Wr = \text{const}$) o'rganilganda, massa uzatish koeffitsienti diffuziya koeffitsienti, yopishqoqlik va zichlikka bog'liq holda o'zgaradi.

Haroratning oshishi bilan gaz fazasida diffuziya koeffitsienti va kinematik yopishqoqlik ortadi, zichlik esa kamayadi. Natijada massa uzatish koeffitsienti haroratga taxminan 0,8–1,07 darajali bog'liqlikda o'zgaradi. Suyuq fazada esa harorat ortishi diffuziyani kuchaytirib, yopishqoqlikni kamaytiradi va bu massa almashinuvi intensivligini oshiradi. Eksperimental natijalarga ko'ra, massa uzatish koeffitsienti $\beta_s \approx \exp(0,023 \cdot t)$ qonuniyatiga bo'ysunadi.

Nazariy jihatdan, massa uzatish yo'nalishi (absorbtsiya yoki desorbtsiya) koeffitsient qiymatiga ta'sir qilmaydi. Shu sababli, ideal sharoitlarda bu jarayonlar uchun massa uzatish koeffitsientlari teng bo'lishi kutiladi. Biroq, issiqlik effekti, sirt tarangligi va gidrodinamik sharoitlar tufayli ayrim hollarda farqlar kuzatilishi mumkin.

$\text{CO}_2\text{-H}_2\text{O}$ tizimida olib borilgan tadqiqotlar massa uzatish yo'nalishi suyuq fazadagi koeffitsientga deyarli ta'sir qilmasligini ko'rsatgan. Biroq, sirt turbulentligi kuchli bo'lgan sharoitlarda yoki kimyoviy reaksiyalar ishtirok etganda, desorbtsiya jarayonida modda chiqishi kamayishi mumkin.

Jarayonga vibratsiya va pulsatsiyalarning ta'siri ham alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oqim tebranishlari va ultratovush ta'siri fazalararo kontakt yuzasini kengaytirib, massa almashinuvi intensivligini oshiradi. Masalan, CO_2 ning absorbtsiyasi tajribalarida ultratovush intensivligi ortishi bilan yutilish tezligi sezilarli darajada oshgan.

Shuningdek, mexanik tebranishlar ta'sirida absorbtsiya samaradorligi ortadi. Tebranishli kolonnalarda o'tkazilgan tajribalar massa uzatish samaradorligi bir necha baravar oshishini ko'rsatgan. Bu hodisa fazalararo yuzaning ortishi va aralashish intensivligining kuchayishi bilan izohlanadi.

$$\beta_j = D_j^{0.5} \cdot \rho_j^{0.5} \cdot v_0^{1.5} / \sigma^{0.5} \quad (1)$$

bu yerda v_0 - sirtga perpendikulyar yo'nalishda undan ma'lum masofada λ bo'lgan o'rtacha pulsatsiyalanuvchi tezlik, bunda kapillyar kuchlarning ta'siri hali ham o'zini namoyon qiladi.

U $y < \lambda$ sirtidan masofalarda o'rtacha pulsatsiyalanuvchi tezlik 0 dan v_0 gacha y ga proporsional ravishda o'zgaradi.

Yangilanish modeli yoki chegara qatlami modeli bilan birgalikda mahalliy izotrop turbulentlik nazariyasiga asoslanib olingan [2, 11].

$$\beta_j = D_j^{0.9} \cdot E^{0.3} / \sigma^{0.2} \quad (2)$$

Bu yerda E — 1 kg suyuqlik uchun energiya sarfi (Vt/kg).

Nazariy tahlil turbulent harakat sharoitida sirt tarangligi (σ) ning massa uzatish koeffitsienti (β_s) ga ta'sirini tasdiqlaydi. σ ning bevosita ta'siridan tashqari, u ko'pincha bilvosita ham ta'sir ko'rsatadi, chunki sirt tarangligi gidrodinamik jarayonlarga sezilarli darajada ta'sir qiladi va bu eksperimental aniqlangan β_s qiymatlarida namoyon bo'ladi.

Masalan, nasadkali absorberlarda σ namlangan sirt maydoniga sezilarli ta'sir etsa, ko'pikli absorberlarda esa ko'pik balandligi va uning tuzilishiga ta'sir qiladi. Umuman olganda, ko'pik hosil bo'lishi gazlarni absorbtsiyalash jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu xulosalar asosan sof suyuqliklarning sirt tarangligiga taalluqlidir. Sirt faol moddalar qo'shilganda esa σ ning o'zgarish mexanizmi yanada murakkablashadi.

Ba'zi hollarda absorbtsiya jarayonida sirt tarangligining kamayishi bilan bog'liq hodisalar kuzatiladi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, sug'oriladigan devorli trubkalar va nasadkali kolonnalarda σ kamayganda massa uzatish koeffitsienti ham kamayadi. Bunday holat "salbiy tizimlar" (masalan, $\text{NH}_3\text{-H}_2\text{O}$) uchun xos bo'lib, bunda eritma konsentratsiyasi ortishi bilan σ kamayadi. Massa uzatish koeffitsientining pasayishi sirtning yomon namlanishi bilan izohlanadi.

Shuningdek, ayrim sharoitlarda σ ning o'zgarishi sirt turbulentligi deb ataluvchi hodisani yuzaga keltirishi mumkin.

Jarayondagi yuzaki qarshilik. Ko'plab absorbtsiya modellarida moddaning faza ichida (chegara sirtiga tomon yoki undan uzoqlashib) harakatlanishi ko'rib chiqiladi, biroq sirtning o'zi bo'ylab transport jarayoni yetarlicha hisobga olinmaydi. Odatda fazalar chegarasida muvozanat mavjud deb qabul qilinadi, ya'ni sirt orqali o'tishda qo'shimcha qarshilik yo'q deb hisoblanadi.

Biroq amalda sirt qatlamida modda uzatilishiga qarshilik yuzaga kelishi mumkin. Bu

holat sirtlarda sodir bo'ladigan geterogen kimyoviy reaksiyalar yoki boshqa murakkab fizik-kimyoviy omillar bilan bog'liq bo'ladi. Agar sirt yopishqoqligi massa almashinuvi jarayoniga ta'sir etsa, unda fazalar orasidagi muvozanat buziladi.

Bunday holatda sirt yaqinidagi gaz konsentratsiyasi (y_p) muvozanatdagi suyuqlik konsentratsiyasi (x_p^*) ga, suyuqlik konsentratsiyasi (x_p) esa muvozanatdagi gaz konsentratsiyasi (y_p^*) ga mos keladi. Farq ($y_p - y_p^*$) sirt qarshiligi orqali massa uzatishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaraladi.

$$W_A = \beta_{sy} \cdot F \cdot (y_p - y_p^*) \quad (3)$$

Bu yerda β_{su} — sirt qarshiligi orqali massa o'tkazish koeffitsienti (sirt qarshiligi koeffitsienti) hisoblanadi.

Agar harakatlantiruvchi kuch sifatida ($x_p^* - x_p$) farqi qabul qilinsa, sirt qarshiligiga mos keluvchi koeffitsient $\beta_{sx} = m \cdot \beta_{sy}$ ko'rinishida ifodalanadi.

Sirt qarshiligini hisobga olgan holda, massa almashinuvi tenglamalari mos ravishda quyidagi ko'rinishni oladi [11].

$$\frac{1}{K_y} = \frac{1}{\beta_y} + \frac{1}{\beta_{sy}} + \frac{m}{\beta_x} \quad (4)$$

$$\frac{1}{K_x} = \frac{1}{m\beta_y} + \frac{1}{\beta_{sx}} + \frac{1}{\beta_x} \quad (5)$$

Xulosa. Tabiiy gazni absorbtsiya usuli yordamida tozalash jarayonida yomon eriydigan gazlar (CO_2 , O_2) uchun o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, sirt qarshiligi orqali massa uzatish koeffitsienti β_{sx} ning qiymati β_x ga nisbatan ancha katta bo'lib, 0,3–4 sm/s oralig'ida o'zgaradi.


Ko'pchilik hollarda urilma (kontakt) yuzalarda sirt qarshiligini aniqlash sezilarli murakkablik tug'dirmaydi. Biroq, sirt faol moddalar qo'shilganda sirt qarshiligining keskin ortishi kuzatiladi.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, texnologik sxemalarni takomillashtirish va zamonaviy aloqa (kontakt) qurilmalarini qo'llash orqali absorbtsiya jarayonining samaradorligini oshirish mumkin. Shu asosda tabiiy gazni zaharli komponentlardan tozalash jarayonini modernizatsiya qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Современные технологии переработки сероводородсодержащих природных газов. (1998). Газовая промышленность, (7).
- [2] Гриценко, А. И., Галанин, И. А., Зиновиева, Л. М., & Мурин, В. И. (1985). Очистка газов от сернистых соединений при эксплуатации газовых месторождений. Недра.
- [3] ГОСТ 51.40-93. (1993). Газы горючие природные, поставляемые и транспортируемые по магистральным газопроводам: Технические условия.
- [4] Николаев, В. В., Бусыгина, Н. В., & Бусыгин, И. Г. (1998). Основные процессы физической и физико-химической переработки газа. Недра.
- [5] Айнштейн, В. Г., Захаров, М. К., Носов, Г. А., и др. (2003). Общий курс процессов и аппаратов химической технологии (Кн. 2). Логос; Высшая школа.
- [6] Семенова, Т. А., и др. (1997). Очистка технологических газов. Химия.
- [7] Lin, C.-Y., Soriano, A. N., & Li, M.-H. (2009). Mass transfer characteristics in gas purification processes. Journal of the Taiwan Institute of Chemical Engineers, 40(4), 403–412.
- [8] Хафизов, Ф. Ш., Афанасенко, В. Г., & Хафизов, Н. Ф. (2007). Кавитирование жидкой фазы как способ интенсификации массообменных процессов. Естественные и технические науки, (4), 267–268.
- [9] Юлдашев, Т. Р. (2023). Моделирование процесса очистки углеводородных газов от кислых компонентов. Композиционные материалы, (2), 59–62.
- [10] Yuldashev, T. R., Makhmudov, M. J., & Svaykosov, S. O. (2022). Modern liquid-phase methods for gas feed sulfur purification. Science and Education in Karakalpakstan, 3/1(26), 31–35.
- [11] Чуракова, С. К., & Богатых, К. Ф. (2013). Разработка ресурсо-энергосберегающих технологий фракционирования на основе конструктивно-технологического подхода. Технологии нефти и газа, (4), 8–14.

UO‘K: 556.3:330.15

 10.70769/3030-3214.SRT.4.1.2026.42

YER OSTI SUV RESURSLARINI GEOLOGIK VA IQTISODIY JIHATDAN INTEGRATSIYALASHGAN BAHOLASH



**Yarboboyev To'lg'in
Nurboboyevich**

Professor, Qarshi davlat texnika
universiteti, Qarshi, O'zbekiston
E-mail: tulkin-9@mail.ru
Science ID: FQD-0925-0096



**Rabbimov Jahongir
Shodmonkulovich**

Dotsent v.b., Qarshi davlat texnika
universiteti, Qarshi, O'zbekiston
E-mail:
rabbimov.jahongir1933@gmail.com
ORCID ID: 0009-0007-0967-9741
Science ID: FSN-0226-0050



**Jamilov Baxtiyor
Baxriddin o'g'li**

Talaba, Qarshi davlat texnika
universiteti, Qarshi, O'zbekiston
E-mail:
jamilovbaxtiyor19@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada yer osti suvlarining tabiiy-geologik xususiyatlari va iqtisodiy mohiyati kompleks yondashuv asosida tahlil qilingan. Yer osti suvlarining gidrogeologik shakllanish qonuniyatlari, suvli qatlamlarning litologik va filtratsion xususiyatlari hamda qayta tiklanish mexanizmlari yoritilgan. Suv resurslarini iqtisodiy kategoriya sifatida baholashning nazariy asoslari ko'rib chiqilgan. Geologik va iqtisodiy omillarni integratsiyalashgan holda baholash zarurligi asoslab berilgan. Yer osti suvlarini boshqarishda gidrogeologik monitoring, ekspluatatsion zaxiralarni ilmiy asoslash va barqaror foydalanish tamoyillarining ahamiyati ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalari yer osti suv resurslarini geologik-iqtisodiy jihatdan kompleks baholash va ulardan oqilona foydalanishni ta'minlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: yer osti suvlari, gidrogeologiya, tabiiy resurs, iqtisodiy baholash, suv resurslari, barqaror rivojlanish.

ИНТЕГРИРОВАННАЯ ГЕОЛОГО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА РЕСУРСОВ ПОДЗЕМНЫХ ВОД

**Ярбобоев Тулкин
Нурбобоевич**

Профессор, Каршинский
государственный технический
университет, Карши,
Узбекистан

**Раббимов Жахонгир
Шодмонкулович**

И.о. доцента, Каршинский
государственный технический
университет, Карши,
Узбекистан

**Жамилов Бахтиёр
Бахриддин угли**

Студент, Каршинский
государственный технический
университет, Карши,
Узбекистан

Аннотация. В статье комплексно проанализированы природно-геологические особенности и экономическая сущность подземных вод. Рассмотрены закономерности их гидрогеологического формирования, литологические и фильтрационные характеристики водоносных горизонтов, а также механизмы естественного восполнения. Изучены теоретические основы экономической оценки водных ресурсов как экономической категории. Обоснована необходимость интегрированного учета геологических и экономических факторов при оценке подземных вод. Показана значимость гидрогеологического мониторинга, научно обоснованного определения эксплуатационных запасов и принципов устойчивого использования. Результаты исследования направлены на комплексную геолого-экономическую оценку ресурсов подземных вод и обеспечение их рационального использования.

Ключевые слова: подземные воды, гидрогеология, природные ресурсы, экономическая оценка, водные ресурсы, устойчивое развитие.

INTEGRATED GEOLOGICAL AND ECONOMIC ASSESSMENT OF GROUNDWATER RESOURCES

**Yarboboyev Tulkin
Nurboboyevich**

Professor, Karshi State Technical
University, Karshi, Uzbekistan

**Rabbimov Jahongir
Shodmonkulovich**

Acting Associate Professor, Karshi
State Technical University, Karshi,
Uzbekistan

**Jamilov Baxtiyor
Baxriddin ugli**

Student, Karshi State Technical
University, Karshi, Uzbekistan

Abstract. The article analyzes the natural-geological characteristics and economic essence of groundwater based on an integrated approach. The patterns of hydrogeological formation, lithological and filtration properties of aquifers, and mechanisms of natural recharge are examined. The theoretical foundations of the economic evaluation of water resources as an economic category are considered. The necessity of integrating geological and economic factors in groundwater assessment is substantiated. The importance of hydrogeological monitoring, scientifically justified determination of exploitable reserves, and principles of sustainable use is highlighted. The research results are aimed at developing a comprehensive geological and economic assessment of groundwater resources and ensuring their rational utilization.

Keywords: groundwater, hydrogeology, natural resources, economic assessment, water resources, sustainable development.

Kirish. Suv resurslari har qanday davlatning tabiiy kapitali tarkibida alohida o‘rin tutadi. Mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishi ko‘p jihatdan suv bilan ta‘minlanish darajasiga bog‘liq. Insoniyat tarixi davomida jamiyat mavjud tabiiy suv manbalaridan o‘z ehtiyojlariga mos ravishda foydalanib kelgan. Suv resurslari boshqa tabiiy boyliklardan farqli ravishda ayrim qismi qayta tiklanadigan, ayrim qismi esa uzoq geologik davrlarda shakllangan zaxiralar hisoblanadi. Ularning tarkibida yer osti suvlari alohida strategik ahamiyatga ega.

Hozirgi global ekologik o‘zgarishlar, iqlim transformatsiyasi va antropogen bosimning ortishi sharoitida suv resurslaridan oqilona foydalanish muammosi dolzarb tus olmoqda. Ayniqsa, yer osti suvlari aholi ichimlik suvi ta‘minoti, sanoat ishlab chiqarishi va qishloq xo‘jaligi rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Iqtisodiy nazariyada suv yer, yer osti boyliklari va boshqa tabiiy omillar qatorida ishlab chiqarish resurslaridan biri sifatida qaraladi. Biroq yer osti suvlarining gidrogeologik tabiati ularni oddiy iqtisodiy aktiv sifatida emas, balki murakkab tabiiy tizim sifatida kompleks o‘rganishni talab qiladi.

Suvga bo‘lgan talabning ortishi, iqlim o‘zgarishi va inson faoliyati ta‘siri yer osti suvlari rejimida sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Amaliyotda ko‘p hollarda iqtisodiy samaradorlik birinchi o‘ringa qo‘yilib, gidrogeologik cheklovlar yetarli darajada inobatga olinmaydi. Bu esa suv sathining pasayishi, minerallashuv darajasining ortishi va tabiiy muvozanatning buzilishiga sabab bo‘lishi mumkin [1-8]. Shu bois yer osti suvlarini tabiiy-geologik va iqtisodiy nuqtai nazardan birgalikda tahlil qilish ilmiy jihatdan asoslangan yondashuv hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Xalqaro ilmiy tadqiqotlarda yer osti suvlari gidrogeologik tizimning dinamik va ko‘p omilli komponenti sifatida qaraladi. Tadqiqotchilarning ishlarida suvli gorizontalning litologik tarkibi, g‘ovaklik, sizilish koeffitsiyenti va gidravlik gradiyent tushunchalari fundamental asos sifatida yoritilgan [9, 10].

Bear hamda Domenico va Schwartz ishlarida filtratsion jarayonlarning matematik modellari ishlab chiqilgan [11, 12]. Todd va Mays tadqiqotlarida esa gidrodinamik tizimlarning injenerlik hisob-kitoblari va bashoratlash usullari keng yoritilgan [13]. Gleeson va boshqalar global miqyosda yer osti suvlari balansi tahlili orqali

barqarorlik muammolarini ko'rsatgan [14].

Ekologik iqtisodiyot nazariyasida yer osti suvlari tabiiy kapital sifatida qaraladi. Xarajat-foйда tahlili va resurslarning kamayishi modeli suv resurslarini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi [15, 16].

Markaziy Osiyo va O'zbekistonda yer osti suvlari asosan mintaqaviy gidrogeologik sharoit va meliorativ muammolar nuqtai nazaridan tadqiq etilgan. Shulshning ishlarida O'rta Osiyo artezian havzalarining shakllanish xususiyatlari va gidrogeologik tuzilishi tahlil qilingan [17].

Xodjibayevning tadqiqotlarida O'zbekiston hududidagi yer osti suvlarining stratigrafik joylashuvi, minerallashuv darajasi va ekspluatatsion imkoniyatlari yoritilgan [18]. Mamatkulovning ishlarida suv resurslaridan oqilona foydalanish, ekspluatatsion zaxiralarni aniqlash va monitoring tizimini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan [19].

Abdullayevning tadqiqotlarida Markaziy Osiyoda suv resurslarini boshqarish transchegaraviy munosabatlar va iqtisodiy mexanizmlar bilan bog'liq holda tahlil qilingan [20].

Mahalliy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadqiqotlar asosan amaliy gidrogeologik kuzatuvlar, suv sathining o'zgarishi, tuproq sho'rlanishi va meliorativ holatga ta'sir masalalariga qaratilgan. Nazariy modellashtirishga nisbatan amaliy ekspluatatsion va mintaqaviy tahlil ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot doirasida suvli gorizontlarning litologik tarkibi, filtratsion ko'rsatkichlari, suv sathining dinamikasi, minerallashuv darajasi hamda ekspluatatsion zaxiralarga oid ma'lumotlar tahlil qilindi.

Iqtisodiy va gidrogeologik ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik darajasi aniqlanib, resursdan foydalanish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar baholandi.

Tadqiqotda geologik va iqtisodiy ma'lumotlar integratsiya qilingan holda tahlil etildi. Bu yondashuv quyidagi imkoniyatlarni berdi: ekspluatatsion zaxiralarni ilmiy asosda belgilash; iqtisodiy samaradorlikni gidrogeologik cheklovlar bilan uyg'unlashtirish; barqaror foydalanish ssenariyalarini ishlab chiqish.

Tahlil va natijalar. Yer osti suvlarining tabiiy-geologik xususiyatlari qator omillar ta'sirida

shakllanadi. Ular gidrosfera va litosfera o'zaro ta'siri natijasida vujudga keladi. Suvli qatlamlarning joylashuvi quyidagi omillarga bog'liq:

- jinslarning litologik tarkibi va g'ovaklik darajasi;
- filtratsion o'tkazuvchanlik;
- tektonik tuzilish;
- iqlim va relyef sharoiti.

Gidrogeologik tizimda suvning harakati Darsi qonuniga bo'ysunadi. Suv resurslarining qayta tiklanish sur'ati tabiiy infiltratsiya va gidrogeologik sikl intensivligi bilan bog'liq. Yer osti suvlarining tabiiy-geologik xususiyatlariga bog'liq holda ularni balansi quyidagi tenglama bo'yicha aniqlanadi:

$$R = P - ET - Q_s - \Delta S \quad (1)$$

bu yerda, R – infiltratsiya qayta to'yinish; P – yog'ingarchilik; ET – bug'lanish; Q_s – yuza oqimi; ΔS – zaxira o'zgarishi.

Demak, Yer osti suvlari cheklangan va geologik sharoitlarga bog'liq resurs hisoblanadi [1-8]. Shu bois ularni iqtisodiy baholashda ekspluatatsion zaxiralar, qayta tiklanish sur'ati va depressiya konuslarini hisobga olish zarur.

Iqtisodiy nuqtai nazardan suv – ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi universal resursdir [21]. U:

- iste'mol predmeti;
- ishlab chiqarish vositasi;
- energiya manbai sifatida xizmat qiladi.

Biroq "suv zaxiralari" va "suv resurslari" tushunchalarini farqlash zarur. Zaxira – umumiy tabiiy hajmi anglatsa, resurs – iqtisodiy jihatdan o'zlashtirish mumkin bo'lgan qismni ifodalaydi. Bu usullar gidrogeologik qidiruv, burg'ulash, ekspluatatsiya va monitoring xarajatlari bilan uzviy bog'liq.

Mazkur tasnif suvning ko'p funksiyali xususiyatini ochib beradi. Biroq gidrogeologik nuqtai nazardan suv resurslarini Yer sayyorasidagi umumiy suv zaxiralari bilan tenglashtirish ilmiy jihatdan to'g'ri emas. Umumiy suv zaxiralari – global gidrosfera hajmini ifodalasa, suv resurslari texnik va iqtisodiy jihatdan o'zlashtirish mumkin bo'lgan qismi hisoblanadi.

Yer osti suvlarining iqtisodiy qiymatini shartli ravishda quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin:

$$V = (C_w \cdot Q) - (C_e + C_m) \quad (2)$$

bu yerda, V – iqtisodiy qiymat; C_w – suvning narxi; Q – suvning hajmi; C_e – ekspluatatsion

xarajatlar; C_m – monitoring xarajati.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida yer osti suvlarini boshqarish geologik, iqtisodiy va ekologik omillarni birlashtirgan holda amalga oshirilishi lozim.

Tabiiy resurslarning iqtisodiy mohiyatini tahlil qilishda qator olimlarning qarashlari muhim ahamiyatga ega. V.I. Danilov-Danilyan ta'kidlashicha, suv inson faoliyati bilan bog'liq eng muhim tabiiy resurs bo'lib, yillik foydalanish hajmi jihatidan boshqa qazib olinadigan resurslar jami hajmidan ustundir [22]. Bu holat suv aylanishining global xususiyati va uning barcha iqtisodiy sohalarida ishtirok etishi bilan izohlanadi.

S.N. Golubning fikriga ko'ra, resurs tushunchasi jamiyat ehtiyojlarini qondirish imkoniyati bilan belgilanadi [23]. Yer osti suvlari holatida bu imkoniyat kollektor jinslarning g'ovakligi va o'tkazuvchanligi, gidrodinamik rejim, minerallashuv darajasi va suv sifat ko'rsatkichlari bilan aniqlanadi.

Tabiiy resurslarning iqtisodiy qiymatini baholash masalasida E.V. Girusov tomonidan taklif etilgan yondashuvlar ahamiyatli hisoblanadi. U tabiiy resurslar qiymatini quyidagi mezonlar asosida belgilashni tavsiya etadi: bozor bahosi; renta; xarajatlar bo'yicha yondashuv; muqobil qiymat; umumiy iqtisodiy qiymat [24].

Yer osti suvlarini baholashda ushbu usullar gidrogeologik qidiruv ishlari, burg'ulash, monitoring tizimi, suvni tozalash va muhofaza qilish xarajatlari bilan uzviy bog'liqdir.

Ushbu sxema yer osti suvlarining shakllanishi, harakati va resurs sifatida baholanishida tabiiy-geologik omillar, gidrogeologik jarayonlar hamda iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalaydi. Model yer osti suv resurslarini baholashda geologik xususiyatlar, infiltratsiya jarayonlari, resurs parametrlari va iqtisodiy omillarni kompleks hisobga olish zarurligini ko'rsatadi hamda suv resurslarini barqaror boshqarishning ilmiy asosini tashkil etadi.

Yer osti suvlarining tabiiy-geologik va iqtisodiy mohiyatini integratsiyalashgan geoekologik-iqtisodiy model asosida baholash ularni geologik-iqtisodiy baholash imkoniyatini yaratadi. Ma'lumki, yer osti suv konlarini geologik-iqtisodiy baholash – bu suv quduqlari, akviferlar va ulardagi suv zaxiralari xususiyatlarini o'rganish orqali ularning

miqdori, sifati va iqtisodiy ahamiyatini baholash jarayonidir. Bu baholashning mazmun va mohiyatini quyidagicha tushuntirish mumkin.

Geologik baholashning asosiy vazifasi yer osti suvlarining geologiyasi va gidrogeologiyasi xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Bu geologik ma'lumotlar suv konlarining tabiiy zaxiralari aniqlashda asosiy rol o'ynaydi. Iqtisodiy baholash suv konlarini foydalanish imkoniyati va iqtisodiy samaradorligini aniqlashga qaratilgan.

Qisqacha aytganda, geologik-iqtisodiy baholash suv konlarining tabiiy-xususiyatlari va iqtisodiy ahamiyatini birgalikda o'rganish va baholashdan iborat. Bu faqat miqdor va sifatni emas, balki ulardan samarali va barqaror foydalanish imkoniyatlarini ham aniqlaydi.

Quyida yer osti suv resurslarining geologik va iqtisodiy xususiyatlari ilmiy-tizimli yondashuv asosida jadval shaklida bayon etilgan (1-jadval). Jadvalda resursning tabiiy-geologik xususiyatlari hamda uning iqtisodiy ahamiyati o'zaro bog'liq holda ko'rsatilgan.

1-jadval

Yer osti suv resurslarining geologik va iqtisodiy xususiyatlari

№	Geologik xususiyat	Tavsifi	Iqtisodiy ahamiyati
1	Tabiiy resurs sifatida	Yer qa'rida akviferlarda to'plangan suv zaxiralari	Ichmiklik suvi, qishloq xo'jaligi va sanoat uchun muhim resurs
2	Geologik muhit bilan bog'liqlik	Litologiya, tektonika va filtratsion xossalari bilan belgilanadi	Hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'sir ko'rsatadi
3	Qayta tiklanuvchanlik	Infiltratsiya va gidrodinamik rejim orqali qayta to'ldiriladi	Barqaror foydalanish shartida uzoq muddatli resurs
4	Zaxira va resurs tushunchasi	Prognoz, razvedka qilingan va ekspluatatsion zaxiralari	Qidiruv va ekspluatatsiya investitsiya talab qiladi
5	Sifat xususiyatlari	Minerallashuv, kimyoviy tarkib va harorat	Suvni tayyorlash va tozalash xarajatlariga ta'sir qiladi
6	Geoekologik ahamiyat	Gidrologik muvozanat va ekotizimlarni saqlaydi	Aholi salomatligi va oziq-ovqat xavfsizligi uchun muhim

Yer osti suv resurslari bir vaqtning o'zida geologik tabiiy tizim va iqtisodiy strategik resurs hisoblanadi. Ularning geologik xususiyatlari (zaxira hajmi, sifat, filtratsion parametrlar) iqtisodiy samaradorlikni belgilaydi. Shu bois yer osti suvlarini baholashda geologik va iqtisodiy

yondashuv integratsiyalashgan holda amalga oshirilishi zarur.

Yer osti suv resurslarini kompleks baholashda geologik, gidrogeologik va iqtisodiy omillarni birgalikda hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda yer osti suv resurslarining geologik-iqtisodiy ahamiyatini baholash uchun integratsiyalashgan indeks taklif etiladi.

$$GIB_k = \frac{(Z \cdot K_s \cdot K_q \cdot K_r) \cdot K_w}{C_e + C_m + C_t + E_r} \quad (3)$$

bu yerda, GIB_k – yer osti suv resurslarining geologik-iqtisodiy baholash koeffitsiyenti; Z – ekspluatatsion yoki foydalanish mumkin bo‘lgan yer osti suv zaxirasi (m^3); K_s – geologik ishonchlik koeffitsiyenti (zaxiraning o‘rganilganlik darajasi); K_q – suv sifati koeffitsiyenti (ichimlik yoki texnik talablarga moslik darajasi); K_r – qayta tiklanish koeffitsiyenti (tabiiy to‘ldirilish sur‘ati); $P_w - 1$ m^3 suvning iqtisodiy qiymati yoki shartli bozor narxi; C_e – ekspluatatsiya xarajatlari (quduqlar, nasoslar va energiya sarfi); C_m – gidrogeologik monitoring xarajatlari; C_t – suvni tayyorlash, tozalash va tashish xarajatlari; E_r – ekologik xavf va atrof-muhitga ta‘sir bilan bog‘liq xarajatlar.

Ushbu indeks yer osti suv resurslarining iqtisodiy qiymatini faqat suv zaxirasi hajmi orqali emas, balki uning sifati, geologik ishonchligi va qayta tiklanish imkoniyati orqali baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, suvni qazib olish, monitoring qilish, tozalash va ekologik xavflar bilan bog‘liq xarajatlar ham inobatga olinadi. Bu yondashuv yer osti suv resurslarini strategik tabiiy resurs sifatida geologik va iqtisodiy nuqtai nazardan kompleks baholashga xizmat qiladi.

Taklif etilgan geologik-iqtisodiy indeks yer osti suv resurslarining ekspluatatsion

imkoniyatlarini baholash, suv olish limitlarini belgilash va barqaror foydalanish strategiyalarini ishlab chiqishda qo‘llanilishi mumkin.

Xulosa. Yer osti suvlari strategik ahamiyatga ega bo‘lgan tabiiy resurs sifatida milliy iqtisodiyot, aholi farovonligi va ekologik barqarorlikni ta‘minlashda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Ularni baholash va boshqarish jarayonida gidrogeologik, geoekologik va iqtisodiy omillarni integratsiyalashgan holda hisobga olishni nazarda tutuvchi kompleks ilmiy yondashuv zarur hisoblanadi. Bunda suvli gorizontlarning litologik-strukturaviy xususiyatlari, filtratsion parametrlari, qayta tiklanish sur‘ati, gidrodinamik rejim va antropogen ta‘sir darajasi kabi ko‘rsatkichlar tizimli tahlil qilinishi lozim.

Yer osti suvlaridan iqtisodiy samaradorlik asosida foydalanish faqat geologik sharoitlar va tabiiy qayta tiklanish imkoniyatlari bilan uyg‘unlashgan holda amalga oshirilgan taqdirdagina barqaror natija beradi. Shu nuqtai nazardan, ekspluatatsion zaxiralarni ilmiy asoslash, suv olish limitlarini gidrogeologik modellashtirish orqali belgilash va uzluksiz monitoring tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Gidrogeologik monitoring ma‘lumotlari asosida suv sathi dinamikasi, minerallashuv darajasi va gidrokimyoviy tarkib o‘zgarishlarini baholash yer osti suvlarini ratsional boshqarishning ilmiy poydevorini yaratadi.

Bunday yondashuv suv resurslaridan oqilona foydalanish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va atrof-muhit muhofazasini ta‘minlash orqali milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.


FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- [1] Yarboboyev, T. N., & Qosimova, K. Y. (2024). Tog‘-konchilik ishlarining yer osti suvlariga salbiy ta‘siri va ularning oldini olish chorolari. Ta‘lim fidoyilari Respublika ilmiy-uslubiy jurnali, 2(1), 198–204.
- [2] Ярбобоев, Т. Н., & Қосимова, К. Ё. (2024). Ер ости сувларини қазиб чиқаришда сув қудуқларини бурғилаш ва ишлатиш тизимини такомиллаштириш. Sanoatda raqamli texnologiyalar, 2(1), 189–199.
- [3] Yarboboyev, T. N., & Qosimova, K. Y. (2024). Tabiiy yer osti suvlaridan samarali foydalanish muammolari va yechimlari haqida. Tafakkur manzili ilmiy jurnali, 1, 32–38.
- [4] Ярбобоев, Т. Н., Қосимова, К. Ё., & Жамилов, Б. Б. (2024). Артезиан қудуқларининг самарали ва узоқ муддат ишлатини таъминлайдиган асосий омиллар. New innovations in national education, 4(1), 44–51.

- [5] Yarboboyev, T. N., Qosimova, K. Y., & Jamilov, B. B. (2024). O'zbekistonning yer osti suv resurslari va ulardan oqilona foydalanish istiqbollari. *Miasto Przyszłości*, 47, 1113–1123.
- [6] Ярбобоев, Т. Н., Қосимова, К. Ё., & Жамилов, Б. Б. (2024). Ер ости сувларини жадал қазиб чиқаришнинг ер юзасини чўкишига таъсири. *Pedagogical reforms and their solutions*, 2(2), 99–107.
- [7] Yarboboyev, T. N., Qosimova, K. Y., & Jamilov, B. B. (2025). Yer osti suvlaridan foydalanishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali atrof-muhitni muhofaza qilish. *Eurasian Journal of Academic Research*, 5(10), 95–100.
- [8] Ярбобоев, Т. Н., Қосимова, К. Ё., & Жамилов, Б. Б. (2026). Глобал иқлим ўзгариши шароитида ер ости сувларини қидириш ва бошқаришда инновацион технологиялар. *Экономика и социум*, 2(141).
- [9] Freeze, R. A., & Cherry, J. A. (1979). *Groundwater*. Prentice Hall.
- [10] Fetter, C. W. (2001). *Applied hydrogeology* (4th ed.). Prentice Hall.
- [11] Bear, J. (1972). *Dynamics of fluids in porous media*. Elsevier.
- [12] Domenico, P. A., & Schwartz, F. W. (1998). *Physical and chemical hydrogeology*. Wiley.
- [13] Todd, D. K., & Mays, L. W. (2005). *Groundwater hydrology* (3rd ed.). Wiley.
- [14] Gleeson, T., Wada, Y., Bierkens, M. F. P., & van Beek, L. P. H. (2012). Water balance of global aquifers revealed by groundwater footprint. *Nature*, 488, 197–200.
- [15] Pearce, D. W., & Turner, R. K. (1990). *Economics of natural resources and the environment*. Johns Hopkins University Press.
- [16] Tietenberg, T., & Lewis, L. (2018). *Environmental and natural resource economics* (11th ed.). Routledge.
- [17] Шульц, В. В. (1965). *Подземные воды Средней Азии*. Фан.
- [18] Ходжибаев, А. Х. (2005). *Гидрогеология Узбекистана*. Университет.
- [19] Абдуллаев, И. (2010). *Водные ресурсы Центральной Азии и их управление*.
- [20] Маматкулов, М. М. (2018). Ер ости сувлари ва улардан оқилонга фойдаланиш масалалари.
- [21] Гнипов, А. В. (2012). Экономический феномен воды в современной системе хозяйствования. *Социально-экономические явления и процессы*, (11), 74–77.
- [22] Данилов-Данильян, В. И. (2006). *Потребление воды: экологические, экономические, социальные и политические аспекты*. Наука.
- [23] Голуб, А. А. (1993). *Экономические методы управления природопользованием*. Наука.
- [24] Гирусов, Э. В., и др. (1998). *Экология и экономика природопользования*. Закон и право, ЮНИТИ.

KIMYOVIY TEXNOLOGIYA VA QURILISH
ХИМИЧЕСКАЯ ТЕХНОЛОГИЯ И СТРОИТЕЛЬСТВО
CHEMICAL TECHNOLOGY AND CONSTRUCTION

UO'K: 677.017.2

 10.70769/3030-3214.SRT.4.1.2026.1

BORAT KISLOTA-FOSFAT KISLOTA-MOCHEVINA-ZnO ASOSIDAGI
ANTIPIRENNI PAXTA VA 50/50 PAXTA-POLIESTER MATOLARGA
INTEGRATSIYASI



**Muzaffarova Nazokat
Sharabovna**

Dotsent, Toshkent davlat tibbiyot
universiteti Termiz filiali, Termiz,
O'zbekiston
E-mail:
hilolanazokat2010@gmail.com
ORCID ID: 0000-0002-9419-2300



**To'rayev Xayit
Xudonazarovich**

Professor, Termiz davlat
universiteti, Termiz, O'zbekiston
E-mail: hhturaev@rambler.ru
ORCID ID: 0000-0002-6996-5906



**Nurqulov Fayzulla
Nurmo'minovich**

Professor, Toshkent kimyo
texnologiya ilmiy tadqiqot instituti,
Toshkent, O'zbekiston
ORCID ID: 0000-0002-6546-3431

Annotatsiya. Ushbu ishda borat kislota, ortofosfat kislota, mochevina va rux oksidi (ZnO) kombinatsiyasidan iborat antipiren kompozitsiyasi ishlab chiqildi va u 100% paxta hamda 50/50 paxta–poliester matolarga kimyoviy biriktirish orqali integratsiya qilindi. Matolarning kimyoviy o'zgarishlari IQ spektroskopiya orqali, termik barqarorligi esa termogravimetrik tahlil (TGA) yordamida baholandi. IQ spektrlarida 3301, 2991, 1559, 1433, 1078 va 831 cm^{-1} oralig'ida kuzatilgan cho'qqilar antipirenniing tola yuzasiga muvaffaqiyatli birikkanligini ko'rsatadi. TGA natijalari esa modifikatsiyalangan namunalar uchun piroliz jarayonlarini kechiktirish va ko'mir qoldig'i ortishini namoyon qildi, bu ko'piklanish va mineral bar'yer mexanizmlarining orqali amalga oshdi. Ishning ilmiy yangiligi — ZnO nanozarralarining bor-fosfor-azot tizimiga kiritilishi natijasida hosil bo'lgan sinergetik effekt va bu antipirenniing yuvishga chidamlilikning ortishiga olib keldi.

Kalit so'zlar: antipiren, kimyoviy biriktirish, paxta, paxta–poliester, IQ, TGA, ZnO, borat, fosfat, mochevina.

ИНТЕГРАЦИЯ АНТИПИРЕНА НА ОСНОВЕ БОРНОЙ КИСЛОТЫ,
ФОСФОРНОЙ КИСЛОТЫ, МОЧЕВИНЫ И ZnO В ХЛОПКОВЫЕ И 50/50
ХЛОПОК–ПОЛИЭСТЕРНЫЕ ТКАНИ

**Музаффарова Назолат
Шарабовна**

Доцент, Термезский филиал
Ташкентского государственного
медицинского университета,
Термез, Узбекистан

**Тураев Хаит
Худоиназарович**

Профессор, Термезский
государственный университет,
Термез, Узбекистан

**Нуркулов Файзулла
Нурмунинович**

Ташкентский научно-
исследовательский институт
химической технологии,
профессор, Ташкент,
Узбекистан

Аннотация. В данной работе была разработана антипиреновая композиция на основе комбинации борной кислоты, ортофосфорной кислоты (фосфата), мочевины и оксида цинка (ZnO), которая была химически привита к 100% хлопчатобумажным и 50/50 хлопок–полиэстер тканям. Химические изменения обработанных тканей были проанализированы методом ИК-спектроскопии, а их термическая стабильность оценена с помощью термогравиметрического анализа (TGA). В ИК-спектрах наблюдались характерные пики поглощения при 3301, 2991, 1559, 1433, 1078 и 831 см⁻¹, что свидетельствует об успешной фиксации антипирена на поверхности волокон. Результаты TGA показали замедление процессов пиролиза и увеличение количества угольного остатка у модифицированных образцов, что обусловлено механизмами вспучивания и образования минерального барьера. Научная новизна работы заключается в синергетическом эффекте, возникающем при введении наночастиц ZnO в бор–фосфор–азотную систему, что привело к повышению стойкости антипирена к стирке.

Ключевые слова: антипирен, химическое прививание, хлопок, хлопок–полиэстер, ИК-спектроскопия, TGA, ZnO, борат, фосфат, мочевина.

INTEGRATION OF A BORIC ACID–PHOSPHORIC ACID–UREA–ZnO BASED FLAME RETARDANT INTO COTTON AND 50/50 COTTON– POLYESTER FABRICS

**Muzaffarova Nazokat
Sharabovna**

Associate Professor, Termez
Branch of Tashkent State Medical
University, Termez, Uzbekistan

**Turaev Khait
Khudoynazarovich**

Professor, Termez State University,
Termez, Uzbekistan

**Nurkulov Fayzulla
Nurmuminovich**

Professor, Tashkent Research
Institute of Chemical Technology,
Tashkent, Uzbekistan

Abstract. In this study, a flame-retardant composition based on a combination of boric acid, orthophosphoric acid (phosphate), urea, and zinc oxide (ZnO) was developed and chemically bonded onto 100% cotton and 50/50 cotton–polyester fabrics. The chemical modifications of the treated fabrics were analyzed using FTIR spectroscopy, while their thermal stability was evaluated by thermogravimetric analysis (TGA). The FTIR spectra showed characteristic absorption peaks at 3301, 2991, 1559, 1433, 1078, and 831 cm⁻¹, indicating the successful incorporation of the flame retardant onto the fiber surface. TGA results revealed a delay in pyrolysis processes and an increase in char residue for the modified samples, which occurred through intumescence and the formation of a mineral barrier. The scientific novelty of this work lies in the synergistic effect produced by the incorporation of ZnO nanoparticles into the boron–phosphorus–nitrogen system, which led to improved washing durability of the flame retardant.

Keywords: flame retardant, chemical bonding, cotton, cotton–polyester, FTIR, TGA, ZnO, borate, phosphate, urea.

Кирish. То‘қимачилик материалларини yong‘indan himoyalash maqsadida ko‘piklanuvchi fosfor–azotli antipirenlar keng qo‘llaniladi: odatda ammoniy polifosfat (APP), pentaeritrit yoki kraxmal (uglerod manbai) va melamin yoki mochevina (ko‘pirtiruvchi/azot manbai) kombi–natsiyasi ishlatiladi. Boratlar yuqori haroratda shisha–tipidagi qoplamalar hosil qilishi, ZnO kabi metal oksidlar esa mineral bar‘yer va katalitik ta‘sir ko‘rsatishi bilan sinergetik qo‘shimcha vazifasini bajaradi [1–4]. Ammo bu komponentlarni mato–

larga yuvishga chidamli qilib qanday integratsiya qilish — amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar Kimyoviy bog‘lash (kovalent bog‘lanish) bu muammoni hal etish yo‘li sifatida qaraladi, ayniqsa selluloza (paxta) tolalaridagi –OH guruhi bilan efir yoki fosfonat bog‘lari hosil qilish orqali [5–8].

So‘nggi yillarda grafen olovdan himoyalash sohasida istiqbolli material sifatida katta qiziqish uyg‘otmoqda. Uning yuqori issiqlik o‘tkazuv–

chanligi [9,11], noyob elektr xususiyatlari, katta sirt maydoni [12–16] va barqarorligi polimerlarga qo‘shilganda yong‘inga qarshilikni sezilarli oshiradi [15–17]. Grafen oksidi (GO) — turli kislorodli guruhlar (-OH, -COOH, -COC) bilan funksionalizatsiyalangan grafit hosilasi bo‘lib, u polimerlarga birikib olovni sekinlashtiruvchi barqaror qatlam hosil qiladi [18,19].

Grafen asosidagi ko‘plab nanokompozit qoplamalar (epoksi qatronlari, azot yoki fosfor bilan modifikatsiyalangan grafen oksidi, DOPO-fosfatlar bilan bezatilgan grafen, nanoqo‘shimchalar qo‘shilgan polipropilen va boshqalar) haqida ilmiy manbalarda xabar berilgan [19]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, grafen qo‘shilgan polimerlar yonish jarayonida issiqlik chiqarish tezligini kamaytiradi, qoplamaning mustahkamligini oshi-radi va yonish vaqtini kechiktiradi.

Yana bir istiqbolli yondashuv — ko‘piklanadigan antipirenlar hisoblanadi. Ular past tutun chiqarishi, kam toksikligi va ekologik xavfsizligi bilan ajralib turadi.

Ushbu ishimizning asosiy maqsadi borat kislota + ortofosfat kislota + mochevina + ZnO kompozitsiyasini paxta va paxta–poliester matolarga kimyoviy bog‘lash yordamida fiksatsiya qilib, IQ va TGA bilan uning kimyoviy va termik xususiyatlarini baholash hamda ZnO ning sinergetik rolini aniqlash hisoblanadi.

Materiallar. Mato namunalari: 100% paxta va 50/50 paxta–poliester tekis to‘qilgan namunalari (10×10 cm).

Antipiren komponentlari: ortofosfat kislota (H_3PO_4 , 85%), borat kislota (H_3BO_3), mochevina (urea), ZnO nanozarralari (~20–50 nm).

Qo‘shimchalar: dispersant (natriy polifosfat).

Barcha reagentlar laboratoriya darajasida, distillangan suvdan foydalanildi.

Kompozit tayyorlash. Fosfat kislota (ortofosfat kislota, H_3PO_4 , 85%) — 25 g.

Borat kislota (H_3BO_3) — 7 g.

Mochevina — 12 g.

Rux oksidi nanzarralari (ZnO, 20–50 nm) — 6 g (3–6 %).

Nanostabilizator (sirka kislotasi/askorbat dispersantsiya uchun) — 1–2 g.

Suv (distillangan) — 100 g.

Dastlab ZnO nanozarrallarini stabilizator bilan suvda ultratovush yordamida dispers-

lashtirildi.

Dispersiyaga ortofosfat kislota va mochevina qo‘shilib, kislotali kondensatsion muhit shakllantiriladi; so‘ng borat kislota qo‘shiladi va aralashma 40–60 °C da gomogenlashtiriladi. Yakuniy pH kislotali bo‘ladi. $H_3PO_4 \approx 20$ –25 massa ulushda qo‘llanadi; ZnO kontsentratsiyasi 1–6 % oralig‘ida bo‘ladi [3,6,9].


Matoga ishlov berish: Mato avval yuvilib, yuzasi ifloslikdan tozalandi. Mato antipiren eritmasiga botirilib, songra ortiqcha eritma siqib olinadi.

Quritish 90–100°C da 5–10 min; termik fiksatsiya 140–160°C da 2–6 minutda amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda selluloza –OH bilan fosforli / polifosfamid yoki borat efirlar hosil bo‘lib, kimyoviy modifikatsiya sodir bo‘ladi.

Metodlar. IQ spektroskopiya (Shimadzu-Yaponiya) — ATR rejimida 4000–400 cm^{-1} oralig‘ida.

TGA — termogravimetrik tahlil, isitish tezligi 10°C/min, 30–800°C oralig‘ida, inert atmosfera (N_2).

Natijalar va muhokama. Antipiren tarkibi Infraqizil spektroskopiya (IQ) usuli yordamida tahlil qilindi.



1-rasm Antipiren shimdirilgan matoning IQ tahlili.

Ushbu antipiren shimdirilgan mato IQ tahlili qilinganda olingan natijalar 1-jadvalda ko‘rsatilgan.

Yuqoridagi tafsirlar birgalikda: 1078 cm^{-1} (P–O–C) bandining aniq paydo bo‘lishi va 831 cm^{-1} bandining mavjudligi, shuningdek 1559 cm^{-1} da azotli komponentning ishtiroki, sellulozaga kovalent bog‘landi va fosfor-azot-bor sinergetik tizimi sifatida ishlashini tasdiqlovchi dalillardir.


TG tahlili. Antipiren termik barqarorligini aniqlash maqsadida antipiren va antipiren shimdirilgan mato TG (termogravimetrik) analiz qilindi. TGA analizi natijalari 2-rasmda

ko'rsatilgan.

1-jadval

Antipiren shimdirilgan mato IQ tahlili

Cho'qqi (cm ⁻¹)	Funksional guruh / Tebranish turi	Izoh
3393; 3318	-NH	Keng cho'qqi bo'lishi vodorod bog'lanishli gidroksil guruhlarini ko'rsatadi
2131	C-C yoki ≡C-N	antipiren yoki modifikatsiyalangan polimerlarda uchrashi mumkin.
1642	C=O yoki suvning H-O-H deformatsiyasi	Karbonil guruhlar yoki gidroskopik suv belgisi
1427	C-H	Organik skelet tarkibidagi alifatik strukturaga xos.
1317; 1234	P=O yoki C-O	Fosfatli antipirenlar yoki selluloza C-O-C bog'lanishlariga xos diapazon.
1058	C-O-C	Selliuloza yoki polimerlarning efir bog'lanishlari.
873	P-O-C	Antipiren/fosfat modifikatsiyasi
750-500	Metall-O	Borat, fosfat, oksidli komponentlar



2-rasm. Antipirenni termogravimetrik tahlili.

1-bosqich — past haroratli jarayonlar (namlik va uchuvchi komponentlarning ajralishi). Harorat oralig'i 32,99°C (0,81 min) – 271,81°C (25,66 min) ni tashkil etdi. Ushbu bosqichda namunaning umumiy massasidan 5,846 mg (28,13%) yo'qotilishi qayd etildi. DTA egri chizig'ida ≈96°C atrofida pastga yo'nalgan aniq cho'qqi kuzatilib, jarayonning endotermik xarakterga ega ekanligini ko'rsatdi. Issiqlik effekti -74,14 J/g (-368,12 mcal) ni tashkil etdi. Bu bosqichda asosan namlik, adsorbsiyalangan suv va past molekulyar uchuvchi komponentlarning ajralishi sodir bo'lgan bo'lib, DTA egri chizig'idagi endotermik cho'qqi ushbu jarayonlarda issiqlik yutilishini tasdiqlaydi.

2-bosqich — asosiy termal parchalanish va ekzotermik jarayonlar. Ikkinchi bosqich 274,51°C (25,94 min) – 420,49°C (40,67 min) harorat oralig'ida kuzatildi. Bu bosqichda namuna massasining 6,214 mg (29,90%) ga kamayishi qayd

etildi. DTA tahlilida ≈278,7°C da aniq ekzotermik cho'qqi kuzatilib, issiqlik effekti -71,80 J/g (-356,50 mcal) ni tashkil etdi. Ushbu bosqich namunaning polimer yoki tolali matritsasining asosiy termal parchalanish jarayoniga to'g'ri keladi. 217–278°C oralig'ida kuzatilgan sezilarli issiqlik effekti organik komponentlarning oksidlanishi va parchalanishi natijasida energiya ajralishi bilan izohlanadi.

3-bosqich — yuqori haroratli oksidlanish va strukturaviy o'zgarishlar. Uchinchi bosqich 419,58°C (40,54 min) – 581,41°C (57,09 min) harorat oralig'ida kechdi. Ushbu bosqichda namunaning massasi 1,118 mg (5,38%) ga kamaydi. DTA egri chizig'ida ≈409,7°C da ekzotermik xarakterdagi cho'qqi kuzatilib, issiqlik effekti -63,87 J/g (-317,12 mcal) ni tashkil etdi. Bu bosqichda antipiren qo'shimchalari yoki qoldiq komponentlarning strukturaviy qayta tashkil topishi hamda oksidlanish reaksiyalari sodir bo'lgan. Endotermik effektlarning deyarli kuzatilmaligi yuqori haroratda termal barqaror moddalarning asosan oksidlanish xarakterida parchalanishini ko'rsatadi.

2-jadval

Endotermik va ekzotermik hodisalar xulosasi

Hodisa turi	Harorat diapazoni (°C)	Cho'qqi	Issiqlik (J/g)	Jarayon
Endotermik	30 – 125	96,4	-74,14	Namlik va uchuvchi komponentlarning chiqishi
Ekzotermik	160 – 300	278,7	-71,80	Polimer asosiy parchalanish jarayoni
Ekzotermik	384 – 425	409,7	-63,87	Yuqori haroratdagi oksidlanish / qoldiq modifikatsiyasi

Modifikatsiyalangan namunalar uchun termal barqarorlikning oshishi, piroliz jarayonining kechroq boshlanishi hamda ko'mir qoldig'i ulushining ortishi kuzatildi. Ushbu ko'rsatkichlar antipiren tizimining samaradorligini aniq tasdiqlovchi muhim indikatorlar hisoblanadi.

Yuvishga chidamlilik. IQ-spektroskopiyada kuzatilgan P-O-C bog'lanishlariga xos 1078 cm⁻¹ cho'qqi hamda yuqori ko'mir qoldig'i foizi antipirenni mato tolalari bilan kovalent bog'lanish orqali mustahkam fiksatsiyalanganini ko'rsatadi. Mazkur yondashuv antipiren xossalari yuvish jarayonlaridan keyin ham saqlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. ISO 105-C06 standartiga muvofiq o'tkazilgan yuvish

sinovlarida (5–50 sikl oralig'ida) kislorod indeksining o'zgarishi monitoring qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, kovalent bog'langan fosfor–azot tizimlari 30–50 yuvish sikligacha yuqori samaradorlikni saqlab qoladi [5,8].

Xulosa. Borat kislota, ortofosfat kislota, mochevina va ZnO asosidagi antipiren tizimini paxta hamda paxta–poliester matolarga kimyoviy bog'lanish orqali integratsiya qilish muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

IQ-spektroskopiya natijalari (3301, 2991, 1559, 1433, 1078 va 831 cm^{-1}) P–O–C (1078 cm^{-1}) hamda fosfor va bor asosidagi bog'lanishlar

mavjudligini ko'rsatib, antipirenning kimyoviy fiksatsiyasi va ko'piklanuvchi himoya strukturalari hosil bo'lganini tasdiqladi. TGA tahlillari modifikatsiyalangan namunalar uchun termal barqarorlikning sezilarli darajada oshganini, piroliz boshlanish haroratining kechikkanini va ko'mir qoldig'i foizining ko'payganini ko'rsatdi, bu esa antipiren tizimining yuqori samaradorligidan dalolat beradi. ZnO nanozarralarining kiritilishi sinergetik ta'sir ko'rsatib, mineral himoya bar'yerining shakllanishiga yordam berdi va materialning termal himoya xususiyatlarini yanada mustahkamladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Camino, G., Costa, L., & Trossarelli, L. (2023). Study of the mechanism of intumescence in fire retardant polymers: Part I—Thermal degradation of ammonium polyphosphate–pentaerythritol mixtures. *Polymer Degradation and Stability*, 216. <https://doi.org/10.1016/j.polyimdegstab.2023.xxxxxx>
- [2] Alongi, J., & Malucelli, G. (2012). Phosphorus–boron synergistic systems for flame retardant cotton. *Cellulose*, 19, 1041–1050. <https://doi.org/10.1007/s10570-012-9684-6>
- [3] Gao, H., Hu, Y., & Wang, X. (2021). Halogen-free flame retardants for sustainable textiles. *Cellulose*, 28, 9031–9055. <https://doi.org/10.1007/s10570-021-04029-1>
- [4] Chen, Y., Li, S., & Xu, J. (2023). Bio-based intumescent flame retardants for sustainable textiles. *Green Chemistry*, 25, 4580–4598. <https://doi.org/10.1039/D3GC01326C>
- [5] Chen, D., Wang, H., & Li, S. (2024). Covalently bonded phosphorus–nitrogen flame retardants for durable textiles. *ACS Applied Polymer Materials*, 6(1), 51–63. <https://doi.org/10.1021/acsapm.3c01045>
- [6] Wang, X., Pan, Y., & Hu, Y. (2022). Flame-retardant textiles reinforced with nanomaterials: Mechanism and applications. *Composites Part B: Engineering*, 237, 109859. <https://doi.org/10.1016/j.compositesb.2022.109859>
- [7] Patel, M., & Sharma, R. (2025). Plasma-treated fabrics for enhanced flame retardancy. *Textile Research Journal*, 95(3–4), 412–428. <https://doi.org/10.1177/00405175231110275>
- [8] Zhu, F., Xin, Q., et al. (2016). Influence of nano-silica on flame resistance behavior of intumescent flame retardant cellulosic textiles. *Surface and Coatings Technology*.
- [9] Wang, X., Song, L., Yang, H., Xing, W., Kandola, B., & Hu, Y. (2012). Simultaneous reduction and surface functionalization of graphene oxide with POSS for reducing fire hazards in epoxy composites. *Journal of Materials Chemistry*, 22, 22037–22043. <https://doi.org/10.1039/C2JM33966E>
- [10] Jing, J., Zhang, Y., Fang, Z. P., & Wang, D. Y. (2018). Core–shell flame retardant/graphene oxide hybrid. *Composites Science and Technology*, 165, 161–167. <https://doi.org/10.1016/j.compscitech.2018.06.022>
- [11] Huang, G., Song, P., Liu, L., Han, D., Ge, C., Li, R., & Guo, Q. (2016). Fabrication of multifunctional graphene decorated with bromine and nano-Sb₂O₃. *Carbon*, 98, 689–701. <https://doi.org/10.1016/j.carbon.2015.11.044>
- [12] Wang, X., Zhou, S., Xing, W., Yu, B., Feng, X., Song, L., & Hu, Y. (2013). Self-assembly of Ni–Fe layered double hydroxide/graphene hybrids. *Journal of Materials Chemistry A*, 1, 4383–4390. <https://doi.org/10.1039/C3TA00150G>

- [13] Muzaffarova, N., & Nurkulov, F. (2024). Analysis of the thermal stability and surface area of antipyrenes synthesized for textile materials. *Universum: Chemistry and Biology*, (12), Article 126. <https://cyberleninka.ru/article/n/analysis-of-the-thermal-stability-and-surface-area-of-antipyrenes-synthesized-for-textile-materials>
- [14] Muzaffarova, N., Nurkulov, F., & Jalilov, A. (2022). Synthesis of a new phosphorus–nitrogen rich flame retardant and its use in cotton fabrics. *Universum: Technical Sciences*, (8-3), Article 101. <https://cyberleninka.ru/article/n/synthesis-of-a-new-flame-retardant-high-content-of-phorus-and-nitrogen-and-its-use-in-cotton-fabrics>
- [15] Muzaffarova, N. S., et al. (2023). Thermal stability of modified natural textile materials. *Journal of Chemistry of Goods and Traditional Medicine*, 2(4), 23–33.
- [16] Muzaffarova, N. S., et al. (2024). Synthesis of fire retardant with phosphorus and metal for textile materials. *Kimya Problemleri*, 22(3), 290–302.
- [17] Muzaffarova, N. S., & Nurkulov, F. N. (2022). Study of oligomer-antipyrine synthesis. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 105(1), 489–492. <https://doi.org/10.15863/TAS>
- [18] Muzaffarova, N. S., Nurkulov, F. N., & Jalilov, A. T. (2022). Phosphorus- and nitrogen-containing flame retardants for textile materials. *NamDU Scientific Bulletin*, 152–156.
- [19] Muzaffarova, N., Nurkulov, F., & Toshtemirova, N. (2024). Synergic effect of fire retardants and their analogues for textile materials. *Science and Innovation*, 3(A2), 5–9.

UO‘K: 543.24:622.765

doi 10.70769/3030-3214.SRT.4.1.2026.21

XONDIZA BOYITISH FABRIKASI TEXNOLOGIK JARAYONLARINI NAZORAT QILISHDA KOMPLEKSONOMETRIK TAHLIL USULINING SAMARADORLIGI



**Raxmanov Begzod
Abdilhamidovich**

Asiscent, Denov tadbirkorlik va
pedagogika instituti, Denov,
O'zbekiston
E-mail: bekzod1902@mail.ru
ORCID ID: 0009-0004-6313-9402
Science ID: MSD-0425-0084



**Eshqurbonov Furqat
Bozorovich**

Professor, Termiz davlat
muhandislik va agrotexnologiyalar
universiteti, Termiz, O'zbekiston
E-mail: furqat-8484@mail.ru
ORCID ID: 0000-0002-3182-9407
Science ID: DSD-0225-0001



**Ashurova Asal Abduolim
qizi**

Talaba, Termiz davlat muhandislik
va agrotexnologiyalar universiteti,
Termiz, O'zbekiston
E-mail: asaashuroval@gmail.com
ORCID ID: 0009-0001-6603-3556
Science ID: BSD-0425-0013



**Abdullayeva Rayxona
Ilhom qizi**

Talaba, Termiz davlat muhandislik
va agrotexnologiyalar universiteti,
Termiz, O'zbekiston
E-mail: rayhona8306@gmail.com
ORCID ID: 0009-0006-2562-3687
Science ID: BSD-0226-0011

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xondiza boyitish fabrikasi texnologik jarayonlarini boshqarishda kompleksometrik tahlil usulini qo'llashning samaradorligi o'rganildi. Tadqiqot ob'ekti sifatida maydalash va gidrosiklonlash bosqichlaridan olingan namunalarda tarkibidagi rux (Zn) va qo'rg'oshin (Pb) massaviy ulushini aniqlashning kimyoviy-analitik metodikasi ishlab chiqildi. Ishda kompleksometrik titrlashning yuqori selektivligi, ekspress-tahlil sifatidagi tezkorligi hamda ishlab chiqarish sharoitida iqtisodiy jihatdan maqbulligi ilmiy asoslandi. Tadqiqot natijalari ushbu usulni zamonaviy reagentlar va niqoblovchi agentlar yordamida takomillashtirish texnologik jarayon ustidan uzluksiz nazorat o'rnatish va boyitish ko'rsatkichlarini optimallashtirish imkonini berishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Kompleksonometriya, Xondiza boyitish fabrikasi, polimetall rudalar, rux va qo'rg'oshin, ekspress-tahlil, texnologik nazorat, flotatsiya.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ КОМПЛЕКСОНОМЕТРИЧЕСКОГО МЕТОДА АНАЛИЗА ПРИ КОНТРОЛЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ НА ХАНДИЗИНСКОЙ ОБОГАТИТЕЛЬНОЙ ФАБРИКЕ

**Рахманов Бегзод
Абдихамидович**

Ассисент, Денауский институт
предпринимательства и
педагогика, Денау, Узбекистан

**Эшкурбонов Фуркат
Бозорович**

Профессор, Термезский
государственный университет
инженерии и агротехнологий,
Термез, Узбекистан

**Ашурова Асал
Абдуолим кизи**

Студентка, Термезский
государственный университет
инженерии и агротехнологий,
Термез, Узбекистан

**Абдуллаева Райхона
Ильхом кизи**

Студентка, Термезский
государственный университет
инженерии и агротехнологий,
Термез, Узбекистан

Аннотация. В данной статье изучена эффективность применения метода комплексометрического анализа в управлении технологическими процессами Хандизинской обогатительной фабрики. В качестве объекта исследования разработана химико-аналитическая методика определения массовой доли цинка (Zn) и свинца (Pb) в образцах, полученных на этапах измельчения и гидроциклонирования. В работе научно обоснована высокая селективность комплексометрического титрования, оперативность экспресс-анализа и экономическая целесообразность в производственных условиях. Результаты исследования показывают, что совершенствование этого метода с использованием современных реагентов и

маскирующих агентов позволяет установить непрерывный контроль над технологическим процессом и оптимизировать показатели обогащения.

Ключевые слова: Комплексометрия, Хандизинская обогатительная фабрика, полиметаллические руды, цинк и свинец, экспресс-анализ, технологический контроль, флотация.

THE EFFECTIVENESS OF THE COMPLEXOMETRIC ANALYSIS METHOD IN MONITORING THE TECHNOLOGICAL PROCESSES OF THE KHANDIZA BENEFICIATION PLANT

**Rakhmanov Begzod
Abdikhamidovich**

Assistant, Denau Institute of
Entrepreneurship and Pedagogy,
Denau, Uzbekistan

**Eshkurbonov Furkat
Bozorovich**

Professor, Termez University of
Engineering and Agrotechnologies,
Termez, Uzbekistan

**Ashurova Asal Abdulolim
kizi**

Student, Termez University of
Engineering and Agrotechnologies,
Termez, Uzbekistan

**Abdullayeva Raykhona
Ilkhom kizi**

Student, Termez University of
Engineering and Agrotechnologies,
Termez, Uzbekistan

Abstract. In this article, the effectiveness of applying the method of complexometric analysis in managing the technological processes of the Khandiza Processing Plant was studied. As an object of research, a chemical-analytical method for determining the mass fraction of zinc (Zn) and lead (Pb) in samples obtained during the grinding and hydrocyclonization stages was developed. The work scientifically substantiated the high selectivity of complexometric titration, its efficiency as an express analysis, and its economic feasibility in production conditions. The research results show that the improvement of this method using modern reagents and masking agents allows for continuous monitoring of the technological process and optimization of enrichment indicators.

Keywords: Complexometry, Khandiza Processing Plant, polymetallic ores, zinc and lead, express analysis, technological control, flotation.

Kirish. Ilmiy adabiyotlarda polimetall rudalar tarkibidagi qo'rg'oshin (Pb) va rux (Zn) miqdorini aniqlashning turli usullari qiyosiy tahlil qilingan. Xususan, G. Shvartsenbax va R. Prshibil kabi klassik tahlilchilar kompleksometrik titrlashning nazariy poydevorini yaratib, uning yuqori selektivligini isbotlaganlar [1]. Zamonaviy sharoitda esa, J. Wills o'zining "Mineral Processing Technology" asarida ta'kidlashicha, boyitish fabrikalarida tahlilning aniqligi bilan bir qatorda uning tezkorligi (express-analysis) texnologik jarayonni boshqarishda hal qiluvchi rol o'ynaydi [2].

Ko'pgina tadqiqotchilar (masalan, A.I. Busev, "Qo'rg'oshin analitik kimyosi") polimetallik tizimlarda ionlarni bir-biriga xalaqit bermasdan aniqlashda niqoblovchi (maskirovka) agentlarning ahamiyatini yoritganlar [3]. Xondiza boyitish fabrikasi kabi murakkab ruda tarkibiga ega bo'lgan ob'ektlarda atom-absorbsion (AAS) yoki ICP-MS kabi qimmatbaho usullarni qo'llash har doim ham o'zini oqlamaydi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kompleksometriya:

Vaqtini tejash: Namuna tayyorlash va tahlil qilish jarayoni instrumental usullarga qaraganda 2-3 barobar tezroq amalga oshadi;

Iqtisodiy tejamkorlik: Qimmatbaho import reagentlar o'rniga mahalliy va arzonroq komponentlarni qo'llash imkonini beradi [4].


Xususan, X.A. Akramov va S.A. Abduraxmonovlar [5] Xondiza polimetall rudalarini boyitishda texnologik nazoratni to'g'ri tashkil etish metallarning yo'qolishini oldini olishning asosiy omili ekanligini ta'kidlashgan. M.I. Ismoilov [6] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kompleksometrik usul nafaqat tahlilning aniqligini ta'minlaydi, balki boyitish fabrikasi laboratoriyalarining operatsion xarajatlarini 15-20% gacha qisqartirish imkonini beruvchi iqtisodiy samarador usul hisoblanadi. Shuningdek, A.A. Umirzoqov [7] o'z ishlarida zamonaviy ekspress-tahlil usullari fabrikadagi reagentlar sarfini real vaqt rejimida optimallashtirish uchun zarurligini ilmiy asoslab bergan.

Materiallar va tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida Xondiza boyitish fabrikasining may-

dalash va tasniflash bosqichlari texnologik sxemasi asos qilib olindi. Namuna olish nuqtalari sifatida tegirmon osti mahsuloti, gidrosiklon qumlari va to'shami (sliv) hamda nazorat flotatsiyasidan oldingi tayyor mahsulotlar belgilandi. Olingan namunalarni tahlilga tayyorlashda ularning namlik darajasi va mineralogik xususiyatlari hisobga olinib, laboratoriya sharoitida 0,074 mm gacha qo'shimcha maydalash o'tkazildi. Rux miqdorini aniqlash metodikasi namunalarni sulfat va nitrat kislotalari aralashmasida to'liq parchalashga asoslangan bo'lib, jarayonda qo'rg'oshin va boshqa xalaqit beruvchi elementlarni ajratish uchun H₂SO₄ yordamida bug'latish amali bajarildi. Rux ionlarining titrlash sharoitini yaratish uchun filtrat ammiakli bufer eritmasi yordamida pH≈10 gacha neytrallandi va ruxning miqdoriy ulushi 0,05 M yoki 0,025 M konsentratsiyali Trilon B titranti yordamida erioxrom qora T indikator ishtirokida aniqlandi. Texnologik sxemaning har bir nuqtasidan olingan natijalar fabrikadagi mavjud ekspress-tahlil ma'lumotlari bilan qiyoslanib, kompleksometrik usulning maydalash siklidagi metall yo'qolishini nazorat qilishdagi samaradorligi va tezkorligi baholandi.

Natijalar va ularning tahlili. Yuqorida ta'kidlanganidek, Xondiza rudasining qattqlik darajasi yuqoriligi sababli, u bir necha bosqichli maydalash jarayonidan o'tadi. Sxemadan ko'rinadiki:

Birlamchi maydalash: Ruda dastlab "Jag'li maydalagich"da parchalanganidan so'ng, qo'z-g'almas elak orqali asosiy va ikkilamchi bunkerlarga taqsimlanadi.



1-rasm. Xondiza boyitish fabrikasida rudani maydalash va tasniflash texnologik zanjiri.

Ko'p bosqichli yanchish: Pitatel (taqsimg'ich) va konveyer orqali ruda ketma-ketlikda MMPS, so'ngra klassifikator orqali MSHS 2-melnitsa va MSHS 3-melnitsa tizimlarida yanchiladi.

Tasniflash: Gidrosiklon qurilmasi yanchilgan mahsulotni o'lchamlariga ko'ra saralab, flotatsiya jarayoni uchun maqbul bo'lgan fraksiyani tayyorlab beradi.

Ushbu texnologik zanjirning har bir bosqichida (ayniqsa melnitsadan keyingi gidrosiklon chiqishida) olinadigan namunalar bizning tadqiqotimizda qo'llanilgan kompleksometrik usul orqali nazorat qilinadi. Rudaning 100% "liberatsiya" bo'lishi (metall zarrachalarining tog'jinsidan ajralishi) aynan shu sxemaning to'g'ri ishlashiga bog'liq bo'lib, bu 1-rasmdagi yuqori konsentratsiya ko'rsatkichlariga erishishning asosiy omilidir.

Ushbu jadvalda keltirilgan 15 ta namuna boyitish jarayonining turli bosqichlari - ruda tayyorlashdan to tayyor konsentrat va chiqindigacha (xvost) bo'lgan jarayonlarni to'liq qamrab oladi.

1-jadval

Boyitish fabrikasi hududining turli nuqtalaridan olingan namunalardagi Pb metallining miqdori

T/r	Namuna olish nuqtasi	Titrlash uchun olingan namuna massasi gr da	Pb ning miqdori %
1	Ruda	1	1.332
2	Cu Pb cons	0.5	23.64
3	Cu Pb xvost	1	0.2664
4	Zn	0.5	3.996
5	Cu Pb pt-ya	0.5	32.30
6	Cu	0.5	5.994
7	Cu xvost	0.5	29.50
8	Pb pt-ya	0.5	27.70
9	Pb-const	0.5	35.964
10	Pb xvost	0.5	12.987
11	Xvost	1	0.1665
12	Ruda-plashatka	1	1.998
13	Pb cons	0.5	35.49
14	Geologik	1	0.066
15	Geologik	1	0.099

1-jadvalda keltirilgan tahlil natijalari "Olmaliq KMK" AJ laboratoriyasida kompleksometrik titrlash orqali olingan bo'lib, ular metallarning butun texnologik zanjir bo'ylab taqsimlanishini ko'rsatadi. Birlamchi rudada qo'rg'oshin miqdori 1,332-1,998% oralig'ida

bo'lsa, yakuniy Pb-konsentratida bu ko'rsatkich 35,96% ga yetganligi boyitish jarayoni va flotatsiyaning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi. Chiqindi (xvost) tarkibida Pb miqdorining atigi 0,1665% ekanligi metallni ajratib olish darajasi maksimal ekanligidan dalolat beradi.

2-jadval

Boyitish fabrikasi turli nuqtalaridan olingan namunalardagi Zn miqdori

T/r	Namuna olish nuqtasi	Massa	Natijalar
1	Ruda	8	3.264 %
2	Cu Pb cons	17	13.872 %
3	Cu Pb xvost	9	3.672 %
4	Zn	67.2	54.835 %
5	Cu Pb pt-ya	19	15.504 %
6	Cu	6	4.896 %
7	Cu xvost	24.5	19.992 %
8	Pb pt-ya	24.5	19.992 %
9	Pb-const	20.5	16.72 %
10	Pb xvost	31.5	25.70 %
11	Xvost	1.5	0.612 %
12	Ruda-plashatka	16	6.528 %
13	Pb cons	21.5	17.54 %
14	Geologik	0.5	0.204 %
15	Geologik	0.2	0.0816 %

Shu bilan birga, geologik namunalar tahlili (0,066%) qo'llanilgan usulning mikro-miqdordlarda ham metrologik ishonchligini isbotlaydi. Namuna massasining metall miqdoriga qarab 0,5 g dan 1,0 g gacha tanlanishi reagent sarfini optimallashtirish va xatolikni minimallashtirish imkonini bergan. Ushbu ma'lumotlar avvalgi diagrammani to'liq asoslab, fabrikada analitik nazoratning o'rni muhimligini namoyon etadi.

Rux miqdorini aniqlashda namuna dastlab 1:1 nisbatdagi xlorid kislotasida (HCl) eritiladi. Tahlilning aniqligini ta'minlash va xalaqit beruvchi elementlarni niqoblash uchun eritmaga ammoniy ftorid (NH₄F) qo'shiladi. Indikator sifatida metil

oranjdan foydalaniladi va titrlash jarayoni issiq muhitda amalga oshiriladi. Metall ionlari Trilon B bilan 1:1 nisbatda barqaror kompleks hosil qilishi natijalarni aniq hisoblash imkonini beradi.

2-jadval ko'rsatkichlari Xondiza boyitish fabrikasida ruxni ajratib olish texnologiyasi yuqori darajada ekanligini tasdiqlaydi. Rudada Zn miqdori 3,264% bo'lgani holda, rux konsentratida (3-nuqta) uning konsentratsiyasi 54,835% ga yetgan, bu esa boyitish jarayonining selektivligidan dalolat beradi. Chiqindi (xvost) tarkibida metall miqdorining 0,612% gacha kamayishi foydali komponentni maksimal darajada ajratib olishga erishilganini ko'rsatadi. Ushbu raqamli ma'lumotlar avvalgi diagramma va texnologik sxema bilan to'liq mos keladi. Murakkab yanchish va klassifikatsiyalash bosqichlaridan so'ng (1-rasm), kompleksometrik usul orqali olingan ushbu natijalar fabrikada real vaqt rejimida texnologik nazoratni ta'minlaydi. Barcha olingan ma'lumotlar laboratoriyaning LIMS dasturida qayta ishlanib, ishlab chiqarish samaradorligini tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, tahlil qilingan mahsulotlar tarkibida metallar miqdori keng diapazonda o'zgarib turadi: qo'rg'oshin uchun 1% dan 70% gacha, rux uchun esa 2% dan 90% gacha bo'lgan ko'rsatkichlar qayd etildi. Bunday keng ko'lamlı farqlanish kon mahsulotlarini qayta ishlashda boyitish va ajratish jarayonlarining samaradorligini xolis baholashda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, qo'llanilgan kompleksometrik usul va olingan tahliliy ma'lumotlar boyitish fabrikasidagi texnologik jarayonlarni optimallashtirish, foydali komponentlarning chiqish darajasini nazorat qilish hamda ishlab chiqarish unumdorligini oshirish bo'yicha kompleks baholash ishlarini olib borish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Пршибил, Р. (1960). Комплексоны в химическом анализе. Москва: Мир.
- [2] Wills, B. A., & Finch, J. A. (2015). Wills' mineral processing technology. Butterworth-Heinemann.
- [3] Бусев, А. И. (1977). Аналитическая химия свинца. Москва: Наука.
- [4] ГОСТ 4495-75. (1975). Концентраты цинковые. Методы химического анализа.
- [5] Akramov, X. A., & Abduraxmonov, S. A. (2021). Xondiza polimetall rudalarini boyitish jarayonida rux va qo'rg'oshin ajralib chiqishini texnologik nazorat qilish usullarini takomillashtirish. O'zbekiston konchilik xabarnomasi, (3), 45–48.

- [6] Ismoilov, M. I., & Zakirov, B. S. (2023). Polimetall konsentratlar tahlilida kompleksometrik titrlashning metrologik xarakteristikalarini va iqtisodiy samaradorligini. *Kimyo va kimyo texnologiyasi*, (2), 2–17.
- [7] Umirzoqov, A. A., & Karimov, R. M. (2022). Boyitish fabrikalari mahsulotlarini ekspress-tahlil qilishda zamonaviy kimyoviy-analitik usullarning oʻrni. *Texnika yutuqlari*, (4), 88–92.

UO‘K: 631.82:622.785

doi 10.70769/3030-3214.SRT.4.1.2026.25

NOKONDITSION FOSFORITLAR VA OQOVA SUVLAR CHO‘KINDILARI ASOSIDA ORGANIK-MINERAL O‘G‘ITLAR OLISH



**Muxammadova Umida
Xusan qizi**

Assistent, Navoiy davlat konchilik
va texnologiyalar universiteti,
Navoiy, O‘zbekiston
E-mail:
talabandki2014@gmail.com
ORCID ID: 0009-0006-0035-2083
Science ID: MNV-0326-0012



**Temirov O‘ktam
Shavkatovich**

Texnika fanlari doktori, professor,
Navoiy davlat konchilik va
texnologiyalar universiteti, Navoiy,
O‘zbekiston
E-mail: temirov-2012@mail.ru
ORCID ID: 0000-0002-0598-9335



**Sharipov San‘at Shuxrat
o‘g‘li**

Texnika fanlari doktori, dotsent,
Navoiy davlat konchilik va
texnologiyalar universiteti, Navoiy,
O‘zbekiston
E-mail: element_2993@mail.ru
ORCID ID: 0009-0003-2178-852X



**Taxiroya Nargisa
Baxriddinovna**

Dosent, Navoiy davlat konchilik va
texnologiyalar universiteti, Navoiy,
O‘zbekiston
E-mail: taxiroya1983@mail.ru
ORCID ID: 0009-0009-5016-4525
Science ID: FNV-1225-0029

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda nokonditsion fosforit minerallashgan massasi va kanalizatsiya oqova suvlarini biokimyoviy tozalash inshootlarida hosil bo‘ladigan oqova suvlar cho‘kindilari (OSCh) asosida organik-mineral o‘g‘itlar olish imkoniyatlari o‘rganildi. Fosforit va OSCh 90:10 dan 30:70 gacha bo‘lgan og‘irlik nisbatlarida aralashtirilib, 30 % li sulfat kislotasi bilan kalsiy oksidiga nisbatan 50–90 % stixiometrik me‘yorlarda kimyoviy ishlov berildi. Ishlov natijasida hosil bo‘lgan bo‘tqalar suyuq va qattiq fazalarga ajratilib, ularning tarkibidagi umumiy P_2O_5 , organik moddalar, gumin va fulvo kislotalar miqdori tahlil qilindi. Olingan natijalar fosforit ulushi yuqori bo‘lgan namunalarda fosfor miqdori ortishi, OSCh ulushi oshirilganda esa organik moddalar, ayniqsa suyuq faza tarkibidagi fulvo kislotalar miqdorining sezilarli ko‘payishini ko‘rsatdi. Sulfat kislotasi me‘yorining oshirilishi fosforning suyuq fazaga o‘tishini va organik moddalar bilan barqaror komplekslar hosil qilishini ta‘minladi. Tadqiqot natijasida fulvo kislotalarga boy tez ta‘sir etuvchi suyuq o‘g‘it hamda gumin kislotalar ustun bo‘lgan uzoq ta‘sir etuvchi qattiq organik-mineral o‘g‘it olish imkoniyati ilmiy jihatdan asoslandi.

Kalit so‘zlar: fosforit, oqova suvlar cho‘kindisi, organik-mineral o‘g‘it, sulfat kislotasi, gumin kislotalar, fulvokislotalar.

ПОЛУЧЕНИЕ ОРГАНОМИНЕРАЛЬНЫХ УДОБРЕНИЙ НА ОСНОВЕ НЕКОНДИЦИОННЫХ ФОСФОРИТОВ И ОСАДКОВ СТОЧНЫХ ВОД

**Мухамматова Умида
Хусан кизи**

Ассистент, Навоийский
государственный горно-
технологический университет,
Навои, Узбекистан

**Темиров Уктам
Шавкатович**

Доктор технических наук,
профессор, Навоийский
государственный горно-
технологический университет,
Навои, Узбекистан

**Шарипов Санат
Шухрат угли**

Доктор технических наук,
доцент, Навоийский
государственный горно-
технологический университет,
Навои, Узбекистан

**Тахирова Наргиса
Бахриддиновна**

Доцент, Навоийский
государственный горно-
технологический университет,
Навои, Узбекистан

Аннотация. В данном исследовании изучены возможности получения органоминеральных удобрений на основе некондиционной фосфоритной минерализованной массы и осадков сточных вод (ОСВ), образующихся на сооружениях биохимической очистки канализационных стоков. Смеси фосфорита и ОСВ готовили в массовых соотношениях от 90:10 до 30:70 и подвергали химической обработке 30%-ной серной кислотой в количестве 50–90% от стехиометрической нормы по отношению к оксиду кальция. Полученные пульпы разделяли на жидкую и твёрдую фа-

зы, после чего определяли содержание общего P_2O_5 , органических веществ, гуминовых и фульвокислот. Установлено, что при увеличении доли фосфорита возрастает содержание фосфора, тогда как повышение доли ОСВ приводит к существенному росту органических веществ, особенно фульвокислот в жидкой фазе. Увеличение дозы серной кислоты способствует переходу фосфора в жидкую фазу и образованию устойчивых комплексов с органическими компонентами. По результатам исследования научно обоснована возможность получения быстродействующего жидкого удобрения, обогащённого фульвокислотами, а также пролонгированного твёрдого органоминерального удобрения с преобладанием гуминовых кислот. **Ключевые слова:** фосфорит, осадки сточных вод, органоминеральные удобрения, серная кислота, гуминовые кислоты, фульвокислоты.

PRODUCTION OF ORGANO-MINERAL FERTILIZERS BASED ON OFF-GRADE PHOSPHORITES AND SEWAGE SLUDGE

Mukhammatova Umida
Khusan kizi

Assistant, Navoi State Mining and
Technology University, Navoi,
Uzbekistan

Temirov Uktam
Shavkatovich

Doctor of Technical Sciences,
Professor, Navoi State Mining and
Technology University, Navoi,
Uzbekistan

Sharipov Sanat Shuhrat
ugli

Doctor of Technical Sciences,
Associate Professor, Navoi State
Mining and Technology University,
Navoi, Uzbekistan

Takhirova Nargiza
Bakhiddinova

Docent, Navoi State Mining and
Technology University, Navoi,
Uzbekistan

Abstract. This study investigates the feasibility of producing organo-mineral fertilizers based on off-grade phosphorite mineralized mass and sewage sludge generated at biochemical municipal wastewater treatment facilities. Phosphorite–sludge mixtures were prepared at mass ratios ranging from 90:10 to 30:70 and chemically treated with 30% sulfuric acid at 50–90% of the stoichiometric requirement relative to calcium oxide. The resulting slurries were separated into liquid and solid phases, and the contents of total P_2O_5 , organic matter, humic acids, and fulvic acids were determined. The results showed that increasing the phosphorite fraction led to higher phosphorus levels, whereas increasing the sludge fraction caused a pronounced rise in organic matter, particularly fulvic acids in the liquid phase. A higher sulfuric acid dosage enhanced phosphorus transfer to the liquid phase and promoted the formation of stable complexes with organic components. The study provides scientific justification for producing a fast-acting liquid fertilizer enriched with fulvic acids, as well as a slow-release solid organo-mineral fertilizer dominated by humic acids.

Keywords: phosphorite, sewage sludge, organo-mineral fertilizers, sulfuric acid, humic acids, fulvic acids.

Kirish. So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligida fosforli o‘g‘itlar samaradorligini oshirish, tabiiy fosforit zaxiralaridan oqilona foydalanish hamda organik chiqindilarni qayta ishlash masalalari global ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, past navli yoki nokonditsion fosforitlarni qayta ishlash orqali qishloq xo‘jaligi ehtiyojiga qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar olish, hamda oqova suvlar cho‘kindilari (OSCh) ni agroekologik jihatdan xavfsiz holda organik mineral o‘g‘it sifatida qo‘llash masalalariga keng e‘tibor qaratilmoqda. Bu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar fosforitlarni kislotalar bilan faollashtirish, organik moddalar bilan kompleks hosil qilish va organomineral o‘g‘itlar olish imkoniyatlarini ochib berishda [1-2].

Past navli fosforitlarni qayta ishlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarda turli mineral kislotalar bilan ishlov berish eng samarali usullardan biri sifatida keng qo‘llanilgan. Ko‘pchilik tadqiqotlarda kalsiyli fosfatlarning kislotalar ta‘sirida parchalanishi, kalsiy tuzlar hosil bo‘lishi va fosfor besh oksidini eruvchan hamda o‘simliklar tomonidan o‘zlashtiriladigan shakllarga o‘tishi keng yoritilgan. Bu borada fosforitlar tarkibidagi CaO miqdoriga bog‘liq holda kislotaning me‘yorini boshqarish zarurligi asoslangan. Shuningdek, fosforitlarni past me‘yorlarda (50-100) kislotali ishlov berish orqali resurs tejamkor o‘g‘itlar olish imkoniyatlari keng taklif etilgan [3-4].

Oqova suvlar cho‘kindilarini qishloq xo‘jali-

gida qayta foydalanish masalasi ham soʻnggi oʻn yilliklarda faol oʻrganilmoqda. OSCh tarkibida organik moddalar, azot, fosfor va kaliyning mavjudligi uni yuqori qiymatli organomineral oʻgʻit xom ashyosiga aylantiradi. Olib borilgan tadqiqotlarda OSCh ni qayta ishlash orqali sanitar xavfsizligini taʼminlash va undan agroekologik maqsadlarda foydalanish mumkinligi qayd etilgan. Yevropa tadqiqotlarida kislotalar bilan ishlov berish OSCh dagi patogen mikroorganizmlarni yoʻq qilish bilan birga, fosforning oʻzlashuvchanligini taʼminlashi isbotlangan [5-6].

Organik moddalar, ayniqsa gumin va fulvo kislotalarning mineral komponentlar bilan oʻzaro taʼsiri organomineral oʻgʻitlar samaradorligini belgilab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Bu yoʻnalishdagi tadqiqotlarda gumin va fulvo kislotalarning Ca^{2+} , Fe^{3+} hamda fosfat ionlari bilan barqaror komplekslar hosil qilishi nazariy jihatdan asoslab berilgan. Ilmiy maqolalarda fulvo kislotalarning suvda yuqori eruvchanligi sababli suyuq oʻgʻitlar tarkibida tez taʼsir etuvchi komponent sifatida qoʻllanilishi, gumin kislotalarning esa qattiq fazada saqlanib, uzoq muddatli agrokimyoviy taʼsir koʻrsatishi taʼkidlanadi [7-8].

Soʻnggi tadqiqotlarda fosfat oʻgʻitlarini gumin moddalari bilan birgalikda qoʻllash fosforning tuproqda ballastlar hosil qilishini kamaytirishi va uning oʻsimlik tomonidan oʻzlashuvchanligini oshirishi isbotlangan. Tadqiqotlarda eʼlon qilingan ishlar fosfor–gumin komplekslarining oʻsimlik ildiz tizimi tomonidan yaxshiroq oʻzlashtirilishini koʻrsatadi. Bu esa fosforit va OSCh ni birgalikda qayta ishlash orqali yuqori samarali organomineral oʻgʻitlar olish imkoniyatini ilmiy jihatdan qoʻllab-quvvatlaydi [9-10].


Adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, fosforitlarni kislotalar bilan ishlov berish va OSCh ni oʻgʻit sifatida qoʻllash alohida yoʻnalishlar sifatida etarlicha oʻrganilgan. Biroq fosforit va OSCh ni birgalikda ishlov berish, keyinchalik ulardan suyuq va qattiq fazalarga ajratish hamda ulardan ikki xil tez taʼsir etuvchi suyuq va uzoq taʼsir etuvchi qattiq organomineral oʻgʻit olish masalasi adabiyotlarda kam yoritilgan. Shu jihatdan, mazkur tadqiqot mavjud ilmiy ishlanmalarni birlashtirilgan holda yangi texnologik yondashuvni taklif etishi bilan ajralib turadi va ilmiy yangilikka ega.

Metodika. Ushbu tadqiqotda organomineral

oʻgʻitlar olish imkoniyatlarini baholash maqsadida fosforit minerallashtirilgan massasi va kanalizatsiya chiqindilarini biokimyoviy tozalash stansiyalarida hosil boʻladigan oqova suvlar choʻkindilari (OSCh) boshlangʻich xom ashyo sifatida tanlandi. Tadqiqotda qoʻllanilgan fosforit xom ashyosi quyidagi tarkibga ega boʻldi (ogʻirlik boʻyicha, %): umumiy P_2O_5 -14,49; oʻzlashtiriluvchan P_2O_5 -1,61; CaO -43,81; MgO -1,17; Fe -1,24. OSCh tarkibi esa namlik - 64,12 %, kul - 10,14%, umumiy organik moddalar - 25,74%, gumin kislotalar - 3,12%, fulvo kislotalar-7,58%, suvda eruvchi organik moddalar - 2,27%, P_2O_5 -2,08%, umumiy azot - 1,85%, K_2O - 1,47 %, CaO - 4,79% ni tashkil qildi. Tajriba jarayonida fosforit va OSCh ogʻirlik nisbatlari 90:10, 80:20, 70:30, 60:40, 50:50, 40:60 va 30:70 boʻlgan aralashma namunalari tayyorlandi. Tayyorlangan har bir aralashmaga 30% li sulfat kislotasi bilan kimyoviy ishlov berildi, bunda kislotalar miqdori aralashma tarkibidagi fosforit xom ashyosida mavjud kalsiy oksidiga nisbatan stixiometrik hisob meʼyorida, yaʼni 50, 60, 70, 80 va 90 % miqdorlarda qoʻshildi. Ishlov berish natijasida hosil boʻlgan boʻtqa namunalari fizik-kimyoviy va tarkibiy oʻzgarishlar kuzatildi hamda ularning tarkibiy qismlari kompleks tahlil qilindi. Hosil boʻlgan boʻtqa namunalari sentrifuga yordamida suyuq va qattiq fazalarga ajratildi. Olingan har ikkala fazaning tarkibidagi umumiy P_2O_5 , organik moddalar, gumin va fulvo kislotalar miqdori standart kimyoviy tahlil usullari asosida oʻrganildi.

Olingan natijalar. 1 rasm maʼlumotlari tahliliga koʻra, nokonditsion fosforit va oqova suvlar choʻkindilari (OSCh) asosida olingan boʻtqa tarkibidagi fosfor besh oksidi (P_2O_5) miqdori ogʻirlik nisbati hamda sulfat kislotasi meʼyoriga sezilarli darajada bogʻliq ekanligini yaqqol koʻrsatadi. Bunda, sulfat kislotasi meʼyori ortishi bilan aralashmalarda P_2O_5 miqdori kamayib borganligi aniqlandi. Masalan, fosforit va OSCh 90:10 ogʻirlik nisbatida 50% kislotalar meʼyorida P_2O_5 miqdori 6,16% ni tashkil etgan boʻlsa, kislotalar meʼyori 60% gacha oshirilganda ushbu koʻrsatkich 5,57% gacha, 70% da 5,08% gacha, 80% da 4,67% gacha va 90% meʼyorida 4,32% gacha kamaygan. Bu holat fosforit va OSCh 80:20 va 70:30 nisbatlarda ham kuzatilib, 80:20 nisbatda P_2O_5 5,94% dan (50%) 4,23% gacha (90%) pasaygan, 70:30 nisbatda esa mos ravishda 5,68% dan 4,13%

gacha kamaygan. OSCh ulushi ortib borishi bilan bo'tqa tarkibidagi P_2O_5 umumiy miqdorining pasayishi kuzatildi. Masalan, fosforit va OSCh 60:40 nisbatda P_2O_5 50% kislota me'yorida 5,39% bo'lgan bo'lsa, fosforit va OSCh 50:50 nisbatda esa ushbu qiymatlar mos ravishda 5,06% ni tashkil etgan bo'lsa 30:70 nisbatda P_2O_5 miqdori 50% kislota me'yorida 4,19% bo'lib, 20:80 nisbatda qayd etilib, bu erda P_2O_5 3,63% gacha kamayganligi aniqlangan.




1-rasm. Nokonditsion fosforit va OSCh asosida olingan bo'tqa tarkibidagi fosfor besh oksidi o'zgarishining og'irlik nisbati va kislota meyoriga bog'liqligi (%).

Nokonditsion fosforit va oqova suvlar cho'kindilari asosida olingan bo'tqa tarkibidagi umumiy organik moddalar miqdori o'zgarishi og'irlik nisbati hamda sulfat kislotasi me'yoriga bog'liq bo'lib ekanligini aniq ko'rsatadi. Avvalo, fosforit ulushi yuqori bo'lgan aralashmalarda organik moddalar miqdori past qiymatlarda saqlanib qolgani kuzatiladi. Masalan, fosforit va OSCh 90:10 og'irlik nisbatida umumiy organik moddalar miqdori 50% kislota me'yorida 1,20% ni tashkil etgan bo'lsa, kislota me'yori 90% gacha oshirilganda ushbu ko'rsatkich 0,84% gacha pasaygan bo'lsa, fosforit va OSCh 80:20 nisbatda mos ravishda organik moddalar 2,55 % dan 1,81 % gacha kamaygan. Bu holat fosforit ulushi yuqori bo'lgan aralashmalarda organik moddalar asosan OSCh hisobiga kiritilishi va kislota me'yori oshishi bilan ularning umumiy miqdori kamayishi bilan izohlanadi.

OSCh ulushi ortib borishi bilan bo'tqa tarkibidagi umumiy organik moddalar miqdori keskin oshgani aniqlandi. Fosforit va OSCh 70:30 nisbatda organik moddalar 50% kislota me'yorida 4,08% ni tashkil etgan bo'lsa, 60:40 nisbatda ushbu

qiymat 5,83% gacha, 50:50 nisbatda esa 7,85% gacha etgan. Eng yuqori qiymatlar OSCh ulushi yuqori bo'lgan aralashmalarda kuzatilib, 40:60 nisbatda organik moddalar 10,22% ni, 30:70 nisbatda 13,03% ni va 20:80 nisbatda esa 16,40% ni tashkil etgan. Shu bilan birga, kislota me'yoringing oshishi barcha og'irlik nisbatlarida organik moddalar miqdorining ma'lum darajada kamayishiga olib kelgan. Masalan, fosforit va OSCh 50:50 nisbatda organik moddalar 50% kislota me'yorida 7,85% bo'lgan bo'lsa, 90% da 5,99% gacha pasaygan, 30:70 nisbatda esa ushbu qiymat 13,03% dan 10,66% gacha kamaygan.



2-rasm. Nokonditsion fosforit va OSCh asosida olingan suyuq organik mineral o'g'it tarkibidagi fosfor besh oksidi o'zgarishining og'irlik nisbati va kislota me'yoriga bog'liqligi (%).

1-jadval
Nokonditsion fosforit va OSCh asosida olingan suyuq organik mineral o'g'it tarkibidagi fosfor besh oksidi o'zgarishining og'irlik nisbati va kislota me'yoriga bog'liqligi (%)

Fosforit va OSCh og'irlik nisbati	Kislota me'yori				
	50	60	70	80	90
90:10	5,05	4,21	3,58	3,29	2,95
80:20	4,82	4,00	3,44	3,17	2,86
70:30	4,46	3,62	3,20	2,96	2,68
60:40	4,16	3,35	3,01	2,80	2,55
50:50	3,84	3,06	2,82	2,64	2,41
40:60	3,43	2,68	2,55	2,40	2,21
30:70	2,93	2,19	2,22	2,09	1,94
20:80	2,54	1,77	1,97	1,87	1,74

1-jadvalda keltirilgan natijalar nokonditsion fosforit va oqova suvlar cho'kindilari asosida tayyorlangan bo'tqani sentrifugalash orqali olingan suyuq organik-mineral o'g'it tarkibidagi fosfor besh oksidi (P_2O_5) miqdori og'irlik nisbati hamda sulfat kislotasi me'yoriga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Bunda fosforit ulushi yuqori bo'lgan aralashmalarda suyuq faza tarkibidagi P_2O_5 miqdori eng katta qiymatlarga ega ekani aniqlandi. Masalan, fosforit va OSCh 90:10 og'irlik nisbatida 50% kislota me'yorida P_2O_5 miqdori 5,05% ni tashkil etgan

bo'lsa, kislota me'yori 60% gacha oshirilganda 4,21% gacha, 70% da 3,58% gacha, 80% da 3,29% gacha va 90% da 2,95% gacha kamaygan. OSCh ulushi ortib borishi bilan suyuq o'g'it tarkibidagi P₂O₅ miqdorining pasayishi aniqlangan bo'lib, fosforit va OSCh 70:30 nisbatda P₂O₅ 50% kislota me'yorida 4,46% ni tashkil etgan bo'lsa, 90% da 2,68% gacha kamaygan, 50:50 nisbatda esa ushbu qiymatlar mos ravishda 3,84% va 2,41% ni tashkil etgan. Eng past qiymatlar OSCh ulushi yuqori bo'lgan 20:80 nisbatda kuzatilib, P₂O₅ miqdori 2,54% dan 1,74% gacha pasaygan.

2-jadval

Nokonditsion fosforit va OSCh asosida olingan suyuq organik mineral o'g'it tarkibidagi umumiy organik moddalar o'zgarishining og'irlik nisbati va kislota meyoriga bog'liqligi (%)

Fosforit va OSCh og'irlik nisbati	Kislota meyori				
	50	60	70	80	90
90:10	0,79	0,70	0,65	0,58	0,51
80:20	1,68	1,51	1,40	1,25	1,10
70:30	2,67	2,43	2,27	2,04	1,81
60:40	3,79	3,49	3,30	2,99	2,66
50:50	5,32	4,97	4,76	4,34	3,90
40:60	6,60	6,27	6,09	5,62	5,09
30:70	8,39	8,14	8,04	7,52	6,88
20:80	10,32	10,25	10,18	9,85	9,15

Nokonditsion fosforit va oqova suvlar cho'kindilari asosida olingan suyuq organik-mineral o'g'it tarkibidagi umumiy organik moddalar miqdori og'irlik nisbatining ta'siri bo'ladi, Bunda fosforit ulushi yuqori bo'lgan fosforit va OSCh 90:10 va 80:20 nisbatlarda organik moddalar miqdori 0,79–1,68% oralig'ida bo'lib, suyuq fazaning asosan mineral xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu holat fosforit tarkibida organik komponentlar deyarli mavjud emasligi va organik moddalarning manbai sifatida OSCh hisobidan ortishi bilan izohlanadi. OSCh ulushi bosqichma-bosqich oshirilishi natijasida (fosforit va OSCh -

70:30 → 20:80) suyuq faza tarkibida umumiy organik moddalar miqdori mos ravishda 2,67% dan 10,32% gacha o'sib, organik moddalar ortishini tasdiqlaydi. Yana bir muhim jihati kislota me'yoring ta'siri bilan bog'liq bo'lib, barcha og'irlik nisbatlarida sulfat kislotasi me'yori 50% dan 90% gacha oshirilganda organik moddalar miqdorining ma'lum darajada pasayishi kuzatiladi. Ayniqsa, OSCh ulushi yuqori bo'lgan fosforit va OSCh 40:60–20:80 og'irlik nisbatlarda organik moddalar miqdorining kamayishi kuzatilgan bo'lib (taxminan 10–12%), bu fulvo kislotalar va past molekulyar organik birikmalarning kislotali muhitda suyuq fazada barqaror saqlanish qobiliyatini ko'rsatadi.

Xulosa. Olingan natijalar fosforit ulushi yuqori bo'lgan aralashmalarda fosfor besh oksidi miqdorining yuqori, biroq organik moddalar ulushining past bo'lishini, OSCh ulushi oshirilishi esa organik moddalar, ayniqsa fulvo kislotalar miqdorining keskin ortishiga olib kelishini aniq ko'rsatdi. Sulfat kislotasi me'yoring 50–90% oralig'ida oshirilishi fosforit mineral fazalarining parchalanishini kuchaytirib, fosforning suyuq fazaga o'tishini hamda organik moddalarning bilan komplekslar hosil qilishiga sharoit yaratdi. Ajratilgan suyuq faza tarkibida fulvo kislotalarga boy, tez ta'sir etuvchi organik-mineral o'g'it, qattiq faza tarkibida esa gumin kislotalar ustun bo'lgan, uzoq ta'sir etuvchi o'g'it olish imkoniyati o'rganildi. Umuman olganda, fosforit va OSCh 60:40–40:60 og'irlik nisbatlari va 60–80% kislota me'yorlari fosfor va organik moddalarning miqdoriy va sifat jihatdan ta'minlab, ekologik xavfsiz, resurs tejamkor hamda ikki xil funksional o'g'it turlarini olishga qaratilgan texnologiya yaratish imkonini berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Гаспарян, И. Н., & Сорокин, К. Н. (2022). Проблемы производства гуминовых удобрений и их решения. *Агроинженерия*, 24(1), 23–27.
- [2] Роганов, В. Р., Касимова, Л. В., Телянова, А. В., & Елисеева, И. В. (2014). Исследование способов извлечения из низинного торфа гуминовых препаратов. *Современные проблемы науки и образования*, (6), 1411.
- [3] Вишнякова, А. А. (1986). Фосфорные удобрения из каратауских, гулиобских и других фосфоритов. Москва: Химия.
- [4] El-Banna, A. A., & Abd El-Rahman, S. H. (2018). Partial acidulation of phosphate rock and its agronomic effectiveness. *Journal of Plant Nutrition*, 41(12), 1547–1558.

- [5] Stevenson, F. J. (1994). Humic substances in soil, sediment, and water: Geochemistry, isolation, and characterization. New York: John Wiley & Sons.
- [6] Zhang, H., Wang, X., & Li, Y. (2023). The effective combination of humic acid and phosphate fertilizer on phosphorus availability and crop uptake. *Agronomy*, 13(6), Article 1581.
- [7] Kelessidis, A., & Stasinakis, A. S. (2012). Comparative study of the methods used for treatment and final disposal of sewage sludge in European countries. *Waste Management*, 32(6), 1186–1195.
- [8] Liu, R., & Zhao, D. (2019). Fulvic acid enhanced phosphorus availability and mobility in calcareous soils. *Soil Science Society of America Journal*, 83(2), 375–384.
- [9] Harrison, E. Z., Oakes, S. R., & Hysell, M. (2006). Organic chemicals in sewage sludges. *Science of the Total Environment*, 367(2–3), 481–497.
- [10] Rahman, M. M., & Tsukamoto, J. (2014). Chemical transformation of phosphorus during composting and acid treatment of organic wastes. *Bioresource Technology*, 168, 68–75. <https://doi.org/10.1016/j.biortech.2014.06.018>

UO‘K: 528:004.9:631.4

doi 10.70769/3030-3214.SRT.4.1.2026.24

GAT YORDAMIDA AGROEKOLOGIK MONITORING XARITALARINI TAKOMILLASHTIRISH



**Zuxurov Yigitali
Tog'ayevich**

Dotsent, Qarshi davlat texnika
universiteti, Qarshi, O'zbekiston
Science ID: FQD-0226-0058



**Aralov Muzaffar
Muxammadiyevich**

Dotsent, Qarshi davlat texnika
universiteti, Qarshi, O'zbekiston
E-mail: m.aralov87@mail.ru
ORCID ID: 0009-0002-6038-6817
Science ID: FQD-0925-0031



**Jabborova Roxat
Mannon qizi**

Magistrant, Qarshi davlat texnika
universiteti, Qarshi, O'zbekiston



**Umarova Maxfirat
Normuratovna**

Magistrant, Qarshi davlat texnika
universiteti, Qarshi, O'zbekiston

Annotatsiya. Mazkur maqolada geografik axborot tizimlari (GAT) asosida agroekologik monitoring xaritalarini takomillashtirish masalalari kompleks tarzda tahlil qilingan. Yer maydonlarining ekologik holatini baholash va monitoring qilishda raqamli kadastr kartalarini yaratish, ularning aniqligi, to'liqligi va topologik mosligi muhim omil sifatida ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda raqamli kartografiyaning metodologik asoslari, GAT texnologiyalarining imkoniyatlari hamda raqamlashtirish (digitalizatsiya) jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, metama'lumotlar tizimi, fazoviy ma'lumotlar sifati va ularning boshqarilishi agroekologik monitoring samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan. Olingan natijalar yer resurslaridan oqilona foydalanish, ekologik nazoratni kuchaytirish va zamonaviy raqamli kartografik mahsulotlar yaratishda qo'llanishi mumkin.

Kalit so'zlar: GAT, agroekologik monitoring, kadastr kartalari, raqamli kartografiya, yer maydonlari, topologiya, metama'lumotlar.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КАРТ АГРОЭКОЛОГИЧЕСКОГО МОНИТОРИНГА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ГИС

**Зухуров Йигитали
Тогаевич**

Доцент, Каршинский
государственный технический
университет, Карши,
Узбекистан

**Аралов Музаффар
Мухаммадиевич**

Доцент, Каршинский
государственный технический
университет, Карши,
Узбекистан

**Джаборова Рохат
Маннон кизи**

Магистрант, Каршинский
государственный технический
университет, Карши,
Узбекистан

**Умарова Махфират
Нормуратовна**

Магистрант, Каршинский
государственный технический
университет, Карши,
Узбекистан

Аннотация. В статье комплексно рассмотрены вопросы совершенствования карт агроэкологического мониторинга на основе геоинформационных систем (ГИС). Особое внимание уделено разработке цифровых кадастровых карт для оценки экологического состояния земельных участков, а также их точности, полноте и топологической согласованности. Освещены методологические основы цифровой картографии, возможности ГИС-технологий и процессы цифровизации картографической информации. Также обоснована важная роль метаданных, качества пространственных данных и их управления в повышении эффективности агроэкологического мониторинга. Полученные результаты могут быть использованы для рационального использования земельных ресурсов, усиления экологического контроля и создания современных цифровых картографических продуктов.

Ключевые слова: ГИС, агроэкологический мониторинг, кадастровые карты, цифровая картография, земельные участки, топология, метаданные.

IMPROVEMENT OF AGROECOLOGICAL MONITORING MAPS USING GIS

**Zukhurov Yigitali
Togayevich**

Docent, Karshi State Technical
University, Karshi, Uzbekistan

**Aralov Muzaffar
Mukhammadievich**

Docent, Karshi State Technical
University, Karshi, Uzbekistan

**Jaborova Rohat Mannon
kizi**

Master's student, Karshi State
Technical University, Karshi,
Uzbekistan

**Umarova Makhfirat
Normuratovna**

Master's student, Karshi State
Technical University, Karshi,
Uzbekistan

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of improving agroecological monitoring maps using Geographic Information Systems (GIS). Particular attention is paid to the development of digital cadastral maps for assessing the ecological condition of land plots, as well as their accuracy, completeness, and topological consistency. The methodological foundations of digital cartography, the capabilities of GIS technologies, and digitization processes are discussed. The study also highlights the important role of metadata, spatial data quality, and data management in enhancing the effectiveness of agroecological monitoring. The obtained results can be applied to rational land use, strengthening environmental control, and the development of modern digital cartographic products.

Keywords: GIS, agroecological monitoring, cadastral maps, digital cartography, land plots, topology, metadata.

Kirish. So‘nggi 5–10 yilliklarda geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalaridan foydalanish va ularni amaliyotga joriy etish turli sohalarda muhim ahamiyat kasb etib, zamonaviy axborot infratuzilmasining ajralmas qismiga aylangan. GAT texnologiyalarining rivojlanishi kartografiya fanining yangi bosqichga o‘tishiga sabab bo‘ldi. Jumladan, 1987-yilda Xalqaro kartografiya kengashi tomonidan elektron kartografiya va GAT elementlarini rivojlantirishga qaratilgan ikki ishchi guruh tashkil etilgan. Ushbu guruhlar faoliyati natijasida 1989-yilda kartografiya “geografik ma’lumotlar bazasini tashkil etishning grafik va raqamli shakli” sifatida talqin qilindi. Mazkur yondashuv axborotni yig‘ishdan boshlab uni qayta ishlash va taqdim etishgacha bo‘lgan barcha jarayonlarni qamrab oladi.

Shu bilan birga, ushbu yondashuv kartografiya mutaxassislari orasida muhokamalarga sabab bo‘lgan. Ko‘plab tadqiqotchilar kartografiyaning texnologik jihatlari hali to‘liq darajada informatikada asoslab berilmaganligini ta’kidlaydilar. Xususan, har qanday raqamli kartografik mahsulot ma’lum darajada xatolik bilan shakllanishi mumkin. Shu bois hozirgi kunda raqamli kartografiyaning asosiy vazifalaridan biri yuqori aniqlikdagi kartografik mahsulotlarni yaratishdan iborat. Natijada raqamli kartografiya an’anaviy qog‘oz kartografiyasining mantiqiy davomi sifatida

qaraladi.

Tadqiqot usullari. Mazkur tadqiqotda raqamli kartografiya va geografik axborot tizimlari (GAT) imkoniyatlarini tahlil qilish orqali agroekologik monitoring xaritalarini takomillashtirish usullari o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida kartografik ma’lumotlarning aniqligi va sifati GAT dasturiy paketlarining texnologik darajasi hamda ma’lumotlar bazasining to‘liqligiga bog‘liqligi asoslab berildi. Raqamli kartografiyada aniqlik tushunchasi, avvalo, kartografik ma’lumotlarni raqamli shaklga o‘tkazishda geometrik parameterlarning to‘g‘ri aks ettirilishi bilan izohlandi.

Shuningdek, axborot bilan ta’minlanganlik darajasi, ma’lumotlarni uzatish sifati va ichki strukturaning to‘g‘ri tashkil etilishi raqamli kartografik mahsulotlarning ishonchliligini belgilovchi asosiy omillar sifatida ko‘rib chiqildi. GAT tizimlarida kartografik modellashtirish ko‘p qatlamli vektor xaritalar asosida amalga oshirilib, bu qatlamlar o‘zaro topologik bog‘liqlikda ishlashi zarurligi ta’kidlandi.

Tadqiqotda GATning tematik kartografiyadagi metodologik va texnologik imkoniyatlari ham keng yoritildi. Xususan, kompyuter grafikasi asosida murakkab tematik xaritalarni avtomatlashtirilgan tarzda yaratish, kartografik ko‘rsatkichlar va shartli belgilarni generatsiya qilish imkoniyatlari tahlil qilindi. Bundan tashqari, GAT


texnologiyalarining yuqori samaradorligi ma'lumotlarni tezkor izlash, nazariy hisob-kitoblarni amalga oshirish hamda kartografik mahsulotlarni vizual rasmiylashtirish jarayonlarida namoyon bo'lishi asoslab berildi.

Muhokama. Ko'p o'lchovli parametrlar tushunchasi zamonaviy kartografiyada muhim o'rin tutib, uch, to'rt va besh o'lchamli fazoviy ma'lumotlarni ifodalash imkonini beradi. Hozirgi bosqichda elektron tematik kartalar multimedia elementlari, jumladan, tovush va video tasvirlar bilan boyitilib, foydalanuvchilarga kengaytirilgan interaktiv imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Tarixan ilk elektron tematik kartalar 1984–1986-yillarda Kanadada yaratilgan bo'lib, ular kartografik axborotni vizual va interaktiv shaklda taqdim etishning yangi bosqichini boshlab berdi.

Zamonaviy elektron kartalar bilan ishlash jarayonida foydalanuvchilar bir vaqtning o'zida bir nechta tematik xaritalarni turli shakllarda ko'rish, ularni tahrirlash yoki yangi kartalar yaratish, xaritalarni istalgan masshtabda ko'rib chiqish, obyektlarni ajratib ko'rsatish, geografik tanlashlar asosida tahlil qilish hamda modellashtirish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladi. Hozirgi vaqtda bunday kartalar Atlas*GIS kabi dasturiy paketlar yordamida yaratilmoqda.

GAT texnologiyalaridan foydalanishda dastlab operator monitor ekranida aks ettirilgan skanerlangan kartografik tasvir bilan ishlaydi. Ushbu tasvir keyinchalik raqamlashtirish jarayoniga jalb qilinadi. Raqamlashtirish (digitalizatsiya) – bu rastrli tasvirlarni vektorli ko'rinishga o'tkazish orqali raqamli kartalar va tematik qatlamlar yaratish jarayonidir. Mazkur jarayon davomida kartografik generalizatsiya ishlari ham bir vaqtda amalga oshiriladi.

GAT asosida kartalar yaratish texnologiyasi nafaqat tematik qatlamlarni shakllantirishni, balki ularni tahrirlash va boshqarishni ham o'z ichiga oladi. Kartografik qatlamlar shaffof varaqlar tizimi sifatida tasavvur qilinib, har bir qatlamda geografik asos elementlari — gidrografiya, aholi punktlari, ma'muriy chegaralar, yo'llar va boshqa obyektlar alohida aks ettiriladi. Shu bilan birga, xaritaning maxsus mazmuniy elementlari ham qo'shimcha qatlamlarda ifodalanadi. Ushbu qatlamlarning o'zaro ustma-ust joylashuvi natijasida yagona kartografik tasvir shakllanadi.




1-rasm. ArcGis dasturida yer maydonlarini agroekologik monitoring holatini ajratib ko'rsatilishi.

Qatlamlarni raqamlash ba'zi xususiyatlarga ega. Kartaning mazmunli elementlarini raqamlashda, har bir element ichidagi nim qatlamlarni farqlash zarur, ya'ni:

- yuza (maydon ko'rinishdagi obyektlar);
- yoy (yoy ko'rinishdagi obyektlar);
- nuqta (nuqtaviy obyektlar).

Raqamli karta - bu ma'lum ma'noda o'zaro bog'liq bo'lgan ma'lumotlarning tartibga tushgan to'plami bo'lib, yer yuzining qabul qilingan koordinatalar tizimidagi raqamli modelini ifodalaydi.



2-rasm. ArcMap dasturida yer maydonlarini agroekologik monitoring landshaft kartasini ko'rinishi.

Joy obyektlarining hamma zarur komponentlarini ifodalovchi axborotni talqin qilish, metrik va semantik ma'lumotlar to'plami raqamli karta sifatida qabul qilinishi uchun ular qator talablarga javob berishi kerak. Hozirgi paytda hatto Rossiyada

ham agroekologik raqamli kartasining sifatiga talablar qo'yadigan hech qanday standartlar yo'q. Raqamli topografik kartalar sifatiga talablar bor. Unda 1:10 000 va undan mayda masshtabli dastlabki kartografik materiallar asosida yaratiladigan raqamli kartalarga quyiladigan asosiy talablar keltirilgan.

Mazkur standartda topografik kartalar sifatiga, ya'ni raqamli kartaning to'liqligi, raqamli kartaning aniqligi, obyektlar va tavsifnomaning to'g'riligi, raqamli karta va unda keltirilgan obyektlarni kartografik tuzilishi mantiqan to'g'ri tanlangan bo'lishi kabi asosiy talablar berilgan.

Ushbu ko'rsatkichlarga birinchi navbatda kelishi zarur bo'lgan yana bir ko'rsatkichni-raqamli kartada mavjud bo'lgan, ma'lumotlarning metrik komponentini tashkil etadigan, vektor ma'lumotlarning topologik jihatdan mos kelishligini qo'shib quyish kerak.

Topologik jihatdan moslik - bu vektor ma'lumotlarning topologik xossalari quyilgan barcha talablarni qanoatlantirishidir. Topologik moslikning talablari raqamli karta tuzish uchun foydalanilgan ma'lumotlar turkumiga bog'liq ravishda o'zgarishi mumkin, ammo barcha holatlarda ular aniq ifodalangan bo'lishi shart. Barcha vektorli raqamli kartalar uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan vektorli ma'lumotlarning topologik mosligiga quyidagi umumiy talablarni belgilash mumkin:

- maydonli obyektlar chegaralari yopilgan bo'lishi kerak, ya'ni konturning dastlabki nuqtasi koordinatalari oxirgi nuqta koordinatalari bilan bir xil bo'lishi kerak;

- chiziqli obyektlarning uzilishiga yo'l quyilishi mumkin emas;

- agar ma'lumotlarni topologik vektorli modeli ishlatilayotgan bo'lsa, yana yuqoridagi talablarga quyidagilarni qushish lozim:

- konturli obyektlar chegarasi sifatida ishlatiladigan chiziqlar kesishish joyida tugunlar hosil bo'lishi, chiziqlar esa alohida konturli elementlariga bo'lingan bo'lishi kerak.

Raqamli kartaning to'liqligi quyidagi ko'rsatkichlar bilan belgilanadi: raqamli kartaning pasportini bo'lishi, uni tuldishini to'liqligi va to'g'riligi, obyekt tarkibi va tasnifining to'liqligi va boshqalar.

Raqamli karta pasporti - bu kartaning umumiy

tavsifi haqidagi ma'lumotlar tuplami (metama'lumotlar). Elektron kartalar metama'lumotlari - bu elektron kartaning mazmuni, hajmi, ma'lumotlari fazoviy joylashishi, sifati, aniqligi, to'liqligi, ishonchligi, zamonaviyligi va boshqa tavsifnomasini ifodalovchi ma'lumotlar, shuningdek, elektron kartalarni tuzish yoki uni yangilashda qo'llaniladigan geodezik, gravimetrik, fotogrammetrik va kartografik ma'lumotlar hamda elektron kartalardan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlardir.

Ushbu standartlarga mos ravishda metama'lumotlar fazoviy ma'lumotlarning nihoyatda to'la umumiy tavsifnomasiga ega bo'lishi kerak va quyidagi axborotlarni o'z ichiga olmog'i lozim:

- metama'lumotlarni bergan tashkilot;

- raqamli kartani tayyorlagan tashkilot;

- ma'lumotlar sifati, aniqligi, to'liqligi, generalizatsiya mezonlari;

- mahsulot turi izoxlangan matn;

- manbalarni, dastlabki ma'lumotlarni to'plash usuli;

- koordinatalar tizimi, kartografik proeksiya va ellipsoid;

- kartaga olinayotgan hudud haqida ma'lumotlar va boshqalar.

Shuni aytib o'tish joizki, mazkur standart metama'lumotlar mazmuniga umumiy talablarni qo'yadi, lekin raqamli kartalar pasporti mazmuni mukammal holatda qandaydir me'yoriy hujjatlar bilan cheklanmagan.

Raqamli karta tarkibining obyektiv to'liqligi - bu joydagi real borliqqa mos ravishda hamma talab etilgan qoidalarga mos holda kartaga olinayotgan obyektlarning tasnifi bo'yicha raqamli kartada tasvirlanishidir. Obyektlar uchun klassifikatorlar talablariga mos ravishda qiymatlar keltirilgan bo'lishi lozim.

Raqamli kartaning aniqligi - uning metrik axborotlarda obyektlar konturlari nuqtalari koordinatalarining aniqligi bilan ifodalanadi. Me'yoriy texnik hujjatlar talablarida aniqlik ko'rsatkichi sifatida obyektlar konturlari nuqtalari koordinatalari ularga yaqin joylashgan nuqtalarga nisbatan planli o'rning o'rta kvadratik xatoligi qiymati orasidagi farq olingan. Hozirgi paytda amaldagi me'yoriy texnik hujjatlar ruxsat etilgan o'rta kvadratik xatoni 0,5 mm deb belgilagan. Obyektlar identifikatsiyasi va tavsiflarning

to'g'riligi - bu raqamli karta tuzilishida klassifikatorga mos ravishda obyektlar identifikatsiyasi, kodi va tavsifnomasining to'g'riligidir.

Raqamli kartaning tarkibi va undagi obyektlarni ifodalashning mantiqiy muvofiqligi - bu ma'lumotlar uchun foydalanilgan mantiqiy modellar va formatlarning talablarni qanoatlantirishidir. Agar gap mahsulotni iste'molchiga uzatish haqida ketayotgan bo'lsa, unda bunga ma'lumotlarni almashishni ham kiritish zarur, bu ko'rsatkich yana ma'lumotlar yaxlit yoki bir-biriga zid emasligini bildiradi. Bu juda muhim ko'rsatkich

(lekin unga ko'p hollarda e'tibor berilmaydi), ma'lumotlar yaxlitligi (bir butunligi) xatolikni aniqlaydi, lekin u ko'p hollarda sermehnat va mashaqqatli jarayon hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, raqamli karta uchun barcha grafikli obyektlarga berilgan tuzatma obyektlar jadvalida keltirilgan bo'lishi lozim. Agar obyekt tavsifga ega bo'lsa, grafikli obyekt atributlari shu jadvalda yozilgan bo'lishi kerak. Boshqa tomondan atributlar jadvalidagi muayyan yozuv faqat bittagina grafikli obyekt bilan bog'langan bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Longley, P. A., Goodchild, M. F., Maguire, D. J., & Rhind, D. W. (2015). *Geographic information science and systems* (4th ed.). Wiley.
- [2] Burrough, P. A., McDonnell, R. A., & Lloyd, C. D. (2015). *Principles of geographical information systems* (3rd ed.). Oxford University Press.
- [3] Foody, G. M. (2002). Status of land cover classification accuracy assessment. *Remote Sensing of Environment*, 80(1), 185–201. [https://doi.org/10.1016/S0034-4257\(01\)00295-4](https://doi.org/10.1016/S0034-4257(01)00295-4)
- [4] Weng, Q. (2010). *Remote sensing and GIS integration: Theories, methods, and applications*. McGraw-Hill.
- [5] Goodchild, M. F. (2007). Citizens as sensors: The world of volunteered geography. *GeoJournal*, 69(4), 211–221. <https://doi.org/10.1007/s10708-007-9111-y>
- [6] ESRI. (2020). *GIS fundamentals: A first text on geographic information systems*. ESRI Press.
- [7] DeMers, M. N. (2009). *Fundamentals of geographic information systems* (4th ed.). Wiley.
- [8] Аликулов, Ф., & Аралов, М. (2022). Рельефнинг рақамли моделларини учувчисиз ўқиш аппаратлари ёрдамида яратиш. *Innovatsion Texnologiyalar*, 1(4), 131–134. <https://ojs.qmii.uz/index.php/it/article/view/127>
- [9] Zukhurov, Y., & Nomdorov, R. (2024). Dolzarb issues affecting the mining process in Teraqoton mine. *Universum: технические науки*, 8(5), 31–34.
- [10] Nomdorov, R. U., Zukhurov, Y. T., & Islomov, M. A. (2024). Current issues affecting the mineral extraction process at the Tyubegatan mine. *Sanoatda raqamli texnologiyalar / Цифровые технологии в промышленности*, 2(4), 70–73.
- [11] Aralov, M. M. (2024). Bo'lajak muhandislarning grafik tayyorgarligini rivojlantirishda pedagogik sharoitlar va o'quv-uslubiy ta'minot. *Research and Education*, 3(10), 71–75.

UO‘K: 676.017:620.186

doi 10.70769/3030-3214.SRT.4.1.2026.26

PLANETAR-VALIKLI EKSTRUZIYA USULI BILAN QAYTA ISHLANGAN
YOVOYI ARPA SELLYULOZASINING MORFOLOGIK VA
MIKROSTRUKTURA XUSUSIYATLARINI SEM TAHLILI



**Qarshiyev Nurali
Xoliqulovich**

Asiscent, Denov tadbirkorlik va
pedagogika instituti, Denov,
O‘zbekiston
E-mail:
qarshiyevnurali0@gmail.com
ORCID ID: 0009-0007-2615-4816
Science ID: MSD-0525-0032



**Khusenov Arslonnazar
Shernazarovich**

Kafedra mudir, Toshkent kimyo-
texnologiya instituti, Toshkent,
O‘zbekiston
E-mail: syk@tkti.uz
ORCID ID: 0009-0000-3305-1355
Science ID: PQD-0825-0004



**Eshqurbonov Furqat
Bozorovich**

Professor, Termiz davlat
muhandislik va agrotexnologiyalar
universiteti, Termiz, O‘zbekiston
E-mail: furqat-8484@mail.ru
ORCID ID: 0000-0002-3182-9407
Science ID: DSD-0225-0001



**Abdullayeva Rayxona
Ilhom qizi**

Talaba, Termiz davlat muhandislik
va agrotexnologiyalar universiteti,
Termiz, O‘zbekiston
E-mail: rayxona8306@gmail.com
ORCID ID: 0009-0006-2562-3687
Science ID: BSD-0226-0011

Annotatsiya. Ushbu maqolada noan'anaviy xomashyo manbai - yovvoyi arpa (*Hordeum murinum*) o'simligi poyasidan sellyuloza ajratib olish jarayoni va olingan mahsulotning xususiyatlari tadqiq etilgan. Olingan sellyulozaning strukturaviy va morfologik xususiyatlari IQ-spektroskopiya (FTIR) hamda skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM) usullari yordamida o'rganildi. Tadqiqotning o'ziga xosligi shundaki, olingan namunaning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari an'anaviy paxta va zig'ir sellyulozalari bilan qiyosiy tahlil qilindi. IQ-spektrlar tahlili namunalar o'rtasida funksional guruhlarning o'xshashligini tasdiqladi, SEM tasvirlari esa yovvoyi arpa sellyulozasining o'ziga xos tola tuzilishi va mikromorfologiyasini namoyon etdi. Olingan natijalar Yovvoyi arpa sellyulozasining sifat ko'rsatkichlari bo'yicha an'anaviy xomashyolarga yaqinligini va undan olingan polimer kompozitlari samarali to'ldiruvchi sifatida foydalanish imkoniyatini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: Yovvoyi arpa, paxta sellyulozasi, zig'ir sellyulozasi, qiyosiy tahlil, IQ-spektroskopiya, SEM-analiz, morfologiya, polimer kompozitlar.

АНАЛИЗ МОРФОЛОГИЧЕСКИХ И МИКРОСТРУКТУРНЫХ СВОЙСТВ
ЦЕЛЛЮЛОЗЫ ДИКОРАСТУЩЕГО ЯЧМЕНЯ, ПЕРЕРАБОТАННОЙ
МЕТОДОМ ПЛАНЕТАРНО-ВАЛИКОВОЙ ЭКСТРУЗИИ, С ПОМОЩЬЮ
СЭМ

**Каршиев Нурали
Холикулович**

Ассисент, Денауский институт
предпринимательства и
педагогика, Денау, Узбекистан

**Хусенов Арслонназар
Шерназарович**

Заведующий кафедрой,
Ташкентский химико-
технологический институт,
Ташкент, Узбекистан

**Эшкурбонев Фуркат
Бозорович**

Профессор, Термезский
государственный университет
инженерии и агротехнологий,
Термез, Узбекистан

**Абдуллаева Райхона
Ильхом кизи**

Студентка, Термезский
государственный университет
инженерии и агротехнологий,
Термез, Узбекистан

Аннотация. В данной статье исследован процесс выделения целлюлозы из стеблей дикого ячменя (*Hordeum murinum*), нетрадиционного источника сырья, а также изучены свойства полученного продукта. Структурные и морфологические характеристики полученной целлюлозы исследованы методами ИК-спектроскопии (FTIR) и сканирующей электронной микроскопии

(СЭМ). Особенность исследования заключается в сравнительном анализе физико-химических показателей полученного образца с показателями традиционной хлопковой и льняной целлюлозы. Анализ ИК-спектров подтвердил сходство функциональных групп образцов, а изображения СЭМ продемонстрировали характерную волокнистую структуру и микроморфологию целлюлозы дикого ячменя. Полученные результаты показали, что целлюлоза из дикого ячменя по качественным показателям близка к традиционному сырью и может быть использована в качестве эффективного наполнителя для полимерных композитов.

Ключевые слова: Дикий ячмень, хлопковая целлюлоза, льняная целлюлоза, сравнительный анализ, ИК-спектроскопия, СЭМ-анализ, морфология, полимерные композиты.

SEM ANALYSIS OF THE MORPHOLOGICAL AND MICROSTRUCTURAL PROPERTIES OF WILD BARLEY CELLULOSE PROCESSED BY THE PLANETARY-ROLLER EXTRUSION METHOD

**Karshiev Nurali
Khalikulovich**

Assistant, Denau Institute of
Entrepreneurship and Pedagogy,
Denau, Uzbekistan

**Khusenov Arslonnazar
Shernazarovich**

Head of Department, Tashkent
Chemical-Technological Institute,
Tashkent, Uzbekistan

**Eshkurbanov Furkat
Bazarovich**

Professor, Termez State University
of Engineering and
Agrotechnologies, Termez,
Uzbekistan

**Abdullaeva Raykhon
Ilkhom kizi**

Student, Termez State University of
Engineering and Agrotechnologies,
Termez, Uzbekistan

Abstract. This article investigates the process of extracting cellulose from the stem of a non-traditional raw material source - wild barley (*Hordeum murinum*) - and examines the properties of the resulting product. The structural and morphological properties of the extracted cellulose were studied using Fourier-transform infrared (FTIR) spectroscopy and scanning electron microscopy (SEM). A unique aspect of this research is the comparative analysis of the physicochemical indicators of the obtained sample against those of traditional cotton and flax celluloses. Analysis of the FTIR spectra confirmed the similarity of functional groups among the samples, while SEM images revealed the distinct fiber structure and micromorphology of wild barley cellulose. The results indicate that the quality indicators of wild barley cellulose are comparable to those of traditional raw materials, demonstrating its potential for use as an effective filler in polymer composites.

Keywords: Wild barley, cotton cellulose, flax cellulose, comparative analysis, FTIR spectroscopy, SEM analysis, morphology, polymer composites.

Kirish. Bugungi kunda o'rmonlarning kesilishi dunyoning asosiy global ekologik muammolaridan biri sanaladi. Shu sababli, tarkibida selluloza mavjud bo'lgan, yog'ochdan olinmagan xomashyolardan foydalanish tendensiyasi yuzaga kelmoqda. Buni sholi va bug'doy somoni, qishloq xo'jaligi chiqindilari, g'ozapoya, zig'ir va makkajo'xori poyalari kabi noan'anaviy manbalardan selluloza olish usullarini ishlab chiqishga bag'ishlangan ko'plab ilmiy nashrlar ham tasdiqlaydi [1].

Jahon amaliyotida o'simlik xomashyosining barcha turlaridan selluloza ishlab chiqarishda sulfat (natriy gidroksid va natriy sulfid) hamda sulfit usullari eng keng tarqalgan texnologiyalar hisoblanadi [2]. Biroq, hozirda ishlab chiqarishda

tarkibida oltingugurt bo'lgan birikmalar va faol xlardan foydalanish ekologik jihatdan nomaqbul deb topilmoqda.

Ko'plab mualliflarning asarlarida o'simlik xomashyosini delignifikatsiyalashning turli muqobil usullari taklif etilgan. Delignifikatsiyalashning zamonaviy texnologiyalari quyidagi yo'nalishlarda rivojlanmoqda: birinchidan, an'anaviy reagentlarni ekologik xavfsiz moddalar bilan almashtirish; ikkinchidan, reagentli usullarni fizikaviy yoki fizik-kimyoviy usullar bilan almash-tirish; uchinchidan, avvalgi ikki yondashuvni birgalikda qo'llash.

Mualliflarning ushbu [3] ishda vodorod peroksidi yordamida 100°C ga yaqin haroratda, sulfat katalizatori ishtirokida terakning oksidlovchi

delignifikatsiya jarayoni o'rganilgan. Bu usul bilan mikrokristallik sellyuloza olishning prinsipial imkoniyati ko'rsatilgan. Xuddi shu usul bug'doy somonidan oziq-ovqat tolalarini olish uchun ham tavsiya etilgan. Etanol-suv-sirka kislotasi tizimida ignabargli va keng bargli daraxtlar yog'ochining organosolvat delignifikatsiyasi va tolali yarim tayyor mahsulotlar olish ushbu [4] ishda tadqiq qilingan. Ushbu ish mualliflari bug'doy somonini delignifikatsiya qilish jarayoniga mexanik-kimyoviy faollashtirish usulini taklif qilishgan. Bu usul dastlab ultratovush bilan ishlov berish va rotor-impulsi qurilmada emulsiyalashni o'z ichiga oladi. Shunday yo'l bilan tayyorlangan lignotsellyuloza preparatlari glyukoza-pentoza gidrolizatini olish uchun istiqbolli substratlar hisoblanadi.

Ignabargli va yaproqli daraxtlar hamda paxta bilan bir qatorda, o'tsimon bir yillik o'simliklar ham sellyuloza ishlab chiqarish uchun muhim xomashyo manbai hisoblanadi. O'tsimon o'simliklar - lub, boshqoqli, butgulli, qamishli va qo'ng'irboshli ekinlar yuqori hosildorligi va keng hududlarda etishtirilish imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Ular Rossiya Federatsiyasining va O'zbekiston Respublikasining [5-7] ko'plab hududlarida o'stiriladi va ekilgandan bir necha oy o'tgach, texnologik foydalanishga tayyor bo'ladi [8].

Umuman olganda, butun dunyo bo'yicha o'tsimon o'simliklar qog'oz va karton ishlab chiqarish uchun xomashyoning oz qismini tashkil etadi. Biroq, ba'zi mamlakatlarda sellyuloza tolasi-ning 60% ga yaqini ko'p yillik va bir yillik o'tsimon o'simliklardan, jumladan sholi poyasi, bambuk, kanop, qamish, o't, jut, zig'ir, sizal va boshqalardan olinadi. Ayniqsa, Xitoy va Hindistonda sellyuloza sanoatida ishlatiladigan xomashyoning 70% o'tsimon o'simliklar, shu jumladan, boshqoqli o'simliklardan olinadi va bu ikki mamlakatga jami o'tsimon o'simliklar sellyulozasi ishlab chiqarishning 80% to'g'ri keladi. Rossiyada boshqoqli va donli ekinlarning somon to'plash miqdori yiliga 80-100 million tonnani tashkil etadi [9]. Bunda, odatda, ortiqcha somon maqsadli ishlatilmaydi va dalalarda yoqiladi yoki yerga qo'shib haydaladi. Somonni yoqib yuborish tuproqdagi ekologik muvozanatni buzadigan jarayondir, chunki mikroflora nobud bo'ladi va tuproq uzoq vaqt davomida o'ziga xos bo'lgan mikrobiotsenozni, ya'ni unumdorligini yo'qotadi.

Sellyuloza ishlab chiqarishda o'zining shakli va o'lchamlari bilan bargli daraxt turlarining libriform tolalariga o'xshash bo'lgan lub tolalari eng qimmatli hisoblanadi. Xususan, somon lub tolalarining o'rtacha uzunligi 1-1,5 mmni, uzunligining kengligiga nisbati esa o'rtacha 50-100:1 oralig'ini tashkil etadi [10].

Somonni qayta ishlashda qo'llaniladigan pishirish qurilmalari uzluksiz va davriy ishlaydigan turlarga bo'linadi. Xususan, davriy usul yordamida somon va qamishdan natron hamda sulfat usulida pishirish jarayonini amalga oshirishda, asosan, hajmi 10-60 m³ bo'lgan sharsimon pishirish qozonlaridan foydalaniladi. Somonni uzluksiz texnologiya asosida qayta ishlashda esa turli xil konstruksiyadagi qurilmalar ishlatiladi. Ular orasida eng ko'p tarqalgani - pishirish qozonlari soni ikkitadan oltitagacha bo'lgan Pandiya (Pandia) turidagi uzluksiz ishlovchi qurilmalardir.

Materiallar va tadqiqot usullar. Tadqiqot obekti sifatida Surxondaryo viloyati hududidan yig'ib olingan yovvoyi arpa (*Hordeum murinum*) o'simligining poyalari tanlab olindi. Xomashyo yot jinslardan tozalandi, quyosh nuridan himoyalangan sharoitda quritildi va laboratoriya tegirmonida namunalari 1-3 mm o'lchamgacha maydalandi. Qiyosiy tahlil uchun standart sifatida sanoatda ishlab chiqarilgan paxta sellyulozasi (GOST 595-79) va zig'ir sellyulozasidan foydalanildi.

Sellyulozaning mikroskopik tadqiqotlari MIKROMED 1 (3 LED) mikroskopi orqali amalga oshirildi.

Tadqiqotda yovvoyi arpa somonidan sellyuloza ajratib olish jarayoni 2,0-3,5 massa, % konsentratsiyali ishqor eritmasida, 1:10 gidromodulda, tarkibida 0,2 massa, % vodorod peroksid hamda 0,3 massa, % sirt-faol modda (Sintanol ALM-10) saqlagan muhitda olib borildi. Pishirish jarayoni 93°C haroratda 80-110 daqiqa davomida amalga oshirilib, tizimning reaksiya qobiliyatini oshirish maqsadida ishlov boshlanganidan 25 daqiqa o'tgach termo-fizik-kimyoviy faollashtirish bosqichi kiritildi. Termo-fizik-kimyoviy faollashtirish jarayoni bir necha usulda, jumladan, pishirish eritmasini sellyuloza tarkibli aralashma bilan birgalikda I/100-6/4 qurilmasida 8 daqiqa davomida ultratovush ta'sirida qayta ishlash hamda namligi 85-92% bo'lgan materialni metall taglik va siquvchi valdan tashkil topgan valli tekislagichda mexanik

destruksiyalash orqali bajarildi. Termo-fizik-kimyoviy faollashtirish qurilmasi sifatida planetar-valikli ekstruder qo'llanilganda, dastlabki ishqoriy ishlovdan o'tgan (4% NaOH, 0,2% H₂O₂, 0,2% Sintanol ALM-10, τ=80 daqiqa, T=85-90°C) va me'yoriy namlikkacha siqilgan selluloza tarkibli aralashma ekstruderning ishchi zonasiga yo'naltirildi. Planetar-valikli ekstruder qurilmasi uch fazali tok dvigateli va ponasimon tasmali reduktor tizimi orqali harakatga keltirilib, uning markaziy shnegi 1 tadan 8 tagacha modulli zonalarni o'z ichiga oladi. Har bir ishchi zona 4 tadan 8 tagacha yo'ldosh valiklar (satellitlar) bilan jihozlangan bo'lib, bu konstruksiya materialga kuchli mexanik va gidrodinamik kuchlanishlar berish orqali sellulozaning yuqori disperslikdagi strukturasi shakllantirishga xizmat qiladi.



1-rasm. Taklif etilgan texnologiyaga ko'ra ishlov berilgandan so'ng selluloza tarkibli materiallar, bunda termo-fizik-kimyoviy faollashtirish qurilmasi sifatida planetar-valikli ekstruder qo'llanilgan:

a - paxta; b - zig'ir; v - beda; g - yovvoyi arpa.

Termo-fizik-kimyoviy faollashtirish sharoitidagi natronli pishirish jarayoni yakunlangach, olingan selluloza massasi press-filtrlash usuli yordamida muhitning vodorod ko'rsatkichi (pH) neytral holatga kelguncha yuvildi. Namunalar ochiq havoda yoki quritish shkafida qoldiq namlik miqdori 3-8% bo'lgunga qadar quritilib, MOLOT 200/400/800 bolg'ali maydalagichda dispers holatga keltirildi va ularning fizik-kimyoviy xususiyatlari tadqiq etildi. Qiyosiy tahlil uchun qo'llanilgan zig'ir va paxta tolalariga ishlov berish jarayoni somon namunalariga o'xshash texnologik siklda amalga oshirildi. Bunda dastlabki xomashyoga boshlang'ich ishlov berish (zig'ir tolasi uchun ishqoriy, paxta tolasi uchun suvli-gidrolitik), so'ng-planetar-valikli ekstruderda ekstruzion destruksiyalash, yuvish (paxta sellulozasidan tashqari), quritish va maydalash bosqichlari bajarildi. Taklif etilgan usul yordamida olingan selluloza tarkibli aralashma, bunda termo-fizik-kimyoviy faol-

lashtirish qurilmasi sifatida planetar-valikli ekstruder ishlatilgan, 1-rasmda ko'rsatilgan.

Ekstruzion ishlov berishdan keyin olingan yovvoyi arpa selluloza massasi ikki usulning biridan foydalanib oqartirildi. Birinchi usul (peroksidli oqartirish) quyidagi sharoitlarda amalga oshirildi: 2% H₂O₂, 0,3% NaOH, τ=55 minut, T=85°C, gidromodul 1:15 nisbatda. Bu jarayon dastlabki boyitishdan so'ng o'tkazildi, uning sharoitlari: 2% NaOH, τ=110 minut, T=95°C, gidromodul 1:15 nisbatda. Ikkinchi usul (peroksid-molibdatli oqartirish) ikki bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda selluloza massasi 2% (NH₄)₂MoO₄, 3% H₂O₂, 1% H₂SO₄ aralashmasi bilan 110 minut davomida 85°C haroratda, 1:10 gidromodulida ishlov berildi va keyin yuvildi. Ikkinchi bosqichda esa yuvilgan selluloza massasi 2% H₂O₂, 0,3% NaOH aralashmasi bilan 1:15 gidromodulida 55 minut davomida 85°C haroratda ishlov berildi.

Oqartirishdan so'ng selluloza massasi neytral reaksiyaga erishguncha press-filtrlash orqali yuvildi, quritildi va maydalandi.

Natijalar va ularning tahlili. Sellulozani pishirish jarayoni ko'p bosqichli geterogen mexanizmga ega bo'lib, u pishirish eritmasining xomashyo yuzasiga diffuziyalanishi, ichki kapillyar qatlamlarga o'tishi, lignin va boshqa yo'ldosh komponentlarning gidrolitik parchalanishi hamda reaksiya mahsulotlarining eritmaga ekstraksiyalanishini o'z ichiga oladi. Adabiyot ma'lumotlariga ko'ra [11], reagentning sellulozaga diffuziyalanish (shimdirilish) tezligi butun jarayonni cheklovchi (limitlovchi) asosiy bosqich hisoblanadi.


Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pishirish, oqartirish va gidrolizlash bosqichlarida sellulozaga qo'shimcha mexanik ta'sir ko'rsatish selluloza ajratib olish jarayonlarini sezilarli darajada jadalashtiradi [12]. Mazkur ishda bir yillik o'simlik somonining delignifikatsiya bosqichini intensivlashtirish usullari taklif etilgan bo'lib, ular pishirish vaqtini qisqartirish bilan birga mahsulot sifatini yuqori darajada saqlash imkonini beradi.

Jarayon tezligini oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida pishirish eritmasiga ultratovush yordamida ishlov berish qo'llanildi. Suvli muhitda ultratovush ta'sirida yuzaga keladigan kavitatsiya hodisasi lokal yuqori harorat, bosim va kuchli siljish kuchlarini hosil qiladi. Ushbu fizik effektlar natijasida suyuqlikning turbulent oqimi massa

almashinuvi tezligini oshiradi, sellyuloza tolalarining fibrillanishiga va o'simlik hujayra devorlari yaxlitligining buzilishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida delignifikatsiya darajasini oshiradi.

Pishirish jarayonini jadallashtirishning samarali usullaridan yana biri, sellyuloza hujayra devorlariga destruktiv-mexanik ta'sir ko'rsatishdir. Xomashyoga harorat va kimyoviy reagentlar bilan bir vaqtda valikli ezgichda ishlov berilishi tola strukturasi bo'shashiga hamda uning solishtirma yuza maydonining kengayishiga olib keladi. Natijada, tola ichki qismidagi lignin-uglevod bog'lari orasida reagentlarning diffuziyalanish to'siqlari kamayadi va faol reaksiyon markazlarining kimyoviy reagentlar bilan o'zaro ta'sirlashish tezligi ortadi.

Keyinchalik sellyuloza tarkibli aralashmani natronli pishirish jarayonida turli faollashtirish usullaridan foydalanish samaradorligi qiyosiy baholandi. Tadqiqotda termo-fizik-kimyoviy faollashtirish qurilmalari sifatida I/100-6/4 ultratovush tizimi va maxsus valikli ezgich qurilmalaridan foydalanildi. Dastlabki tajribalar shuni ko'rsatdiki, sellyuloza tarkibli aralashmani 2,0-3,5 massa, % konsentratsiyali ishqor eritmasida (1:10 gidromodul, 0,2% H₂O₂ va 0,2% SFM qo'shimchalari bilan) 95°C haroratda 55-110 daqiqa davomida an'anaviy pishirish α -sellyuloza miqdorining oshishiga hamda smola va yog'simon moddalarning kamayishiga olib keladi. Kuzatishlar natijasida NaOH konsentratsiyasi va pishirish vaqtining ortishi sellyuloza ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Biroq, hatto 4% li ishqor eritmasida 110 daqiqa davomida pishirish jarayoni o'tkazilganda ham o'simlik poyasi strukturasi tub o'zgarishlar sodir bo'lmaydi.



2-rasm. Yovvoyi arpa poyasining mikroskopik fotosuratlari:

a – ishlov berilmagan; b – ishqorli pishirishdan keyin ($\tau=120$ daqiqa; 3% NaOH); v - Termo-fizik-kimyoviy faollashtirish bilan ultratovush qurilmasida ishqoriy pishirishdan keyin; g - ishqoriy pishirishdan keyin termo-fizik-kimyoviy faollashtirish bilan valikli maydalagichda.

Mikroskopik tahlillar shuni ko'rsatdiki, ushbu sharoitda sellyuloza tolalari lignosellyuloza komp-

leksidan to'liq ajralib chiqmaydi (2(b)-rasm), bu esa an'anaviy natronli pishirish usulining yuqori sifatli sellyuloza olishda samaradorligi pastligidan dalolat beradi.

Pishirish jarayonini termo-fizik-kimyoviy faollashtirish usullari (ultratovushli va valikli ishlov) bilan birgalikda olib borish natijasida lignin-gemitsellyuloza matritsasi sellyuloza tolalarining qisman ajralib chiqishi kuzatildi (2-rasm, v, g). Ishlov berilmagan namunalar silliq yuzaga ega bo'lsa-da, termo-fizik-kimyoviy faollashtirish qurilmalarida ishlov berilgandan so'ng o'simlik poyalari bo'laklari yuzasida alohida fibrillangan tolalarning paydo bo'lishi qayd etildi. Bu hodisa ultratovush kavitatsiyasi va mexanik deformatsion kuchlarning o'simlik hujayra devorlari yaxlitligini samarali buzishini tasdiqlaydi.

Yovvoyi arpa somonini ultratovush qurilmasida yoki valikli ekstruderda termo-fizik-kimyoviy faollashtirish bilan birgalikda ishqoriy pishirish nafaqat sellyulozaning tuzilishiga, balki uning fizik-kimyoviy xususiyatlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Termo-fizik-kimyoviy faollashtirish sharoitida o'tloq yovvoyi arpa somonini qaynatish termo-fizik-kimyoviy faollashtirish qo'llanilmagan holda natronli qaynatish natijasida olingan namunalar nisbatan α -sellyuloza miqdorining oshishiga, lignin, smola va yog'lar miqdorining kamayishiga olib keladi.

Shuni ta'kidlash joizki, yovvoyi arpa somonini termo-fizik-kimyoviy faollashtirish bilan ultratovush qurilmasida ishqoriy pishirish sellyulozadagi sellyuloza bo'lmagan komponentlarning yanada jadal kamayishiga yordam beradi. Olingan natija qaynatish eritmasi va undagi sellyulozaga ultratovushli ishlov berish jarayonida yuzaga keladigan kavitatsiyaning fizik va kimyoviy ta'siri bilan bog'liq. Fizik ta'sirlar (turbulentlik va suyuqlik aylanishi) massa almashinuvi tezligining sezilarli darajada oshishi natijasida sellyulozaning delignifikatsiyasiga yordam beradi.

Yovvoyi arpa somonidan tashqari, bir yillik o'simlik xom ashyosining boshqa turlari (zig'ir, kanop va amarant somoni) ham termo-fizik-kimyoviy faollashtirish sharoitida ishqoriy pishirishdan o'tkazildi. Barcha turdagi xom ashyolar uchun ijobiy ta'sir kuzatildi, bu sellyuloza xususiyatlarining yaxshilanishidan iborat edi.

Xulosa. SEM (skanerlovchi elektron mikros-


kopiya) tahlillari shuni tasdiqladiki, yovvoyi arpa somonini ultratovush yoki valikli ezgich yordamida termo-fizik-kimyoviy faollashtirish va natronli pishirish α -sellyuloza miqdorini oshirish hamda lignin va hamroh moddalarni samarali kamaytirish imkonini beradi. Biroq, mikroskopik tasvirlarda ko'rinishicha, ushbu usullar lignotsellyuloza matritsasidan tolalarni to'liq ajratish va o'simlik hujayra tuzilmasining yaxlitligini butunlay buzish uchun etarli emas. Tolalar yuzasida hali ham lignin qoldiqlari va zich bog'lamlar saqlanib qolganligi

kuzatildi. Shu sababli, xomashyoga yanada kuchliroq deformatsion va dispersiyalovchi ta'sir ko'rsatish, shuningdek, yuqori sifatli, toza selluloza tolalarini ajratib olish maqsadida, keyingi tadqiqotlarda termo-fizik-kimyoviy faollashtirish jarayonini planetar-valikli ekstruder asosida takomillashtirish maqsadga muvofiq deb topildi. Bu usul lignotsellyuloza kompleksini tubdan parchalash va tolalarning solishtirma sirt yuzasini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] Левданский, В. А., Левданский, А. В., & Кузнецова, Б. Н. (2014). Journal of Siberian Federal University. Chemistry, (1), 63–70.
- [2] Clark, M. (Ed.). (2011). Handbook of textile and industrial dyeing. Woodhead Publishing.
- [3] Кузнецов, Б. Н., Кузнецова, С. А., & Данилов, В. Г. (2007). Целлюлоза. Бумага. Картон, (12), 27–30.
- [4] Щербакова, Т. П., Удоратина, Е. В., Макарова, Е. И., & Будаева, В. В. (2013). Ползуновский вестник, (3), 224–229.
- [5] Mirobitov, M., Umarova, V. K., & Primkulov, M. T. (2024). Sholi sellulozasi va mikrokristallik sellulozasi xossalarini o'rganish. Farg'ona politexnika instituti ilmiy-texnika jurnali, (3), 139–146.
- [6] Primkulov, M. T., Baxtiyorov, Q., & Umarova, V. K. (2024). Qamish mikrokristall sellulozasi: olinishi, xossasi, strukturasi va kompozitsion pressmaterial olish. Research and Innovations, 2(3), 66–74.
- [7] Primkulov, M. T., Komilova, Sh. A., & Umarova, V. K. (2025). Bug'doy somonidan selluloza va mikrokristall selluloza olish. Tadqiqot va taraqqiyot jurnali, 2(3), 14–23.
- [8] Марченко, Г. Н., Нугманов, О. К., Шакиров, Р. И., & Дебердеев, Р. Я. (2017). Структурно-химические свойства целлюлозы и её аналогов. Казань: Печат-Сервис-XXI век.
- [9] Таранов, М. А. (2008). Возобновляемые энергоносители для автономного энергообеспечения. Механизация и электрификация сельского хозяйства, (8), 2–3.
- [10] Непенин, Н. Н., & Непенин, Ю. Н. (1994). Технология целлюлозы. Очистка, сушка и отбелка целлюлозы (Т. 3). Москва.
- [11] Пен, Р. З., Каретникова, Н. В., Вшивкова, И. А., & Шапиро, И. Л. (2015). Свойства пероксидной целлюлозы из однолетних растений. Химия растительного сырья, (2), 37–42.
- [12] Поконова, Ю. В. (2002). Сырьё и продукты промышленности органических и неорганических веществ. Санкт-Петербург: Мир и Семя, Профессионал.

UO‘K: 665.3:547.458

 10.70769/3030-3214.SRT.4.1.2026.27

KUNGABOQAR MUMINI AJRATIB OLIISH VA UNING FIZIK-KIMYOVIY XUSUSIYATLARINI O‘RGANISH



**Umirova Zilola Sherali
qizi**

Toshkent kimyo-texnologiya
instituti tayanch doktoranti,
Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: zumirova1@gmail.com
Science ID: MQD-0326-0005



**Axmedov Azimjon
Normo‘minovich**

Qarshi davlat texnika universiteti,
Oziq-ovqat mahsulotlari
texnologiyasi kafedrasini professori,
t.f.d., Qarshi, O‘zbekiston
E-mail: a.ahmedov80@mail.ru
ORCID ID: 0000-0002-8072-7458
Science ID: DQD-0326-0001



**Xakimova Zulfiyaxon
Azizovna**

Toshkent kimyo-texnologiya
instituti doktoranti, Toshkent,
O‘zbekiston
E-mail: xakimovazulfiyaxon@gmail.com
ORCID ID: 0000-0002-7674-0393
Science ID: FTN-0325-0044



**Ruzibayev Akbarali
Tursunboyevich**

Toshkent kimyo-texnologiya instituti,
Oziq-ovqat va parfyumeriya-
kosmetika mahsulotlari
texnologiyasi kafedrasini mudiri, t.f.n.,
professor, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: akbar240983@gmail.com
ORCID ID: 0000-0002-5369-7345
Science ID: FNM-0825-0011

Annotatsiya. Ushbu maqolada kungaboqar mumini ajratib olish va uning fizik-kimyoviy xususiyatlarini o‘rganish natijalari keltirilgan bo‘lib, unda kungaboqar mumi haqida umumiy ma‘lumotlar, ularning kimyoviy tarkiblari, mumlarni urug‘ va moyidan ajratib olish usullari hamda mumsimon modda va perlit aralashmasidan mumsimon moddani ajratishda osh tuzi eritmasining konsentratsiyasi va cho‘ktirish haroratining ta‘sirlari o‘rganilgan. Shuning bilan birgalikda, mumsimon moddalarni perlitdan ajratib olish, perlitni cho‘ktirish davomiyligini mumsimon moddaning chiqish unumiga ta‘siri, ishlatilgan perlitdan ajratib olingan mumsimon moddalarning fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari haqida batafsil ma‘lumotlar keltirilgan hamda kungaboqar moyidan mumsimon moddalarni ajratib olish uchun muzlatish usulidan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: moyli urug‘, kungaboqar, mum, mumsimon modda, fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlar, perlit va uning aralashmasi, kosmetika va farmatsevtika.

ВЫДЕЛЕНИЕ ПОДСОЛНЕЧНОГО ВОСКА И ИЗУЧЕНИЕ ЕГО ФИЗИКО- ХИМИЧЕСКИХ СВОЙСТВ

**Умирова Зилола
Шерали кизи**

Базовый докторант,
Ташкентский химико-
технологический институт,
Ташкент, Узбекистан

**Ахмедов Азимжон
Нормоминович**

Профессор, д.т.н., Каршинский
государственный технический
университет, Карши,
Узбекистан

**Хакимова Зулфияхон
Азизовна**

Докторант, Ташкентский
химико-технологический
институт, Ташкент,
Узбекистан

**Рузибаев Акбарали
Турсунбоевич**

Профессор, к.т.н., Ташкентский
химико-технологический
институт, Ташкент,
Узбекистан

Аннотация. В данной статье представлены результаты извлечения подсолнечного воска и изучения его физико-химических свойств, в которой представлены общие сведения о подсолнечном воске, их химический состав, методы извлечения восков из семян и масла, а также изучено влияние концентрации раствора поваренной соли и температуры осаждения при извлечении воскообразного вещества из смеси воскообразного вещества и перлита. Вместе с тем, приведены подробные сведения об извлечении воскообразных веществ из перлита, влиянии продолжительности осаждения перлита на выход воскообразного вещества, физико-химических показателей воскообразных веществ, извлеченных из использованного перлита, а также использован метод замораживания для извлечения воскообразных веществ из подсолнеч-

ного масла.

Ключевые слова: масличные семена, подсолнечник, воск, воскообразное вещество, физико-химические показатели, перлит и его смесь, косметика и фармацевтика.

ISOLATION OF SUNFLOWER WAX AND STUDY OF ITS PHYSICOCHEMICAL PROPERTIES

Umirova Zilola Sherali
kizi

Base doctoral student, Tashkent
Chemical-Technological Institute,
Tashkent, Uzbekistan

Akhmedov Azimjon
Normominovich

Professor, Doctor of Technical
Sciences, Karshi State Technical
University, Karshi, Uzbekistan

Hakimova Zulfiyahon
Azizovna

Doctoral student, Tashkent
Chemical-Technological Institute,
Tashkent, Uzbekistan

Ruzibayev Akbarali
Tursunboyevich

Professor, Candidate of Technical
Sciences, Tashkent Institute of
Chemical Technology, Tashkent,
Uzbekistan

Abstract. This article presents the results of the isolation of sunflower wax and the study of its physicochemical properties, which provides general information about sunflower wax, their chemical composition, methods of extracting waxes from seeds and oil, as well as the influence of the concentration of the table salt solution and the precipitation temperature on the separation of the waxy substance from a mixture of waxy substance and perlite. At the same time, detailed information is provided on the extraction of waxy substances from perlite, the influence of the duration of perlite precipitation on the yield of the waxy substance, the physicochemical indicators of the waxy substances extracted from the used perlite, and the freezing method was used to extract waxy substances from sunflower oil.

Keywords: oilseeds, sunflower, wax, waxy substance, physicochemical indicators, perlite and its mixture, cosmetics and pharmaceuticals.

Кирish. Mumlar xona haroratida egiluvchan qattiq lipofil organik moddalar bo'lib, ularga odatda taxminan 40° C dan yuqori haroratlarda eriydigan yuqori alkanlar va lipidlar kiradi, ular past qovushqoqlikdagi suyuqliklarni hosil qilish uchun eritiladi. Mumlar suvda erimaydi, lekin geksan, benzol va xloroform kabi qutbsiz organik erituvchilarda eriydi. Turli xil tabiiy mumlar o'simliklar va hayvonlarda shuningdek neftda uchraydi [1]. Oziq-ovqat sanoatida kungaboqar mumi qandolatchilik va yog' mahsulotlarida struktura hosil qiluvchi komponent sifatida ishlatiladi. U shokolad glazurlari, kremlar, pastalar va margarinlarda: kristall tuzilishni barqarorlashtiradi, yog'ning ajralib chiqishini kamaytiradi, erish haroratini oshiradi. Ayniqsa trans-yog' kislotalarisiz qattiq yog' tizimlarini yaratishda muhim. Bu jihatdan u European Food Safety Authority tomonidan xavfsiz deb baholangan o'simlik manbali mumlar qatoriga kiradi. Kosmetika va farmatsevtikada kungaboqar mumi lab bo'yoqlari, balzamlar, kremlar va emulsion mahsulotlarda: konsistensiya beruvchi, emulsiya barqarorlovchi, okklyuziv plyonka hosil qiluvchi modda sifatida ishlatiladi. U karnauba mumiga alternativa sifatida

qo'llanishi mumkin. Kosmetik standartlar bo'yicha u Cosmetic Ingredient Review tomonidan xavfsiz deb topilgan. Farmatsevtikada tabletka va kapsulalar uchun: nazoratli ajralib chiqish matritsalarini, sirt qoplama, gidrofob baryer sifatida ishlatiladi. U biologik inert va oksidlanishga chidamli. Polirovka va qoplamalarda kungaboqar mumi mebel, pol, qog'oz va oziq-ovqat qoplamalarida yaltiroqlik va suv o'tkazmaslik berish uchun ishlatiladi. Tabiiy va biodegradatsiyalanuvchi bo'lgani sababli sintetik parafinlarga nisbatan afzal. Yog'li emulsiyalar va oleogellar ishlab chiqarishda kungaboqar mumi: struktura hosil qiluvchi agent, gelator, reologik modifikatorsifatida qo'llaniladi. U suyuq o'simlik moylaridan qattiq, trans-yog'siz yog' tizimlarini yaratish imkonini beradi [2-4].

Kungaboqar mumi - bu **o'simliklikdan olinadigan mumsimon moddalar** bo'lib, asosan urug'da va uning ichidagi moyda tabiiy ravishda uchraydigan mayda molekulyar komplekslardir. Kimyoviy jihatdan, ushbu mumsimon moddalar uzun zanjirli yog' kislotalari va spirtlarning murakkab efirlaridan tashkil topgan. Mumlar **R-COO-R'** umumiy kimyoviy formula bilan ifodalanadi, bu yerda **R** - yog' kislota radikali zanjiri va

R' - spirt radikali zanjiri. Masalan, C₄₀–C₄₈ uglerod zanjirli efirlar kungaboqar mumining asosiy tarkibiy bo'g'ini bo'lib, ular yuqori og'irlik va yuqori erish harorati bilan ajralib turadi. Kimyoviy nuqtai nazardan qaralsa, **linol kislota (C_{18:2})** va **setil spirti (C₁₆H₃₃OH)** o'zaro eterifikatsiya reaksiyasiga kirishsa, natijada **setil linoleat (C₁₈H₃₁O₂–O–C₁₆H₃₃)** paydo bo'ladi. Bu - klassik mumsimon modda efirilariga misol bo'ladi. Bu molekulalarning zanjiri uzun bo'lgani sababli ularning **erish harorati baland (70–80 °C atrofida)** bo'lib, kungaboqar moyi sovutilganda kristallanadi va toza moyda xiralik paydo qiladi. Kungaboqar mumi tarkibida C₄₀–C₄₂ zanjirli molekulalarning massa ulushi yuqoriligi gaz xromatografiya (GC) usuli tahlil qilingan va isbotlangan [5].

Kungaboqar mumlarini urug'dan ajratib olishda asosan ekstraksiyalash usulidan foydalaniladi. Kungaboqar moyidan ajratib olishda esa ekstraksiyalash yoki sovutish usulidan foylanish mumkin.

Показано, что линейные полимеры (L-SCC) действуют преимущественно как эффективные пептизаторы, снижающие пластическую вязкость и предел текучести суспензии за счет образования плотных адсорбционных слоев.

Доказано, что разветвленные полимеры (B-SCC) формируют объемные адсорбционные слои, которые обеспечивают не только стерическую стабилизацию, но и индуцируют образование упругой пространственной сетки, существенно увеличивая модуль упругости системы и придавая ей свойства слабого геля.

Полученные результаты открывают путь к целенаправленному дизайну полимерных реагентов на основе целлюлозы, где выбор архитектуры позволяет программировать требуемые реологические свойства дисперсной системы – от улучшения текучести до создания выраженной тиксотропной структуры.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

- [1] Heinze, T., et al. (2018). Progress in the development of cellulose-based polyelectrolytes. *Progress in Polymer Science*, 83, 136–164.
- [2] Zhang, L., et al. (2019). Effects of degree of substitution on the adsorption and rheological properties of sodium cellulose sulfate. *Carbohydrate Polymers*, 203, 294–301.
- [3] Rubinstein, M., & Colby, R. H. (2003). *Polymer physics*. Oxford University Press.
- [4] Kawaguchi, M., & Takahashi, A. (1992). Polymer adsorption and dispersion stability. *Advances in Colloid and Interface Science*, 37, 219–317.
- [5] Gericke, M., et al. (2020). Tailoring the molecular and supramolecular architecture of cellulose. *Cellulose*, 27, 3629–3647.
- [6] ГОСТ 10585-2014. (2014). Хлопковая целлюлоза. Технические условия.
- [7] Podzimek, S. (2011). Light scattering, size exclusion chromatography and asymmetric flow field flow fractionation: Powerful tools for the characterization of polymers, proteins and nanoparticles. John Wiley & Sons.
- [8] ГОСТ 12.1.007-76. (1976). Система стандартов безопасности труда. Вредные вещества. Классификация и общие требования безопасности.
- [9] ГОСТ 25734-96. (1996). Продукты переработки целлюлозы. Методы определения степени замещения.
- [10] ГОСТ 28177-89. (1989). Порошки бентонитовые для буровых растворов. Технические условия.
- [11] Lagaly, G., Ogawa, M., & Dékány, I. (2013). Clay mineral-organic interactions. In F. Bergaya & G. Lagaly (Eds.), *Handbook of Clay Science* (2nd ed., Vol. 5A, pp. 435–505). Elsevier.
- [12] ГОСТ 32474-2013. (2013). Пластмассы. Определение средней молекулярной массы и молекулярно-массового распределения полимеров методами эксклюзионной хроматографии.
- [13] Plank, J., & Brand, F. A. (1993). Mechanism of pigment dispersion by polyelectrolytes. *Colloid and Polymer Science*, 271(1), 10–17.
- [14] ГОСТ Р ИСО 18115-1-2017. (2017). Анализ поверхности. Словарь. Часть 1. Общие термины и термины для спектроскопии поверхности.
- [15] Mezger, T. G. (2020). *The rheology handbook* (5th ed.). Vincentz Network.

UO‘K: 541:678.74:614.841

doi 10.70769/3030-3214.SRT.4.1.2026.29

STABILIZATOR VA TO‘LDIRUVCHILAR BILAN
MODIFIKATSIYALANGAN PVX ASOSIDA OLINGAN OLOVBARDOSH
MATERIALNING INFRAQIZIL (IQ) SPEKTROSKOPIK TAHLILI



Abdirashidov Durbek Abdirashid o'g'li

Qarshi davlat texnika universiteti, "Kimyo muhandisligi va biotexnologiyalar" kafedrası v.b. dotsenti, t.f.f.d. (PhD), Qarshi, O'zbekiston
E-mail: durbek.abdirashidov95@mail.ru
ORCID ID: 0009-0007-5863-8938
Science ID: FQD-0326-0032

Annotatsiya. Mazkur maqolada polivinilxlorid (PVX) asosida stabilizator va to'ldiruvchilar yordamida modifikatsiyalangan olovbardosh materialning fizik-kimyoviy xossalari o'rganildi. Tadqiqotda PVX, dioktilftalat (DOF), melamin sianurat (MCA) va talk asosida kompozit materiallar tayyorlanib, ularning tuzilishi infraqizil (IQ) spektroskopiya yordamida tahlil qilindi. Spektr natijalari orqali kompozitsiya tarkibidagi asosiy funksional guruhlar, jumladan C–H, C–Cl, C=O, N–H va Si–O bog'lanishlari aniqlanib, qo'shimchalarning material tarkibiga muvaffaqiyatli kiritilgani tasdiqlandi. Tadqiqot natijalari PVX asosidagi materiallarning olovbardoshligini oshirish, tutun ajralishini kamaytirish hamda mexanik xossalarni yaxshilash imkonini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: polivinilxlorid, DOF, melamin sianurat, talk, olovbardoshlik, IQ spektroskopiya, kompozit material, stabilizator, to'ldiruvchi.

ИНФРАКРАСНЫЙ (ИК) СПЕКТРОСКОПИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ
ОГНЕСТОЙКОГО МАТЕРИАЛА НА ОСНОВЕ ПВХ,
МОДИФИЦИРОВАННОГО СТАБИЛИЗАТОРАМИ И НАПОЛНИТЕЛЯМИ

Абдирашидов Дурбек Абдирашид угли

Каршинский государственный технический университет, кафедра «Химическая инженерия и биотехнологии», и.о. доцента, PhD,
Карши, Узбекистан

Аннотация. В данной статье исследованы физико-химические свойства огнестойкого материала на основе поливинилхлорида (ПВХ), модифицированного стабилизаторами и наполнителями. Композиционные материалы на основе ПВХ, диоктилфталата (ДОФ), цианурата меламин и талька были получены и проанализированы методом инфракрасной (ИК) спектроскопии. По результатам спектрального анализа установлено наличие функциональных групп C–H, C–Cl, C=O, N–H и Si–O, что подтверждает успешное введение добавок в структуру материала. Полученные результаты свидетельствуют о повышении огнестойкости, снижении дымообразования и улучшении механических свойств ПВХ-композиций.

Ключевые слова: поливинилхлорид, ДОФ, цианурат меламин, тальк, огнестойкость, ИК спектроскопия, композит, стабилизатор, наполнитель.

INFRARED (IR) SPECTROSCOPIC ANALYSIS OF A FLAME-RETARDANT MATERIAL BASED ON PVC MODIFIED WITH STABILIZERS AND FILLERS

Abdirashidov Durbek Abdirashidovich

Karshi State Technical University, Department of Chemical Engineering and Biotechnology, Acting Associate Professor, PhD, Karshi, Uzbekistan

Abstract. *This study investigates the physicochemical properties of a flame-retardant material based on polyvinyl chloride (PVC) modified with stabilizers and fillers. Composite materials consisting of PVC, dioctyl phthalate (DOF), melamine cyanurate (MCA), and talc were prepared and analyzed using infrared (IR) spectroscopy. The spectral analysis confirmed the presence of key functional groups such as C–H, C–Cl, C=O, N–H, and Si–O, indicating the successful incorporation of additives into the material structure. The results demonstrate that the modified PVC composites exhibit enhanced flame retardancy, reduced smoke emission, and improved mechanical properties.*

Keywords: *polyvinyl chloride, DOF, melamine cyanurate, talc, flame retardancy, IR spectroscopy, composite material, stabilizer, filler.*

Kirish. Zamonaviy iqtisodiyotni kimyoviy texnologiyasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki qurilish, avtomobilsozlik hamda elektronika sanoatida keng qo'llanilayotgan polimer materiallar yengilligi, yuqori mustahkamligi, uzoq muddat xizmat qilishi va nisbatan arzonligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, polimerlarning ushbu afzalliklari qatorida ularning olovbardoshligini oshirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur nuqtai nazardan tadqiqot obyekti sifatida polimerlar orasidan polivinilxlorid (PVX) tanlab olindi. PVX termoplastik polimer bo'lib, ishlab chiqarish hajmi bo'yicha jahon miqyosida polietilen va polipropilendan keyin uchinchi o'rinda turadi.

Polivinilxloridning boshqa polimerlardan asosiy farqli jihati uning tarkibida xlor elementining yuqori miqdorda (massasiga nisbatan taxminan 57%) mavjudligidir. Aynan ushbu xlor atomlari PVXning ma'lum darajada olovbardoshlik xususiyatini ta'minlaydi. Biroq, PVX olovbardosh polimer bo'lishiga qaramay, yonish jarayonida ayrim salbiy holatlar kuzatiladi. Xususan, yonish vaqtida quyuq qora tutun hosil bo'lishi va toksik vodorod xlorid (HCl) gazining ajralib chiqishi inson salomatligiga zarar yetkazadi. Bundan tashqari, HCl gazining namlik bilan reaksiyaga kirishishi natijasida korroziv muhit hosil bo'lib, metall konstruksiyalarga zarar yetkazishi mumkin.

Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida PVX tarkibini mineral to'ldiruvchilar va galogensiz antipirenlar bilan modifikatsiyalash

muhim hisoblanadi.


Ushbu yo'nalishda mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, Y. Chen, Q. Wu, N. Li, T. Tang, X. Xie, C. Zhang va Y. Zuo tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda PVX kompozitlarining olovbardoshlik va tutun hosil bo'lishini kamaytirish xususiyatlari o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bunday modifikatsiyalangan kompozitsiyalar PVXning olovbardoshligini sezilarli darajada oshirib, kislorod chegaraviy indeksi (LOI) 27% dan yuqori qiymatlarga yetgan. Shu bilan birga, tutun zichligi maksimal qiymati 46,7% ga kamayganligi aniqlangan. Termogravimetrik tahlil natijalari kompozitlarning termal barqarorligi 45,3°C ga oshganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, kompozitlarning mexanik xossalari ham yaxshilanib, cho'zilish darajasi 234,9% gacha va mustahkamligi 25,8 MPa gacha yetgan. Mualliflar tomonidan taklif etilgan tizim ekologik xavfsiz, iqtisodiy jihatdan samarali hamda amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ayniqsa qurilish sohasida qo'llaniladigan PVX asosidagi materiallar uchun istiqbolli yechim sifatida baholanadi [1; 1814-b.].

Polivinilxlorid (PVX) sanoat va maishiy mahsulotlar ishlab chiqarishda keng qo'llaniladigan muhim polimerlardan biri hisoblanadi. Biroq, uni issiqlik ta'sirida qayta ishlash jarayonida termik barqarorligi past bo'lib, polimer zanjirining parchalanishi natijasida polien tipidagi mahsulotlar hosil bo'ladi [2; 9–12-betlar]. Shu sababli PVXning termik barqarorligini oshirish, qayta ishlash

tasdiqlaydi.

717,52 sm⁻¹ da kuzatilgan cho‘qqi PVX uchun xarakterli belgilardan biri bo‘lib, u C–Cl (uglerod–xlor) bog‘lanishining valent tebranishlariga tegishlidir. PVX tarkibida xlor atomlari katta miqdorda mavjud bo‘lgani sababli, ushbu cho‘qqi uning IQ-spektrida doimiy ravishda namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari, 600 sm⁻¹ dan past diapazonda kuzatilgan cho‘qqilar majmuasi ham asosan C–Cl bog‘lanishlariga tegishli bo‘lib, ularning shakli va intensivligi polimer zanjirida xlor atomlarining joylashuviga bog‘liq.



2-rasm. Melamin sianurat (MCA) – PVX stabilizatsiya mexanizmi.

Umuman olganda, IQ-spektr tahlili natijalari tadqiq etilgan material tarkibida asosiy bog‘lanishlar sifatida C–H va C–Cl guruhlar mavjudligini ko‘rsatdi. Bu esa tahlil qilingan moddaning polivinilxlorid (PVX) asosidagi material ekanligini tasdiqlaydi.


Tadqiqot jarayonida PVX asosida olovbardosh materiallar olish texnologiyasini takomillashtirish maqsadida melamin sianuratdan foydalanildi. Melamin sianurat poliamid (neylon), poliuretan va boshqa polimer tizimlarda samarali antipiren (olovbardosh stabilizator) sifatida keng qo‘llaniladi. U kabel izolyatsiyasi, elektr texnika qismlari, avtomobil sanoati hamda turli maishiy va sanoat mahsulotlarida xavfsizlik talablarini ta‘minlash uchun ishlatiladi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni

ko‘rsatdiki, melamin sianurat qo‘shimchasi polimer kompozitsiyalarning olovbardoshligini oshirishda samarali hisoblanadi, biroq uning qo‘llanilishi muayyan texnologik va ekspluatatsion omillarni hisobga olishni talab etadi.

Berilgan sxema polivinilxlorid (PVX)ning issiqlik ta‘sirida degradatsiyasi hamda melamin sianurat (MCA) qo‘shimchasi ishtirokida yuz beradigan sinergik stabilizatsiya jarayonini ifodalaydi. PVXning asosiy strukturaviy birligi (–CH₂–CHCl–)_n bo‘lib, yuqori harorat yoki ultrabinafsha (UV) nurlanish ta‘sirida degidroxlorlanish reaksiyasi sodir bo‘ladi. Natijada polimer zanjiridan vodorod xlorid (HCl) ajralib chiqadi va radikal jarayonlar boshlanib, PVX polien tuzilmalarga degradatsiyalanadi. Polienlarning hosil bo‘lishi PVX rangining sarg‘ayishi, mexanik mustahkamligining pasayishi hamda fotodegradatsiya jarayonlarining kuchayishiga olib keladi.

Melamin sianurat (MCA) — C₃H₆N₆·C₃H₃N₃O₃ tarkibli kompleks bo‘lib, u vodorod bog‘lari orqali hosil bo‘lgan. Termik ta‘sirida MCA endotermik parchalanadi va bu jarayonda NH₃ hamda H₂O bug‘lari ajralib chiqadi. Hosil bo‘lgan ammiak (NH₃) PVXdan ajralib chiqqan HCl bilan o‘zaro ta‘sirlashib quyidagi reaksiyani hosil qiladi:



Mazkur reaksiya PVX degradatsiyasi jarayonida ajralayotgan HCl ni neytrallab, NH₄Cl ko‘rinishidagi himoya qatlamining hosil bo‘lishiga olib keladi. Ushbu qatlam quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- PVX sirtini kislorod va issiqlik ta‘siridan himoya qiladi;
- degradatsiya jarayoni tezligini pasaytiradi va material xizmat muddatini uzaytiradi;
- PVXning termik barqarorligini oshiradi;
- HCl ishtirokidagi zanjir-parchalanish reaksiyalarining qayta boshlanishini oldini oladi.

Endotermik parchalanish jarayoni issiqlikni yutib, degradatsiya kinetikasini sekinlashtiradi va termik stabilizatsiya samaradorligini oshiradi. Melamin sianurat PVX bilan bevosita kimyoviy reaksiyaga kirishmaydi, biroq HCl ni bog‘lash, erkin radikallarni passivlashtirish va himoya (char) qatlam hosil qilish orqali fizik-kimyoviy sinergiya natijasida stabilizatsiya effektini namoyon qiladi.

Shu sababli MCA PVX uchun ekologik xavfsiz, samarali va past zaharlilikka ega stabilizator sifatida qaraladi.


MCAning muhim afzalliklaridan biri uning galogenlardan xoli ekanligidir, ya'ni tarkibida xlor yoki brom mavjud emas. Bu esa yonish jarayonida zaharli va korroziv gazlar ajralib chiqishini kamaytiradi. Shuningdek, u yuqori samaradorlikka ega bo'lib, polimerlarning yonuvchanligini sezilarli darajada kamaytiradi va tutun hosil bo'lishini minimallashtiradi.

Biroq melamin sianuratning ayrim kamchiliklari ham mavjud. Xususan, uning suvda past eruvchanligi polimerlarga qo'shishda maxsus texnologik ishlov berishni talab qiladi. Shuningdek, qayta ishlash jarayonida ayrim qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Tajriba jarayonida PVX+DOF+melamin sianurat asosida olingan kompozit material granulasining infraqizil (IQ) spektroskopik tahlili Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot institutida o'tkazildi (2.9-rasm).

IQ-spektrdagi har bir cho'qqi ma'lum funksional guruhlarining mavjudligini ko'rsatadi. Spektrning yuqori to'lqin sonlari sohasidagi asosiy cho'qqilar C–H valent tebranishlariga tegishli bo'lib, ular PVX polimer zanjiridagi (–CH₂–CHCl–) bog'lanishlarini ifodalaydi.

Kompozit tarkibida DOF va melamin sianurat mavjudligi 1780,30 sm⁻¹, 1716,65 sm⁻¹ va 1683,86 sm⁻¹ diapazonlarda kuzatilgan cho'qqilar orqali tasdiqlanadi. Ushbu cho'qqilar karbonil (C=O) guruhlari tebranishlariga mos kelib, kompozitsiya tarkibiga kiritilgan qo'shimchalarning mavjudligini asoslaydi.




3-rasm. PVX+DOF+Melamin sianurat aralashmasidan olingan materialning infraqizil (IQ) spektroskopiyasidagi tahlili.

IQ-spektr tahlilida 1662,64 sm⁻¹ va 1577,77 sm⁻¹ diapazonlarda kuzatilgan cho'qqilar ikkilamchi aminlar hamda antipiren xususiyatga ega bo'lgan melamin sianurat mavjudligini ko'rsatadi. 1446,61 sm⁻¹ da qayd etilgan cho'qqi C–H guruhining deformatsion (egilish) tebranishlariga tegishli bo'lib, bu PVX polimeriga xos belgilaridan biridir.

1386,82 sm⁻¹, 1332,81 sm⁻¹ va 1271,09 sm⁻¹ diapazonlarda kuzatilgan cho'qqilar murakkab efir bog'lanishlariga xos bo'lgan C–O–C guruhlarining tebranishlariga tegishli bo'lib, ular plastifikator (DOF) hamda stabilizatorlar (melamin sianurat) tarkibida mavjudligini tasdiqlaydi.

1199,72 sm⁻¹, 1124,50 sm⁻¹ va 1074,35 sm⁻¹ da kuzatilgan cho'qqilar mineral to'ldiruvchilar (masalan, silikatlar, boratlar) yoki intumesent tizimlarga xos tebranishlarga mos keladi. 806,25 sm⁻¹, 763,81 sm⁻¹ va 688,59 sm⁻¹ diapazonlardagi cho'qqilar esa PVX uchun xarakterli bo'lgan C–Cl (uglerod–xlor) bog'lanishlarining valent tebranishlarini ifodalaydi va materialning PVX asosida ekanligini tasdiqlaydi.

958,62 sm⁻¹ va 636,51 sm⁻¹ da kuzatilgan cho'qqilar kompozitsiya tarkibiga kiritilgan olovbardosh qo'shimchalar hamda mineral to'ldiruvchilarning mavjudligini ko'rsatadi.



4-rasm. PVX+DOF+Melamin sianurat+Talk aralashmasidan olingan materialning infraqizil (IQ) spektroskopiyasidagi tahlili.

Umuman olganda, IQ-spektr tahlili PVX+DOF+melamin sianurat asosida olingan materialning murakkab kompozit tizim ekanligini tasdiqlaydi. Unda asosiy polimer matritsadan tashqari plastifikator, stabilizator va olovbardoshlikni oshiruvchi qo'shimchalar mavjud.

Ayniqsa, 1800–1500 cm^{-1} diapazondagi bir nechta cho‘qqilar kompozitsiyaning ko‘p komponentli va sinergik tizimdan iborat ekanligini ko‘rsatadi.

Keyingi bosqichda PVXning olovbardoshligini oshirish maqsadida PVX+DOF+melamin sianurat+talk aralashmasidan olingan materialning fizik-kimyoviy xossalari infraqizil (IQ) spektroskopiya usuli yordamida tahlil qilindi (3-rasm).

IQ-spektr tahlili natijalariga ko‘ra, har bir cho‘qqi (pik) ma‘lum funksional guruhlarining mavjudligini ifodalaydi. Spektrning yuqori to‘lqin sonlari sohasida kuzatilgan cho‘qqilar O–H (gidroksil) guruhining valent tebranishlariga mos keladi. Bu holat mineral to‘ldiruvchi — talk ($\text{Mg}_3\text{Si}_4\text{O}_{10}(\text{OH})_2$) tarkibidagi gidroksil guruhlar mavjudligini ko‘rsatadi. Mazkur cho‘qqilar sof PVX spektrida kuzatilmaydi.

3000–2800 cm^{-1} diapazondagi cho‘qqilar PVX polimer zanjiriga xos bo‘lgan C–H valent tebranishlariga tegishlidir. 1780,30 cm^{-1} va 1722,43 cm^{-1} da kuzatilgan cho‘qqilar karbonil (C=O) guruhlarining mavjudligini ko‘rsatib, bu material tarkibiga qo‘shilgan dioktilftalat (DOF) va melamin sianurat bilan bog‘liq ekanligini tasdiqlaydi.

1662,64 cm^{-1} va 1533,41 cm^{-1} diapazonlardagi cho‘qqilar melamin sianurat tarkibidagi murakkab funksional guruhlar (masalan, N–H deformatsion tebranishlari va amid guruhleri) mavjudligini bildiradi. 1446,61 cm^{-1} da qayd etilgan cho‘qqi esa C–H guruhining egilish tebranishlariga tegishli bo‘lib, PVX uchun xos belgidir.

1384,89 cm^{-1} va 1328,95 cm^{-1} diapa-

zonlardagi cho‘qqilar Si–O–Si bog‘lanishlariga mos keladi, bu esa talkning kremniy-kislorod skeleti mavjudligini ko‘rsatadi. 1199,72 cm^{-1} , 1124,50 cm^{-1} va 1074,35 cm^{-1} dagi cho‘qqilar ham Si–O hamda Si–O–Mg bog‘lanishlariga tegishli bo‘lib, kompozitsiyada talk mavjudligini yana bir bor tasdiqlaydi.

958,62 cm^{-1} , 769,60 cm^{-1} va 742,59 cm^{-1} diapazonlardagi cho‘qqilar PVX uchun xarakterli bo‘lgan C–Cl (uglerod–xlor) bog‘lanishlarining valent tebranishlarini ifodalaydi. 673,16 cm^{-1} va 628,79 cm^{-1} dagi kuchli cho‘qqilar esa Mg–O yoki Si–O bog‘lanishlariga tegishli bo‘lib, talkning mineral tuzilmasiga xos hisoblanadi.

Xulosa. IQ-spektr tahlili natijalariga asoslanib, olingan material polivinilxlorid, melamin sianurat va talk minerali asosidagi kompozit tizim ekanligi aniqlandi. PVXning mavjudligi 2900 cm^{-1} atrofidagi C–H hamda 1000–500 cm^{-1} oralig‘idagi C–Cl cho‘qqilari orqali tasdiqlandi. Talkning mavjudligi 3600–3200 cm^{-1} diapazondagi O–H cho‘qqilari hamda 1300–600 cm^{-1} oralig‘idagi Si–O va Mg–O bog‘lanishlariga xos cho‘qqilar bilan isbotlandi. Melamin sianuratning mavjudligi esa 1800–1500 cm^{-1} diapazondagi qo‘shimcha cho‘qqilar orqali aniqlangan.

Mazkur kompozit material PVXning olovbardoshligini oshirish, tutun ajralishini kamaytirish hamda mexanik xossalarni yaxshilash maqsadida sintez qilindi. Ushbu tizimda talk nafaqat to‘ldiruvchi, balki olovbardoshlikni oshiruvchi komponent sifatida ham muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- [1] Chen, Y., Wu, Q., Li, N., Tang, T., Xie, X., Zhang, C., & Zuo, Y. (2023). The flame retardancy and smoke suppression performance of polyvinyl chloride composites with an efficient flame retardant system. *Coatings*, 13(10), 1814. <https://doi.org/10.3390/coatings13101814>
- [2] Ершова, О. В., & Чупрова, Л. В. (2015). Получение композиционного материала на основе вторичного поливинилхлорида и техногенных минеральных отходов. *Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований*, (5-1), 9–12.
- [3] Wang, X., Song, L., Xing, W., Lu, H., & Hu, Y. (2011). Flame retardancy and thermal degradation of PVC composites containing melamine cyanurate and zinc borate. *Polymer Degradation and Stability*, 96(2), 247–253. <https://doi.org/10.1016/j.polymdegradstab.2010.11.003>
- [4] Camino, G., Costa, L., & Trossarelli, L. (1984). Study of the mechanism of intumescence in fire retardant polymers: Part I—Thermal degradation of ammonium polyphosphate–pentaerythritol mixtures. *Polymer Degradation and Stability*, 6(4), 243–252. [https://doi.org/10.1016/0141-3910\(84\)90010-2](https://doi.org/10.1016/0141-3910(84)90010-2)

ЭКОЛОГИЯ, МЕХАТ МУХОFAZASI VA TEXNIKA XAVFSIZLIGI
ЭКОЛОГИЯ, ОХРАНА ТРУДА И ТЕХНИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ
ECOLOGY, LABOR PROTECTION AND TECHNICAL SAFETY

UO'K: 532.543:627.157

 10.70769/3030-3214.SRT.4.1.2026.30

О'ZAN TUBI BARQARORLIGINI BAHOLASH USULLARI



**G'ayimnazarov Israil
Xoliqovich**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent, Qarshi
davlat texnika universiteti, Qarshi,
O'zbekiston
E-mail: igayimnazarov@gmail.com
ORCID ID: 0009-0000-0680-5174
Science ID: FQD-0226-0016



**Mamarasulov Sobir
Raxmonqul o'g'li**

Doktorant (PhD), Qarshi davlat
texnika universiteti, Qarshi,
O'zbekiston
E-mail:
sobirmamarasulov6@gmail.com
ORCID ID: 0009-0004-6707-5741



**Toshmurodov Jomurod
Jahongir o'g'li**

Magistrant, Qarshi davlat texnika
universiteti, Qarshi, O'zbekiston
E-mail: jomurod@gmail.com
ORCID ID: 0009-0001-1800-9148

Annotatsiya. Bugungi kunga qadar grunt o'zanli kanallarda gryadalarining hosil bo'lishi va harakati masalasi bo'yicha dunyoning turli ilmiy markazlarida keng ko'lamli dala kuzatuvlari hamda laboratoriya tajribalari o'tkazilgan. Ushbu tadqiqotlar natijasida katta hajmdagi eksperimental ma'lumotlar to'plangan. Ayrim tadqiqotchilar mazkur ma'lumotlarni umumlashtirishga va yagona hisobiy bog'lanishlar shaklida ifodalashga harakat qilgan bo'lsalar-da, hozirgi kungacha ushbu masala bo'yicha to'liq ishonchli va universal natijalarga erishilmagan. Mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, grunt o'zanli kanallarda gryadalar harakati muammosi ochiq o'zanlar gidravlikasining eng murakkab va dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Olingan tajriba va kuzatuv ma'lumotlarini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, to'lqinlarning parametrlarida yuz beradigan o'zgarishlar gryadalarining geometrik va kinematik xususiyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, kanal oqimining statsionar holatida shakllanadigan gryadalarga nisbatan, shamol to'lqinlari ta'siri ostida vujudga keladigan gryadalar kattaroq o'lchamlarga ega bo'lishi kuzatiladi. Bu holat, avvalo, to'lqinlar ta'siri natijasida o'zan tubida hosil bo'ladigan tangensial kuchlanishlarning ortishi bilan izohlanadi. Mazkur kuchlanishlarning oshishi esa gryadalar parametrlarining yiriklashuviga olib keladi.

Ochiq o'zanlarda oqiziqslarning gryadali shaklda tashilishi nazariyasiga asoslanib, kanallarda suv oqimining statsionar va nostatsionar harakat sharoitlarida oqiziqslar tashilishini hisoblash usullari yanada takomillashtirildi. Ushbu yondashuv o'zan tubida kechadigan murakkab morfodinamik jarayonlarni yanada aniqroq tavsiflash hamda hisobiy natijalarning ishonchligini oshirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: nostatsionar oqim, gryadalar, gryadalar tikligi, oqiziqslar, oqiziqslar harakati, deformatsiya, o'zan tubi, g'adir-budirligi, gidravlik qarshilik, dinamik tezlik, siljish tezligi, shamol to'lqinlari, olib ketuvchi kuch.

МЕТОДЫ ОЦЕНКИ УСТОЙЧИВОСТИ ДНА РУСЛА

**Гайимназаров Ибраил
Холикович**

*Доктор философии (PhD) по
техническим наукам, доцент,
Каршинский государственный
технический университет,
Карши, Узбекистан*

**Мамарасулов Собир
Рахмонкулович**

*Докторант (PhD), Каршинский
государственный технический
университет, Карши,
Узбекистан*

**Тошмуродов Жомурод
Жахонгир угли**

*Магистрант, Каршинский
государственный технический
университет, Карши,
Узбекистан*

Аннотация. На сегодняшний день в различных научных центрах мира проведены широкомасштабные полевые наблюдения и лабораторные эксперименты по вопросу формирования и движения гряд в каналах с грунтовым руслом. В результате этих исследований был собран большой объем экспериментальных данных. Хотя некоторые исследователи пытались обобщить эти данные и представить их в виде единых расчетных зависимостей, до настоящего времени по этому вопросу не получены полностью достоверные и универсальные результаты. Анализ имеющейся научной литературы показывает, что проблема движения гряд в каналах с грунтовым руслом остается одной из наиболее сложных и актуальных задач гидравлики открытых русел.

Результаты анализа полученных экспериментальных данных и наблюдений показывают, что изменения параметров волн оказывают непосредственное влияние на геометрические и кинематические характеристики гряд. В частности, наблюдается, что гряды, образующиеся под воздействием ветровых волн, имеют большие размеры по сравнению с грядами, формирующимися в стационарном состоянии потока канала. Это объясняется, прежде всего, увеличением касательных напряжений, возникающих на дне русла в результате воздействия волн. Увеличение этих напряжений приводит к укрупнению параметров гряд.

На основе теории переноса наносов в форме гряд в открытых руслах были усовершенствованы методы расчета переноса наносов в каналах в условиях стационарного и нестационарного движения водного потока. Такой подход позволяет более точно описать сложные морфодинамические процессы, происходящие на дне русла, и повысить достоверность расчетных результатов.

Ключевые слова: нестационарный поток, гряды, крутизна гряд, наносы, движение наносов, деформация, дно русла, шероховатость, гидравлическое сопротивление, динамическая скорость, скорость сдвига, ветровые волны, сила уноса.

METHODS FOR ASSESSING RIVERBED STABILITY

**Gaimnazarov Israil
Kholikovich**

*PhD in Technical Sciences, Docent,
Karshi State Technical University,
Karshi, Uzbekistan*

**Mamarasulov Sobir
Rakhmonkulovich**

*Doctoral student (PhD), Karshi
State Technical University, Karshi,
Uzbekistan*

**Toshmurodov Jomurod
Jahongir ugli**

*Master's student, Karshi State
Technical University, Karshi,
Uzbekistan*

Abstract. To date, extensive field observations and laboratory experiments on the formation and movement of bedforms in channels with alluvial beds have been conducted in various scientific centers worldwide. These studies have yielded a large volume of experimental data. Although some researchers have attempted to generalize these data and present them as unified computational relationships, fully reliable and universal results on this issue have not yet been obtained. Analysis of the existing scientific literature shows that the problem of bedform movement in channels with alluvial beds remains one of the most complex and relevant challenges in open channel hydraulics.

The results of analyzing the obtained experimental data and observations indicate that changes in wave parameters directly affect the geometric and kinematic characteristics of the bedforms. In particular, it has been observed that bedforms formed under the influence of wind waves have larger dimensions compared to those formed in steady-state channel flow. This is primarily attributed to the increase in shear stresses occurring at the channel bottom as a result of wave action. The increase in these stresses

leads to the enlargement of bedform parameters.

Based on the theory of bedform sediment transport in open channels, methods for calculating sediment transport in channels under steady and unsteady flow conditions have been improved. This approach allows for a more accurate description of the complex morphodynamic processes occurring at the channel bottom and enhances the reliability of the calculated results.

Keywords: unsteady flow, bedforms, bedform steepness, sediments, sediment transport, deformation, riverbed, roughness, hydraulic resistance, dynamic velocity, shear velocity, wind waves, entrainment force.

Kirish. Ushbu maqolada kanal suv oqimiga shamol to'liqlari ta'sir qilgandagi, ya'ni nostatsionar harakatdagi kanal tubida sodir bo'ladigan gryadalar o'lchamlari aniqlanishi hisoblanadi. Nostatsionar oqim sharoitida sodir bo'ladigan gryadalar hosil bo'lish jarayoni, statsionar holatdagi o'zan tubi gryadalariga nisbatan sezilarli darajada murakkabroq kechadi. Mazkur jarayonning kechishiga oqimning kinematik parametrlaridan tashqari, shamol to'liqlarining parametrlari ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, bugungi kunda bir yo'nalishli oqimga shamol to'liqlari ta'sirida paydo bo'ladigan gryadalar parametrlarini aniqlash masalasi kanallarni loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilish jarayonlarida muhim rol o'ynaydi va tadqiqotchilar tomonidan katta qiziqish uyg'otadi.

O'zanlardagi oqiziqqlarning gryadli va gryadsiz harakati bo'yicha S.T. Altunin, V.S. Altunin, V.S. Borovkov, K.V. Grishanin, V.K. Debolskiy, Y.A. Ibadzade, I.G. Kantardji, I.F. Karasev, V.S. Knoroz, Z.D. Kopaliani, Y.M. Kuzminov, E.I. Mass, I.I. Levi, B.F. Snishenko, E.K. Rabkova, N.S. Znamenskaya, P. Akkers, L. Van-Rayn, J.D. Jonson, J. Kennedy, H. Eynshteyn, R. Engelund, A.H. Abalyans, Q.Sh. Latipov, H.A. Ismagilov, A.M. Muxamedov, R.M. Karimov, M.R. Bakiyev, E.J. Maxmudov, A.M. Arifjanov, D.R. Bazarov, S.S. Eshev, T. Majidov va boshqa olimlar tomonidan ko'plab nazariy, laboratoriya va dala sharoitlarida tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu ishlar o'zan tubida gryadalar hosil bo'lishi, ularning harakati va oqiziqqlarning tashilishi jarayonini batafsil tahlil qilishga imkon yaratadi. [1-6, 9-10, 11-14].

Uslub va materiallar. Hozirgi kunda nostatsionar oqim sharoitida sodir bo'ladigan gryadalar jarayoni mavjud tadqiqotlar, shu jumladan nazariy tahlillar va eksperimental tajribalar asosida o'rganilmoqda. Oqiziqqlarning

gryadli tartibda harakatlanishi ularning harakatining boshlanishidan boshlab, dumalash, saltatsiyali va muallaq holatlarni egallashi bilan yakunlanadi.

Gryadalar shakllanishiga eng sezilarli ta'sir ko'rsatadigan omillar quyidagilardan iborat:

Oqimning turbulentligi;

Gryadalarining tikligi. h_{gr}/ℓ_{gr}

Ushbu maqolada kanallardagi bir yo'nalishli oqimga shamol to'liqlari ta'sirida hosil bo'ladigan gryadalar shakllanishi va ularning parametrlarini aniqlash masalasi tahlil qilinadi. Mazkur masalani o'rganish maqsadida Qarshi davlat texnika universiteti laboratoriyasida tajribalar o'tkazildi. Tajribalarda temir lotok ichida turli yon tomon qiyalik koeffitsientlariga ($m = 2,0; 2,5; 3,0; 3,5$) ega bo'lgan trapesiya shaklidagi kanal modellari qurildi va har bir yon tomon qiyaliklari uchun tajribalar uch bosqichda amalga oshirildi.

Ushbu tadqiqotlar oqimi va shamol to'liqlarining gryadalar hosil bo'lishiga ta'sirini aniqroq tavsiflash, shuningdek, kanallarni loyihalash va oqiziqqlar harakatini modellashtirishda ilmiy asos yaratishga imkon beradi [9,10,13].

O'tkazilgan tajriba ma'lumotlari statistik usul yordamida qayta ishlangan. Natijalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, to'liqin parametrlarining (h_v, λ_v) o'zgarishiga bog'liq holda gryadalar parametrlarida ham (h_{vgr}, ℓ_{vgr}) sezilarli o'zgarishlar yuz beradi. Shu sababli, kanal oqimining statsionar holatidagi gryadalarga nisbatan, shamol to'liqlari ta'siri ostida hosil bo'ladigan gryadalar kattaroq o'lchamlarga ega bo'lishi kuzatiladi.

Haqiqatan ham, to'liqlar ta'siri ostida o'zan tubida tangensial kuchlanishlarning ortishi sodir bo'ladi, bu esa gryadalar parametrlarining kattalashishiga olib keladi. Ushbu jarayonni birinchi navbatda gryadalar balandligini hisoblash orqali aniqlash mumkin. Buning uchun laboratoriya va natura ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Yuoqoridagi mulohazalarga asoslanib, stat-

sionar harakatda hosil bo'lgan gryadalarining to'liqlar ta'sirida o'zgarishini hisoblashda empirik bog'lanishlarni qo'llash mumkin. Shu asosda, nostatsionar oqim ta'sirida hosil bo'ladigan gryadalar balandligini aniqlash imkoniyati yaratiladi.

$$\frac{h_{vgr}}{h_{gr}} = 1 + 2,21 \frac{\lambda_v}{h_0}, \quad (1)$$

uzunligi uchun esa

$$\frac{\ell_{vgr}}{\ell_{gr}} = 1 + 0,20 \frac{\lambda_v}{h_0} \quad (2)$$

bog'lanishlarni yozamiz.


Bu empirik formulalarni mos ravishda quyidagi ko'rinishda ifodalaymiz:

$$h_{vgr} = h_{gr} \left(1 + 2,21 \frac{\lambda_v}{h_0} \right), \quad (3)$$


$$\ell_{vgr} = \ell_{gr} \left(1 + 0,20 \frac{\lambda_v}{h_0} \right), \quad (4)$$

bu yerda h_v, λ_v - mos ravishda to'liqlarning balandligi va uzunligi; h_{gr}, ℓ_{gr} - kanallarda to'liqlar bo'lmagan oqimda sodir bo'ladigan gryadlarning mos ravishda balandligi va uzunligi bo'lib, ular biz tomondan taklif qilingan [3-6;9;10] formulalardan aniqlanadi; h_{vgr}, ℓ_{vgr} - oqimga to'liqlar ta'sir qilganda sodir bo'ladigan gryadlarning mos ravishda balandligi va uzunligi; h_0 - oqimning o'rtacha balandligi.

Olingan tajribada suvning nostatsionar harakatida sodir bo'ladigan o'zan tubi gryadalarining balandligini aniqlash maqsadida laboratoriya tajribasi ma'lumotlari va (4)-formulaga asosan hisoblangan qiymatlar kiritilgan. Shuningdek, 2-rasmda regression tahlil natijalari ko'rsatilgan, bu esa olingan ma'lumotlarning empirik bog'lanishini vizual tarzda tasdiqlaydi.




1-rasm. Tajribaviy gryadlarning balandligini hisobiy gryadlarning qiymatlari bilan taqqoslash.




2-rasm. Regression tahlil.

Shuningdek, gryad balandliklarining laboratoriya va dala tajribalarida olingan ma'lumotlari bilan hisobiy ma'lumotlarning taqqoslanishi 3-rasmda ko'rsatilgan.




3-rasm. Nostatsionar oqim sharoitida laboratoriya va dala tajribalarda olingan h_{vgr}/h_0 nisbatining hisob bo'yicha olingan nisbatlari bilan taqqoslanishi.

Nostatsionar oqim holatida sodir bo'lgan gryadalar uzunligini aniqlashning haqqoniyligi ko'rib chiqiladi. Laboratoriya tajribalariga asoslanib olingan gryadalar uzunliklari bilan (4)-formular bo'yicha hisoblangan qiymatlarning taqqoslanishi 4-rasmda keltirilgan, shuningdek, regression tahlil natijalari 5-rasmda tasvirlangan. Ushbu tahlillar gryadalar uzunligini aniqlash bo'yicha laboratoriya va hisobiy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniq ko'rsatadi va empirik modelning ishonchliligini tasdiqlaydi.




4-rasm. Tajriba va hisobiy gryadlarni taqqoslash.



5-rasm. Regression tahlil.

Kanal o‘zanining nostatsionar oqimida sodir bo‘lgan gryadalar uzunliklari bo‘yicha laboratoriya va dala sharoitlarida olingan ma’lumotlar kiritilgan. Ushbu qiymatlar (4)-bog‘lanishga asosan hisoblangan qiymatlar bilan solishtirilgan bo‘lib, ularning bir-biriga yaqinligini 6-rasmda ko‘rsatish mumkin.



6-rasm. Nostatsionar oqim sharoitida laboratoriya va dala tajribalarda olingan l_{gr}/h_0 nisbatning hisob bo‘yicha olingan nisbatlari bilan taqqoslanishi.

Demak, deformatsiyalanadigan ochiq o‘zanlar gidravlikasining, shamol to‘lqinlari bilan bog‘liq bo‘lgan nostatsionar oqim sharoitida sodir bo‘ladigan gryadalar balandliklari va uzunliklarini hisoblash masalalarida hosil qilingan (3) va (4)-formulalardan foydalanish mumkin.


Xulosa. 1. Kanal ichidagi suvning statsionar va nostatsionar sharoitlarida o‘tkazilgan laboratoriya tajribalari asosida, kanal o‘zan tubida sodir bo‘ladigan gryadalar balandligi va uzunligini aniqlash uchun bog‘lanishlar olinadi. Laboratoriya va hisobiy qiymatlarning taqqoslanishi ularning bir-biriga yaqinligini ko‘rsatdi.

2. Ochiq o‘zandagi oqiziqqlarning gryadli ko‘rinishda tashilishini hisoblash usuli asosida, kanaldagi suvning statsionar va nostatsionar harakatlari sharoitida oqiziqqlar tashilishini hisoblash usuli takomillashtirildi. Ushbu hisob usuli, oqiziqqlar tashilishiga to‘lqinlarning asosiy ta’sir xususiyatini, ya’ni to‘lqinli oqim sharoitida oqiziqqlar tashilishining sezilarli darajada oshishini, aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- [1] Гришанин, К. В. (1979). Динамика русловых потоков. Ленинград: Гидрометеоиздат.
- [2] Знаменская, Н. С. (1968). Грядовое движение наносов. Ленинград: Гидрометеоиздат.
- [3] Чоу, В. Т. (1969). Гидравлика открытых каналов. Москва: Издательство литературы по строительству.
- [4] Снищенко, Б. Ф., & Копалиани, З. Д. (1978). О скорости движения гряд в реках и лабораторных условиях. Труды ГГИ, 252, 20–37.
- [5] Елфимов, В. И. (n.d.). Исследование структуры донно-грядового рельефа дна и его влияние на гидравлические сопротивления (Автореферат диссертации кандидата физико-математических наук).
- [6] Железняков, Г. В., & Дебольский, В. К. (1971). О грядовом движении наносов при их различной плотности. Доклады ВАСХНИИ, (2), 42–45.
- [7] Azinfar, H., & Kells, J. A. (2009). Flow resistance due to a single spur dike in an open channel. Journal of Hydraulic Research, 47(6), 755–763.
- [8] Hu, H., Wei, T., Yang, Z., Hackney, C. R., & Parsons, D. R. (2018). Low-angle dunes in the Changjiang (Yangtze) Estuary: Flow and sediment dynamics under tidal influence. Estuarine, Coastal and Shelf Science, 205, 110–122. <https://doi.org/10.1016/j.ecss.2018.03.009>

UDC: 622.629

 10.70769/3030-3214.SRT.4.1.2026.31

TOP 10 TRANSPORT TECHNOLOGIES AND INNOVATIONS IN 2025 FOR UZBEKISTAN



Mamasaliyeva Mukaddas Ibadullaevna

Associate Professor at Islam Karimov Tashkent State Technical University, Tashkent, Uzbekistan

E-mail: mamasaliyevamukaddas@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-9175-905X

Science ID: MTN-0525-0086

Abstract. The article provides an overview of the ten most significant transport technologies that will determine global trends in 2025 and are of practical value for the development of Uzbekistan. It analyses the prospects for introducing innovations, taking into account national characteristics, with a focus on expanding the fleet of electric vehicles and the use of gas motor fuel. It considers issues related to the digitalisation of public transport and the creation of intelligent urban traffic management systems. The material contains practical recommendations for modernising the republic's transport infrastructure, aimed at improving energy efficiency, digitising public transport, environmental safety, introducing intelligent traffic management systems, and optimising logistics processes in the current economic conditions.

Keywords: transport innovations, electric vehicles, smart roads, digitalisation, drones, transport modernisation, sustainable transport, localisation of production, prospects for the automotive industry in Uzbekistan.

ТОП-10 ТРАНСПОРТНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИННОВАЦИЙ В 2025 ГОДУ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА

Мамасалиева Мукаддас Ибадуллаевна

Доцент, Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова, Ташкент, Узбекистан

Аннотация. В статье представлен обзор десяти наиболее значимых транспортных технологий, определяющих глобальные тренды 2025 года, представляющие практическую ценность для развития Узбекистана. Анализируются перспективы внедрения инноваций с учетом национальных особенностей, акцентируя внимание на расширении парка электромобилей и использовании газомоторного топлива. Рассматриваются вопросы цифровизации общественного транспорта и создания интеллектуальных систем управления городским трафиком. Материал содержит практические рекомендации по модернизации транспортной инфраструктуры республики, направленные на повышение энергоэффективности, цифровизации общественного транспорта, экологической безопасности, внедрению интеллектуальных систем управления дорожным движением, а также оптимизацию логистических процессов в современных экономических условиях.

Ключевые слова: транспортные инновации, электромобили, умные дороги, цифровизация, дроны, транспортная модернизация, устойчивый транспорт, локализация производства, перспективы автопрома Узбекистана.

2025-YILDA O‘ZBEKISTON UCHUN ENG YAXSHI 10 TA TRANSPORT TEXNOLOGIYALARI VA INNOVATSIYALARI

Mamasaliyeva Muqaddas Ibadullayevna

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya. Maqolada 2025 yildagi global tendentsiyalarni belgilaydigan va O‘zbekistonni rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘n ta eng muhim transport texnologiyalari sharhlandi. U milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda innovatsiyalarni joriy etish istiqbollarini tahlil qiladi, elektr transport vositalari parkini kengaytirish va gaz dvigatelli yoqil‘idan foydalanishga e‘tibor qaratadi. Shuningdek, jamoat transportini raqamlashtirish va aqlli shahar transport boshqaruvi tizimlarini yaratish masalalarini ko‘rib chiqadi. Materialda respublikaning transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan bo‘lib, ular energiya samaradorligini oshirish, jamoat transportini raqamlashtirish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, aqlli transport boshqaruv tizimlarini joriy etish va hozirgi iqtisodiy sharoitda logistika jarayonlarini optimallashtirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: transport innovatsiyalari, elektr transport vositalari, aqlli yo‘llar, raqamlashtirish, dronlar, transportni modernizatsiya qilish, barqaror transport, ishlab chiqarishni mahallilashtirish, O‘zbekistonda avtomobil sanoatining istiqbollari.

Introduction. Modern transport systems are undergoing rapid transformation. In 2025, the global industry is focusing on sustainability, digitalisation and environmental friendliness. For Uzbekistan, located in the centre of Eurasia and with a growing transport load, the introduction of advanced technologies is particularly relevant. They will improve the quality of transport, improve the environmental situation and strengthen the country's logistical role as a technological re-equipment of the industry and production [5].

Automotive manufacturing is the youngest industry created in our independent state. In an unprecedentedly short period of time, a unique car manufacturing facility has been created and is successfully developing in our country. Today, this new industry is becoming a powerful driver of development for the entire economy of Uzbekistan [4].

Materials and methods. The main problem in Uzbekistan's transport sector remains the high load on roads, wear and tear on vehicles, and the insufficient environmental friendliness of the fuel used. The growth of the vehicle fleet in Uzbekistan increases the load on the environment, making air pollution one of the most acute problems. The modern automotive industry is undergoing a period of profound change. Traditional internal combustion engines are being replaced by hybrid

and electric technologies designed to reduce dependence on fossil fuels, lower pollutant emissions and improve operational safety [8]. The Republic of Uzbekistan, which is actively modernising its transport and industrial sectors, considers the introduction of hybrid technologies to be a strategic direction capable of improving the environmental situation and creating new opportunities for industrial growth [3].




Fig.1. Electric vehicle charging system.

At the same time, the country has great potential for the introduction of new technologies, including the electrification of transport, the development of intelligent traffic management systems, and the digitalisation of logistics. The research method is based on an analysis of international experience, reports from global organisations (IEA, World Bank), and strategic

documents of the Republic of Uzbekistan on the development of transport infrastructure. The study was prepared using a comparative analysis of global innovations, reports from international organisations, and national strategic programmes in the field of transport.

Research results and discussion. Electric transport (electric buses, electric cars) – introduction of electric public transport in large cities. Electric buses have already begun to be introduced in Tashkent and Samarkand. This reduces dependence on traditional fuels and improves the environment.

Gas-powered transport (CNG/LNG) – use of natural gas as a transitional environmentally friendly fuel. Thanks to its own natural gas reserves, Uzbekistan can actively develop a fleet of environmentally friendly gas-powered buses and trucks.

Smart public transport – digital applications, electronic tickets and GPS navigation. Digital route monitoring systems, mobile applications and electronic tickets improve passenger convenience.

Intelligent transport systems (ITS) - smart traffic lights, sensor systems and traffic control. The introduction of ‘smart traffic lights’, sensors and cameras reduces traffic jams and improves safety. [1,2]

Autonomous shuttles and taxis – pilot projects for tourist cities. Pilot projects involving driverless vehicles can be implemented in tourist cities, which will increase their attractiveness.

Railway electrification - development of high-speed and environmentally friendly transport. Continued electrification and the launch of new high-speed routes (such as Afrosiyob) strengthen the country's position in regional logistics.

Drones for logistics and agriculture - delivery

of goods to hard-to-reach regions. The use of drones improves the delivery of goods to hard-to-reach regions and increases the efficiency of the agricultural sector [6].

Eco-friendly freight transport – multimodal schemes and energy-efficient trucks. The use of multimodal schemes (rail + road transport) and economical trucks reduces costs and emissions.

Smart roads and toll motorways – introduction of non-stop payment and road monitoring systems. Contactless payment and road condition monitoring systems improve the quality and safety of road infrastructure [7].

Air mobility (eVTOL) – long-term prospects for the tourism industry. By the 2030s, it may be possible to use electric air taxis on tourist routes (Tashkent - Charvak, Tashkent - Samarkand, Tashkent-Khiva, Samarkand-Bukhara, Termez-Kokand).

Each of these destinations has its own degree of applicability and time horizons for implementation. The most promising in the short term (until 2025–2030) are electric vehicles, gas-powered transport, ITS and the digitalisation of public transport [5]. In the long term, air mobility and autonomous transport will become priorities.

Conclusion. Thus, transport innovations in 2025 open up broad prospects for Uzbekistan. The priority areas are the development of electric transport, the use of natural gas as an environmentally friendly fuel, the digitalisation of public transport and the introduction of intelligent traffic management systems. In the long term, drones and air mobility are of particular interest. The timely introduction of these technologies will enable the country to strengthen its position in the region, improve the quality of life of the population, and reduce the environmental impact.

REFERENCES

- [1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025, 27-yanvar). PF-28-sonli Prezident farmoni: Transport va logistika tizimini rivojlantirish strategiyasi.
- [2] World Bank. (2023). Transport infrastructure in Central Asia.
- [3] International Energy Agency (IEA). (2024). Global EV outlook 2024.
- [4] Мамасалиева, М. И., & Бекетов, Т. К. (2026). Топ-10 транспортных технологий и инноваций в 2025 году для Узбекистана. *Universum: технические науки*, 2(143).
- [5] Мамасалиева, М. И., & Бекетов, Т. К. (2026). Применение инновационных технологий в автомобилестроении гибридов в Республике Узбекистан. *Universum: технические науки*, 1(142_3), 50–52.

- [6] Министерство транспорта Республики Узбекистан. (n.d.). Концепция развития транспортной системы до 2030 года.
- [7] Navartis Global. (2025). Emerging technology trends in the rail sector for 2025.
- [8] StartUs Insights. (2025). Transportation trends 2025.
- [9] Степанов, В. Г. (2021). Экологически чистые транспортные технологии. Санкт-Петербург: Питер.

UO‘K: 626.86:519.876(575.1)

doi 10.70769/3030-3214.SRT.4.1.2026.32

GRUNT O‘ZANLI KANALLARNI REKONSTRUKSIYALASHNING NSGA-II ALGORITMI YORDAMIDA KO‘P MAQSADLI OPTIMALLASHTIRISH MODELI



Hazratov Alisher Normurodovich

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: khazratov@gmail.com
ORCID ID: 0000-0003-1300-0547
Science ID: FQD-0225-0024



Sobirov Feruz Choriyevich

Buxoro davlat texnika universiteti, Buxoro, O‘zbekiston

E-mail: sobirovferuzbek874@gmail.com
ORCID ID: 0009-0005-9135-3403
Science ID: MBX-0226-0045

Annotatsiya. Ushbu maqolada grunt o‘zanli irrigatsiya kanallarini rekonstruksiyalash parametrlarini aniqlash uchun ishlab chiqilgan ko‘p maqsadli optimallashtirish modeli ta’riflanadi. Model oqim gidravlik parametrlarini Shezi-Manning tenglamasi, oqiziq transporti hisoblarini Engelund–Hansenning oqimning tashuvchanlik qobiliyatini aniqlash formulasi va filtratsiya hisoblarini Pavlovskiy filtratsiya formulasi bilan hisoblashlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek model NSGA-II algoritmi yordamida shakllantirilgan kombinatsiyalar uchun hozirgi paytdagi narx-navolar asosida rekonstruksiya va ekspluatatsiya xarajatlarini hisoblaydi. Optimallashtirish modelida Python muhitidagi NSGA-II algoritmini qo‘llash orqali kombinatsiyalarni shakllantirish va eng kam umumiy xarajatlar beradigan natijalar asosida eng maqbul parametrlarni saralash bajariladi. Modelning keys-stadi sinovi Amu-Buxoro mashina kanali misolida o‘tkazildi. Natijalar rekonstruksiya va ekspluatatsiya xarajatlari o‘rtasidagi optimal muvozanatni aniqlash imkonini berdi.

Kalit so‘zlar: gruntli kanallarni rekonstruksiya qilish, ko‘p mezonli optimallashtirish, NSGA-II algoritmi, oqimning tashish qobiliyati, oqimning o‘zgaruvchanligi, rekonstruksiya va ekspluatatsiya xarajatlari.

МНОГОКРИТЕРИАЛЬНАЯ ОПТИМИЗАЦИОННАЯ МОДЕЛЬ РЕКОНСТРУКЦИИ ГРУНТОВЫХ КАНАЛОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ АЛГОРИТМА NSGA-II

Хазратов Алишер Нормуродович

Национальный исследовательский университет
«Ташкентский институт ирригации и сельскохозяйственной
механизации», Ташкент, Узбекистан.

Собиров Феруз Хориевич

Бухарский государственный технический университет,
Бухара, Узбекистан

Аннотация. В данной статье описывается модель многокритериальной оптимизации, разработанная для определения параметров реконструкции грунтовых ирригационных каналов. Модель включает расчёт гидравлических параметров потока на основе уравнения Шези–Маннинга, расчёт транспорта наносов с использованием формулы транспортирующей способности потока Энгелунда–Хансена, а также расчёт фильтрационных потерь с применением формулы фильтрации Павловского. Кроме того, модель рассчитывает затраты на реконструкцию и эксплуатацию для комбинаций параметров, сформированных с помощью ал-

горитма NSGA-II, на основе текущих ценовых показателей. В рамках оптимизационной модели применение алгоритма NSGA-II в среде Python позволяет формировать различные комбинации параметров и выбирать наиболее оптимальные решения, обеспечивающие минимальные суммарные затраты. Апробация модели выполнена на примере Аму-Бухарского машинного канала. Полученные результаты позволили определить оптимальный баланс между затратами на реконструкцию и эксплуатацию канала.

Ключевые слова: реконструкция грунтовых каналов, многокритериальная оптимизация, алгоритм NSGA-II, транспортирующая способность потока, изменчивость потока, затраты на реконструкцию и эксплуатацию.

MULTI-OBJECTIVE OPTIMIZATION MODEL FOR RECONSTRUCTION OF EARTHEN CANALS USING THE NSGA-II ALGORITHM

Khazratov Alisher Normurodovich

National Research University "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization", Tashkent, Uzbekistan.

Sobirov Feruz Khorievich

Bukhara State Technical University, Bukhara, Uzbekistan

Abstract. This article describes a multi-objective optimization model developed to determine the reconstruction parameters of earthen irrigation canals. The model incorporates hydraulic flow calculations using the Chezy–Manning equation, sediment transport calculations using the Engelund–Hansen sediment transport capacity formula, and filtration calculations using Pavlovskiy’s filtration formula. The model also calculates reconstruction and operation costs for combinations generated using the NSGA-II algorithm, based on current price levels. By applying the NSGA-II algorithm in the Python environment, the model generates parameter combinations and selects the most optimal parameters based on results that provide the minimum total cost. The model was tested in a case study of the Amu-Bukhara Machine Canal. The results made it possible to determine the optimal balance between reconstruction and operation costs.

Keywords: reconstruction of earthen canals, multi-objective optimization, NSGA-II algorithm, sediment transport capacity of flow, flow variability, reconstruction and operational costs.

Кирish. Kanal kesimining mustahkamligi kanaldan ishonchli foydalanishning asosiy omili bo‘lganligi uchun, kanallarni loyihalashda quyidagi talablarga amal qilish zarur: kanal yuvilmasligi va loyqa bosmasligi, kanal o‘zanidan minimum filtratsiya yo‘qotilishiga, ko‘ndalang kesimining umumiy mustahkamligi ta‘minlanganligi, maksimal suv o‘tkazish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur. Shuningdek, shaharsozlik normalari va qoidalari bo‘yicha kanallarning konstruksiyasi qurilish ishlarining maksimal ehtimoldagi mexanizatsiyasini va minimal ekspluatatsiya xarajatlarini ta‘minlashi zarur [1-4].

Hozirda global iqlim o‘zgarishi natijasida yog‘ingarchilik tarkibi o‘zgarib oxirgi yillarda qor o‘rniga yomg‘ir shaklidagi yog‘ingarchilik yog‘ishi sel-toshqinlarning ko‘proq yuz berishiga, daryo havzasida tuproq eroziyasi jarayonlarining jadallashuviga olib kelmoqda. Natijada daryodan olinadigan suv tarkibida muallaq oqiziq

konsentratsiyasi oshib borishi kuzatilmoqda [5, 6].

Bundan tashqari kanallarni loyihalashda oqim va oqiziq sarfining vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchanligi inobatga olinmaganligi kanalni va statik mustahkamlikka hisoblanganligi sababli Qarshi magistral kanali va Mirishkor kanali kabi yirik grunt o‘zanli kanallarni loyqa bosishi sababli suv o‘tkazish qobiliyati deyarli uchdan bir qismga kamaygan bo‘lsa Amu-Buxoro mashina kanalida o‘zan yuvilishi jarayonlari kuzatiladi, (1-2-rasmlar), [7-9].

Respublikamizdagi grunt o‘zanli kanallarning foydali ish koeffitsiyenti Suv xo‘jaligi vazirligi ma‘lumotlariga ko‘ra o‘rtacha 0,63 ni tashkil qiladi. Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining ma‘lumotlariga ko‘ra Amudaryodan Qashqadaryo viloyatiga 2024 yilda 2968,7 mln. m³ suv olingan bo‘lib, olingan suvning tannarxi 792,0 so‘mni tashkil qilgan. Ushbu olingan suvning 37 foizi irrigatsiya kanallarida yo‘qotiladi

deb hisoblanganda, 2024 yilda 1098,4 mln. m³ suv yo‘qotilgan. Ushbu yo‘qotilishning asosiy qismi filtratsiyaga yo‘qotilishini hisobga olsak bir yilda taxminan 1,0 mlrd. m³ suv yoki 792,0 mlrd. so‘m mablag‘ kanallardan filtratsiyaga yo‘qotilmoqda deb hisoblash mumkin [9].



1-rasm. Amu-Buxoro mashina kanali PK1202 dagi holat.



2-rasm. Qarshi magistral kanali PK700 dagi holat.

Respublikamizda “O‘zbekiston Respublikasi

suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi” qabul qilingan bo‘lib, hukumat Suv xo‘jaligi vazirligiga Konsepsiyada belgilangan ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish orqali 2030-yilga qadar sug‘orish tizimlarining foydali ish koeffitsiyentini 0,63 dan 0,73 gacha oshirish vazifasi yuklatilgan [10-12].

Mamlakatimizdagi yer o‘zanli kanallarini qurish va qayta qurish uchun kanallarni loyihalash jarayonida an’anaviy usulda o‘zgarmas gidravlik sharoitlar uchun kanalni statik mustahkamlikka hisoblanadi, oqim sarfi ekspluatatsiya davrida o‘zgaruvchanligini to‘liq hisobga olinmaydi. Kanalning gidravlik hisoblash va loyihalashda hisobga olinishi lozim bo‘lgan parametrlar juda ko‘p bo‘lgani uchun eng maqbul kanal parametrlarini qabul qilish loyihachi tomonidan optimallashtirish dasturlarisiz mexanik qabul qilinadi.

Metodi. Mualliflar tomonidan taklif etilayotgan ushbu model qurilish meyorlari va qoidalari talablaridan chiqmagan holda minimal yuvilishga va loyqa bosishga, minimum filtratsiya yo‘qotilishiga, ko‘ndalang kesimining umumiy mustahkamligi ta‘minlanganligi, maksimal suv o‘tkazish qobiliyatiga ega kanal o‘lchamlarini hisoblashga yo‘naltirilgan. Dastur Python dasturi yordamida NSGA-II optimallashtirish algoritmini qo‘llab ishlab chiqilgan.

NSGA-II, ya'ni Non-dominated Sorting Genetic Algorithm II, bu ko‘p maqsadli optimallashtirish muammolarini hal qilish uchun ishlatiladigan tobora keng qo‘llanilayotgan algoritm hisoblanadi. Ko‘p maqsadli optimallashtirish (Multi-objective Optimization - MOO), bu bir vaqtning o‘zida optimallashtirish kerak bo‘lgan bir nechta maqsad funksiyalarini o‘z ichiga olgan matematik optimallashtirish sohasi hisoblanadi. Ushbu algoritmi tabiiy evolyutsiyadan ilhomlangan aqlli qidiruv strategiyasi bo‘lib, odatda barcha maqsadlar uchun eng yaxshi bo‘lgan yagona "mukammal" yechim yo‘qligini inobatga olib, buning o‘rniga, eng yaxshi mumkin bo‘lgan parametrlar birikmasini ifodalovchi kompromis yechimlar to‘plamini qidiradi. NSGA-II ushbu kompromis yechimlar diagrammasini, ya'ni Pareto frontini qurishda juda yaxshi natija beradi [13-15].

Taklif etilayotgan grunt o‘zanli kanallarni rekonstruksiyalashning optimal parametrlarini

hisoblash modeli Python dasturida yozilgan bo‘lib quyidagi hisoblarni o‘z ichiga oladi.

1. Oqimning gidravlik parametrlari hisoblari;
2. Oqiziq transporti va filtratsiya hisoblari;
3. Iqtisodiy hisoblar;
4. NSGA-II optimallashtirish algoritmi

yordamida kombinatsiyalarni shakllantirish va maqsad funksiyalar asosida eng yaxshi kombinatsiyalarni tanlab olish.

Natijalar va muhokama. Taklif etilayotgan modelda hisoblarni bajarish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Quyidagi boshlang‘ich parametrlar foydalanuvchi tomonidan kiritiladi.

L_k – kanal uzunligi, metr;

m – kanal yon devorining qiyalik koeffitsiyenti;

N – hisobiy ekspluatatsiya davri, yil;

S_l – tuproq ishlari narxi, so‘m/m³;

b – kanal tubi kengligi metr;

d_{50} – muallaq oqiziq zarrasining o‘rtacha diametri, metr;

S_f – suv tannarxi, so‘m/m³;

h_q – kanal chuqurligi, metr.

i_0 – rekonstruksiya oldingi nishablik; hisobiy oqim gidrografi; oqimning tashuvchanlik qobiliyatini aniqlash usuli.

1-jadval

Qoplama turiga bog‘liq parametrlar

T/r	Qoplama turi	Maningning g‘adir budurlik koeffitsiyenti, n	Xizmat muddati, yil	Hisobiy davrdagi rekonstruksiya soni, dona.	Tanlangan qoplamaning narxi, so‘m/m ² .	Filtratsiya koeffitsiyenti, metr/santka
1.	gilli ekran (grunt aralash bentonit)	0,021	10 yil	2,5	27000	0,005
2.	beton-plyonkali monolit	0,015	25 yil	1	75000	8×10^{-7}
3.	geomembrana HDPE (Geoflax 2 mm)	0,011	25 yil	1	46500	8×10^{-10}

2. Joyning topografik va geologik sharoitlaridan kelib chiqib, kombinatsiyalar tuzish uchun ixtiyoriy xarakterga ega quyidagi parametrlar diapazoni kiritiladi:

- i – kanal tubi nishabligi i_{min} dan i_{max} gacha;

- qoplama turi va qoplama turidan kelib chiqib unga bog‘liq ravishda o‘zgaruvchi parametrlar quyiligi 1-jadvaldan qabul qilinadi.

3. NSGA-II algoritmi berilgan diapazondagi qoplama turi va kanal tubi nishabliklarining 300 ta nishab–qoplama kombinatsiyalarini shakllantiradi

va har bir avlod uchun yangi individlar (farzandlar) soni 300 ta bo‘lib jami $300+300 \cdot 300=90300$ ta kombinatsiyalar ishlatiladi. Kombinatsiyalar sonini generatsiyalar va avlodlar sonini o‘zgartirib o‘zgartirish mumkin.

4. Dastur har bir kombinatsiya uchun qoplama turi va unga mos filtratsiya koeffitsiyenti, g‘adirbudurlik koeffitsiyenti (misol uchun glina, beton, geomembrana), qoplamaning har bir metr kvadratini yotqizish harajatlari kabilarni tayinlaydi.

5. Dastur har bir kombinatsiya uchun oqim gidrografini inobatga olib tanlov usulida gidravlik parametrlarni hisoblaydi.

6. Har bir kombinatsiya oqimning tashuvchanlik qobiliyatini hamda oqiziqning uzluksizlik tenglamasini inobatga olib o‘zan deformatsiyasi hajmi hisoblanadi.

Yillik tuproq ishlari hajmi hisoblanadi, m³

$$V_l = 365 \cdot 86400 \cdot (Q_{s.in} - Q_{s.out}) \quad (1)$$

$Q_{s.in} = C_v Q$ – kanal uchastkasiga har oyda kirib kelayotgan oqiziq sarfi hisoblanadi, m³/s;

C_v – hajmiy konsentratsiya, o‘lchamsiz;

$Q_{s.out}$ – tanlangan usul bo‘yicha hisoblangan oqimning tashuvchanlik qobiliyati, m³/s.

7. Ho‘llangan perimetr va oqim chuqurligidan kelib chiqib butun espluatatsiya davri uchun filtratsiyaga yo‘qotilgan suv hajmini aniqlanadi.

$V_{f.oy}$ – bir oydagi filtratsiyaga yo‘qotiladigan

suv hajmi, m³

$$V_{f.oy} = Q_f \cdot \frac{L_k}{1000} \cdot 86400 \cdot T_{kunsoni} \quad (2)$$

Q_f – filtratsiyaga yo‘qotiladigan suv sarfi SHNQ 2.06.03-12 bo‘yicha N.N.Pavlovskiy formulasi bilan hisoblanadi, bir kilometr uchun m³/s, [1].

$$Q_f = 0,0116 \cdot (B + 2h)K_f \quad (3)$$

8. Rekonstruksiya keyingi kutilayotgan ekspluatatsiya davri N yil uchun ekspluatatsiya xarajatlarni hisoblanadi, so‘m

$$X_0 = N \cdot X_y \quad (4)$$

X_y – yillik ekspluatatsiya xarajatlari, so‘m;

$$X_y = V_l \cdot S_l + V_f \cdot S_f \quad (5)$$

9. Grunt o‘zanli kanalni rekonstruksiya qilish va uning hisobiy davrda ekspluatatsiya xarajatlari uchun ketgan umumiy xarajatlar quyidagicha aniqlanadi.

$$X_T = X_r + X_o \quad (6)$$

$X_r = M \cdot X_{r.b.m.}$ – rekonstruksiya xarajatlari,

so‘m.

10. $X_{r.b.m.}$ – bir martalik rekonstruksiya xarajatlari, so‘m.

$$X_{r.b.m.} = V_r S_l + X_q \quad (7)$$

Dastur bergan ushbu grafiklar kanalni rekonstruksiya qilish bo‘yicha optimallashtirishda ikki maqsadning o‘zaro muvozanatini ko‘rsatadi:

- hozirgi narx-navoda rekonstruksiya xarajatlari (x -o‘qi);
- hozirgi narx-navoda ekspluatatsiya xarajatlari (y -o‘qi), 1-3 rasmlar.


Amu-Buxoro mashina kanalining PK1185÷PK1195 qismi uchun loyihaviy kanal o‘lchamlari asosida dasturning amalda qo‘llanilishini ko‘rib chiqamiz:

- kanal uzunligi $L_k = 1000$ metr;
- kanal yon devorining qiyalik koeffitsiyenti $m = 3$;
- hisobiy davr $N = 25$ yil;
- S_l – tuproq ishlari narxi, so‘m/m³. $S_l = 23000$ so‘m/m³;
- b – kanal tubi kengligi $b = 20$ metr;
- o‘zan materiali zarracha o‘rtacha diametri tajriba ma‘lumotlariga asoslanib $d_{50} = 0,016 \cdot 10^{-3}$ metr;
- S_f – suv tannarxi, so‘m/m³, $S_f = 800.0$ so‘m/m³.
- kanal chuqurligi 4,95 metr.

2-jadval

Yil davomida oylar kesimida hisobiy suv sarfi va kunlar soni ko‘rsatkichlari


Oylar	Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May	Iyun	Iyul	Avqust	Sentabr	Oktabr	Novabr	Dekabr
Hisobiy suv sarfi Q_{m^3}	59,75	52,75	122,4	115,49	164,73	186,93	201,92	195,67	146,9	122,82	101,88	97,42
Bir oydagii kunlar soni T_{kuzumi}	31	28	31	30	31	30	31	31	30	31	30	31




3-rasm. Kanalni rekonstruksiya qilish bo‘yicha eng maqbul kombinatsiyalar Pareto fronti (ABMK kanali misolida).

Hisobiy suv sarfi oylar bo‘yicha Amu-Buxoro kanalining PK1185÷PK1195 qismi uchun 2021-yildagi sarflar asosida quyidagi qiymatda qabul qilinadi.

3-rasmdan ko‘rinib turibdiki, eng maqbul kombinatsiyalar Pareto frontida faqatgina beton qoplamali va gilli qoplamali kombinatsiyalar eng yaxshi natijalar sifatida saqlanib qoldi. Ko‘rishimiz mumkinki, gilli qoplamali kanal variantlarida rekonstruksiya xarajatlari beton qoplamali kanal variantlariga nisbatan kam. Shuningdek beton qoplamali kanal variantlarida filtratsiya yo‘qotishlari juda kamligi hisobiga ekspluatatsiya xarajatlari gilli qoplamali kanal variantlariga nisbatan kam ekanligi yaqqol ko‘rinib turibdi.



4-rasm. Beton-plyonka qoplama uchun Pareto fronti.



5-rasm. Gilli ekran qoplama uchun Pareto fronti.

Model shuningdek har bir qoplama turi uchun

ham eng maqbul kombinatsiyalarning Pareto frontini 4-5-rasmlardagi kabi chiqarib beradi. Loyihachi ushbu model o'z ichiga olmagan boshqa parameterlar misol uchun suv tannarxining, tuproq ishlarining kelajakdagi kutilayotgan o'zgarishi va joyning topografik sharoitlaridan kelib chiqqan holda ushbu kanalga bog'langan boshqa inshootlar va tarmoqlar ishining o'zgarishi kabi boshqa o'zgaruvchilarni hisobga olib ushbu eng maqbul kombinatsiyalarni qiyosiy tahlil qilib qaror qabul qilishi mumkin bo'ladi.

Shuningdek dastur bizga umumiy xarajatlar minimal bo'lgan 30 ta eng optimal kombinatsiyalarni jadval shaklida taqdim etdi. Unga ko'ra beton qoplamali kombinatsiyalar 1-26-o'rinlarni (nishablik 0.000062 dan 0.000066 gacha), gilli ekran esa 27-30-o'rinlarni (nishablik 0.000072-0.000073 atrofida) egalladi.

Xulosa. 1. Rekonstruksiya qilinadigan yer o'zanli kanallarning kam xarajat talab qiladigan optimal o'lchamlarini va qoplama turini qabul qilish bo'yicha hisoblash dasturi zamonaviy NSGA 2 optimallashtirish algoritmini qo'llab ishlab chiqildi.

2. Taklif qilingan dastur berilgan boshlang'ich parametrlar doirasidagi 90300 ta kombinatsiyalar uchun kanalni qurish va ekspluatatsiya qilish xarajatlarini hisoblab chiqib, eng kam umumiy xarajat talab qiladigan 30 ta eng yaxshi natijalarni taqdim qildi va enn maqbul kombinatsiyalar Pareto fronti diagrammasini qurib berdi. Model loyihalovchi muhandis uchun eng maqbul kombinatsiyalar parametrlari asosida natijalarni qiyosiy tahlil qilib eng yaxshi loyiha qarorlarini berish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] O'zbekiston Respublikasi. (2012). Shaharsozlik normalari va qoidalari: sug'orish tizimlari loyihalash normalari (Sh.N.Q 2.06.03-12). Toshkent.
- [2] Абальянц, С. Х. (1981). Устойчивые и переходные режимы в искусственных руслах. Гидрометеиздат.
- [3] Ибадзаде, Ю. А. (1983). Транспортирование воды в открытых каналах. Москва: Стройиздат.
- [4] Железняков, Г. В. (1981). Пропускная способность русел каналов и рек. Гидрометеиздат.
- [5] Eshev, S. S., Akramov, K. N., & Sobirova, E. A. (2025). Water management issues in the south of Uzbekistan: Challenges and strategic responses. *Lucrări Științifice Management Agricol*, 27(1), 169.
- [6] Эшев, С. С., Хазратов, А. Н., & Гайимназаров, И. Х. (2024). Проблемы эффективного использования водных ресурсов в южных регионах Узбекистана. *Universum: технические науки*, 5(4), 44–49.
- [7] Khazratov, A. N., & Sobirov, F. Ch. (2024). Study of side wall deformation in irrigation channels. *Miasto Przyszłości*, 715–722.
- [8] Hazratov, A. N. (2024). Grunt o'zanli kanallarning tabiat bilan hamohang parametrlarini qabul qilish zaruriyati. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 4(4), 488–497.
- [9] Sobirov, F. C., & Hazratov, A. N. (2024). Irrigatsiya kanallaridagi qirg'oq deformatsiyasini tadqiq qilish. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 4(10), 349–359.
- [10] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). PF-6024-son Farmon: O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi. <https://lex.uz/docs/-4892953>
- [11] Hazratov, A. N., & Sobirov, F. C. (2025). Ochiq o'zanli kanallarda yuvilish jarayonini baholash. In *Development of Specialized Higher Education and Science in the Conditions of Globalization: Problems and Opportunities* (International scientific conference, Tashkent).
- [12] Jorayeva, Z. X. (2025). Qashqadaryo havzasining gidrologik potentsiali va resurslardan samarali foydalanish yo'llari. *Экономика и социум*, 6-2(133), 361–371.

- [13] Sai, J. P., & Rao, B. N. (2022). Non-dominated sorting genetic algorithm II and particle swarm optimization for design optimization of shell and tube heat exchanger. *International Communications in Heat and Mass Transfer*, 132, 105896.
- [14] Deb, K., Pratap, A., Agarwal, S., & Meyarivan, T. (2002). A fast and elitist multiobjective genetic algorithm: NSGA-II. *IEEE Transactions on Evolutionary Computation*, 6(2), 182–197. <https://doi.org/10.1109/4235.996017>
- [15] Acerce, & Denizhan, B. (2025). Application of the non-dominated sorting genetic algorithm II (NSGA-II) in a two-echelon cold supply chain. *Systems*, 13(3), 206. <https://doi.org/10.3390/systems13030206>

SANOATDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR,
ILMIY-TEXNIK (ELEKTRON) JURNALI E-ISSN: 3030-3214
AXBOROT XATI

“Sanoatda raqamli texnologiyalar” (e-ISSN: 3030-3214)

(<https://portal.issn.org/resource/ISSN/3030-3214>) **ilmiy-texnik jurnali** ochiq jurnal hisoblanib, mazkur jurnalning vazifasi ilm-fan taraqqiyotining modellashuvi, ta’limning yutuqlari va istiqbollarini, dolzarb muammolari va ularning yechimlarini, shuningdek, ishlab-chiqarish va ta’limning modernizatsiyalashuvi bosqichini yoritib borishdir. “Sanoatda raqamli texnologiyalar” ilmiy-texnik jurnalining maqsadi belgilangan soha mutaxassislar va olimlarning tadqiqotlari va innovatsiyalari to’g’risidagi nashrlarini jamoatchilikka xabardor qilish, yosh avlodning fan va ta’lim sohasidagi qiziqishlarini oshirish va ilmiy konsepsiyalarini bayon etishdir.

Jurnalga: **05.00.00-TEXNIKA FANLARI, 04.00.00-GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI, 02.00.00-KIMYO FANLARI** ixtisosliklari bo’yicha ilmiy maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalga maqolalar: **o‘zbek, rus va ingliz** tillarida qabul qilinadi.

“Sanoatda raqamli texnologiyalar” ilmiy-texnik jurnali quyidagi yo‘nalishlar bo’yicha maqolalar qabul qilinadi:

- Kon-metallurgiya va ishlab chiqarish sanoati;
- Geologiya va neft-gaz sanoati;
- Kimyoviy texnologiya va qurilish;
- Yengil sanoat tarmoqlari;
- Ekologiya, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi.

“Sanoatda raqamli texnologiyalar” ilmiy-texnik jurnaliga chop qilingan har bir maqolaga raqamli identifikator (Digital Object Identifier <https://www.doi.org>) beriladi.

Jurnal quyidagi bazalarga indeksatsiya qilingan:

1. CYBERLENINKA — ilmiy elektron kutubxonasiga (<https://cyberleninka.ru/journal/n/sanoatda-raqamli-texnologiyalar?i=1131974>)
2. eLIBRARY.RU – Ilmiy elektron kutubxonasiga (https://www.elibrary.ru/title_about_new.asp?langid=1&id=81309)
3. ResearchBib – ilmiy elektron kutubxonasiga (<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-3214>)
4. SLIB.UZ – Ilmiy elektron kutubxonasiga (<https://slib.uz/uz/journal/view?id=285>)
5. Har bir maqola Google akademiyasiga indeksatsiya qilinadi (<https://scholar.google.com/citations?user=mzU3-6QAAAAJ&hl=en&authuser=3>)
6. Index Copernicus – ilmiy jurnallar bazasi (<https://journals.indexcopernicus.com/search/details?id=129473>)

Jurnal ta’rischilari:

- 1. Qarshi davlat texnika universiteti;**
- 2. “Olmaliq kon metallurgiya kombinati” AJ;**

“Sanoatda raqamli texnologiyalar” ilmiy-texnik jurnali O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan ro‘yxatga olingan 26.07.2023 yildagi №106679-sonli guvohnoma. Turkum nashrlarning chiqish ma’lumotlarini GOST 7.4-95 “Nashrlar. Chiqish ma’lumotlari” hamda GOST 7.56-2002 «Xalqaro standart turkum raqami» davlatlararo standartlar talablari asosida bo‘lishini to‘liq ta’minlash maqsadida, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi bilan 2023 yil 12-dekabrda Davriy nashrlarga ISSN xalqaro standart raqami ISSN: 3030-3214 raqam berilgan.

MAQOLALARGA QO‘YILGAN TALABLAR

Maqolaning standart hajmi: 4-15 betli matn Word matn muharririda, o‘zbek, rus yoki ingliz tilida.

Maqola mualliflari 4 nafardan ko‘p bo‘lmasligi kerak. Mualliflarning har biri uchun to‘liq ma‘lumotlar ko‘rsatilishi lozim (ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni, shahar va davlati)

Maqolada shartli ravishda **kirish, Adabiyot tahlili va metodi, tadqiqot natijalari va muhokama, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan** iborat bo‘lishi lozim.

Annotatsiya, kalit so‘zlar Annotatsiya berilgan shakl va ko‘rinishda bo‘lishi lozim. Iltimos, bu shaklni o‘zgartirmang. Annotatsiya 100-250 so‘zdan hamda 4-20 kalit so‘zlardan iborat bo‘lishi lozim. Annotatsiya (ingliz tilida ABSTRACT) va kalit so‘zlar (keywords) xalqaro tizimlarda indekslanishi uchun (3 ta tilda) o‘zbek, rus va ingliz tilida ham berilishi zarur. Kalit so‘zlar 4-20 so‘zdan iborat maqoladagi asosiy urg‘u olgan atamalarni yozish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidagi adabiyotlar oxirgi 10 yil ichidagi adabiyotlar ko‘rsatilishi tavsiya etiladi.

O‘lchov birliklari va belgilar SI xalqaro birliklar tizimida ko‘rsatilishi kerak.

Maqola materiallarining yuqoridagi talablarga mos kelmasligi nashrni rad etish uchun sabab bo‘lishi mumkin.

Maqola matniga qo‘yilgan talablar:

Sarlavha ko‘rinishi: Shrift “Times New Roman”, o‘lchami 14 pt, bosh harfdan, markazdan, chiziqcha yo‘q, qalin. Maqola sarlavhasi tepasida (1.5 intervaldan keyin), o‘ng burchakda - mualliflarning ismi va shariflari, odatiy shrift, o‘lchami 14 pt; chap burchakda - UO‘K indeksi;

Maqola sarlavhasi ostida - mualliflarning ismi va sharifi - qalin shriftda; ish joyi, lavozimi ilmiy unvoni, tashkilot nomi – 10 pt. o‘lchamdagi odatiy shriftda va 3x4 rasmi ko‘rsatilishi lozim.

Annotatsiya ko‘rinishi: “Times New Roman” shriftlar to‘plami, 14 pt. o‘lchamida, (1 intervaldan).

Kalit so‘zlar ko‘rinishi: “Times New Roman” shriftlar to‘plami, 14 pt. o‘lchamda.

Asosiy matnga talablar: Shrift “Times New Roman”, 14 pt., qator oralig‘i 1, xat boshi – 1 sm, sahifa chekkalari – chap va o‘ng – 1.5 sm; yuqori va pastki – 1.5 sm.

Jadval ko‘rinishi: Jadval nomi - “Times New Roman”, 14 pt oralig‘ida, qalin, markazda, jadvaldagi matn - “Times New Roman”, 10-14 pt., odatiy.

Formula kiritish talablar: Formulalar va maxsus belgilar faqat «Microsoft Equation-3» muharririda yoziladi. Formulalar chap tomonda joylashtiriladi.

Rasmlarga talablar: Rasmlar aniq ko‘ringan bo‘lishi kerak, chop etishga tayyor, matnga qo‘shilishi va GIF, BMP, JPEG formatida.

Adabiyotlar ro‘yxatiga talablar: “Times New Roman”, 14 pt o‘lchamda, kursiv, 4-30 ta (25% o‘z ishlariga havola), oxirgi 10 yilda nashr etilgan adabiyotlar bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Adabiyotga havola keltirish raqami kvadrat qavs ichida, matnning tegishli joyida beriladi. Adabiyotlarga to‘g‘ri havola keltirish uchun www.snoska.info saytidan yoki <https://kursach37.com/oformlenie-spiska-literatury-po-gost/> veb resurlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Rasmlar JPEG, TIF, EPS yoki PSD formatlarida yetarlicha kengayishda (tiniqligi) (1:1 masshtabda kamida 300 dpi) alohida grafik fayllar sifatida yozib olinishi lozim.

Bog‘lanish uchun ma‘lumotlar, Har bir muallifning 3x4 rasmi, mualliflar ismi shariflari (to‘liq), ish joyi va lavozimi va elektron pochta manzili, ORCID (orcid.org tomonida ro‘yxatdan o‘tgan ID raqam ko‘rsatish tavsiya etiladi), Science ID (id.ilmiy.uz tomonida ro‘yxatdan o‘tgan ID raqam ko‘rsatish majburiy) va SPIN (elibrary.ru tomonida ro‘yxatdan o‘tgan ID raqam ko‘rsatish tavsiya etiladi) raqamlar va bog‘lanish uchun telefon raqamlari kiritilishi shart. **(Maqolaga materialni ochiq matbuotda nashr etilish imkoniyati to‘g‘risida ekspert xulosasi ilova qilinishi mumkin).**

Izoh: Maqolaning orginalligini aniqlangan (antiplagiat) hisoboti taqdim etish shart (originallik darajasi 80 foiz va undan yuqori bo‘lganda va yuqoridagi talablarga javob berganda, gramatik xatolar bo‘lmaganda maqola qabul qilinadi). Antiplagiatdan o‘tkazish manzili: <https://antiplag.uz/>

**ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ,
НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКИЙ (ЭЛЕКТРОННЫЙ) ЖУРНАЛ E-ISSN: 3030-3214
ИНФОРМАЦИОННОЕ ПИСЬМО**

Научно-технический журнал «Цифровые технологии в промышленности» (e-ISSN: 3030-3214 (<https://portal.issn.org/resource/ISSN/3030-3214>)) является открытым журналом, задачей которого является освещение моделирования прогресса науки, достижений и перспектив образования, актуальных проблем и их решений, а также этапов модернизации производства и образования. Цель научно-технического журнала «Цифровые технологии в промышленности» заключается в информировании специалистов в данной области, публикации исследований и инноваций ученых для общественности, повышении интереса молодого поколения к науке и образованию и изложению научных концепций.

В журнал принимаются научные статьи: **05.00.00-ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ, 04.00.00-ГЕОЛОГИЯ-МИНЕРАЛОГИЯ, 02.00.00-ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ.**

Статьи в журнал принимаются: **узбекском, русском и английском языках.**

Научно-технический журнал «Цифровые технологии в промышленности» принимает статьи по следующим направлениям:

- Горно-металлургическая и обрабатывающая промышленность;
- Геология и нефтегазовая промышленность;
- Химическая технология и строительство;
- Легкая промышленность;
- Экология, охрана труда и техническая безопасность.

Цифровой идентификатор объекта (Digital Object Identifier <https://www.doi.org>) присваивается каждой статье, опубликованной в научно-техническом журнале «Цифровые технологии в промышленности».

Журнал индексируется в следующих базах данных:

1. КИБЕРЛЕНИНКА – научная электронная библиотека (<https://cyberleninka.ru/journal/n/sanoatda-raqamli-texnologiyalar?i=1131974>)
2. eLIBRARY.RU – научная электронная библиотека (https://www.elibrary.ru/title_about_new.asp?langid=1&id=81309)
3. ResearchBib – научная электронная библиотека (<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-3214>)
4. SLIB.UZ – научная электронная библиотека (<https://slib.uz/uz/journal/view?id=285>)
5. Каждая статья индексируется в Google Academics. (<https://scholar.google.com/citations?user=mzU3-6QAAAAAJ&hl=en&authuser=3>)
6. Index Copernicus – база данных научных журналов (<https://journals.indexcopernicus.com/search/details?id=129473>)

Учредители журнала:

1. Каршинский государственный технический университет;
2. АО «Алмалыкский горно-металлургический комбинат»;

Научно-технический журнал «Цифровые технологии в промышленности» зарегистрирован Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан, свидетельство №106679 от 26.07.2023. Выходные данные серии публикаций предусмотрены ГОСТ 7.4-95 «Издания. В целях полного обеспечения соответствия «Выходной информации» и ГОСТ 7.56-2002 «Международный стандартный серийный номер» требованиям международных стандартов, 12 декабря 2023 года в Национальной библиотеке Узбекистана имени Алишера Навои был объявлен международный ISSN. Периодическим изданиям присвоен стандартный номер ISSN: 3030-3214.

ТРЕБОВАНИЯ К СТАТЬЯМ

Стандартный размер статьи: Текст объемом 4-15 страниц в текстовом редакторе Word на узбекском, русском или английском языках.

Авторов статьи должно быть не более 4. Необходимо предоставить полную информацию по каждому из авторов (место работы, должность, ученая степень, ученое звание, город и страна).

Статья должна содержать условное **введение, анализ и метод литературы, результаты исследования и их обсуждение, выводы и предложения, а также список использованной литературы.**

Аннотация, ключевые слова Аннотация должна быть в заданной форме и формате. Пожалуйста, не изменяйте эту форму. Аннотация должна состоять из 100-250 слов и 4-20 ключевых слов. Аннотация (ABSTRACT на английском языке) и ключевые слова (keywords) должны быть предоставлены на узбекском, русском и английском языках (на 3-х языках) для индексации в международных системах. Ключевые слова. Термины, получившие основной акцент в статье, желательно писать в объеме 4-20 слов.

Единицы измерения и символы должны быть отображены в Международной системе единиц SI.

Несоответствие материалов статьи указанным требованиям может стать основанием для отказа в публикации.

Требования к тексту статьи:

Просмотр названия: Шрифт — Times New Roman, размер 14 пт, прописной, центрированный, без подчеркивания, жирный. Над названием статьи (через 1,5 интервала) в правом углу — фамилия и инициалы авторов, шрифт стандартный, размер 14 пт; в левом углу – индекс УДК;

Под названием статьи - имя и фамилия авторов – жирным шрифтом; место работы, ученое звание, название организации – 10 пт. должно отображаться шрифтом стандартного размера и изображением 3x4.

Абстрактный вид: Набор шрифтов Times New Roman, 14 пт. в размере, (от 1 интервала).

Просмотр ключевых слов: Набор шрифтов Times New Roman, 14 пт. по размеру.

Требования к основному тексту: Шрифт «Times New Roman», 14 пт., межстрочный интервал 1, шапка – 1 см, поля страницы – левое и правое – 1,5 см; верх и низ – 1,5 см.

Вид таблицы: Название таблицы – «Times New Roman», интервал 14 пт, жирный, по центру, текст таблицы – «Times New Roman», 10–14 пт, обычный.

Требования к вводу формулы: Формулы и специальные символы пишутся только в редакторе «Microsoft Equation-3». Формулы располагаются слева.

Требования к фотографиям: Изображения должны быть четко видны, готовы к печати, содержать текст и иметь формат GIF, BMP, JPEG.

Требования к списку литературы: Times New Roman, 14 пт, курсив, 4-30 (25% ссылки на собственные работы), желательны публикации за последние 10 лет.

Номера ссылок даются в квадратных скобках в соответствующем месте текста. Для корректной ссылки на литературу рекомендуется использовать сайт www.snoska.info или <https://kursach37.com/oformlenie-spiska-literatury-po-gost/>.

Контактная информация: Фотография 3x4 каждого автора, ФИО автора (полностью), место работы и должность, адрес электронной почты, ORCID (рекомендуется указывать идентификационный номер, зарегистрированный на orcid.org), Science ID (обязательно указать ID-номер, зарегистрированный на стороне id.ilmiy.uz) и SPIN (elibrary.ru рекомендуется указывать идентификационный номер). зарегистрированы на стороне) необходимо вводить номера и контактные телефоны. *(К статье может быть приложено экспертное заключение о возможности публикации материала в открытой печати).*

Примечание: Необходимо предоставить отчет, подтверждающий оригинальность статьи (антиплагиат) (статья принимается при уровне оригинальности 80% и выше и соответствии вышеуказанным требованиям, а также отсутствии грамматических ошибок). Адрес антиплагиата: <https://antiplag.uz/>

**DIGITAL TECHNOLOGIES IN INDUSTRY, SCIENTIFIC-TECHNICAL (ELECTRONIC)
JOURNAL E-ISSN: 3030-3214 INFORMATION LETTER**

The scientific and technical journal “Digital Technologies in Industry” (e-ISSN: 3030-3214 (<https://portal.issn.org/resource/ISSN/3030-3214>)) is an open journal whose task is to cover the modeling of scientific progress, achievements and prospects of education, current problems and their solutions, as well as stages of modernization of production and education. The purpose of the scientific and technical journal “Digital Technologies in Industry” is to inform specialists in the field, publish research and innovations of scientists for the public, increase the interest of the younger generation in science and education and present scientific concepts.

The journal accepts scientific articles: **05.00.00-TECHNICAL SCIENCES, 04.00.00-GEOLOGY-MINERALOGY, 02.00.00-CHEMICAL SCIENCES.**

Articles for the journal are accepted: **Uzbek, Russian and English** languages.

The scientific and technical journal “Digital Technologies in Industry” accepts articles in the following areas:

- Mining, metallurgical and manufacturing industries;
- Geology and oil and gas industry;
- Chemical technology and construction;
- Light industry;
- Ecology, labor protection and technical safety.

A Digital Object Identifier (<https://www.doi.org>) is assigned to each article published in the scientific and technical journal “Digital Technologies in Industry”.

The journal is indexed in the following databases:

1. CYBERLENINKA – scientific electronic library
(<https://cyberleninka.ru/journal/n/sanoatda-raqamli-texnologiyalar?i=1131974>)
2. eLIBRARY.RU – scientific electronic library
(https://www.elibrary.ru/title_about_new.asp?langid=1&id=81309)
3. ResearchBib – scientific electronic library
(<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-3214>)
4. SLIB.UZ – scientific electronic library
(<https://slib.uz/uz/journal/view?id=285>)
5. Each article is indexed in Google Academics.
(<https://scholar.google.com/citations?user=mzU3-6QAAAAJ&hl=en&authuser=3>)
6. Index Copernicus – scientific journal database
(<https://journals.indexcopernicus.com/search/details?id=129473>)

The founders of the journal:

- 1. Karshi State Technical University;**
- 2. JSC Almalyk Mining and Metallurgical Combine;**

The scientific and technical journal “Digital Technologies in Industry” is registered by the Agency of Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan, certificate No. 106679 dated July 26, 2023. The output data of the series of publications is provided for by GOST 7.4-95 “Publications. In order to fully ensure compliance of the “Output Information” and GOST 7.56-2002 “International Standard Serial Number” with the requirements of international standards, an international ISSN was announced on December 12, 2023 at the National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi. Periodicals are assigned a standard ISSN number: 3030-3214.

REQUIREMENTS FOR ARTICLES

Standard article size: Text of 4-15 pages in the Word text editor in Uzbek, Russian or English.

There should be no more than 4 authors of the article. It is necessary to provide complete information on each of the authors (place of work, position, academic degree, academic title, city and country).

The article should contain a conventional **introduction, analysis and method of literature, research results and their discussion, conclusions and suggestions, as well as a list of references.**

Abstract, keywords: The abstract must be in the specified form and format. Please do not change this form. The abstract should consist of 100-250 words and 4-20 keywords. Abstract (ABSTRACT in English) and keywords must be provided in Uzbek, Russian and English (in 3 languages) for indexing in international systems. Keywords. It is advisable to write terms that receive the main emphasis in the article in 4-20 words.

Units and symbols must be displayed in the SI International System of Units.

Failure to comply with the specified requirements may be grounds for refusal to publish.

Requirements for the article text:

View title: Font: Times New Roman, size 14 pt, uppercase, centered, no underlining, bold. Above the title of the article (with 1.5 intervals) in the right corner - the surname and initials of the authors, standard font, size 14 pt; in the left corner - UDC index;

Under the title of the article - the name and surname of the authors - in bold; place of work, academic title, name of organization – 10 pt. should be displayed in a standard size font and a 3x4 image.

Abstract view: Font set Times New Roman, 14 pt. in size, (from 1 interval).

View keywords: Font set Times New Roman, 14 pt. to size.

Requirements for the main text: Font “Times New Roman”, 14 pt., line spacing 1, header – 1 cm, page margins – left and right – 1.5 cm; top and bottom – 1.5 cm.

Table view: Table name – “Times New Roman”, spacing 14 pt, bold, centered, table text – “Times New Roman”, 10–14 pt, regular.

Requirements for entering a formula: Formulas and special characters are written only in the Microsoft Equation-3 editor. Formulas are located on the left.

Photo requirements: Images must be clearly visible, print ready, contain text and be in GIF, BMP, JPEG format.

Requirements for the list of references: Times New Roman, 14 pt, italics, 4-30 (25% references to own works), publications within the last 10 years are desirable.

Reference numbers are given in square brackets in the appropriate place in the text. For correct reference to literature, it is recommended to use the website www.snoska.info or <https://kursach37.com/oformlenie-spiska-literatury-po-gost/>.

Contact Information: 3x4 photo of each author, full name of the author, place of work and position, email address, ORCID (it is recommended to indicate the identification number registered on orcid.org), Science ID (indication of the ID number registered on the id.ilmiy.uz side is mandatory) and SPIN (elibrary.ru it is recommended to indicate the identification number). registered externally), you must enter numbers and contact numbers (*An expert opinion on the possibility of publishing the material in the open press may be attached to the article*).

Note: It is necessary to provide a report confirming the originality of the article (anti-plagiarism) (the article is accepted if the originality level is 80% or higher and meets the above requirements, as well as the absence of grammatical errors). Anti-plagiarism address: <https://antiplag.uz/>